



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



“MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMINI SAMARALI
BOSHQARISHNING DEMOGRAFIK OMILLARI” NOMLI ILMIY-AMALIY

KONFERENSIYA TO'PLAMI

SENTABR, 2023



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA
O‘RGATISH MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI**



**“Maktabgacha va maktab ta’limini samarali boshqarishning
demografik omillari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya
to‘plami**

(2023-yil 20-sentabr)

Toshkent-2023

“Maktabgacha va maktab ta’limini samarali boshqarishning demografik omillari”
Toshkent: - 2023-y. 232 bet.

Tahrir hay’ati raisi: A.A.Ismailov – A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti rektori.

Tahrir hay’ati: A.Baxramov, M.Ergasheva, A.Ibragimov, X.Botirov, M.Badalova, I.Mexmonov.

Taqrizchilar:

B.Sultonov – “TIMQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Iqtisodiyot kafedrasida professori, iqtisod fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim.

G‘.Otamurodov – “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasini joriy etish va rivojlantirish ilmiy-tadqiqot bo‘limi yetakchi ilmiy xodimi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Nashr uchun mas’ul: A.G.Ibragimov – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti “Ta’lim menejmenti va statistikasi” ilmiy-tadqiqot bo‘limi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Dizayn va sahifalash: I.Muradov, E.Xudoyberdiyev, S.Normatov.

⚠ Matnlarda foydalanilgan ilova, jadval hamda ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar shaxsan javobgardirlar.

A.Avloniy nomidagi MTI Ilmiy kengash nashrga tavsiya etgan (2023-yil)

© A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti. 2023-yil.

MUNDARIJA

Kirish	10
--------------	----

YALPI MAJLIS

A.A.Ismoilov – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rektori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Demografiyaning o‘zgarish sabablari va uning ijtimoiy sohaga ta’siri..... 12

I.H.M.H.Elhadary – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti xorijiy maslahatchisi.

Ta’lim tizimini samarali boshqarishda demografik omillarini belgilashning jahon tajribasi 17

A.A.Baxramov – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti prorektori, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.

Demografiyaning o‘zgarishi jamiyat tamadduni va insonni rivojlantirish omili sifatida 22

A.G.Ibragimov – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti “Ta’lim menejmenti va statistikasi” ilmiy-tadqiqot bo‘limi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Demografiya jamiyat o‘zgarishining asosi sifatida 27

I SHO‘BA

MAKTABLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHDA DEMOGRAFIK OMILLARNING AHAMIYATI.

Q.G.Berdiqulov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi boshqarmasi boshlig‘i.

D.D.Yeshniyazov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi bo‘lim boshlig‘i.

Maktabgacha va maktab ta’limini samarali boshqarishda aholini ro‘yxatga olishning ahamiyati 33

M.B.Axmedov – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.

F.M.Xolmatova – Toshkent shahar Uchtepa tumani 238-maktab direktor o‘rinbosari.

Maktabda tasviriy san’at to‘garaklarni tashkil etish orqali o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish 37

N.T.Jo‘rayeva – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.

H.To‘lanboyeva – Nizomiy nomidagi TDPU talabasi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlik va ta'limni boshqarishining metodi va vositalari	41
Sh.I.Nizamova – PERFECT universiteti dotsenti.	
Ta'lim muassasalarini boshqarishda jahon tajribasi	44
I.T.Mexmonov – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i.	
Maktab ta'limini kreativ boshqaruv asosida tashkil qilishning mohiyati, nazariyasi va istiqbollari	48
I.T.Muradov – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi.	
Maktablar faoliyatini tashkil etish va boshqarishda demografik omillarning ahamiyati hamda rivojlantirish istiqbollari	55
I.T.Muradov – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi.	
Maktab ta'limi statistikasini shakllantirishda demografik omillarning o'rni va roli.....	59
M.R.Xalimov – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti mustaqil-tadqiqotchisi.	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida inson resurslarini boshqarish tizimiga zamonaviy yondashuvlar	63
M.R.Xalimov – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti mustaqil-tadqiqotchisi.	
Inson resurslarini boshqarish va maktab jamoasini shakllantirishda xorij tajribasi.....	67
O.Tursunova – Namangan shahar 26-sonli maktab o'qituvchisi.	
Maktabgacha va maktab ta'limini samarali boshqarishning demokratik omillarning ahamiyati	73
E.U.Xudoyberdiyev – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti.	
Umumta'lim muassasalarini boshqarishda strategiyadan foydalanish muammo sifatida	76
E.U.Xudoyberdiyev – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti.	
Maktablarda boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning nazariy jihatlari	80
N.X.Umarova – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti.	
Umumta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishda rahbar kommunikativ kompetentligi dolzarb muammo sifatida	85
A.T.Usmonova – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti.	
Maktab boshqaruvida demografik omillar: muammo va yechim	90
D.R.Norqulova – Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Qarshi filiali talabasi.	
Demografik omillarini hisobga olib maktablarning ta'lim dasturlari va yangi darsliklarni yaratish istiqbollari	97

II SHO‘BA

DEMOGRAFIK HOLATNI O‘RGANISH VA TAHLIL QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

- N.T.Jo‘rayeva* – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.
M.Axunova – Nizomiy nomidagi TDPU talabasi.
Maktabgacha ta’lim tizimini samaradorligini oshirishda STEAM texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati 100
- N.X. Talipov* – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.
D.Po‘latova – Nizomiy nomidagi TDPU magistranti.
Talabalarning badiiy ta’lim orqali ijodiy faoliyatini rivojlantirishning kreativ texnologiyalari 103
- C.C.Эгамбердиев* – НИИ педагогических наук им. Т. Н. Кары Ниязи, докторант.
Подготовка педагогических кадров в условиях информатизации образования..... 107
- S.A.Normatov* – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti.
O‘quv jarayonida interaktiv dasturlardan foydalanish 111
- N.X.Umarova* – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti.
N.X.Xasanova – Samarqand shahar 29-umumta’lim maktab o‘qituvchisi.
Tarbiya fanini o‘qitishda pedagog kasbiy kompetentligining rivojlanishida raqamli texnologiyalarning o‘rni 116
- Sh.Nuraliyev* – Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi.
Yoshlarni axborot xurujlaridan himoyalashda ma’naviy tarbiyaning roli 121
- O‘.J.Suyunova* – Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Qarshi filiali talabasi.
Demografik holatni o‘rganish va tahlil qilishda raqamli texnologiyalaridan foydalanish 123

III SHO‘BA

TA‘LIM VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TASHKIL ETISHDA DEMOGRAFIK OMILLARNING O‘RNI VA ROLI.

- M.B.Axmedov* – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.
To‘garaklarda o‘quvchilarga naqqoshlik san‘atini o‘rgatishda interfaol metodlardan foydalanish 127
- M.B.Axmedov* – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.

<i>Yu.Saparbayeva</i> – A.Avloniy nomidagi MT Instituti tasviriy san’at va chizmachilik faninini o‘qitish huquqini berish bo‘yicha kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash kursi tinglovchisi.	
Qadimgi sharq xalqlarining yosh avlodga hunar o‘rgatishning metodik asoslari.....	131
<i>N.T.Jo‘rayeva</i> – Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrası (PhD) v.b.dotsenti.	
<i>O.Lutfullayeva</i> – Nizomiy nomidagi TDPU talabasi.	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning samarali usullari.....	134
<i>N.T.Jo‘rayeva</i> – Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrası (PhD) v.b.dotsenti.	
<i>T.Telmanova</i> – Nizomiy nomidagi TDPU talabasi.	
Tarbiyalanuvchi portfoliosi va mttda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvlar	138
<i>N.T.Jo‘rayeva</i> – Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrası (PhD) v.b.dotsenti.	
<i>M.Ubaydullayeva</i> – Nizomiy nomidagi TDPU talabasi.	
STEAM ta’lim texnologiyasidan maktabgacha ta’lim-tarbiya tizimida foydalanish imkoniyatlari	141
<i>X.X.Tajiboyeva</i> – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.	
Mamlakat rivojida STEAM ta’limini joriy etishni demografik omillarga ta’siri.....	144
<i>N.Talipov</i> – Nizomiy nomidagi TDPU, Tasviriy san’at kafedrası dotsenti.	
<i>D.Egamberdiyeva</i> – Nizomiy nomidagi TDPU magistranti.	
<i>D.Orifjonova</i> – Nizomiy nomidagi TDPU talabasi.	
Talabalarni manzara kompozitsiyasini ishlashga o‘rgatishning ayrim masalalari.....	148
<i>X.T.Xashimova</i> – Farg‘ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi.	
Shaxs faoliyatida tabiiy fanlar bo‘yicha integratsiyani tashkil etishning ahamiyati.....	152
<i>Г.Ж.Эшнарлова</i> – Ўзбекистон-Финляндия педагогика институти ўқитувчиси.	
Мактабга тайёрлов гуруҳларида китобхонлик кўникмаларини шакллантиришда демографик омилларнинг аҳамияти	155
<i>N.B.Valiyeva</i> – Asaka tuman 12-umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.	
Boshlang‘ich ta’lim darslarida o‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatishning ahamiyati	160

F.A.Muradova – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti. Umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini “LESSON-STUDY” metodikasi orqali takomillashtirishda demografik omillarning o‘rni va roli	162
A.B.Elibayev – Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi. Fizika fanini o‘qitishda demografik omillarni hisobga olish	167
M.M.Abduvaliyeva – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti magistranti. Значение дошкольного и начального образования в обеспечении образовательной интеграции	171
J.B.Botirov – “Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar” universiteti Qarshi filiali talabasi. Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etishda demografik omillarning o‘rni va roli	175
S.A.Kamolova – Navoiy Davlat pedagogika instituti magistranti. Yangi O‘zbekistonda ta’lim va ishlab chiqarishni o‘zaro bog‘liqlikda tashkil etishda demografik omillarning tutgan o‘rni	177
A.B.Nuriddinova – Namangan davlat universiteti talabasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy ongini oshirishda demografik omillarning ahamiyati	179

IV SHO‘BA

PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISHDA DEMOGRAFIK OMILLARNING BOG‘LIQLIGI.

S.F.Abdirasilov – Nizomiy nomidagi TDPU professori. Tasviriy san’at darslarida interfaol o‘qitish vositalaridan foydalanish	184
M.B.Axmedov – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti. Tasviriy san’at faninini o‘qitish huquqini berish bo‘yicha kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash kursi tinglovchiga to‘garaklar faoliyatini o‘rgatishning ahamiyat.....	189
Z.M.Mamatqulova – Farg‘ona viloyati PYaMO‘MM dotsenti. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda mustaqil mutola va demografik omillar	193
N.A.Valixanova – Andijon viloyati PYaMO‘MM dotsenti. Demografik o‘zgarishlarning o‘qituvchi kasbiga qo‘yadigan talablari	196
G.M.Bekmuradova – O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi huzuridagi Paralimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti ilmiy-metodik bo‘limi boshlig‘i.	

Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda samaradorlikni baholash mexanizmlari.....	199
F.A.Muradova – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti.	
Pedagog kadrlarni tayyorlashda “LESSON-STUDY” metodikasini o‘rni va uning rivojlanish tarixi	202
K.J.Joldasova – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti.	
Pedagog kadrlarni malakasini oshirishda formal va informal ta’limdan foydalanishning dolzarbligi	207
G.S.Rahmonova – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti.	
Xorijda maktab o‘qituvchilarining masofaviy ta’limdan foydalanishidagi to‘siqlar.....	211
G.Z.Rahmonova – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti.	
Fizikani o‘qitishda zamonaviy metodlarning ahamiyati	214
M.I.To‘xtamatova – Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi metodik xizmat ko‘rsatish bo‘lim metodisti.	
Kreativ fikrlash orqali kasbiy salohiyatni yanada oshirishga demografiyaning ta’siri.....	218
D.Xabibulloyev – Samarqand viloyati PYaMO‘MM o‘qituvchisi.	
Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda demografik omillarning bog‘liqligi	222
O.M.Bekmurodova – Texnologiya fani o‘qituvchisi.	
Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining malaka oshirish jarayonida boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish modellari	224
D.A.Jo‘rayeva – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali magistranti.	
Foydalanuvchilar axborot ehtiyojlarini aniqlash usullarida demografik holatning zaruriyati	229

KIRISH

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan islohotlar insonni rivojlantirish maqsadiga yo‘naltirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev O‘zbekiston yoshlari forumida, “Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda sizlarning g‘ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko‘nglim tog‘day ko‘tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida qadrlayman”¹-deb, alohida ta’kidlab o‘tdi.

Abu Ali ibn Sino: “inson boshqalarning ehtiyojlarini qondirishi sababligina inson bo‘ladi, boshqalar ham shunday yo‘l tutadi. Birov ekin ekadi, boshqa odam non yopadi, uchinchisi kiyim tikadi, to‘rtinchisi igna yasaydi va hamma bir–birining ehtiyojini qondirish uchun to‘planadi”² deb ko‘rsatgan.

Darhaqiqat, inson omilisiz hech bir taraqqiyot yo‘q. Shu jumladan ta’lim tizimi rivojlanishida ham inson omili ya’ni demografik omillar asosiy rol o‘ynaydi.

Ma’lumki, demografiyaning maqsadi muayyan hudud, mamlakat, dunyo aholisi va millatning takror barpo bo‘lishi jarayoni va omillarini o‘rganish, muammolarni belgilab, yechimlarni aniqlash va istiqbolini ko‘rsatib berishdan iborat.

Demografiyaning vazifalari esa demografik jarayonlar (tug‘ilish, o‘lim, nikoh va ajralish, oilaning demografik xususiyatlari, aholining yosh-jinsiy va oilaviy tarkibi, demografik mayl) va ularning omillarini o‘rganish; demografik bashorat (ma’lum hudud aholisining soni, yosh-jinsiy tarkibi va demografik vaziyati istiqbolini ilmiy asoslangan holda oldindan aniqlash)larni ishlab chiqish; demografik siyosat (aholi siyosatining uzviy qismi bo‘lib, uning asosiy maqsadi aholining mikdoriy o‘sishini boshqarishdan iborat) chora-tadbirlarini ishlab chiqish. Demografik siyosat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ilmiy asosini tashkil etmog‘i lozim. Shundagina jamiyat har tomonlama muntazam rivojlanib boradi.

Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 16-martdagi “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi O‘RQ-611-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5655-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ “Yoshlar – O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi”. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil O‘zbekiston yoshlari forumidagi ma’ruzasi.

² Рахимов С.Р. Психолого-педагогические взгляды Абу Али ибн Сины. – Т.: Укитувчи, 1979. - С.120

to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida "Maktabgacha va maktab ta'limini samarali boshqarishning demografik omillari" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiyada O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Osiyo taraqqiyot banki vakillari, xalqaro ekspertlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari xodimlari, umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlari, doktorantlar va magistrlar ishtirok etdi.

Konferensiyada ta'limni tashkil etish va strategik boshqarishda demografik omillarning ahamiyati, demografik holatni o'rganish va tahlil qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etishda demografik omillarning ta'siri yoritib berildi.

Konferensiyada quyidagi sho'balar faoliyat olib bordi:

- Maktablar faoliyatini tashkil etish va boshqarishda demografik omillarning ahamiyati;
- Demografik holatni o'rganish va tahlil qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etishda demografik omillarning o'rni va roli;
- Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda demografik omillarning bog'liqligi.

Sho'balar bo'yicha maqola va tezislar ilmiy saviyasi bo'yicha tashkiliy qo'mita tomonidan tanlab olindi. Konferensiyada eng yaxshi deb topilgan maqola va tezislar Institut qoshidagi "Xalq ta'limi: muammolar, izlanishlar va yechimlar" nomli jurnalda chop etiladi.

Konferensiyaga kelib tushgan maqola va tezislarning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, xalq ta'limi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni olib boruvchi izlanuvchilarning ishlarida, maktab o'qituvchilari malakasini uzluksiz rivojlantirish ishlarini tashkil etishda va umumta'lim maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatida, shuningdek, umumta'lim maktablarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda muhim manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Konferensiyada pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda demografik omillarning bog'liqligiga alohida e'tibor qaratildi hamda demografik omillarni hisobga olib maktablarning ta'lim dasturlari va yangi avlod darsliklarini yaratish istiqbollari ham alohida urg'u berildi.

DEMOGRAFIYANING O'ZGARISH SABABLARI VA UNING IJTIMOIIY SOHAGA TA'SIRI

Ismoilov Abduvali Abdimalikovich – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti rektori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Moddiy boylik jamiyatda va inson hayotida katta rol o'ynaydi. Daromadlar ortishiga moddiy va ma'naviy qoniqish hosil qilinadigan nufuzli ishda band bo'lish kabi inson imkoniyatlarini kengaytiradigan asosiy vosita sifatida qaralishi mumkin. Bundan tashqari daromad soliqlar va boshqa tushumlar manbai bo'lib, ular aholining nochor qatlamlari ijtimoiy muhofaza qilinishini kafolatlash, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, ya'ni moddiy ne'matlarni qayta taqsimlashni amalga oshirish uchun zarurdir.

Resurslarni adolatli ravishda taqsimlash jamiyat barcha azolari uchun ne'matlarni tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi, shuningdek turmush sifatini oshirish negizini yaratadi. Daromadlar va inson turmushi o'rtasidagi bog'liqlik soliq-byudjet va ijtimoiy siyosat choralari qamrab oladigan davlat strategiyasi yordamida shakllantirilishi kerak.

Iqtisodiy o'sish mamlakat umumiy boyligini ko'paytirishga, davlatning qashshoqlik, ochlik, boshqa ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi shubhasizdir. Huddi shuning uchun iqtisodiy o'sishning yuqori darajasi jahondagi ko'pchilik mamlakatlarda iqtisodiy siyosatning eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga yalpi ichki mahsulot (YaIM) miqdori bilan o'lchanadigan daromadning o'zi insonni rivojlantirishning yakkayu yagona mezon bo'la olmaydi.

Jahon amaliyotidan faqat YaIM ortishining o'zi ta'lim darajasi yuksalishi, odamlar salomatligi mustahkamlanishi, inson huquq va erkinliklari ta'minlanishiga olib kelmasligiga doir ko'plab misollar keltirish mumkin. Hatto daromadlarining o'rtacha ko'rsatkichlari deyarli bir xil bo'lgan mamlakatlarda turmush sifati ko'rsatkichlari bir-biridan jiddiy ravishda farq qilishi mumkin.

Uzoq vaqt davomida iqtisodiy taffakur moddiy boylik ortirish sohasida ro'y berayotgan jarayonlar ta'sirida edi. Moddiy omillarga universal va hal qiluvchi vosita sifatida qaralardi.

O'zbekiston Respublikasida inson manfaatlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi borasida makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Albatta, bunda mamlakat demografik rivojlanishining o'rni katta

bo‘lib, ijtimoiy manfaatlarga yo‘naltirilgan iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda aholi, uning o‘sishi, joylashishi, demografik tarkibi kabi jihatlarini iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish davri nuqtai nazaridan o‘rganish katta ahamiyatga ega. Chunki, aholi ham asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, ham iste‘molchi sifatida jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, 2017-yilda dunyo aholisi soni 86,0 mln. kishiga ko‘paygan bo‘lsa, 2021-yilda esa aholi sonining yillik ko‘payishi 20,9 foizga kamayib 68,0 mln. kishini tashkil etgan. Dunyo bo‘yicha aholi sonining dastlabki 1 mlrd. kishidan 2 mlrd. kishiga yetishi uchun ketgan vaqt 123 yilni tashkil etgan bo‘lsa, 7 mlrd. kishidan 8 mlrd. kishiga yetishi uchun ketgan vaqt esa 11 yilni tashkil etdi.

Dunyo aholisining soni 8 mlrddan oshdi. Ularning 4,04 mlrd nafari erkak, 3,96 mlrd nafari ayollardir. Bu bilan erkaklar va ayollar soni o‘rtasidagi tafovut 1,018 ni tashkil etmoqda.

Aholining qarish jarayoni tobora ko‘proq mamlakatlarni qamrab olib, global muammoga aylanib borayotgan bir paytda O‘zbekistonda demografik vaziyatning tiklanish jarayoni davom etmoqda. So‘nggi besh yilda tug‘ilishning keskin o‘sishi mamlakatimizda demografik o‘shish bo‘lsada, ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu muammolarning oldini olish, uni hal etish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoev takidlab o‘tganlaridek, “Aholimizning qariyb 55 foizini yoshlar tashkil etadi va har yili mehnat bozoriga kamida 600 ming yoshlar kirib kelmoqda. Bunday demografik o‘shish biz uchun ham imkoniyat, ham juda katta mas‘uliyat degani”[1].

Shu o‘rinda takidlash kerakki, 2022-yilda dunyoning 196 ta davlatlari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasining ayrim demografik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tutgan o‘rni BMT tomonidan e‘lon qilib boriladigan statistika ma‘lumotlari asosida shakllantirilgan. Ya‘ni O‘zbekiston aholi soni bo‘yicha dunyo mamlakatlari o‘rtasida 41-o‘rin va MDHda 3-o‘rinda, tug‘ilish ko‘rsatkichi bo‘yicha 54-o‘rin va MDHda 1-o‘rinda, yer maydoni kattaligi bo‘yicha 56-o‘rinda, aholi zichligi bo‘yicha 134-o‘rinda qayd etilgan.

1920-yilda mamlakat hududida 4,4 million kishi yashagan bo‘lsa, hozirga kelib ular soni 31,6 mln kishiga ko‘paygan. Bu 100 yil ichida aholi soni 8 baravarga oshganini ko‘rsatadi 2023-yil boshiga O‘zbekiston Respublikasi aholisi soni 36 mln 24,9 ming kishini tashkil etdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 753,6 ming kishiga (2,2 foiz) ko‘pdir. 2023-yilning har bir oyida o‘rtacha 57,6 ming kishiga oshgan bo‘lsa, har bir kunda doimiy aholi soni o‘rtacha 1,9 ming kishiga ko‘paymoqda. Aholining bunday o‘sishi asosan o‘lim darajasining nisbatan pastligi va tug‘ilishning yuqori darajasi bilan bog‘liq (1-ko‘rsatkich).



1-ko‘rsatkich. O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisi sonining so‘nggi yuz yildagi o‘zgarishi 1 yanvar holatiga, (yillarda million kishi).

Demografiyaning o‘zgarishida asosiy rol ni oila bajaradi va jamiyatning boshlang‘ich bo‘g‘ini ham oila hisoblanadi. 1-ko‘rsatkich ma’lumotlariga asosan, 103 yil davomida O‘zbekiston aholisi 87,78 foizga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

2023-yilning 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 9729961 ta oilalarda isteqomat qilishadi. Respublikamiz hududlari orasida eng ko‘p oilalar Farg‘ona viloyatiga to‘g‘ri keladi, viloyatdagi oilalar soni 1124208 tani tashkil etgan. O‘zbekistonda ilk bor oila qurayotgan erkaklarning o‘rtacha yoshi 26,5 yoshni, ayollarning o‘rtacha yoshi 22,3 yoshni tashkil etgan.


1-jadval. O‘zbekiston Respublikasida ayrim demografik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi

Yillar Ko‘rsatkichlar	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2022-yil 2016-yilga nisbatan, %
Doimiy aholi soni (yil oxirida, ming kishi)	32120,5	32656,7	33255,5	33905,2	34558,9	35271,3	36024,9	10,9
Tug‘ilganlar soni (yilda, kishi)	726170	715519	768520	814960	841817	905211	932217	22,1
Tug‘ilishning yig‘indi koeffitsienti. (bir ayolga to‘g‘ri keladigan bolalar soni)	2,455	2,419	2,604	2,785	2,904	3,173	3,308	25,8

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, doimiy aholi soni 2016-yil oxirida 32120,5 ming kishi bo‘lgan bo‘lsa, yetti yil davomida doimiy aholi soni 10,9 foizga oshib, 36024,9 ming kishini tashkil etgan. Tug‘ilganlar soni esa, 2016-yilda 726170

kishi bo'lsa, 2022-yilda esa 932217 nafar chaqoloqlar dunyoga kelgan, ya'ni tirik tug'ilish 22,1 foizga oshgan. Tug'ilishning yig'indi koeffitsienti, yuqoridagi mos davrlarga nisbatan 25,8 foizni tashkil qilgan, ya'ni bir ayolga to'g'ri keladigan bolalar soni 2016 yilda 2,455 nafar, 2023 yilda 3,308 nafar bo'lgan.

MDH davlatlarida tug'ilish darajasiga ko'ra mamlakatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasida bo'lib, 26,2 foizni tashkil etadi ya'ni 2022-yilda qayd etilgan tirik tug'ulishlar soni 932,2 ming nafarni tashkil etgan (2-ko'rsatkich).



2-ko'rsatkich. O'zbekiston Respublikasida qayd etilgan tug'ilishlarning yillar bo'yicha taqsimlanishi, (2022- yil yanvar-dekabr, ming kishi).

Demak, O'zbekiston Respublikasida 7 yildan so'ng 932 mingdan ortiq bolajonlar maktabga chiqishi prognoz qilinmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda tug'ilganlar soni 905,2 ming bolani tashkil etdi. 2022-yilda esa respublika bo'yicha 932,2 mingta tirik tug'ilish holatlari FHDYo organlarida qayd etilgan. Bu degani 2022-yilda qariyb 1 million bola tug'ildi degani. Yaponiyada tug'ilish darajasi past bo'lgani uchun o'rta ta'lim maktablari yopilayotgan bir vaqtda, bizning bu bolajonlarimiz 2-3 yildan keyin bolalar bog'chasiga boradi, 2029-yilda 1 sinfga chiqadi. Bugungi kunda 10 mingdan oshiq maktablarimiz faoliyat yuritayotgan bo'lsa, har-bir maktabga 100 ga yaqin o'quvchi boradi, bu 3-4 ta sinf degani.

O'zbekiston Respublikasida ayrim demografik ko'rsatkichlarning o'zgarishi tahlil qilinganda, aholining maktabgacha va maktab yoshidagi tarkibi bo'yicha taqsimlanishiga alohida e'tibor qaratdik. Tahlillarga ko'ra, 2023-yil boshida 2016-yilga nisbatan 0-4 yoshgacha bo'lgan bolajonlar 20,5 foizga, 5-9 yoshgacha bo'lgan

farzandlarimiz 11,9 foizga, 10-14 yoshgacha bo'lgan o'smirlarimiz 19,2 foizga oshgan bo'lsa, 15-19 yoshli o'g'il-qizlarimiz soni -2,8 foizga kamayganini ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval. Aholining maktabgacha va maktab yoshidagi tarkibi bo'yicha taqsimlanishi, (yil boshiga, kishi).

Yillar Yoshi	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil	2023-yil 2016- yilga nisbatan, %
0-4	3310742	3401124	3464843	3551727	3646961	3756106	3932322	4162194	20,5
5-9	3070935	3144439	3178295	3202432	3257918	3341346	3432468	3487318	11,9
10-14	2574079	2619921	2700965	2845758	2965397	3078367	3153693	3186000	19,2
15-19	2773828	2658517	2593034	2557146	2558977	2569705	2616235	2697402	-2,8
Jami	11729584	11824001	11937137	12157063	12429253	12745524	13134718	13532914	13,3

O'zbekiston Respublikasida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasida 2022/2023-o'quv yilida jami umumta'lim muassasalari soni 10522 tani tashkil etdi. Bu esa, faoliyat yuritayotgan umumta'lim muassasalari soni 2018/2019-o'quv yili boshiga nisbatan 748 taga, ya'ni 7,7% ga ko'payganligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda 7 yil davomida o'quvchilar soni o'rtacha 21 foizga oshib borsa, 2030-yilga kelib o'quvchilar soni 7463520 dan oshib ketishi prognoz qilinmoqda. Demak, 2030-yilga kelib bitta maktabda o'rtacha 500 nafar o'quvchi ta'lim olganda kamida 14927 ta maktab faoliyat ko'rsatishi talab etiladi. Shundan kelib chiqib, 2030-yilgacha, mamlakatimizda 4746 ta, yiliga 500 tadan ortiq maktab yoki qo'shimcha bino qurilishi lozim bo'ladi. 2010-2011 o'quv yilida har bir maktabda o'rtacha 479 nafar o'quvchi o'qigan bo'lsa, 2022-2023-o'quv yilida bu raqam 614 nafar o'quvchiga yetgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'tgan 10 yil davomida maktab qurilishining orqada qolayotganligi sababli, har bir maktab yiliga qo'shimcha ravishda o'rtacha 139 nafar o'quvchini qabul qilishiga to'g'ri kelmoqda. Maktablarda o'quvchilarni qabul qilish sig'imi, har bir sinfdagi o'quvchilar soni me'yori, maktablarning moddiy-texnika bazasi ta'minoti va holati, o'tiladigan fanlarni malakali mutaxassis o'qituvchilar bilan qamrab olinganligi, asosiy va qo'shimcha o'quv darsliklar hamda adabiyotlar bilan ta'minlanganligi kabi dolzarb masalalar ta'lim tizimining keyingi

muammolari ekanligi ma'lum bo'lib qolmoqda. Keyingi bu dolzarb muammolarga biz tayyormizmi?

Maktab qurilishi va ta'minotini mo'tadillashtirish uchun xususiy, davlat va xorijiy sherikchilik asosida, yirik korxonalar va tashkilotlar, klasterlar, oliy ta'lim muassasalari qoshida maktablar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Jamiyatda sanoat rivojlanishi bosqichidan avval iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tabiiy va mehnat resurslariga, sanoat rivojlanishi bosqichida moddiy resurslarga ustuvorlik berilgan bo'lsa, sanoat rivojlanishidan keyingi hozirgi bosqichda intellektual va axborot resurslarining roli birinchi o'ringa chiqmoqda. Jahonning yetakchi mamlakatlari taraqqiyoti yangi – bilimlar, innovatsiyalar, global axborot tizimlari, yangi texnologiyalar va venchur biznesi iqtisodiyotini shakllantirishga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 11-aprel kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi.

2. R.X.Djurayev, S.T.Turg'unov. Ta'lim menejmenti. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari uchun qo'llanma. Toshkent, "Voriz-Nashriyot" – 2006.

3. Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov. Ta'lim sifatini boshqarish. T.: "Turon-Iqbol": 2006. – 592 bet

4. Shodiyev X, Xabibullayev I. "Statistika" T. "Moliya-iqtisod" 2013.

5. A.Radjiyev, F.Karimov, A.G.Ibragimov, M.Axmedov. TALIS-2018 xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o'tkazilgan so'rovnoma va tadqiqot hisobotining ma'lumotlar to'plami 1-2-to'plamlar // A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollari belgilash ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent, 2022 yil.

6. www.uzedu.uz

7. www.stat.uz

8. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

9. <https://www.statistics.com>

TA'LIM TIZIMINI SAMARALI BOSHQARISHDA DEMOGRAFIK OMILLARINI BELGILASHNING JAHON TAJRIBASI

Islam Hassan Mahmud Hassan Elhadary – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti xorijiy maslahatchisi.


Hozirgi kunda statistik tadqiqotlar jahon iqtisodiyotining ko'pgina jabhalarini qamrab olgan bo'lib, savdo, energetika, transport, moliya, nashriyot, ommaviy

axborot vositalari ta'lim yoki sog'liqni saqlash kabi turli sohalarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Zamonaviy jamiyatda statistik tadqiqotlarning rivojlanganlik darajasi mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti va raqobatbardoshligini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

BMT demografiya bo'limining "Dunyo aholisi istiqbollari: 2000-yildagi vaziyat" ma'ruzasida takidlanganidek, immigratsiyani hisobga olmaganda, tug'ulish darajasining hozirli holati saqlanib qoladigan bo'lsa, 2050-yilga borib aholi soni (miqdori) 128 millionga kamayib, 600 million kishini tashkil etishi mumkin.

2000-yilda Yevropa aholisi, Islandiyadan Rossiyagacha bo'lgan hududda 728 million kishitni tashkil etgan bo'lsada, tadqiqot natijalariga ko'ra 2050-yilga kelib Yevropa aholisi 172 millionga kamayishi taxmin qilinmoqda.

Jahonda statistik tadqiqotlar bazasini shakllantiruvchi mamlakatlar asosan maktab ta'limi kichik tarmoqlar tizimidan foydalanadilar, bu esa mazkur ko'rsatkichlarni mamlakatlararo taqqoslash va tahlillar olib borish imkonini beradi. Bugungi kunda dunyo aholisi sonining o'sishi sekinlashmoqda.



Dunyo aholisi sonining yillik o'sish dinamikasi, mln.kishi

- 2017-yilda – 86 mln. kishi
- 2018-yilda – 84 mln. kishi
- 2019-yilda – 81 mln. kishi
- 2020-yilda – 76 mln. kishi
- 2021-yilda – 68 mln. kishi.

Ma'lumotdan ko'rishimiz mumkinki, dunyo aholisi yildan-yilga kamayib bormoqda.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil 15-noyabr holatiga yer yuzidagi jami aholi soni 8 mlrd 34 mln kishini tashkil etgan. Dunyo miqyosida 7,7 mln maktab mavjud bo'lib, shundan o'rtacha 27 foizi xususiy maktablar. [1]

Xalqaro statistikaga ko‘ra, dunyoda Buyuk Britaniya maktablari reytingi eng yuqori hisoblanadi. Ikkinchi o‘rnida esa, AQSh maktablari va keyingi o‘rinlarda Kanada, Germaniya va Fransiya maktab ta’lim tizimi yuqori o‘ringa ega. Ushbu davlatlar maktab bitiruvchilarining 70 foizidan ortig‘i oliy ta’limda tahsil olishadi.

Ta’lim darajasi dunyoning turli mamlakatlarida turlicha. Umuman olganda, rivojlanmagan va endi rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi sifatli ta’lim yoki bilim olish imkoniyatiga ega emaslar. Rivojlangan mamlakatlar aholisi savodxonlik darajasi yuqori yoki hech bo‘lmaganda asosiy o‘rta ma’lumotga ega bo‘lishadi.

Ta’lim bo‘yicha Global hamkorlikka ko‘ra, ta’lim inson huquqlaridan biri hisoblanadi va inson, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ta’lim gender tengligini targ‘ib qiladi, tinchlikni mustahkamlaydi va insonning hayotdagi ko‘proq ne‘matlardan kengiroq foydalana olish imkoniyatini oshiradi.

Ta’lim bo‘yicha eng yaxshi mamlakatlar reytingi keng va global so‘rovlarga asoslangan. Ushbu so‘rovda uchta teng vaznli mezonlarga asoslangan baholash to‘plami ishlatilgan: yaxshi rivojlangan davlat ta’limi tizimi, OTM va universitetlarda o‘qish imkoniyati va yuqori sifatli ta’lim.

2023-yilda dunyo mamlakatlarida ta’lim reytingining taqsimlanishi[2]:

Reytingi	Mamlakatlar	Reytingi	Mamlakatlar
1	Yaponiya	10	Germaniya
2	Gonkong	11	AQSh
3	Finlyandiya	12	Avstraliya
4	Buyukbritaniya	13	Yangi Zelandiya
5	Kanada	14	Rossiya
6	Niderlandiya	15	Belgiya
7	Irlandiya	16	Shveysariya
8	Polsha	17	Shvesiya
9	Daniya	18	Avstriya

Shuningdek, Osiyo qit‘asida eng yaxshi maktab ta’limi Janubiy Koreya davlatidir. Shu bilan birga 56% koreys maktab bitiruvchilari oliy ta’limda tahsil olishadi. Eng yomon maktab ta’limi asosan Afrika davlatlari Burma, Zambiya Markaziy Afrika Respublikasi, shu bilan birga, Pokiston, Liviya ta’lim tizimi ham juda salbiy deb baholangan.

2019-yilda dunyo miqyosida jami maktablardagi o‘quvchilar soni 1343 mln bo‘lib, shundan: 742 mln boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari va 601 mln o‘rta ta’lim o‘quvchilari maktablarda ta’lim olishgan[3].

Dunyo mamlakatlarida o‘rtacha 62,5 mln o‘qituvchi maktablarda ishlaydi[4].

YuNESKO tadqiqotlariga ko‘ra, dunyoda boshlag‘ich ta’lim o‘qituvchilarining o‘rtacha 66,8% va o‘rta ta’limda 54,5%ni ayollar tashkil qiladi[5].

Tahlililarga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limda, Germaniya va Buyuk Britaniyada ayol o‘qituvchilar soni nisbatan yuqori bo‘lsa, o‘rta ta’limda Janubiy Koreyada ayol

o'qituvchilar ulushi yuqoridir. Taqqoslash uchun Respublikamizda bu ko'rsatkich ayollar 70% erkak o'qituvchilar 30% tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning 1 yanvar holatiga respublikamizning doimiy aholisi 36 024 946 kishini tashkil etgan.

Shahar aholisi – 18 335,7 ming kishi

Qishloq aholisi – 17 689,2 ming kishi

2023-yilning 1-yanvar holatiga doimiy aholi tarkibida shahar hududida yashovchilar soni qishloq hududida yashovchilar sonidan 646,5 ming nafarga ko'p.

Shuningdek, agentlik ma'lumotga ko'ra, O'zbekistonda shahar aholisining ulushi ko'paymoqda. Unga ko'ra, 1991-yil boshida O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi tarkibida shahar joylarda yashovchi aholining ulushi 40,3 foizni tashkil etgan.

2022-yil boshiga kelib, ushbu ko'rsatkich 50,9 foizni tashkil etgan hamda 1991-yilga nisbatan 10,6 foizga ko'paygan.

Fikrimizni asoslovchi statistik ma'lumotlarning tahlilidan xulosa qilib aytish mumkin-ki, Respublikamizda oxirgi marta aholini ro'yxatga olish ishlari amalga oshirilganligiga 30 yildan oshdi. Buning natijasida aholining haqiqiy hayot tarzini o'rganish va ularga amaliy yordam ko'rsatishda qator qiyinchiliklar vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasining demografik jaryonlarida xalq ta'limi tizimining o'rni qanday bo'ladi? Bu borada, jahon ta'lim tizimi statistikasi qay darajada shakllangan? Aholini ro'yxatga olishda ta'lim tizimi statistikasining hisoblash metodologiyasi bormi?"- degan savollarga javob topish maqsadida institutimiz olimlari va doktorantlari ilmiy tadqiqot ishi olib borilmoqda.

Ma'lumki, eng avvalo aholini ro'yxatga olishni demokratlashtirish zarur, bugungi kunda, dunyoning ko'pgina davlatlarida, aholini ro'yxatdan o'tkazishning ananaviy va reestr usullaridan foydalanib kelinmoqda. Ba'zi davlatlarda esa, masalan, Latviya ta'lim tizimida statistik hisobni yuritishning yagona reestri mavjud emas. Jahon tajribasidan ma'lumki, aholini ro'yxatga olishda indikatorlarga³ havolalar ko'p bo'lmoqda.

Rasmiy statistika asosida xalq ta'limi tizimida yagona davlat siyosatiga mos chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini o'rganish, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistika axborotlarini yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish, O'zbekistonda ta'lim tizimi ko'lami, jumladan, maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi muammolarni tahlil qilish va ularga yechim izlab topish mexanizmini yo'lga qo'yish, maktablar, o'quvchilar, o'qituvchilar soni va uning mamlakat aholisi sonidagi ulushining

³ Indikator (lotincha indicator-ko'rsatkich) - boshqariladigan jarayonning har qanday parametrda yoki obyektning holatini bevosita inson idroki uchun eng qulay bo'lgan shaklda aks ettiruvchi axborot tizimi.

hozirgi statistik holatini tahlil etish, maktab ta'limi tizimi statistikasini takomillashtirish, ushbu sektorda ma'lumotlar qamrovi to'liqligini ta'minlash bilan bog'liq muammolarni o'rganish hamda ularni bartaraf etish, mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish, bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi va demografik ma'lumotlar asosida maktab ta'limi tizimini rivojlantirishning asoslarini tadqiq qilish o'ziga xos dolzarblik kasb etadi, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu konferensiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Aholini ro'yxatga olishning asosiy maqsadi, maktabgacha va maktab ta'limi tizimini samarali boshqarishning demografik omillari asosida, O'zbekiston Respublikasida aholi tarkibining holati va rivojlanish dinamikasi haqida mamlakatni sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishonchli va xolis axborotni olishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatdan o'tkazish jaryonida ta'lim tizimining iqtisodiy va ijtimoiy jihatlariga alohida e'tibor berish, aholini ro'yxatga olishda ta'lim tizimi uchun alohida indekatorlar tuzish lozim. Aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida maktabgacha va maktab ta'limi tizimini rivojlantirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida maktabgacha va maktab ta'limi tizimini boshqaruv faoliyatini tashkil etishning hozirgi holatini tahlil qilish;
- aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida maktabgacha va maktab ta'limi tizimini rivojlantirish istiqbollari belgilash;
- aholini ro'yxatga olishda ta'lim tizimi uchun alohida intekatorlarni ishlab chiqqan chet el tajribasini o'rganish va ular tajribasidan ijodiy foydalanish;
- maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, mehnat resurslarini joylashtirish hamda maktab ta'limi jarayonining uzoq, o'rta va qisqa muddatli prognozlari hamda dasturlarini tayyorlash;
- maktablarni ro'yxatdan o'tqazishda, ularning manzil (adres) bo'yicha joylashuvini kartada GPS va lokatsiya orqali aniqlashni takomillashtirish;
- maktab pasportini tayyorlashda aholini ro'yxatdan o'tkazish jaryoni muhim manba bo'lishini ta'minlash;
- maktabgacha va maktab ta'limi tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish.
- aholining sog'lig'ini mustahkamlash, xotin-qizlar va bolalar yashash shart-sharoitlarini yaxshilash, oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha choralarni ishlab chiqish maqsadida aholi tarkibidagi, mamlakatning demografik vaziyatdagi o'zgarishlarni baholashga doir ma'lumotlar bazasini kengaytirish;
- shaharlarni va boshqa aholi punktlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, mehnat resurslarini joylashtirish hamda ulardan foydalanishning uzoq, o'rta va qisqa muddatli prognozlari hamda dasturlarini tayyorlash;

- aholini ro'yxatga olishlar oralig'idagi davrda maktab o'qituvchilari va o'quvchilari soni va tarkibining joriy hisobini, hisob-kitoblarini hamda prognozlarini amalga oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://data.worldbank.org/indicator/SE.SEC.PRIV.ZS?end=2020&start=1997&view=chart>
2. <https://visasam.ru/emigration/ucheba/reiting-obrazovaniya-v-mire.html>
3. <https://www.statista.com/statistics/1227106/number-of-pupils-in-primary-education-worldwide/>
4. <https://www.worldbank.org/en/topic/teachers>
5. <https://data.worldbank.org/indicator/SE.SEC.TCHR.FE.ZS>

DEMOGRAFIYANING O'ZGARISHI JAMIYAT TAMADDUNI VA INSONNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Baxramov Anvar Axrarovich – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti prorektori, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.

Insonni rivojlantirishning asosiy mezoni umr ko'rish davomiyligi, savodxonlik darajasi va resurslardan foydalanish imkoniyatini ifoda etadigan Insonni rivojlantirish indeksidir. Davlatning farovonligi faqat daromad darajasiga emas, balki bu daromaddan qanday foydalanilishiga ham bog'liqdir. Daromadlar mo'may bo'lishining o'zi insonni rivojlantirishni kafolatlamaydi. Shunday ekan, insonni rivojlantirishning ikki xususiyati – imkoniyatlarni shakllantirish va ulardan foydalanishni farqlash kerak. Insonni barqaror rivojlantirish faqat iqtisodiy o'sishni ta'minlabgina qolmasdan, uning natijalarini adolatli taqsimlashni ham nazarda tutadi. Bunday rivojlanish aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalariga birinchi darajali ahamiyat berilishini, ular imkoniyatlarini kengaytirishni, ularning o'z turmushlariga ta'sir ko'rsatadigan qarorlarni qabul qilishda ishtirok etishlarini ta'minlashni nazarda tutadi. Bunday rivojlanish insonlar manfaatini ko'zlaydi, ular uchun ish joylarni ko'paytirishga, jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Insonni rivojlantirish – odamlarning uzoq va sog'lom, munosib turmush kechirishlari, ma'lumotli bo'lishlari uchun zarur vositalardan foydalanishlari imkoniyatlarini kengaytirishdir. Ammo bu imkoniyatlarni odamlarning o'zlari tanlaydilar. Rivojlantirish jarayoni insonga uning ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiq ravishda o'zini rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi kerak.

Insonni rivojlantirish tushunchasi uning qobiliyati va imkoniyatlarini shunchaki shakllantirishga qaraganda ancha kengroqdir. U, shuningdek, bu imkoniyatlardan mehnat jarayonida, dam olish va ijtimoiy faoliyatda foydalanishni ham nazarda tutadi. Imkoniyatlarni shakllantirish va ularni ishga solish o'rtasida mutanosiblik bo'lmas ekan, inson salohiyatidan foydalanilmay qolinadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab taraqqiy etgan davlatlarda insonga va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasiga xarajatlar moddiy jamg'armalar miqdoriga qaraganda yuqoriroq bo'lmoqda. Ishlab chiqarishga investitsiyalar kiritish qanchalik muhim bo'lmasin, insonni rivojlantirishga sarmoyalarga tobora ko'proq ustuvorlik berilmoqda. Ya'ni mazkur mamlakatlarda takror hosil qilish jarayonidagi eng jiddiy o'zgarishlar moddiy ishlab chiqarish sohasidan tashqarida sodir bo'lmoqda.

Insonni rivojlantirish konsepsiyasi nihoyatda ko'p qirrali, uning inson va jamiyat hayotining turli tomonlarida qo'llanilishi imkoniyatlari keng. BMT Rivojlanish dasturining har yilgi insonni rivojlantirish to'g'risidagi ma'ruzalari va turli mamlakatlarning milliy ma'ruzalari huddi shundan dalolat beradi.

BMT Rivojlanish dasturining 1990-yildagi bunday birinchi ma'ruzasida insonni rivojlantirish nazariyasi va uni o'lchash indikatorlari chuqur ishlab chiqilishi bilan bir qatorda urbanizatsiya muammolariga bag'ishlangan qism ham mavjud edi. Ana shundan keyingi ma'ruzalar mavzulari hayotiy ehtiyojlar, odamlar xavfsizligining turli mezonlari, harbiy xarajatlarni qisqartirish hisobiga ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlari, hamkorlikning yangi yo'nalishlari, qashshoqlik bilan kurash, ish biland bandlikka globallashuvning ta'siri, iste'mol modellari, insonni rivojlantirish bilan barqaror ekologik rivojlanish mezonlari o'rtasidagi bog'liqlik kabi ko'pgina masalalarni qamrab olgan.

Shu tariqa ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichi insonni fakat ijtimoiy hayotning an'anaviy ma'naviy sohasidagina emas, takror hosil qilish jarayonlarida ham insonga markaziy o'rinni ajratadi. Bunda inson ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning birlamchi va pirovard maqsadi ekanligi e'tirof etiladi. Ya'ni rivojlantirishning insoniy yoki ijtimoiy mezoni dominant bo'lib, moddiy-ashyoviy salohiyat esa bu rivojlanishning sharti deb belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng va Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgach, xalqaro hamjamiyatga qo'shilishidan kelib chiqadigan majburiyatlarni zimmasiga oldi. Mamlakatimiz insonni rivojlantirish konsepsiyasini BMTning boshqa a'zolari ham shunday qilganliklari uchungina emas, balki mazkur konsepsiyaning g'oyalari va qoidalari o'zbek xalqining ko'p asrlik hayotiy maqsadlariga mos ekanligi uchun qabul qildi.

XX asrning 90-yillari birinchi yarmida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ma'lumotlar ham BMTning Rivojlanish dasturi tomonidan tuzuladigan jahon (global) va mintaqaviy ma'ruzalariga kiritila boshlandi. O'zbekistonning insonni

rivojlantirishi to'g'risidagi birinchi ma'ruzasi esa 1995-yilda tayyorlangan edi. Bu bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning u yoki bu ustuvor sohasidagi masalalar xalqaro va milliy ekspertlar tomonidan taxlil qilinishi va baholanishiga, shuningdek bu ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga asos solindi.

Demografik o'zgarishlar jarayoni inson kapitalini rivojlantirish ustuvorligi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham, barqaror iqtisodiyotlar va modernizatsiyani amalga oshirayotgan tizimlar uchun ham universal xususiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Bu jahonning yetakchi olimlari va xalqaro tashkilotlarning ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan juda ko'p tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topgan.

Aholining ko'payishi azaldan millat va sivilizatsiyaning kuch-qudrati va sog'lomligidan darak bersa uning kamayib borishi xalq va jamiyat xastaligining yorqin belgisidir. Hozirgi vaqtda bu boradagi vaziyatni nazarda tutib aytish mumkinki, butun kuch-qudrati va boyligiga qaramay, G'arb tamadduni tanazzulga yuz tutgan. 1960-yilda yevropaliklar, amerikaliklar, avstraliyaliklar va kanadaliklar 750 million nafar bo'lgani holda, dunyodagi uch milliard aholining to'rttdan bir qismini tashkil etgan. O'sha davrlarda imperiyalar yukidan xalos bo'lgan, urush oqibatlarini bartaraf etgan, kuch-qudratga, to'lgan G'arb mamlakatlarida tug'ilish darajasi eng yuqori nuqtaga ko'tarilgan edi. Aholi o'sish suratining yuqori darajasidan xavfsiragan yangi maltuschilar tez orada sayyoramiz zaxiralari tugab qolishini bashorat qila boshlashdi. O'shanda ular ustidan kulganlar 2000-yilga kelib xomush tortib qoldi. 40 yil mobaynida Yer shari aholisi ikki baravar ko'payib, uch milliarddan olti milliardga yetgan bo'lsa-da, keng ma'noda Yevropa xalqlari orasida tug'ilish keskin kamayib ketdi. Bugungi kunda aksariyat G'arb mamlakatlarida o'lim ko'rsatkichi tug'ilish darajasiga mos yoki undan balandroqdir. 2000-yilda 47 ta Yevropa mamlakatidan birgina musulmon Albaniyadagina xalqni saqlab qolish uchun yetarli bo'lgan tug'ilish darajasi kuzatilgan.

Xullas, Yevropada tom ma'noda aholi soni "minusga" tushib borayapti. Statistik ma'lumot va bashoratlar kelgusida vaziyat yanada keskin tus olishini ko'rsatmoqda. Xususan, 2050-yilga borib sayyoramiz aholisi 3 milliardga ko'payib, 9 milliardni tashkil etadi. Bu ko'payish faqat Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari ulushiga to'g'ri keladi. Xuddi shu davr mobaynida yevropaliklar uch yuz million nafar kishiga kamayib ketar ekan. E'tibor bering, agar 1960-yilda kelib chiqishi yevropalik bo'lgan kishilar dunyo aholisining 25 foizini, 2000 yilda 16,5 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2050-yilga borib bu ko'rsatkich 10 foizga tushib qoladi. Bu ma'lumotlar yo'qolib borayotgan butun boshli irqning ayanchli qismatidan dalolatdir. Tabiiyki, bunday ma'lumotlarning keng aholi o'rtasida ommaviy tarzda

tarqatilishi yevropaliklar ko'nglida o'ta tushkun kayfiyatlar kuchayishiga sabab bulmoqda.

Jahonda inson omili va kapitali, qobiliyati va salohiyatidan innovatsiyalar joriy qilish asosida samarali foydalanish raqamli boshqaruv tizimi va axborot kommunikatsiya vositalari shakllanayotgan bir vaqtda, bo'lajak pedagoglarni kasbga yo'naltirish va uni samarali boshqarish bo'yicha mutaxassis-kadrlar tayyorlashning pasayib borishi oqibatida ayrim davlatlarning rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, ta'limda ixtisoslashtirishning ilmiy asoslangan tizimi joriy qilinmagani, ta'lim tarmoqlarida moddiy-texnik va innovatsiya tizimining qoniqarsiz ahvolda ekani, kasbga yo'naltirishda innovatsion boshqaruv faoliyatining tashkiliy-metodologik asoslari to'liq ishlab chiqilmagani, oliy ma'lumotli professional pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash muassasalari o'rtasidagi integratsion munosabatlardagi muayyan muammolarning yuzaga kelishi natijasida ta'lim tizimida o'qituvchilarni kasbga yo'naltirishda innovatsion boshqaruv faoliyatining ahamiyati oshib bormoqda.

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutining 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan asosiy vazifalarida "Aholini ro'yxatga olishda maktabgacha va maktab ta'limi tizimi statistik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha tizimga mos metod va mezonlarni aniqlashtirish, ta'lim tizimini samarali boshqarishning demografik omillarini belgilash" yo'nalish doirasida maktab ta'limi tizimini samarali boshqarishda demografik omillarining nazariy asoslari, maktab ta'limi tizimini samarali boshqarishda demografik omillarining o'ziga xos xususiyatlari va uning muammolarini o'rganish belgilangan.

Hozirgi axborot, texnologiya va murakkab globallashuv sharoitida oila institutini omon saqlash – millatimizning hayot-mamoti, qismati masalasiga aylangan. Ha, G'arb va Sharqning oilaviy an'ana va qadriyatlari bir-biridan ancha farq qiladi. Biz bolajon, oilaparvar xalqmiz. O'z navbatida, shuni unutmash lozimki, bugungi globallashuv zamirida gegemonlik mavjud, u jadallashib borgan sari milliy ma'naviyatga, jumladan, oilaga nisbatan xavf-xatar va tahdidlar oshib boraveradi. Shunday ekan, ta'lim va tarbiya, oila va an'analar tizimi sifatini oshirish hamda o'zaro uyg'unligini ta'minlash barcha sinov va imtihonlardan omonlikda o'tishning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda Yevropaning "Dunyoda Vatandan judo bo'lishdan ko'ra kattaroq musibat bo'lmasa kerak" degan so'zlari esga tushadi.

Gap shundaki, G'arb tom ma'noda "Halokatga yuz tutmoqda": deyarli barcha G'arb mamlakatlari aholisi aql bovar qilmas darajada kamayib bormoqda. O'n

to'rtinchi asrda Yevropa aholisining uchdan bir qismini qirib yuborgan "Qora o'lat" epidemiyasidan buyon biz hali bu qadar xatarli tahdidga duch kelmaganmiz. U butun G'arb tamadunini qirib yuborishi hech gap emas. Hozirgi vaqtda Yevropa mamlakatlaridan o'n yettitasida (Belgiya, Bolgariya, Vengriya, Germaniya, Daniya, Ispaniya, Italiya, Latviya, Litva, Portugaliya, Rossiya, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Xorvatiya, Chexiya, Estoniya) o'lim ko'rsatkichi tug'ilishdan ko'ra ancha yuqorilab ketgan, ya'ni bu davlatlarda belanchakdan ko'ra tobutga ehtiyoj ko'proq.

2000-yilda Yevropa aholisi, Islandiyadan Rossiyagacha bo'lgan hududda 728 million kishini tashkil etgan. BMT demografiya bo'limining "Dunyo aholisi istiqbollari: 2000-yildagi vaziyat" ma'ruzasida ta'kidlanganidek, immigratsiyani hisobga olmaganida tug'ilish holatining hozirgi darajasi saqlanib qoladiga bo'lsa, 2050-yilga borib aholi miqdori 128 millionga kamayib, 600 million kishini tashkil etishi mumkin ekan. Boshqa bir tadqiqot natijalariga ko'ra, shu davr mobaynida Yevropa aholisi 172 millionga kamayishi mumkinligi taxmin qilingan. So'nggi bor aholining bu qadar kamayib ketishi 1347-1352-yildagi "Qora o'lat" epidemiyasi davridagina kuzatilgan. Gumbolt nomidagi Kaliforniya universitetining iqtisodiyot bo'yicha professori, "Aholiga qarshi urush" kitobining muallifi Jaklin Kasun hozirgi vaziyatda yanada dahshatliroq tahdid xavf solayotganiga e'tibor qaratadi: "O'n to'rtinchi asrda ro'y bergan vabo epidemiyasi Yevropa aholisining uchdan bir qismini qirib yuborgan, yoshga ham, qari-keksalarga ham qiron keltirgan edi. Tug'ilishning kamayishi esa faqat yoshlarga tegishlidir. Yosh er xotin ota-onasi, ayrim hollarda buva va buvisini boqishga majbur. Aksariyat hollarda ularning na aka-ukasi, na opa-singlisi bo'lmagani bois, oilani boqish asosan ularning zimmasiga tushadi. Shu bois ular uchun farzand mutlaqo keraksiz, ortiqcha yuk. O'z-o'zidan savol tug'iladi: bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish imkoniyati bormikan?"

Agarda yaqin kelajakda Yevropa ana shu o'ta keskin masalaning yechimini topa olmasa, u halokatga mahkumdir. Xo'sh, chindan ham vaziyat shu qadar ayanchlimi?

Keling, yana ma'lumotlarga murojaat etaylik. Tug'ilish darajasi eng past 22 millatdan 20 tasi yevropa millatlariga mansub, faqat ikkitasigina — amerikaliklar va yaponlar Yevropa hududidan tashqarida istiqomat qiladi.

O'rtacha tug'ilish darajasi bu mintaqada 1,4 gacha tushib ketgan. Vaholanki, aholining hozirgi miqdorini saqlab qolish uchun bu ko'rsatkich kamida 2,1 koeffitsientga teng bo'lishi shart. Aks holda, oradan hech qancha vaqt o'gmay, NATO zimmasida keksalar va nafaqaxo'rlarigina himoya qilish vazifasi qoladi, xolos.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, tug'ilishning hozirgi darajasi saqlanib qoladigan bo'lsa, yigirma birinchi asrning oxiriga borib Yevropa aholisi 30 foizga kamayib,

207 million nafar kishini tashkil etadi, Xullas, G'arb tamaddunining beshigi uning mozoriga aylanib bormoqda.

Taxlillar jarayonida va yakuniy xulosalar asosida muammoga doir ijtimoiy, pedagogik, metodik o'quv adabiyotlarni qiyosiy – tanqidiy o'rganish va tahlil qilish, aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida maktabgacha va maktab ta'limi tizimini rivojlantirishda ilg'or tajribalarni o'rganish, muammolarni nazariy tahlil qilish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat), pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalaniladi. Tadqiqotning amaliy natijasi asosida, aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari bo'yicha maktabgacha va maktab ta'limi tizimini rivojlantirishning tashkiliy va didaktik ta'minotining o'ziga xos xususiyatlari aniqlanganadi hamda maktabgacha va maktab ta'limi tizimini rivojlantirish modeli ishlab chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'. M. Qosimov. Menejment. Darslik. — T.: O'zbekiston, 2002. — 312 bet.
2. D. N. Rahimov va boshqalar. Zamonaviy menejment: nazariya va amaliyot. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. — 792 bet.
3. Андреас Шляйхер. Образование мирового уровня. Как выстроить школьную систему XXI века? Успешные реформы и высокие результаты. Пер. с англ.— М.: Издательство «Национальное образование», Москва, 2019. 336 с.
4. A.Radjiyev, F.Karimov, A.Ibragimov. TALIS-2018 Xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o'tkazilgan so'rovнома va tadqiqot hisobotining ma'lumotlar to'plami. 2-qism. Toshkent-2022. 119 bet.
5. <https://t.me/avloniyuz>
6. https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar
7. www.google.co.uz

DEMOGRAFIYA JAMIYAT O'ZGARISHINING ASOSI SIFATIDA

Ibragimov Abdimalik Gapparovich – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti “Ta’lim menejmenti va statistikasi” ilmiy-tadqiqot bo’limi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Innovatsion iqtisodiyotning asosini, hozirgi davr jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hal qiluvchi kuchi hisoblangan inson kapitali tashkil etadi. Ya'ni inson tafakkuri ishlab chiqarish tizimining shunchaki muayyan unsuri bo'lib qolmasdan, balki bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi. Dastavval insonni rivojlantirish tushunchasining tarkibiy qismlari u qadar ko'p bo'lmasdan, tarbiya, ta'lim, bilim, salomatlikni qamrab olardi. Shu bilan birga uzoq vaqt davomida

insonni rivojlantirishga iqtisodiy o'sish nazariyasi nuqtai nazaridan tarraqiy etishning ijtimoiy, ya'ni chiqimli omili sifatida qaralardi. Tarbiya, ta'limga investitsiyalar noishlab chiqarish xarajatlari hisoblanardi. XX asr ikkinchi yarmidan boshlab inson kapitali va ta'limga nisbatan munosabat asta-sekin tubdan o'zgara boshladi.

Hozirgi vaqtda jahonning yetakchi davlatlari taraqqiyoti uchun sanoat rivojlanishidan keyingi bosqich xos bo'lib, bu bosqichda iqtisodiy o'sish omillarining roli va o'rni o'zgarimoqda. An'anaviy hisoblab kelingan uch: mehnat, yer, kapital omillariga fan-texnika tarraqiyoti omili ham qo'shildi, axborot va bilimlar esa eng muhim resurslarga aylandi. Innovatsion iqtisodiyot bevosita ana shu asosda shakllanib, ushbu iqtisodiyotda inson va uning salohiyati hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

O'zbekistonda ham insonni rivojlantirish soxasida erishilgan tarraqiyot aniq-ravshandir. Ayniqsa iqtisodiy sohada yuqori natijalarga erishildi. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda so'nggi 5 yillikda aholi jon boshga to'g'ri keladigan YaIMning o'sishi insonni rivojlantirish umumiy indeksi o'sishidan uch baravar yuqori bo'ldi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot 3,5 baravar, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 baravar o'sdi, o'rtacha ish haqi 14 baravar oshdi. Davlatning ijtimoiy soha va ijtimoiy muhofaza uchun sarf-xarajatlari 5 baravardan ziyodroq ko'paydi. Har yili davlat byudjetining 50 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilmokda.

Bugungi kunda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 82,5 tabiiy gaz bilan ta'minlash 83,5 foizga yetdi, sog'liqni saklash tizimini tubdan isloh qilish va rivojlantirish, o'ta og'ir yuqumli kasalliklarga barham berish hamda ularni kamaytirish borasida qat'iy choralar ko'rildi. Onalar o'limi darajasi 2 baravardan ko'proq, bolalar o'limi 3 baravar kamaydi. Ushbu davrda, ya'ni qariyb 20 yil mobaynida odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, ayollarning umr ko'rishi esa 75 yoshgacha oshdi. Bugun mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan aholining 48 foizini xotin-qizlar tashkil etadi.

O'zbekistonda ta'limga xarajatlar YaIMning 10,0-12,0 % ni tashkil etadi, holbuki jahon amaliyotida bu ko'rsatkich 3,0-5,0% dan ortmaydi.

Insonni rivojlantirish sohasida erishilgan natijalar, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani isloh etishning to'g'ri yo'li tanlanganligi va muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganligi eng avvalo ijobiy demografik o'zgarishlarning samarasi ekanligidadir.

Demografiya (yun. demos – xalq va grafiya) – har yili turli sabablarga ko'ra vafot etgan aholi o'rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to'ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bog'lik holda o'rganadigan fan hisoblanadi. Demografiyaning paydo bo'lishi asosan XVII-asrning 2-yarmidan

angliyalik olim J.Graunt (1620-1674) tadqiqotlari bilan bog'likdir. Demografiya terminini 1855 yilda fransuz olimi A.Giyar qo'llagan. 1882-yil Xalqaro gigiena va demografiya kongressining Jeneva sessiyasida rasmiy qabul qilingan. Demografiya terminini XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida keng tarqaldi va O'zbekistonda, asosan 1960-yillardan qo'llanila boshladi.

Aholi muayyan ijtimoiy hayot tarziga bo'ysunishi tufayli, demografik jarayonlar ham muayyan ishlab-chiqarish usuli va ishlab-chiqarish munosabatiga bog'liq bo'ladi. Aholi murakkab ijtimoiy va tabiiy rivojlanish mahsuli bo'lib, turli omillar zaminida ko'payadi. Bu jihatdan demografiya iqtisod, sotsiologiya, geografiya, tibbiyot, tarix fanlari tahlil mavzuiga yaqin bo'lib, ularning yutuqlaridan foydalanadi, ayni vaqtda, ularga muhim ma'lumotlar beradi.

Demografik jarayonlarni o'rganishda juda ko'p ma'lumotlardan foydalaniladi. Ko'pchilik davlatlarda demografik ma'lumotlar statistika tashkilotlari tomonidan to'plab boriladi. Ular aholi soni, tarkibi va demografik jarayonlarni aks ettirib o'z ichiga ushbu masalalarga oid raqamli jadval va diagrammali ma'lumotlar, ilmiy manbalar, sotsiologik-demografik tadqiqotlar natijalarini oladi. Dunyo miqyosida demografik ma'lumotlarni to'plash BMT boshchiligida tuzilgan dastur asosida o'tkaziladi.

Demografiya har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum aholisining ko'payishi va rivojlanish qonuniyatlarini alohida-alohida o'rganadi, chunki har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaga xos aholi o'sish qonuni demografik vaziyatga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. XX-asrning 2-yarmiga qadar O'zbekistonda aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasi nisbatan pastligi tufayli aholi o'rtasida o'lim yuqori bo'lgan. Garchi tug'ilish yuqori bo'lsa ham aholi juda sekin ko'paygan. XX-asrning 2-yarmidan O'zbekistonda aholi o'rtasida o'lim bir oz kamayib, aholining o'rtacha umr ko'rishi uzaydi. Natijada aholining miqdor va sifat o'sishi ro'y berdi. Shu davrda O'zbekistonda demografiyaning rivojlanishiga e'tibor berildi. Demografik tadqiqotlar Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Aholishunoslik ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida, demografiya, ijtimoiy geografiya va mintaqaviy iqtisod, sotsiologiya kafedralarida, Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazida, Respublika bandlik, mehnat muhofazasi va aholini ijtimoiy himoya qilish ilmiy markazida, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining iqtisodiyot institutida, O'zbekiston Respublikasi «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazida olib boriladi.

O'zbekistonning demografik taraqqiyoti, uning xususiyatlari, omillari va muammolari o'zbekistonlik olimlar I.Mullajonov, R.Ubaydullaeva, M.Qoraxonov, E.Ahmedov, O.Otamirzaev, L.P.Maksakova, A.Soliev, H.Salimov, A.Qayumov, M.Bo'rieva, O.A.Ergashev, E.Safarov, O Saidahmedov, G.Murtazina,

X.Rayimjonov, R.K.Ortiqboev va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng o'rganilgan.

1993-yildan O'zbekistonda BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) o'z faoliyatini boshlagan. Uning faoliyati mintaqa davlatlarini, ya'ni Qozog'iston va Ozarbayjonni qamrab oladi. Jamg'arma aholi salomatligi, ayniqsa, ayollar salomatligini yaxshilash borasida tadbirlarni amalga oshiradi, mamlakatda milliy tashkilotlar, tibbiyot muassasalariga sog'lom oilani shakllantirish maqsadida keng qamrovli sotsiologik-demografik tadqiqotlar o'tkazadi.

Demografik holatni tahlil qilishda ta'lim tizimi statistik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha tizimga mos metod va mezonlarni aniqlashtirish, xalq ta'limi tizimini samarali boshqarishning demografik omillarini belgilashda ta'lim sohasidagi xizmatlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Demografik prognozlarga ko'ra, O'zbekistonda 2030-yilgacha tug'ilganlar soni bir xil darajada (o'rtacha 900-950 ming), aholi soni esa 41 million kishidan oshadi. 2030-yilga borib aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlar natijasida 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar va mehnatga layoqatli yoshdagi kattalar soniga mos ravishda 2,4 million va 1,4 million kishiga ko'payishi kutilmoqda.

Aholi sonining o'sishi birinchi navbatda sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Demografik omillardan samarali foydalanish inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritishni talab qiladi.

Fransiyalik yozuvchi, jurnalist va jamoat arbobi Anri Barbyus yozganidek, "... Maktab yosh avlodning fikri shakllanadigan ustaxonadir".

Darhaqiqat, 2023-yil boshida mamlakatimizda, 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 2925,2 ming nafarni tashkil etdi, kutilayotgan prognozlarga ko'ra, 2026-yilga kelib ularning soni 3567,3 ming nafarni, 2030-yilga kelib 3631,9 ming kishini 2035-yilga borib, 3738,3 ming nafarni tashkil etadi.

2023-yil boshiga respublikada 29420 ta maktabgacha ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, ulardagi tarbiyalanuvchilar soni 2,1 million nafarni tashkil etgan (qamrab olish darajasi 71,8%).

3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish bo'yicha mavjud ko'rsatkichlarni saqlab qolish, shuningdek, kelajakda dunyoning rivojlangan mamlakatlari (90% ga yaqin) ko'rsatkichlariga erishish uchun respublikaning barcha hududlarida maktabgacha ta'lim muassasalarida 1264 ming bolaga mo'ljallangan yangi o'rinlarni tashkil etish zarur bo'ladi.

2022/2023-o'quv yilida jami o'quvchilar soni 6461,7 ming nafarni, o'qituvchilar soni esa 540,7 ming nafarni (o'rindoshlardan tashqari) tashkil etdi, ya'ni har bir o'qituvchiga 11,9 nafar o'quvchi to'g'ri keldi.

2022/2023-o'quv yilida umumta'lim maktablarini jami 430 ming nafar o'quvchi tamomladi. 2022/2023-o'quv yilida 701,9 ming nafar bola 1-sinfga qadam qo'ydi. 2035-yilga borib, 7-17 yosh oralig'idagi bolalar soni 9737,4 ming nafar

bo'lishi kutilmoqda. Bu esa 2035/2036-o'quv yiliga qadar qo'shimcha 3,0 million o'quvchi o'rni yaratilishini talab etadi.

Har yili oliy ta'lim muassasalari mehnat bozoriga o'rtacha 30 ming nafar oliy ma'lumotli o'qituvchilarni chiqaradi. 2035-yilga borib, oliy ta'lim muassasalariga qabul darajasini 55% ga yetkazish va xotin-qizlar uchun ajratiladigan kvotalarni oshirish natijasida oliy ta'lim muassasalari har yili o'rtacha 40 ming nafar pedagog kadri tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladi. 2035-yilga borganda o'qituvchilar soni 970 ming nafarni tashkil etadi. Natijada har bir o'qituvchiga 10 nafar o'quvchi to'g'ri keladi. Ushbu hisob-kitoblarga asoslanib aytish mumkinki, yaqin kelajakda o'qituvchilarga talab yuqori bo'ladi. Lekin shunga qaramay ularning yetishmasligi kuzatilmaydi.

Aholi sonining nisbatan yuqori sur'atlarda oshib borishi mamlakat iqtisodiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O'z navbatida kutilayotgan yuqori demografik salohiyatning ta'sirini bilgan holda quyidagi chora-tadbirlarni ko'rish zarur:

Xulosa sifatida aytish mumkinki, demografik yukning ortib borishini hisobga olgan holda ta'lim tizimini boshqarish va rivojlantirish borasida mutlaqo yangi yondashuvlarni ishlab chiqish talab etiladi. Bunda real vaziyat hamda imkoniyatdan kelib chiqib, mamlakatimizdagi va xorijiy investorlarning ta'lim sohasidagi integratsion salohiyatini jalb qilish muhim ahamiyatga ega.

Fiskal yukni yengillashtirish maqsadida ta'lim sohalarida xususiy ishtirokchilar bilan tizimli ish olib borish, ularga litsenziya va boshqa ruxsatnomalarni berish tartibini soddalashtirish zarur.

Ta'lim sohalarida xalqaro va mahalliy ishtirokchilar, shuningdek, tegishli texnologiyalarni yetkazib beruvchilar O'zbekistonga sarmoya kiritish borasidagi qarorlarni qabul qilishda demografik prognozlarni inobatga olgan holda, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga o'rta muddatli talab mavjud ekaniga ishonchi komil bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy rivojlanishda insonga faqat ma'naviy sohadagina emas, balki takror hosil qilish aloqalarida ham markaziy o'rin ajratila boshlandi. Zero, bevosita inson avloddan avlodga meros bo'lib qoladigan bilimlarni egallash va ulardan samarali foydalanish qobiliyatiga egadir. "Inson kapitali" iqtisodiy kategoriyasida o'z ifodasini topgan bu g'oya jahon BMT ekspertlari tomonidan inson salohiyatining insonni rivojlantirish dinamikasiga ta'sirini aniqlaydigan modellar yordamida ishlab chiqilgan yangi "Insoniyatni barqaror rivojlantirish" nazariyalari, "Milliy boyluk konsepsiyasi" kabi ijtimoiy tafakkur negizini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.P.Bo'riyeva. O'zbekistonda oila demografiyasi, T., 1997;
2. M.P.Bo'riyeva. Demografiya asoslari, T., 2001;

3. V.A.Borisov. Demografiya, M., 1999.
4. R.X.Djurayev, S.T.Turg'unov. Ta'lim menejmenti. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari uchun qo'llanma. Toshkent, "Voriz-Nashriyot" – 2006.
5. Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov. Ta'lim sifatini boshqarish. T.: "Turon-Iqbol": 2006. – 592 bet
6. Shodiyev X, Xabibullayev I. "Statistika" T. "Moliya-iqtisod" 2013.
7. A.Radjiyev, F.Karimov, A.G.Ibragimov, M.Axmedov. TALIS-2018 xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o'tkazilgan so'rovnoma va tadqiqot hisobotining ma'lumotlar to'plami 1 va 2-to'plam // A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent, 2021 yil. 91 bet
8. www.uzedu.uz
9. www.stat.uz
10. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
11. <https://www.statistics.com>

I SHO'BA
MAKTABLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHDA
DEMOGRAFIK OMILLARNING AHAMIYATI.

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMINI SAMARALI
BOSHQARISHDA AHOLINI RO'YXATGA OLISHNING AHAMIYATI

Berdikulov Qobil G'ulomovich – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi boshlig'i, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi (PhD). q.berdikulov@stat.uz +99894 649 73 59

Yeshniyazov Djамshid Djaxangirovich – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi Ro'yxatga olish metodologiyasi va kartografik hujjatlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i o'rinbosari, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi (PhD) jamshide@mail.ru, +998977743393

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi ta'lim masalalari, uning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati, ta'lim darajasi jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishiga ta'siri, shuningdek, aholining ta'lim darajasini o'rganishda aholini ro'yxatga olish tadbirining ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, bilimli shaxsni tarbiyalash, maktab va universitetning roli, jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi, mehnat resurslari, aholini ro'yxatga olish, aholining ta'lim darajasi to'g'risida statistik ma'lumotlar.

Аннотация. В тезисе рассматриваются вопросы образования, его значение в современном обществе, влияние уровня образования на экономическое и духовное развитие общества, а также было рассмотрено значение процессов переписи при изучении уровня образования населения.

Ключевые слова: система образования, формирование образованной личности, роль школы и вуза, экономическое развитие общества, трудовые ресурсы, перепись населения, статистическая информация об уровне образования населения.

Annotation. The thesis deals the issues of education, its importance in modern society, the impact of the level of education on the economic and spiritual development of society, and also considered the importance of census processes in the study of the level of education of the population.

Keywords: education system, the formation of the educated person, the role of the school and University, economic development of society, labor, the census, statistical information on the education level of the population.

Bilimli shaxsni tarbiyalash vazifasi zamonaviy jamiyat rivojlanishining asosi bo'lib, uning insonparvar yoki tajovuzkor, ma'rifatli yoki johil, iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan yoki qoloq bo'lishini belgilaydi.

Ta'lim nisbatan mustaqillikka ega, chunki u avtonom tizim bo'lib, u jamiyatning rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ta'lim tizimlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining asosiy vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi. Birinchidan, maktab, so'ngra universitet odamni iqtisodiyotning turli sohalarida, siyosiy hayotda, madaniyatda va hokazolarda faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Shuningdek, maktabga ta'limning asosiy bo'g'ini vazifasi berilganligi uchun, maktab juda muhim hisoblanib, maktab to'plangan ijobiy tajribani saqlab, jamiyat talablariga moslashuvchan javob berishi kerak.

Ta'lim har doim inson faoliyatining muhim va ajralmas sohasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda, unda dunyoda bir vaqtning o'zida ko'p sonli o'quvchi ta'lim oladi va ko'p sonli o'qituvchi ishlaydi. Ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning omili bo'lib, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga ishora qiladi. Ta'lim olgan shaxs, ijtimoiy ishlab chiqarishda ishlab chiqaruvchi kuch sifatida ishlaydigan jarayonning sub'ekti bo'lib, o'z bilimlariga asosan davlatning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos kelishi kerak.

Yaxshi tarbiyalangan, o'qimishli shaxs nafaqat o'z hayotini, balki boshqa odamlarning oqilona hayotini ham ta'minlay oladi.

Mehnat resurslarining sifati, umuman olganda, iqtisodiyot va uning tarmoqlarining holati to'g'ridan-to'g'ri jamiyatdagi shaxslarning ta'lim darajasiga bog'liq. Ta'lim, asosan, madaniy va tarbiyaviy funksiyaga ega bo'lib, jamiyatning ma'naviy hayotiga ham ta'sir qiladi, uning umumiy madaniyatini shakllantiradi, madaniy boylikni saqlashga va uni keyingi avlodlarga yetkazishga yordam beradi.

Ko'pgina mamlakatlarda ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarishni takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatiladi, bu esa tobora rivojlanib borayotgan raqobat sharoitida kelajak avlodlar hayoti uchun zarur bo'lgan yangi ta'lim yondashuvlarini, yangi fikrlash tarzini izlashga olib keladi.

Aholini ro'yxatga olish paytida statistika organlari aholining ma'lumoti, jamiyatning ta'lim darajasi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni olishadi, ularning ma'lumotlari asosida aholi ta'lim darajasiga ko'ra savodxonlar ulushi, oliy, o'rta va o'rta maxsus, boshlang'ich ta'lim turi bo'yicha taqsimlanadi.

Aholini ro'yxatga olish umummilliy tadbir bo'lib, ushbu tadbirda ma'lum bir aniq sanada ma'lum mamlakatda yoki uning bir qismida doimiy yoki vaqtincha

istiqomat qiluvchi yoki vaqtincha bo‘lib turgan barcha shaxslar ishtirok etadi. Ushbu tadbir ko‘pincha butun mamlakatning umumiy rasmi, surati deb ham ataladi.

Aholini ro‘yxatga olishning maqsadi mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish parametrlari va dasturlarini ishlab chiqish, aholi soni va tarkibini joriy hisoblash va prognoz qilish, mehnat resurslarini joylashtirish va ulardan foydalanishni o‘rganish, shuningdek ilmiy tadqiqotlar uchun zarur bo‘lgan mamlakat aholisi to‘g‘risida dolzarb ma‘lumotlarni olish hisoblanadi.

Aholini ro‘yxatga olish aslida butun mamlakat aholisi soni va tarkibi va uning har bir ma‘muriy-hududiy birligi to‘g‘risida ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar, aholining milliy tarkibi, uning ma‘lumot darajasi, migratsiya faoliyati bilan birgalikda ma‘lumot olishga imkon beradigan yagona manbaadir.

Aholini ro‘yxatga olish jarayonida olingan ma‘lumotlarning o‘ziga xosligi shundaki, ularni joriy demografik hisob ma‘lumotlaridan yoki ma‘muriy manbalardan olish mumkin emas. Masalan, faqat aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlariga ko‘ra, nafaqat qaysi millat vakillari yashayotganligini, balki ularning soni, oilalar va uy xo‘jaliklari soni, ularning tarkibi va yashash sharoitlari to‘g‘risida ma‘lumotlar to‘plash mumkin.

Aholini ro‘yxatga olishning yakuniy ma‘lumotlari ijtimoiy munosabatlarning barcha sub'ektlari – davlat va jamoat tashkilotlari, biznes hamjamiyati ishtirokchilari tomonidan ishlatiladigan eng boy ma‘lumot manbai hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2020 yilda Butunjahon aholi va uy-joy fondini ro‘yxatga olish dasturini qo‘llab-quvvatlashini e‘tiborga olgan holda, shuningdek, aholi sonining aniq hisoblab chiqilishini ta‘minlash, aniq belgilab qo‘yilgan yagona hisobga olish davrida aholining jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, ma‘lumoti, hayot darajasi, yashash sharoiti, bandligi, millati, fuqaroligi hamda boshqa demografik, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari bo‘yicha yakka tartibda hisobga olish va batafsil tavsiflash maqsadida bir qator normativ hujjatlar imzolangan.

Xususan, yuqoridagi xalqaro talablardan kelib chiqqan holda 2019-yil 5-fevralida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5655-son farmoni qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasida aholi ro‘yxatga olishni o‘tkazish konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiya asosida 2020-yil 16-martda O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

2020-yil 11-noyabrda esa Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasida aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 710-sonli qaroriga muvofiq sinov tariqasida aholini ro‘yxatga olishning hududlari va sanasi, shuningdek, aholini ro‘yxatga olish dasturi, sinov tariqasida aholini ro‘yxatga olish savolnoma varag‘i shakllari tasdiqlangan.

An'anaga ko'ra, har bir aholini ro'yxatga olish dasturida respondentlarning jinsi, yoshi, tug'ilgan sanasi va joyi, ma'lumoti, nikoh holati, bolalar soni, tillarni bilish darajasi, yashash joyi, turar joylardagi mavjud sharoitlari va ularning ta'minlanganlik darajasi, respondentlarning yashash uchun daromad manbalari, respondentlarning migratsiyasi, millat to'g'risidagi savollar kiritiladi.

2021-yilda aholini ro'yxatga olish dasturi tegishliligi bo'yicha 10 ta mavzularga ajratilgan bo'lib, ular asosida 2021-yilda sinov tariqasida aholini ro'yxatga olishning 5 ta shakllari ishlab chiqilgan.

Ushbu shakllarning 2-shakli Shaxsga oid savolnoma shakli hisoblanib, har bir respondentga alohida to'ldiriladi. Mazkur savolnoma shaklidagi savollar orasida respondentlarning ta'lim darajasini aniqlovchi savollar mavjud. Ular 10 yoshdan katta respondentlarning ta'lim darajasi (boshlang'ich, umumiy o'rta, to'liqsiz o'rta, o'rta maxsus hamda oliy) to'g'risida, respondentlarning qancha foizi ilmiy darajaga ega ekanligi to'g'risida, 3-6 yosh oralig'idagi bolalarning necha foizi maktabgacha ta'lim tashkilotiga (davlat yoki nodavlat) borishi to'g'risida, respondentlarning qanchasi aholini ro'yxatga olish vaqtida ta'lim turidan qat'iy nazar ta'lim tashkilotiga borishi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi.

Aholini ro'yxatga olish savolnoma shakllarini so'rov o'tkazish yo'li to'ldirilish jarayonida respondentlar mas'uliyat bilan yondashgan holda, barcha savollarga to'liq, ishonchli, shaffof javoblarni bersalar, statistika organlari tomonidan ushbu javoblar umumlashtirib, taxlil qilib, shaxssizlashtirilgan jadval ko'rinishiga keltirilgan yakuniy ma'lumotlar ishlab chiqiladi. mazkur ma'lumotlar eng kichik hududiy birlik kesimida ham barcha yutuqlar, muammo va kamchiliklarni yaqqol namoyon qilib beradi. Ta'lim haqidagi savollarda ham huddi shunday bo'ladi, xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarning qaysi hududda yetarli yoki ortiqchaligi, qaysi joylarga maktablarni qurish yoki maktab uchun ajratilgan binolarni boshqa maqsadlarda foydalanishga berish mumkinligi bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish hamda davlat dasturlarining manzilli bo'lishini ta'minlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, ta'lim tarbiya jamiyatning, davlatning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lib, unda shaxslarning ta'lim darajasini baholashda aholini ro'yxatga olish tadbirining ahamiyat katta hisoblanadi. Shuningdek, aholini ro'yxatga olish nafaqat davlat uchun, balki har bir shaxs uchun alohida ahamiyatga ega. Muayyan hududda yashovchi odamlar soni, ularning ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi, mehnatga layoqatli aholi soni, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarsiz ijtimoiy to'lovlarni moliyalashtirish hajmini, o'qituvchilar, shifokorlar va boshqalarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash imkoni bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi 611-son qonuni;
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida 2023 yilda aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 710-son qarori;
3. Агентова Г. В. Образование населения и его статистическое изучение // Бюллетень науки и практики. 2016. №6. С. 426–429.;
4. Акуленко Н. Б., Елина О. А. Особенности применения инновационных методов в образовательном процессе // Вестник Российского экономического университета. №3 (57);
5. “2020 yil raundida aholi va uy-joy fondini ro‘yxatga olish bo‘yicha Yevropa statistika konferensiyasi tavsiyalari” Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Nyu-York va Jeneva, 2015 yil;
6. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2015 yil 10 iyundagi “2020 yilda aholi va uy-joy fondini ro‘yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar” rezolyutsiyasi;
7. <http://www.stat.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.
8. <http://www.aholi.stat.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining aholini ro‘yxatga olish jarayonlari bo‘yicha rasmiy sayt.

MAKTABDA TASVIRIY SAN‘AT TO‘GARAKLARNI TASHKIL ETISH ORQALI O‘QUVCHILARDA IJODIY QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH

M.B.Axmedov – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.

F.M.Xolmatova – Toshkent shahar Uchtepa tumani 238-maktab ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari.

Annotatsiya: Ushbu maqola maktab va maktabdan tashqari muassasalari tasviriy san‘at mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi, faoliyat turlari, faoliyat samaradorligining omillari, shaxs rivojlanishida faoliyatning ta’siri xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: g‘oya, fikr, faoliyat, ob’ekt, muhit, ob’ektiv, sub’ektiv, harakat, faol, faollik, tashqi faollik, istak-xohish, ichki faollik, idrok, shaxs, ong, tafakkur, atrof, ta’sirchan, harakatchanlik, ta’sirchanlik, samaradorlik, psixologiya, passiv, qobiliyat, iste’dod, muvaffaqiyat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы развития творческой деятельности учащихся, виды деятельности, факторы эффективности деятельности, а также влияние деятельности на развитие

личности на уроках изобразительного искусства школьных и внешкольных учреждений.

Ключевые слова: идея, мысль, деятельность, предмет, среда, предметное, субъективное, действие, активный, деятельность, внешняя деятельность, желание, внутренняя активность, восприятие, человек, сознание, мышление, тайна восприятия, мобильность, эффективность, психология, пассивный, способности, талант, успех.

Abstract: This article discusses methods for developing students' creative activity, types of activities, factors of activity effectiveness, as well as the influence of activity on personality development in fine arts classes in school and non-school institutions.

Key words: idea, thought, activity, object, environment, objective, subjective, action, active, activity, external activity, desire, internal activity, perception, person, consciousness, thinking, mystery of perception, mobility, efficiency, psychology, passive, abilities, talent, success.

Xozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o'zgarishlar bo'lishini taqazo etmoqda. Zero, olam to'g'risida va insonning hayotda tutgan o'rni to'g'risidagi tasavvurlari o'zgarmoqda, tafakkuri va olamni tushinishning yangi usullari shakllanmoqda, ma'naviy-amaliy o'zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o'tish yuz bermoqda [1].

Ta'limda ijodiy izlanishlar haqiqiy ilmiy nazariyaga, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga, o'qitishning nazariy asoslari, shaxs rivojlanishini xarakterga keltiruvchi kuchlari va uning shakllantirish sharoitlari to'g'risidagi bilimlarning keng tizimiga tayangan holdagina muvafaqqiyat qozonadi.

Inson hayoti sharoitlarini o'zgartiruvchi va insonni o'zini ham o'zgartiruvchi faoliyat xozirgi zamonda ta'limning umumiy asosidir. Inson faoliyati jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy davrida turli xil ko'rinishlar, faoliyatning turli shakllarida farqlanadi. Biroq ichki munosabatlar, ular o'rtasidagi aloqalar doimiy va umumiy bo'lib qolaveradi. Ular faoliyat tizimini hosil qiluvchi asoslardir.

Ma'lumki, inson o'z g'oya, fikr, qarashlarini faqat faoliyat davomida amalda qo'llaydi va qayta yaratadi.

Odam tabiati jihatidan faol mavjudotdir. U ma'lum faoliyatda bo'lmasdan yashay olmaydi. Inson faoliyatining turi juda ko'p bo'lib, ulardan eng muhimi ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish mehnatidir. Odam har doim jamoada bo'lib mehnat qiladi va mehnat natijalarini ham jamoa turmush tarzini o'zlashtiradi. Har bir tirik organizmning faolligi uning ehtiyojlarini qondirilishiga qaratilgan bo'ladi. Anglab bo'lmaydigan va anglab bo'ladigan tabiiy, yoki madaniy, yoki

ma'naviy, yoki shaxsiy, yoki ijtimoiy-shaxsiy ehtiyojlar odamda har turli faollik tug'diradi. Ma'lumki, inson faoliyati jarayonida ma'lum bir mahsulotni yaratadi va undan ishlab chiqarish jarayonida foydalanadi. Aynan faoliyatda erishilayotgan muvaffaqiyatini ta'minlovchi bir qator omillar mavjud. Shular jumlasiga ob'ektiv va sub'ektiv omillarni kiritish mumkin va u quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat — bu uning faolligidir.

Faollik — mehnatda yoki biror harakatda, jarayonda jadallik, jonbozlik ko'rsatish, ishchanlik; ta'sirchanlik tushuniladi. Faollik — tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi, psixik faollik bu o'zaro ta'sir, shu asosda faollik ko'rsatish bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashi aloqador sifatlari orqali bayon etiladi [4, 13 b].

Faoliyat — atrof olamga nisbatan insonning o'ziga xos faol munosabatidir. Chunki insonning hayotda namoyon bulishining muhim shakli uning voqea-hodisalarga bo'lgan faol ishtirokidir. Har qanday faoliyatda hayotiy tajriba to'planadi, insonda o'z atrofini o'rab olgan borliqni bilish jarayoni kechadi, ma'lum bilimlar egallab olinadi, malaka va ko'nikmalar hosil bo'ladi, natijada inson faoliyati rivojlanadi.

Faol — arabcha so'zdan olingan bo'lib, "harakat qiluvchi; ta'sirchan" degan ma'nolarni anglatadi. Ya'ni, biror g'oyaviy harakat yoki ishga g'ayrat bilan, astoydil kirishadigan, ishchan; biror jamoaning ijtimoiy hayotida, faoliyatida astoydil berilib ishlaydigan shaxs, jamoatchi; harakatchan, ko'p harakat qiladigan shaxsga nisbatan qo'llaniladi.

Shaxs rivojlanishiga irsiyat, muhit, tarbiyaning ta'siri bilan birga unga faoliyatning ta'siri ham o'ta muhimdir.


"Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat — bu uning faolligidir. Faollik — (lotincha "aktus") — harakat, "aktivus" — faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha hatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir", — deb ta'kidlaydi o'zbek olimasi V.M.Karimova [5, 48 b].

O'quvchilar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish, mehnatni kiritgan holda uning asosiy yo'nalishlarini bilish, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik, emotsional faoliyatlariga ajratish mumkin.

Faoliyat faol va passiv bo‘ladi, faqat faol faoliyat insonning barcha imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Bunday faoliyat insonda qoniqish hosil qiladi, inson kuch-quvvatga to‘ladi.

O‘qishda faollik ijtimoiy tajribalarni tezroq o‘rganib, anglab olishga, kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga, o‘zini o‘rab turgan atrof-olamga munosabatini shakllantirishga olib keladi. Bilish faolligi esa bolaning intellektual rivojlanishini ta‘minlaydi.

1-jadval



Mehnatda faollik shaxsning ma‘naviy-axloqiy shakllanishga undaydi, uni yanada muvaffaqiyatli mehnat qilishga yo‘llaydi. Rivojlanayotgan shaxsni doimiy faollikka ancha murakkab va qiyin kechadi. Zero, o‘quvchining turli yoshda uning faoliyati o‘zgarib turadi. Shuning uchun bu borada maktabdagi ommaviy tadbirlar bilan birga har bir o‘quvchining invidual va yosh xususiyatlarini hisobga oladigan ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Biz yuqoridagi 1-jadvalda faoliyat samaradorligining omillarini ko‘rishimiz mumkin.

Inson qobiliyati va iste‘dodi muvaffaqiyatlarga erishishining asosiy sharti ham insonning faolligidir. Chunki o‘qituvchi qay darajada mahoratli bo‘lmasin, agar o‘quvchining o‘zi faol bo‘lmasa, u muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Chunki o‘qituvchi o‘quvchini o‘qitish jarayonida uni boshqarib boradi. Shuning uchun ham

o‘quvchi o‘z faoliyatida o‘ziga ahamiyatli bo‘lgan, o‘ziga jalb eta oladigan hayot mummolari bilan shug‘ullana borib, ma’naviy va axlokiy jihatdan rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Abu Rayxon Beruniy. Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar. -T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2017.
3. Ahmedov M.B. Yog‘och o‘ymakorligi.-T.:Adabiyot uchqunlari,2007, 220 b.
4. Ahmedov M.B. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyalari (Monografiya). -T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2020, 128 b.
5. Karimova V.M. Psixologiya. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
6. Muratov X.X., Jabbarov R.R. Amaliy va badiiy bezak san‘ati. -T.: Cho‘lpon, 2020, 168 b.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA RAHBARLIK VA TA’LIMNI BOSHQARISHNING METODI VA VOSITALARI

Jo‘rayeva Nargiza Tairovna – Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrası (PhD) v.b.dotsenti.

To‘lanboyeva Hilolaxon – Nizomiy nomidagi TDPU talabasi.

Maktabgacha ta’lim sohasida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarni bugun har birimiz sezib, kuzatib turibmiz. Ta’limning poydevori hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimiga davlat tomonidan bu qadar tizimli va bir-birini to‘ldiruvchi e’tibor hamda amaliy yordam kuzatilmagan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ta’lim tashkiloti rahbarlari oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishda pedagog xodimlarning faoliyati, bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini, qobiliyatlarini, shaxsiy xislatlarini, shuningdek, ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishning murakkab tomonlarini faol o‘rganishlari va shular asosida boshqaruv jarayonini takomillashtirish, samaradorligini oshirishga yordam beradigan qarorlarni qabul qilishlari hamda ularni amalga oshirish uchun turli tadbirlarni amalga oshirishlari zarur. Ta’lim tashkilotlarini boshqarishni ilmiy asosda tashkil etishda quyidagi keltirilgan muammolarni inobatga olish va ularni ijobiy yechimlarini topish boshqaruv faoliyatida samaradorlikka erishishning asosiy sabablaridan biri sifatida xizmat qiladi:

- ta'lim tashkilotlarini boshqarish jarayonida innovatsion tuzilishga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim sifatida yondashish;

- rahbarning boshqaruv madaniyati, shaxslararo munosabatlar hamda tarbiyaviy munosabatlarni ilmiy asoslangan tamoyillar asosida shakllantirish;

- ta'lim tashkilotining innovatsion faoliyati jarayonida rahbarning kasbiy mahorati va o'zi haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish;

- ta'lim tashkilotlarini boshqarish jarayonida innovatsion yondashuvlarning natijalari bo'yicha teskari aloqani yo'lga qo'yish.

Boshqaruv samaradorligiga erishish uchun ta'lim tashkiloti rahbarlari tashkilotning asosiy maqsadlari yo'nalishida strategik rejalashtirish sirlarini, boshqaruv usullari, metodlari hamda tamoyillari, innovatsion texnologiyalarni bilishi va bular asosida jamoaning integrativ faoliyatiga murakkab pedagogik tizim sifatida yondashuvlarga yo'naltirilgan innovatsion faoliyatni tashkil etishi zarur hisoblanadi. Boshqaruv xodimlari va pedagoglar muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lgandagina yangiliklarni samarali o'zlashtirish mumkinligini anglab yetishlari juda muhim. Bunga birinchi navbatda quyidagilar kiradi:

-ta'lim jarayoni qatnashchilarining faol ishchanligi bosqichma-bosqich shakllantirilishiga rioya etish;

-ta'lim jarayonining barcha qatnashchilari tomonidan o'zlashtirish maqsadlarining chuqur anglab yetilishi va qabul qilinishi hamda kelgusi faoliyat vazifalari aniq tushunib olinishi;

-bunda ushbu vazifalarning shaxsiy maqsadlarga zid bo'lgan qismining har doim yuzaga keladigan qarshilik ko'rsatish omilini hisobga olish;

-fikir almashish aniq va xolis axborot ayirboshlash;

-amaliy qarorlarni jamoa bo'lib ishlab chiqish va qabul qilish.

Boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda, maqsadlarni belgilashda ta'lim tashkilotlari rahbarlari bugungi kunda davlatning ta'lim siyosatini, tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari ehtiyojlarini hisobga olgan holda harakat qila olishlari kerak. Ta'lim va tarbiya sifatini ta'lim tashkiloti xodimlarini oqilona boshqarish, ta'lim jarayoniga tashqi va ichki muhitga mos ravishda o'zgartirishlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, normativ-huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va psixologik omillar asos hisoblanadi. Zamonaviy ta'limni rivojlantirish va uni isloh qilish vazifalarini belgilashda uning sifatini ta'minlash masalalari ustuvor o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim tizimini innovatsion boshqarishdagi majmuaviylik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish jarayonida ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, tashkiliy, pedagogik, psixologik hamda ekologik xususiyatlarni, ularning o'zaro aloqalarini hisobga olish zarurligini anglatadi.

Innovatsion boshqarishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan ijtimoiy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro integratsiya quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) tashkilot rahbarlari, rahbar xodimlar, pedagogik jamoa, boshqaruv organlari, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari, fan o'qituvchilari, o'quvchilar hamda ularning ota-onalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish;

b) turli boshqaruv darajalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytirish, ya'ni umumiy ta'lim maktablari faoliyatini o'zaro hamkorlikda boshqarish – bunga ko'ra umumiy ta'lim maktablari jamoasining barcha a'zolari qarorlarni ishlab chiqarish va qabul qilish jarayonida faol ishtirok etadi. O'zaro hamkorlikda boshqarish, eng avvalo, faoliyatni rejalashtirishni nazarda tutadi. Boshqaruv darajalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytirishda tabaqalashtirish, individuallashtirish, o'z-o'zini boshqarish organlarining huquq va vakolatlarini kengaytirish, talabchanlik, faoliyatning jamoaviy hamda ijodiy xususiyatini inobatga olish zarur;

v) jamoatchilik tomonidan ko'rsatiluvchi o'zaro yordam asosida vaqtinchalik ijodiy guruhlar (masalan, ilmiy-metodik kengash, ekspert hay'ati va boshqalar)ni tashkil qilish orqali boshqaruv organlari faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish.

Rahbar maktabgacha ta'lim tashkilotlarning tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'la-qonli hal etishga qaratilgan. U bolalar tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablar muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi, ularga umumiy rahbarlik qiladi.

Rahbar maktabgacha ta'lim tashkilotlari huquqi doirasida buyruq chiqaradi, ko'rsatma beradi. Bu buyruq va ko'rsatmalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari barcha xodimlari uchun majbu-riydir. Tarbiyachi-metodist, katta meditsina hamshirasi, xo'jalik mudirining o'z huquqlari doirasida bergan ko'rsatmalari barcha xodimlar uchun majburiydir. Maktabgacha ta'lim tashkilotning shaxsiy tarkibi quyida-gilardan iborat: ma'muriy guruh (Rahbar, tarbiyachi-metodist, xo'jalik mudiri, katta meditsina hamshirasi), pedagogika, meditsina xizmati ko'rsatish tarmoqlari xodimlari. Maktabgacha ta'lim muas-sasasi ma'muriyati har bir tarkibiy birlikka tegishli moddiy resurslarni birlashtiradi. Mehnat jamoasi vakolatini amalga oshirishning asosiy shakli umumiy yig'ilishidir. Boshqaruv madaniyati samarali boshqaruv faoliyati shartiga aylanadi, shuningdek, boshqaruvchiga xos xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori boshqaruv madaniyatining mohiyati ta'lim jarayonini boshqarish tamoyillari, tashkiliy shakllari va texnologik usullarini bilishdan iborat. Boshqaruv madaniyati boshqaruv faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi, ong, xulq-atvor uslubi va aloqa, shuningdek, bevosita boshqaruvchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Богуславец Л. Г., Майер А. А. Управление качеством дошкольного образования: метод. Пособие. М.: ТЦ Сфера, 2009. 128 с.

2. Третьяков П. И., Белая К. Ю. Дошкольное образовательное учреждение: управление по результатам. М.: Новая школа, 2003. 304 с.

ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ЖАҲОН ТАЖРИБАСИ

*Низамова Шоира Исамиддиновна – PERFECT университети
“Бошланғич таълим” кафедраси в. б. доценти. E-mail: nizamova.shoira@bk.ru*

Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси мамлакатда янги жамият қуришнинг босқичма-босқич ва тадрижий ривожланиш принципига асосланган иқтисодий ва сиёсий ислохотларнинг қисми бўлиб хизмат қилади. Олий таълим муассасаларининг мустақиллигини кенгайтириш, улар фаолиятида давлат маъмурий бошқарувини кескин камайтириш ҳамда шу орқали ўзгарувчан меҳнат бозори талабларига жавоб бера оладиган юқори малакали кадрлар тайёрловчи давлат олий таълим муассасаларини шакллантириш мақсадида молиявий мустақиллик берилиши давлат олий таълим муассасаларига қуйидаги қўшимча ваколатлар беради. Таълим ва фан соҳасини ривожлантириш, фан ва ишлаб чиқариш уйғунлигини таъминлаш, ишлаб чиқаришни фан асосида қайта қуриш, фан ютуқларини ва ихтироларни ўз вақтида амалиётда жорий этиш жамият тараққиётида асосий омил бўлиши ҳаммамизга маълум. Жаҳондаги ривожланган мамлакатларнинг олий таълим тизимини ўрганиш асосида олий таълим муассасаларининг молиявий мустақил бўлиши бозор талаблари асосида мутахассислар тайёрлаш учун таълим йўналишлари ва қабул қилинувчилар сонини мамлакатнинг ривожланиши ва зарур мутахассисларга бўлган эҳтиёждан келиб чиқиб белгилайди. Ривожланган мамлакатлардаги университетларни бошқаришда қўлланилаётган усулларни генезисни Америка Қўшма штатларидаги бошқарув асосида кўриб чиқамиз. АҚШда олий таълимни ривожланиш стратегиясининг хусусиятлари номли мақоласида ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияси ХХІ аср жаҳонда юз бераётган глобаллашуви ва интеграция билан белгилаб, бунда илм - фан асосий рол ўйнаши ва жараён ривожланган мамлакатларда олиб борилаётган ислохотларда ҳам намоён бўлади.

Бостон коллежи профессори олим Бостон коллежидаги халқаро Олий таълимни ўрганиш марказининг асосчиси Филипп Ж. Алтбах ва олий таълим соҳасида халқаро эксперт Жамил Салми Америка тадқиқот университетларининг муваффақиятини нима таъминлаётганини аниқлашга

ҳаракат қилиб, бир қатор рақамларни ва уларга фаол таъсир кўрсатаётган омилларни аниқлайди.

Биринчи омил гуруҳига диверсификацияланган молиялаштириш манбалари киради. Бюджет маблағлари университетларда олиб борилаётган илмий тадқиқотларни молиявий қўллаб-қувватлаш учун сарфланмоқда.

Иккинчи омил юқори малакали ходимлар, олимлар, халқаро ва иқтидорли талабалар контингентининг мавжудлиги ва уларнинг рағбатлантириб борилиши. Барча ихтисослашган майдонлар, қандай ва нимани ўрганиш тўғрисида қарор кўпроқ академикка боғлиқ таркиби. Бошида хорижий мутахассисларнинг жалб этилиши АҚШ иқтисодиётининг илғор тармоқларини ривожлантиришда муҳим рол ўйнайди, мамлакатга иқтисодий, сиёсий ва маданий фойда келтиради. Бунда бошқа мамлакатлардан келган ўқитувчиларнинг меҳнат эмигранти сифатида келиши интеллектуал капитални кўпайтиришга ҳисса қўшади. Чет эллик ўқитувчилар янги иш ўринларида ўз мавқеини мустаҳкамлашга ҳаракат қилади. Бу уларнинг интилишида илмий тадқиқот билан шуғулланишида ва ҳаракатчанлигида акс этади.

Учинчи омил мамлакатда илмий тадқиқотни ва фаолиятни қўллаб-қувватловчи норматив-ҳуқуқий база билан белгиланган бошқарув мавжудлиги, унда университетлардаги “ички” бошқарув механизми юқори даражадалиги университетларда инвестиция сиёсатини яхши йўлга қўйилганлиги.

Эндиликда университет педагог ходимларини қўшимча рағбатлантириш тизими жорий қилинмоқда. Бу эса, табиийки, таълим сифати, меҳнат самарадорлиги ошиши, профессор-ўқитувчилар ва бошқа ходимларнинг ўз устида ишлаши, изланиши ҳамда ишга бўлган муносабати янада яхшиланишига, масъулияти кучайишига сезиларли таъсир кўрсатади.

АҚШнинг етакчи тадқиқот университетлари фаолияти самарадорлигини иқтисодий беқарорликка боғлиқлигини камайтириш, молиялаштириш манбаларини диверсификация қилиш, ўқитиш, илмий ва талабалар муҳитида истеъдодларни жамлаш, академик ҳаракатчанликни ва қулай бошқарув тузилмасини таъминлаш орқали динамик ривожланишни таъминлаши ва замонавий муаммоларга муносиб жавоб беради. Мамлакатда олий таълим тизими замонавий шароитда унинг инновацион ривожланиш йўлини танлаганлигидир. Бунинг учун улар стратегик режалаштиришга катта эътибор қаратган.

Америка университетнинг ривожланишини таъминлайдиган навбатдаги масала маркетинг таълим хизматларининг яхши йўлга қўйилганлиги. Университетнинг салоҳияти университетнинг бошқарувнинг тўғри ташкил

этилганлиги юқори салоҳият рақобат муҳитининг мавжудлиги билан белгиланадиги. Юқори сифатни таъминлаш мақсадида таълим хизматлари, барқарор рақобатбардошлик, самарали маркетингни шакллантириш ва уни амалга оширишга қаратилган дастурлар мавжудлигидир.

Университетнинг рақобатбардошлиги қуйидаги ҳолларда ошади тақдим этиладиган таълим хизматлари бозор талабларига жавоб бериши ва истеъмолчилар аудиториясининг истеъмолчилар катталиги. Бу параметрлар орасида таълим хизматларини алоҳида ажратиб кўрсатиш мумкин, таълим хизматларининг сифати, университет имиджини, таълим хизматлари турини, таълим хизматлари нархини ташкил этади.

С-таълим хизматлари сифати абитуриентлар сонининг ортиши олиб келади бу олимпиадалар, тайёргарлик курслари, талабалар фаолиятини баҳолаш учун; ўқитишнинг кредит тизимининг мавжудлиги, амалиётчиларни илмий ўқитиш фаолиятига жалб қилиши, миллий ва халқаро аккредитацияга тайёрлик, университетда ўзини ўзи баҳолаш ва сертификатлаш тизимининг мавжудлиги, етакчи хорижий университетлар билан стратегик ҳамкорлик,

замонавий ахборот технологиялари ва моддий-техник базаси бозор талабларига жавоб беришидир.

И-университетнинг имиджи фаол маркетинг сиёсати, реклама, ИТ дастурлари, очиқ эшиклар кунини ўтказиш, оммавий ахборот воситалари билан ҳамкорлик, давлат идоралари, ишлаб чиқариш компаниялари билан ҳамкорлик ишбилармон доиралар билан учрашувларнинг ташкил этилиши халқаро анжуманларнинг ўтказилиши билан белгиланади. Бундан кўринадики, стратегик бошқарув; операцион бошқарув, институционал бошқарув, сифат менежменти, benchmarking, маркетинги тадқиқоти, интеграциялашган ёндашув ва инсон ресурсларини бошқаришни ташкил этади.

Н-нарх АҚШ университетларида ўқиш нархи алмашиш дастурлари, муваффақиятга қараб имтиёзлар ва стипендиялар тизими пуллик асосда ўқитиш, қўшимча таълим хизматларидан иборат.

С-сервиз таълимнинг бой инфратузилмаси университетдаги жараёнлар билан масалан; нашриёт фаолиятини ривожлантириш, янги қурилиш университет биноларини кенгайтириш, лаборатория ва амалий машғулот майдонларини ташкил этишга қаратилган.

Европа олий таълим сифатини таъминлаш тармоғи ENQA бу бўйича етти тамайилни ишлаб чиқди:

1. Таълим сифатни баҳолаш меъёрларини.
2. Мониторинг қилиш ва даврий баҳолаш.
3. Талабаларнинг билим даражасини баҳолаш.

4. Профессор-ўқитувчиларнинг сифатини таъминлаш.
5. Ўқув ресурслари ва талабаларни қўллаб-қувватлаш.
6. Ахборот тизимлари ишлашини назорат қилиш.
7. Оммавий ахборот воситалари билан ҳамкорликнинг йўлга қўйиш.

Университетларда амалга оширилган юқоридаги бошқарув замонавий менежмент тамойиллари ва ёндашувлари университет фаолиятини такомиллаштириш, самарали ривожланиш имконини беради, шу билан бирга таълим хизматлари бозорида унинг рақобатбардошлигини оширади. Хорижий ривожланган мамлакатларда олий таълим тизимини ривожлантириш бу икки хусусияти марказий бошқарувга ва олий ўқув юртларида мутахассислар тайёрлашни бозор муносабатлари талабларидан келиб чиққан ҳолда уларни диверсификациялаштиришга асосланади.

Ривожланган мамлакатлардаги олий таълимни бошқариш тажрибасини АҚШ мисолида ўрганиш бошқарув стратегиясини танлаш ва олий таълимни ташкил этишда самарали модернизация қилишнинг ўзига хос усулини топишга ёрдам беради.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.10.2019 йилдаги ПФ-5847-сон “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020 й

2. Фомина О.И. Особенности стратегии развития высшего образования в США в современных условиях // Образование и наука. 2014. № 10. С. 118–130.

3. Фоменко С.Л. Приоритетные направления профессионального становления и развития педагогического коллектива современной школы. // Инновационные проекты и программы в образовании. 2015. № 1. С. 28–32.

4. Усик Е. В. Совершенствование системы управления вузом: зарубежный опыт в контексте болонского процесса. Развитие человеческих ресурсов. 2012. стр-233-239.

5. Ливандовская А. Внешняя и внутренняя среда вуза: влияние на качество образования // Высшее образование в России. 2006, № 7.

6. Jeffrey W. Alstete/Benchmarking in Higher Education. Adapting best practices to improve quality/1995/ ERIC Clearing house digests/EDO-HE-95-5.

7. Филиппов В. М. Управление в высшей школе: опыт, тенденции, перспективы. – 2-е изд. – М.: Логос, 2006.

8. Nizamova Sh.I. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi taraqqiyoti jarayonida oliy ta'lim tashkilotlarini boshqarishning pedagogik mexanizmlari. www.journal.namdu.uz ISSN: 2181-0427. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2023. №6. Б-763-767.

МАКТАБ ТА'ЛИМИНИ КРЕАТИВ БОШҚАРУВ АСОСИДА ТАШКИЛ ҚИЛИШНИНГ МОҲИЯТИ, НАЗАРИЯСИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

Mexmonov Ismat Toshpo'latovich – A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti, o'quv jarayonini tashkil qilish bo'limi boshlig'i, mustaqil tadqiqotchi.

Аннотация. Мақоллада мактабларда та'лим тизimini kreativ boshqaruv asosida tashkil qilishning mohiyati, nazariyasi, evolyutsiyasi, zamonaviy shakllari, hozirgi holati va istiqbollari ilgari surilgan.

Калит со'злар. Kreativ boshqaruv, fan, ta'lim va biznes, innovatsiya, raqamli O'zbekiston, drayver, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompetensiya, investitsiya, intellektual mulk, ishlab chiqarish korxonalarini, zamonaviy texnika va texnologiyalar, kichik texnologiyalar.

Аннотация. В статье представлены сущность, теория, эволюция, современные формы, современное состояние и перспективы организации системы образования в школах на основе креативного менеджмента.

Ключевые слова. Креативный менеджмент, наука, образование и бизнес, инновации, цифровой Узбекистан, драйвер, информационные и коммуникационные технологии, компетенции, инвестиции, интеллектуальная собственность, производственные предприятия, современная техника и технологии, малые технологии.

Annotation. The article presents the essence, theory, evolution, modern forms, current state and prospects of organizing the educational system in schools based on creative management.

Keywords. Creative management, science, education and business, innovation, digital Uzbekistan, driver, information and communication technologies, competence, investment, intellectual property, production enterprises, modern equipment and technology, small technologies.

Bugungi kunda boshqaruv yoki boshqaruvlashtirish asosida ishlab chiqarish, ta'lim, ilmiy faoliyat va umuman deyarli barcha tarmoqlarda bosqichma-bosqich tarzda boshqarishda o'z ifodasini topmoqda. Boshqaruvlashtirish jarayoni o'tgan asrning birinchi yarmida ommalashdi. Bunda ishlab chiqarish korxonalarini bozor

tizimida o‘zlarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida birlashishga harakat qilib, har xil tuzilmaviy ko‘rinishda hamkorlik qilish yoki birlashgan holda o‘z faoliyatlarini tashkil qilishga harakat qilishgan. So‘ngra, faoliyatni boshqaruvlashtirish bilan bog‘liq jarayonlar davlat boshqaruvi, hamda ilmiy-tadqiqot sohasi bilan shug‘ullanuvchilarda ham qiziqish uyg‘otdi. Shuningdek, ta‘lim jarayonini boshqaruvlashtirish bo‘yicha ilmiy qarashlar paydo bo‘la boshlaydi.

Birinchi marta “boshqaruv” atamasini fanga Maykl Yudjin Porter o‘zining 1990-yilda chop ettirgan asarlari orqali kiritgan. Maykl Yudjin Porterning klassik dunyoqarashlariga ko‘ra “boshqaruv-bu geografik jihatdan bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq maxsus ta‘minotchi, xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalar, bir xil sohada faoliyat ko‘rsatuvchi firmalar, shuningdek, o‘zaro raqobat asosida birgalikda va bir yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatuvchi tashkilotlardir”. Uning fikriga ko‘ra, rivojlangan va rivojlanayotgan soha yoki tarmoqlar aynan boshqaruvni tadbiq etish yoki uning ba‘zi bir elementlaridan foydalanish orqali yuqori natijalarga erishilgan. Jami 9 ta mamlakatda 100 dan ortiq tarmoqlarni tahlil qilgan olim shunday xulosaga keladiki, yuqori raqobatbardoshlikka ega bo‘lgan transmilliy kompaniyalarning rivojlanishi bir nechta davlatlarga bo‘linib ketgan tashkilotlarning mustaqil harakat qilishi orqali emas, balki tizimli ravishda bitta davlat yoki bitta mintaqaga konsentratsiyalashuvi orqali erishgan. Tizimli yondashuv jihatiga ko‘ra, “boshqaruv-bu aniq bir maqsad asosida faoliyat ko‘rsatayotgan, bir-biri bilan o‘zaro funksional bog‘liq va o‘zaro mas‘ul, yagona tuzilma asosida birlashgan har xil tarmoqlar sub’ektlarining uyushmasidir”. M. Porter kompaniyalarning boshqaruv ichidagi raqobatbardoshligi ko‘p hollarda uning iqtisodiy raqobatbardoshlik jihatlari bilan aniqlanishini ko‘rsatib berdi.

Bu o‘rinda shu qayd etish lozimki, M. Porter boshqaruv to‘g‘risidagi tushunchalarni ichki va tashqi bozor tizimida hamkorlik qilayotgan firma va kompaniyalar faoliyati asosida bayon qilingan. Lekin uning tadqiqot natijalari internet hali rivojlanmagan davrda chop etilgan edi. Shuning uchun M. Porter ma‘lumot bergan boshqaruv ma‘lum bir joyda joylashgan firma va tashkilotlarning hamkorligi sifatida bayon qilingan. Bugungi kunda esa masofaviy yaqinlik boshqaruv komponentlari orasidagi o‘zaro aloqa imkoniyatini oshirmoqda. Yana shuni ham qayd etish maqsadga muvofiqki, boshqaruv faoliyati masofaga bog‘liq bo‘lmagan holdagi tushunchalar ham e‘tirof etilmoqda. Bunday holatlarda boshqaruv tarmoqli aloqa tizimida faoliyat ko‘rsatishi qayd etiladi .

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotda vaqt o‘tishi bilan boshqaruv nazariyasi rivojlandi va ma‘nosi to‘ldirildi, ya‘ni: sanoat boshqaruvi, ilmiy-tadqiqot yoki ilmiy-texnologik boshqaruv, ta‘lim boshqaruvi, innovatsion boshqaruv va boshqalar. Bu jamlamalarni barchasi boshqa turli ishlab chiqarish korxonalarini, ilmiy-tadqiqot va

ta'lim tashkilotlari, hokimiyat vakillari, biznes-hamjamiyati va fuqarolik jamiyatining kooperatsiya shakllari bo'lib, bir-birlari va umuman tizimdagi samarali o'zaro faolligi va raqobatbardoshligini oshirishlarida namoyon bo'lmoqda.

Shu singari "boshqaruv" atamasi ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan tegishli tushunchalar asosida ta'riflangan. Jumladan, Schmits tomonidan "Boshqaruv-bitta sohaga birlashgan va bir-bibr bilan uzviy aloqada bo'lgan korxonalar guruhi"; Swan and Prevezer o'z tadqiqot natijalariga ko'ra bergan ta'riflarida "Boshqaruv-bitta geografik hududda joylashgan va bitta tarmoqni tashkil qiladigan firmalar guruhi"; Porter fikricha, "boshqaruv-maxsus sohalar bo'yicha bitta geografik hududda faoliyat yuritayotgan, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiruvchi kompaniyalar, institutlar guruhi"; Elsner "boshqaruv- gorizontal va vertical ravishda funksional bog'liq bo'lgan firmalar guruhi"; Steiner and Hartman "boshqaruv-jamoaviy, xususiy va yarim jamoaviy ko'rinishda bir-biri bilan bog'liq va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi firmalar, tadqiqot va rivojlanish institutlari guruhi"; Bergman and Feser ta'rificha, "boshqaruv-tijorat va notijorat tashkilotlari guruhi bo'lib, u guruhda faoliyat yuritayotgan har bir firmaning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi"; Haang ta'biricha, "boshqaruv- hududiy konsentratsiyalashuvga asoslangan va texnologik zanjirga bog'langan Tovar vax om ashyo yetkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilarni birlashtirgan industrilashgan majmua"; Andersson ta'rificha, "boshqaruvlashtirish bu umumiy olganda, bitta geografik hududda konsentratsiyalashgan va ma'lum bir aniq vazifani yechishga qaratilgan va biri biri bilan uzviy aloqada bo'lgan firmalar guruhi bo'lib, ular jamoaviy raqobatlashuvni mustahkamlash maqsadida ishchi kuchlarining o'zaro birlashuvi jarayonidir", - deb ta'riflangan.

Boshqaruv nazariyasini shakllanishi bir necha bosqichlardan o'tgan: A. Marshall va M. Porterning XIX-XX asr sanoat boshqaruv konsepsiyasidan G.Itskovits va D. Gibbonsning zamonaviy konsepsiyasigacha .

M. Porter tomonidan yirik kompaniyalarga kichik kompaniyalarni qo'shilishi raqobatbardoshligini anchagina sekinlashtirishga olib kelish orqali butun iqtisodiyotni ham sekinlashishiga ta'siri aniqlangan.

Marshall bu holatda kichik kompaniyalar uchun ularni geografik yaqinligi himoya mexanizmi bo'lib xizmat qilishini ta'kidlagan. Agar ular bir tumanda joylashgan bo'lsa, yirik kompaniyalarga nisbatan ilg'or holat bo'ladi. Bunda sohani mahalliy lashtirish nisbatan yuqori bo'lib, kichikfirmalarni o'rnini mustahkamlaydi.

Boshqaruv tadqiqotchilarini ahamiyatli jihati sifatida M. Porter tomonidan yaratilgan boshqaruv ichidagi raqobatni ko'rsatish mumkin. Bu jihatlarni Porter o'rganishi natijasida XX asrda ko'plab davlatlar hududlarini boshqaruvlashtirishga olib kelishini qayd etadi. 1980 yilda Porter tomonidan rombsimon model taqdim etilib, u dastlab "The competitive advantage of nations" kitobida keltiriladi. Bunda

kompaniya va sohalarni iqtisodiy rivojlanishini samarali variant, hamda milliy iqtisodiyotlarni raqobatbardoshligini oshiradi

M. Porterning mulohazalariga ko'ra, "boshqaruv" bu-bir-biriga bog'liq bo'lgan bir nechta korxonalarining to'plamidan iborat bo'lgan, ya'ni asosiy vositalarni yetkazib beruvchilar, maxsus xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar, mahsulot yoki xom ashyo yetkazib beruvchilar, ilmiy-tadqiqot institutlari, ta'lim muassasalari va boshqa barcha bir-birining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladigan va o'z navbatida, boshqaruvning hamrivojlanishini ta'minlaydigan o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatuvchilarning jamlanmasidir. Porterning ta'kidlashicha, qaysi davlat yoki mintaqada boshqaruvlar rivojlangan bo'lsa, o'sha hududda istiqomat qilayotgan aholining turmush farovonligi va kompaniyalarning raqobatlashuvi ham yuqori bo'ladi.

Boshqaruv vertikal integratsiyalashgan tuzilmalardan, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni tashkil etishga innovatsion yondashuv, ixtisoslikning qayishqoqligi, shuningdek, alohida korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va ishlab chiqarish zanjiri doirasida moslashtirilishi bilan farqlanadi.

Olib borilayotgan tadqiqotlar samarasi o'laroq, "boshqaruv", uning imkoniyatlari, rivojlanishni ta'minlashda tutgan o'rnini bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan. "Boshqaruv" ni nazariy-uslubiy jihatdan ta'riflash, uning mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan xorijiy olimlarning talqinlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular tomonidan keltiriladigan fikrlarning hammasi samarali iqtisodiy muhitni shakllantirishi, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishi hamda Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan resurslarni kam miqdorda ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Boshqaruv turli iqtisodiy faoliyat ko'rinishlariga ixtisoslashtirilgan infratuzilmaviy tashkilotlar va strategik tadbirkorlik tuzilmalari guruhi sifatida namoyon bo'ladi.

Yu. Gusevning fikriga ko'ra, boshqaruvlar o'z-o'zini mustaqil tashkil etish usuli bilan tajribada sinalgan va nazariy jihatdan qayta ishlangan hisoblanadi. Boshqaruvli mafkura samarasiz tarmoqli yondashuvdan ishlab chiqarishni tashkil etishning takomillashgan shakllariga o'tishning kuchli vositasiga aylanishi mumkin

Ijtimoiy rivojlanishning axborot iqtisodiyotga o'tish bosqichida Tovar (mahsulot)lar emas (ularning sifati ko'pincha bir xil bo'ladi), balki korxonalar raqobatlashadi. Oqibatda asosiy raqobat ustunligi tovarning xususiyati bilan emas, firmaning ishlab chiqargan tovarlarini sotish, harajatlarini qisqartirish imkoniyatlari va vakolatlari bilan belgilanadi. Hududni rivojlantirish uchun boshqaruvli tuzilmalarni shakllantirish – qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, mahalliy byudjetdaromadlarini oshirish, vakolatlarni taqsimlash, tadbirkorlik tuzilmalari bilan o'zaro ta'sirlashtirish, axboot ayirboshlashni jadallashtirish va yangiliklarni targ'ib etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsion

faolligini oshirish, hududning innovatsion jozibadorligini jadallashtirish hamda hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish bo'yicha yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Tadbirkorlik tuzilmalari uchun boshqaruvlar-bu yirik investitsiya loyihalarida ishtirok etish, qo'shimcha daromad olish, yangi bozorlarga chiqish, innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha harajatlarni qisqartirish, innovatsion faoliyatni infratuzilmaviy ta'minlash, xodimlar malakasini oshirish, kichik korxonalarni innovatsion faoliyatga jalb etish va pirovardida raqobatbardoshlikni oshirish uchun imkoniyat hisoblanadi. Bunda, har bir boshqaruv ishtirokchisi- korxonalar o'z maqsadini ko'zlagan holda nafaqat o'z xo'jalik faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradi, balki tadbirkorlik infratuzilmasini shakllantirishga ko'maklashgani holda, samaradorligi va raqobatbardoshligining o'sishiga xizmat qiladi.

Hududiy boshqaruvda ishtirok etish maktab ta'lim muassasalari uchun ham jozibador bo'lishi mumkin, chunki bu ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirish hajmi va sifatini oshirish, ilmiy tadqiqot ishlarining texnik ta'minoti darajasini yuksaltirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda tashqi loyihalarda ishtirok etish, ilmiy pedagogik kadrlar malakasini oshirishning yangi imkoniyatlaridan hisoblanadi.

Hududiy boshqaruvlarni shakllantirishning xorij tajribasi tahliliga ko'ra, ikkita asosiy model mavjud bo'lib, uning doirasida "liberal" va "dirijist" boshqaruv siyosati amalga oshiriladi. "Liberal" siyosatning asosiy tamoyili shundaki, bunda bozor munosabatlari hukmron kuchga ega bo'ladi, davlatning roli esa, faqatgina tabiiy rivojlanishdagi to'siqlarni bartaraf etishdan iborat bo'ladi. "Dirijist" boshqaruv siyosatida davlat itisodiy boshqaruvlashtirishning mintakaviy va tarmoqli ustunliklarini tanlashi; boshqaruvning infratuzilmaviy ta'minotini rivojlantirishi; boshqaruv tashkil qilinayotgan hududni tanlash jarayonida faol ishtirok etishi mumkin.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda hududiy boshqaruvlarni tadqiq etish ommabop mavzuga aylangan. Olimlar ularni turli xildagi rivojlanish jihatlarini tahlil qilishda davom etmoqdalar. Bugungi kunda ular tomonidan hududning raqobat ustunliklarini shakllantirish, mintaqaviy rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hamda korporativ sektorning o'zaro ta'sirini qulaylashtirish, mintaqaviy ta'lim tizimida ta'lim sifati va innovatsion faollikni oshirishda boshqaruvlarning o'rniga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'proq uchramoqda.

Kreativ boshqaruvga asoslangan boshqaruvni faqat bir qator infratuzilmaviy va noinfratuzilmaviy ko'rsatkich(parametr)lar mavjud bo'lgandagina tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bular:

1. Infratuzilmaviy shart-sharoitlar:

-boshqaruvlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini boshqaruv ishtirokchilarining salohiyati va tadbirkorlik tizimini rivojlantirish xususiyatlari, hududning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda rasmiylashtirish. Boshqaruvlarni rivojlantirishning ustuvorliklari va vazifalarini belgilab olish (hududning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish strategiyasiga boshqaruvlarni rivojlantirish dasturlarini kiritish, byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘larni ajratish);

-ilmiy-ta‘lim asosi, malakali ishchi kuchi, davlatning ilmiy texnika taraqqiyoti va konstruktorlik ishlari(ITTKI)dan tadbirkorlik tuzilmalarining foydalanish imkoniyatining mavjudligi, ta‘lim sektoriga ega bo‘lgan yirik tashkilotlardagi ishlab chiqarishning manfaatdorligi;

-boshqaruv ishtirokchilari o‘rtasida kommunikatsiyani rasmiy va norasmiy axborot, bilim va kasbiy tajriba almashish asosi sifatida rivojlantirish. Boshqaruvlarni umumiy boshqarish tamoyillari manfaatdor tomonlardan hamkorlikdagi harakatlanish uchun ishonch va oshkoralikni ta‘minlash. Kreativ boshqaruvdan foydalanish asosida ishlab chiqarish harakatlarini uzoq vaqt rejalashtirish va strategik bashoratlash;

-boshqaruvli tuzilmalarni rivojlantirish vositasi sifatida davlat buyurtmalari hamda davlat xususiy hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash;

-tadbirkorlik sub‘yektlariga tajriba almashish va o‘z manfaatlarini himoya qilish imkonini beruvchi hududiy boshqaruvlarni shakllantirishda ijtimoiy birlashmalarning ishtiroki.

2. Noinfratuzilmaviy shart-sharoitlar:

-xududlarda milliy va jahon bozorlarining jo‘shqin rivojlanayotgan segmentlarida amal qilayotgan hududiy raqobat ustunliklaridan foydalanuvchi gorizonta va vertikal birlashtirilgan tadbirkorlik tuzilmalarining mavjudligi;

-zamonaviy texnologiyalardan foydalanuvchi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi, bir yoki bir necha turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlari sonining ortishi;

-biznes tuzilmalari vakillarining boshqaruvda ishtirok etish zaruratini anglab yetishlari .

Hududiy boshqaruvlar doirasida tadbirkorlik faoliyatini infratuzilmaviy ta‘minlashning ustuvor jihatlaridan kelib chiqib, ularning quyidagi turlarini taklif etish mumkin :

innovatsion jihatdan yo‘naltirilgan fan va ta‘lim muassasalari ishtirokida hududiy iqtisodiyotning o‘xshash sektorlari shakllanadi;

vertikal birlashgan ishlab chiqarish jarayonining yondash bosqichlari asosida iqtisodiyotning muayyan sektorida boshqaruv tizimini shakllantiruvchi vertikal ishlab chiqarish zanjiri shakllanadi;

konglomerat (tasodifiy) - mintaqaning iqtisodiyot sektorlari va iqtisodiy faoliyat turlarining yuqori asoslangan yig'indisi shakllanadi.

Boshqaruvga kreativ boshqaruvni tatbiq etishga oid xorij va maxalliy tajriba, nazariya va uslubiyatni o'rganish asnosida boshqaruvni tatbiq etish tadbirkorlik faoliyatining xususiyatlariga mos keluvchi infratuzilmaviy ta'minot mavjud bo'lgandagina samarali hisoblanadi, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, hududda vertikal birlashtirilgan boshqaruvning tarkibida, uning rivojlanish bosqichiga bog'liq holda bozor infratuzilmasining quyidagi bosqichlarda institutlarini yaratish tizimini faollashtirish lozim:

1-bosqich. Boshqaruvning doimiy ishtirokchilarini aniqlash va iqtisodiy boshqaruvlashtirishning mintaqaviy strategiyalarini ishlab chiqish - savdo-sanoat palatasi.

2-bosqich. Boshqaruvlarni rivojlantirishning ustuvor yunalishlari bo'yicha tajriba loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish - davlat xaridlarini avtomatlashtirish tizimlari.

3-bosqich. Boshqaruvlarni rivojlantirishning strategik loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish - logistik markazlar, onlayn maydonlari.

4-bosqich. Boshqaruvlarni o'z-o'zini tartibga solib rivojlantirish - axborot-marketing markazlari .

O'rta muddatli istiqbolda vertikal birlashtirilgan boshqaruvlarni rivojlantirishning maqsadli yo'nalishini muvofiqlashtirish va raqobat tamoyillarida takror ishlab chiqarish jarayonida tadbirkorlik tuzilmalarining o'zaro ta'sir ko'rsatish mexanizmini qayta tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunga "pastdan" boshqaruvli tashabbusni amalga oshirishga qaratilgan boshqaruv siyosati ko'maklashadi. Boshlang'ich bosqichda boshqaruvlar va ularning ishtirokchilari o'z-o'zlarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirishda bir-birlariga muhtoj hisoblanadi. Savdo- sanoat palatasi ushbu yo'nalishda yordam ko'rsatuvchi institut hisoblanadi. Vertikal birlashtirilgan boshqaruv potensial razryaddan amal qiluvchi toifaga o'tishi uchun hududda ma'lum infratuzilmaviy sharoitlar, jumladan, tegishli bozorlarga boshqaruv korxonalarining kirishi, xom ashyo, xodimlar va logistik ta'minotdan foydalanish imkoniyatlari yaratilishi lozim .

Bunda boshqaruvlar iqtisodiy tizimni mustaqil tashkil etishning yangi turlarini namoyon etadi, boshqaruv siyosati esa hududiy siyosatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, uni amalga oshirish zamirida loyihaviy boshqaruv yondashuvi yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduraxmonov O. Fan, ta'lim va ishlab chikarish integratsiyasi. Tashkent, "Fan va texnologiya", 2014.

2. Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент. - СПб.: Питер, 2009.
3. Варфоломеев А. Г. Креативный менеджмент в практической деятельности организации // Известия ТулГУ. Экономические и юридические науки. – 2016.
4. Божидарник Т.В. Креативный менеджмент: конспект лекций для подготовки докторов философии / Т.В. Божидарник, Н.М. Василик. – Луцк: Луцкий НТУ, 2018
5. Ворошилова О.С., Прихунова Ю.А. Креативный менеджмент // Экономика и менеджмент инновационных технологий. – 2016. – № 5. [Электронный ресурс]. URL: <http://ekonomika.snauka.ru/2016/05/11463>

MAKTABLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHDA DEMOGRAFIK OMILLARNING AHAMIYATI HAMDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Muradov Ikrom Turdiboyevich – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi. Tel: (95) 002-50-90 E-mail: muradov_ikrom@mail.ru

Annotatsiya: Statistika – bu raqamlar va sonlar tizimidir. Biz kundalik turmushimizning har qadamida raqam va sonlarni ishlatamiz. Statistika o‘rganadigan muammolarning asosiy qismi sonlar vositasida tabiiyroq va osonroq ifodalanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida 2023-yil aholini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonida ta’lim tizimining iqtisodiy va ijtimoiy jihatlariga alohida e’tibor berish dolzarb masala hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Statistik ma’lumotlar, raqamli iqtisodiyot, demografiya, maktablar, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim, indikator.

Аннотация: Статистика представляет собой систему чисел и цифр. Мы используем числа и цифры на каждом этапе нашей повседневной жизни. Большинство задач, изучаемых в статистике, более естественны и их легче выразить в числах. В частности, при регистрации населения в Республике Узбекистан в 2023 году важно уделять особое внимание экономическим и социальным аспектам системы образования.

Ключевые слова: статистика, цифровая экономика, демография, школы, учителя, учащиеся, начальное образование, среднее образование, индикатор.

Annotation: Statistics is a system of numbers and figures. We use numbers and figures in every step of our daily lives. Most of the problems studied in statistics are more natural and easier to express in numbers. In particular, in the process of population registration in the Republic of Uzbekistan in 2023, it is important to pay special attention to the economic and social aspects of the education system.

Keywords: Statistics, digital economy, demography, schools, teachers, students, primary education, secondary education, indicator.

Rasmiy statistika asosida xalq ta'limi tizimida yagona davlat siyosatiga mos chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini o'rganish, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistika axborotlarini yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish, O'zbekistonda xalq ta'limi tizimi ko'lamini, jumladan, xalq ta'limi sohasidagi muammolarni tahlil qilish va ularga yechim izlab topish mexanizmini yo'lga qo'yish, maktablar, o'quvchilar, o'qituvchilar soni va uning mamlakat aholisi sonidagi ulushining hozirgi statistik holatini tahlil etish, xalq ta'limi tizimi statistikasini takomillashtirish, ushbu sektorda ma'lumotlar qamrovi to'liqligini ta'minlash bilan bog'liq muammolarni o'rganish hamda ularni bartaraf etish, mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish, bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi.

Dunyoda statistik tadqiqotlar bazasini shakllantiruvchi mamlakatlar asosan xalq ta'limi kichik tarmoqlar tizimidan foydalanadilar, bu esa mazkur ko'rsatkichlarni mamlakatlararo taqqoslash va tahlillar olib borish imkonini beradi. Quyida ayrim mamlakatlarda xalq ta'limi sektorining ulushini statistik baholash tajribasi tahlil qilingan.


Janubiy Koreyada xalq ta'limi sektori ko'rsatkichlarini aniqlash hamda uni hisoblash, BMT Statistika bo'limi metodologiyasidan farqli ravishda xalq ta'limi tizimi statistikasi alohida-alohida ajratilgan holda shakllantiriladi.

Malayziya tajribasida esa, xalq ta'limi statistikasi hisob-kitoblarini Malayziya statistika departamenti tomonidan amalga oshiriladi. Malayziyada BMT Statistika bo'limi metodologiyasidan farqli ravishda xalq ta'limining yig'ma ko'rsatkichlari shakllantiriladi.


Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga asosan, dunyo aholisi soni 7,9 mlrd kishi, shundan 3,97 mlrd erkaklar, 3,93 mlrd ayollar bo'lib, jami dunyo aholisining 91% erkaklar va 88% ayollar boshlang'ich maktab ta'lim ma'lumotiga ega, o'rta ta'lim ma'lumotiga ega bo'lgan jami dunyo aholisining erkaklar va ayollari 66% ni tashkil etsa, jahon aholisining 36% erkaklari va 41 ayollari oliy ma'lumotga egadirlar (1-2 diagrammalar).

1-diagramma.

Dunyo aholisi va ularning ma'lumoti ko'rsatkichlari



2-diagramma.



Fikrimizni asoslovchi statistik ma'lumotlarning tahlilidan xulosa qilish mumkin-ki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 11 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida 2023 yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorganlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 710-sonli qaroriga muvofiq, respublikamizda 2023 yilda aholi ro'yxatdan o'tkaziladi. Respublikamizda oxirgi marta aholini ro'yxatga olish ishlari amalga oshirilganligiga 30 yil bo'ldi. Buning natijasida aholining haqiqiy hayot tarzini o'rganish va ularga amaliy yordam ko'rsatishda qator qiyinchiliklar vujudga keldi. O'zbekiston Respublikasida 2023 yil aholini ro'yxatdan o'tkazish jaryonida xalq ta'limi tizimining o'rni qanday bo'ladi? Bu borada, jahon ta'lim tizimi statistikasi qay darajada shakllangan? Aholini ro'yxatga olishda ta'lim tizimi statistikasining hisoblash metodologiyasi bormi?

Ushbu maqolamizda O‘zbekiston Respublikasining 2000 yildan 2021 yilgacha aholi soni o‘sishi tahlil qilinsa, 2009-2010 o‘quv yili boshiga 4909148 nafar o‘quvchi 9791 ta maktabda ta’lim olgan, 2019-2020 o‘quv yili boshiga esa 10008 ta maktabda 6168198 nafar o‘quvchi ta’lim olgan, 2019-2020 o‘quv yilida 2009-2010 o‘quv yiliga nisbatan o‘quvchilar soni 20,42 foizga (1259050 o‘quvchiga, bir yilda o‘rtacha 125905 nafar o‘quvchiga) oshgan, maktablar soni esa 2019-2020 o‘quv yilida 2009-2010 o‘quv yiliga nisbatan ya’ni 10 yilda 2,97 foizga (299 ta) oshgan.

2009-2010 o‘quv yilida o‘rtacha har bir maktabda 501 nafar o‘quvchi o‘qigan, 2019-2020 o‘quv yilida esa o‘rtacha har bir maktabda 611 nafar o‘quvchi ta’lim olgan. O‘tgan o‘n yil davomida maktab qurilishining orqada qolayotganligi sababli, har bir maktabga bir yilda qo‘shimcha ravishda o‘rtacha 110 nafar o‘quvchi qabul qilishiga to‘g‘ri kelmoqda. Tahlillar natijasiga ko‘ra, o‘n yil davomida O‘zbekistonda o‘rtacha 20 foizga aholi soni oshib borsa, 2030 yilga kelib O‘zbekiston Respublikasida aholi soni 41470,32 mingdan oshib ketishi prognoz qilingan bir vaqtda, kelgusi o‘n yil davomida o‘rtacha 21 foizga o‘quvchilar soni oshib borsa, 2030 yilga kelib O‘zbekiston Respublikasida o‘quvchilar soni 7463520 dan, ya’ni bir yilda 746352 nafar o‘quvchidan oshib ketishi prognoz qilinmoqda. 2030 yilda bir maktabda o‘rtacha 500 nafar o‘quvchi ta’lim olganda o‘rtacha 14927 maktablar faoliyat ko‘rsatishi talab etiladi. Shundan kelib chiqib, 2030 yilgacha har yili mamlakatimizda 4837 ta yangi maktablar yoki qo‘shimcha binolar qurilishi lozim bo‘ladi.

Xalqaro tajribalar va tahlillardan kelib chiqib, aytish mumkin-ki, ijtimoiy hayotda o‘z fikr va mulohazalarimizni tasdiqlash yoki isbotlash uchun har kuni bir qancha tushuncha yoki ma’lumotlarni ishlatamiz va qo‘llaymiz. Masalan, inflyatsiya, aholi, hosildorlik, o‘rtacha yosh yoki oylik ish haqi, valyuta kursi, kasalni tuzalishi vaqti, yalpi ichki mahsulot, o‘rtacha tezlik, baho, tannarx va hokazo. Ushbu ko‘rsatkich yoki ma’lumotlar qanday aniqlanadi? Bugungi kunda statistikani o‘rganishda xalq ta’limi tizimi xodimlari ayrim qiyinchiliklarga va qarama-qarshi fikr hamda yo‘nalishlarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun ham xalq ta’limi tizimida statistikadan foydalanuvchilar yuqoridagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda statistik metodlarni qo‘llashi tavsiya etiladi. Ya’ni statistik kuzatish, jamlash, guruhlash, jadvallar, grafiklar, mutloq, nisbiy va o‘rtacha ko‘rsatkichlarni o‘rganish, tanlanma kuzatish, dinamika qatorlari, indeks usullari va boshqalarni ko‘rib chiqishi lozim.

Shuningdek, eng avvalo aholini ro‘yxatga olishni demokratlashtirish zarur, bugungi kunda, dunyoning ko‘pgina davlatlarida, aholini ro‘yxatdan o‘tkazishning ananaviy va reestr usullaridan foydalanib kelinmoqda. Ba’zi davlatlarda esa, masalan, Latviya ta’lim tizimida statistik hisobni yuritishning yagona reestri mavjud emas.

O‘zbekiston Respublikasida 2023-yil aholini ro‘yxatdan o‘tkazish jaryonida ta’lim tizimining iqtisodiy va ijtimoiy jihatlariga alohida e’tibor berish kerak deb hisoblaymiz. Aholini ro‘yxatga olishda ta’lim tizimi uchun alohida indekatorlar tuzilishi kerak. Indikatorlarni tuzishda nimalarga e’tibor berish kerak?:

-aholini ro‘yxatga olishda ta’limi tizimi uchun alohida indikatorlarni ishlab chiqqan chet ellik ekspertlarni taklif etish va ular tajribasidan ijodiy foydalanish;

- aholini ro‘yxatga olishda demografiyani, shuningdek, geografik lonshaftni ham hisobga olinish lozim.

Xulosa qilib aytish mumkin-ki, ushbu dolzarb muammoni hal etish uchun davlat umumta’lim maktablari bilan raqobatlashadigan xususiy maktablar, davlat sherikchiligi asosidagi va xorijiy sherikchilik asosidagi maktablar, xorijiy maktablarning filiallari, yirik korxonalar, tashkilot, klasterlar va oliy ta’lim muassasalarining maktablarini tashkil etish, maktablarda o‘quvchilarni qabul qilish sig‘imi, har bir sinfdagi o‘quvchilar son-me’yori, maktablarning moddiy-texnika bazasi ta’minoti va holati, o‘tiladigan fanlarni malakali mutaxassis o‘qituvchilar bilan qamrab olinganligi, asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlanganligi kabi dolzarb masalalarni hal etishda asosiy omil bo‘lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://data.worldbank.org/indicator/SE.SEC.PRIV.ZS?end=2020&start=1997&view=chart>
2. <https://www.worldbank.org/en/topic/teachers>
3. <https://data.worldbank.org/indicator/SE.SEC.TCHR.FE.ZS>
4. www.stat.uz

MAKTAB TA’LIMI STATISTIKASINI SHAKLLANTIRISHDA DEMOGRAFIK OMILLARNING O‘RNI VA ROLI

Muradov Ikrom Turdiboyevich – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi. Tel: (95) 002-50-90 E-mail: muradov_ikrom@mail.ru

Annotatsiya: Maktab ta’limi tizimi O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Aynan maktab ta’limining sifati va qulayligi davlatning rivojlanish istiqbollari aks ettirib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi. Lekin bugungi kunda o‘qituvchiga ehtiyoj qancha ekanligini aniqlash muhim hisoblanadi.

Аннотация: Система школьного образования является одним из приоритетов социальной политики Узбекистана. Именно качество и удобство школьного образования отражают перспективы развития страны и создают

основу для подготовки высококвалифицированных кадров. Но сегодня важно определит, насколько нужен учител.

Annotation: School education system is one of the priorities of social policy in Uzbekistan. It is the quality and convenience of school education that reflects the country's development prospects and creates a basis for training highly qualified personnel. But today, it is important to determine how much a teacher is needed.

Kalit soʻzlar: taʼlim-tarbiya, pedagog, toifa, qonunchilik asoslari, ehtiyoj, soʻrovnomma va tahlil natijalari.

Ключевые слова: образование, педагог, категория, правовая основа, потребность, результаты опроса и анализа.

Key words: education, pedagogue, category, legal basis, need, survey and analysis results.

Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonuni, Taraqqiyot strategiyasi va Davlat dasturlarida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan hamda taʼlim toʻgʻrisidagi bir qancha qonun va qonun osti hujjatlarining qabul qilinishi taʼlim mazmunini tubdan oʻzgartirdi.

Maktab taʼlimi tizimi Oʻzbekistonda ijtimoiy siyosatning ustuvor yoʻnalishlaridan biridir. Aynan maktab taʼlimining sifati va qulayligi davlatning rivojlanish istiqbollari aks ettirib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida maktab ishlari davlat nazoratida ekanligi bejizga taʼkidlangan emas.

Abdulla Avloniy aytganidek *“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”*.

Taʼlim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga koʻtarish maqsadida, soʻnggi besh yil davomida maktab taʼlimi tizimini takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratildi. Xususan, “Taʼlim toʻgʻrisida” Qonunning yangi tahriri qabul qilindi, Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimini **2030 yilgacha** rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Maktab taʼlimini rivojlantirish sohasida bevosita **17 ta** hujjat, jumladan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining **4 ta** hujjati qabul qilindi.

Buning natijasida maktablarda faoliyat olib borayotgan pedagog va rahbar xodimlarning maoshi oshirildi. Maktab taʼlimi xodimlariga uy, yer, maishiy texnika, chorva va mashina sotib olish uchun imtiyozli kreditlar berish tizimi joriy etildi. Ular uchun maxsus davlat mukofoti taʼsis qilindi. Oʻqituvchilarni boshqa ishlarga jalb etish, maktablarda asossiz tekshiruvlar oʻtkazish amaliyotiga chek qoʻyildi. Hozirgi kunda maktab taʼlimi tizimida yaʼni maktablarda jami **502867 nafar** oʻqituvchi faoliyat koʻrsatib, shundan **343961 nafarini** ayollar, qolgan **158726 nafarini** erkaklar tashkil etadi.

Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan o'qituvchi mehnatini qadrlash, muallimlarni jamiyatimizning obro'li, nufuzli vakillariga aylantirish yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. Yaratilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlar tufayli maktab ta'limi tizimida erkak o'qituvchilarning soni **2021-2022** o'quv yilida **2016-2017** o'quv yilidagiga nisbatan **42802 nafarga** oshib, **158726 nafarga** yetdi, yoki **72,7 foizga** oshgan. Bu ko'rsatkich **2021-2022** o'quv yilida umumiy o'qituvchilar soniga nisbatan taqqoslaganda **31,7 foizni** tashkil etmoqda (1-jadval). O'qituvchini jamiyatda mavqeyini oshirishga har tomonlama harakat qilinishi natijasida maktab ta'limi tizimiga qariyb **45 ming nafar** erkak o'qituvchi qaytdi.⁴

1-jadval.

Umumta'lim muassasalari o'qituvchilarining jinsi bo'yicha oxirgi olti yildagi nisbati, foizda

T/r		2016-2017	2017-2018	2018-2019	2019-2020	2020-2021	2021-2022
1.	O'zbekiston Respublikasi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
2.	Erkak o'qituvchilari soni	29,3	29,1	29,7	30,4	30,9	31,7
3.	Ayol o'qituvchilari soni	70,7	70,9	70,3	69,6	69,1	68,3

Ayni paytda maktab o'qituvchilarining bilimi va malakasi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir qilishi haqida juda ko'p fikr va mulohazalar bo'lmoqda. Jami **502687 nafar** maktab o'qituvchilarining atigi **5,4 foizi** oliy toifaga, **14,9 foizi** birinchi toifaga, **23,6 foizi** ikkinchi toifaga, **45,5 foizi** mutaxassislikka ega bo'lib, **10,7 foiz** o'qituvchilar tegishli toifalarga ega emas.

O'rganishlar natijasida ayni paytda **6200** ga yaqin pedagog kadrlarga real ehtiyoj mavjudligi aniqlangan. Jumladan, ingliz tili, rus tili va adabiyoti, boshlang'ich sinf, informatika, matematika va fizika fanlari o'qituvchilari yetishmaydi.

Tahlil natijalariga ko'ra, bitta umumta'lim muassasasiga to'g'ri keladigan o'qituvchilar soni o'rganilganda, o'rtacha ko'rsatkich **2016/2017**-o'quv yiligacha kamayib kelayotgan edi. Umumiy o'rta ta'lim bosqichining **11 yillik** bo'lishi sababli ushbu o'rtacha ko'rsatkich **10 nafarga** ya'ni **24,4 foizga** oshgan.

Bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni tahliliga e'tibor qiladigan bo'lsak, so'nggi **20 yil** ichida o'rtacha ko'rsatkich **1 nafarga** kamaygan. Bu kamayish aslida o'sish hisoblanadi, ya'ni o'qituvchilar tejalgan vaqtni o'quvchilarga ko'proq ajratilishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022 yil 3 fevraldagi "Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-22-son Farmoyishi qabul qilindi. Unga ko'ra, maktab ta'limi tizimini yanada rivojlantirish,

⁴ Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi axborot xizmati

sohaga doir yangi tashabbuslarni ilgari surish va ularni qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim va tarbiya sifatiga bevosita va bilvosita ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan masalalarni hal qilish zarurligi belgilandi.

Bundan tashqari davlatimiz rahbarining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoniga asosan, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq 2022-2026-yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag‘batlantirish;

- o‘qituvchilarning yoshlarga ta‘lim va tarbiya berishdagi mas‘uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

- umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg‘or maktab direktori va namunali o‘qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish va boshqalar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalq ta‘limi tizimida o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyojlarni o‘rganish asosida pedagog kadrlar buyurtmasini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish asosida tarmoq samaradorligini oshirishda to‘planib qolgan yuqoridagi muammolarni hal etish bo‘yicha ilmiy jixatdan asoslangan va amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan fikr muloxazalar, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qoladi.

Umumta‘lim maktablarini ehtiyoj yuqori bo‘lgan fan o‘qituvchilari bilan ta‘minlash uchun pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalar(OTMlar) talaba va maktab o‘rtasidagi uch tomonlama shartnoma asosida qabul kvotalarini shakllantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi “Xalq ta‘limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-22-son Farmoyishi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. <https://t.me/avloniyuz>
5. https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar
6. www.google.co.uz

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ИНСОН РЕСУРСЛАРИНИ БОШҚАРИШ ТИЗИМИГА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР

Халимов Муҳаммад Раҳимбердиевич – А.Авлоний номидаги миллий-тадқиқот институти мустақил тадқиқотчиси,
muxammadxalimov80@gmail.com tel.: (+99899) 530-80-34

Annotatsiya: Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlarda maktab jamoasini boshqarish tizimiga inson resurslarini boshqarish shaklida yondashish bilan ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga erishish hamda bu borada olib borilgan ishlar o‘rganilgan va xulosalar chiqarilgan.

Abstract: In this article, the improvement of the quality and efficiency of education by approaching the management system of the school team in developed countries in the form of human resources management, as well as the work carried out in this regard, are studied and conclusions are drawn.

Аннотация: В данной статье изучается повышение качества и эффективности образования путем подхода к системе управления школьным коллективом в развитых странах в виде управления человеческими ресурсами, а также проводимая в связи с этим работа и делаются выводы.

Kalit so‘zlar: ta’lim, inson resurslari, ta’lim sifati va samaradorligi, rag‘batlantirish, ijodiy muhit; psixologik iqlim; aloqalarni rivojlantirish; almashtirish va huquqlarni topshirishni kengaytirish, xodimlarning qarorlar qabul qilishda ishtirokni ta’minlash; xodimlarning umumiy va kasbiy tayyorgarligi; fikr almashish va munozaralarni rag‘batlantirish; innovatsiyalarni moddiy resurslar bilan ta’minlash; HR strategiyasi.

Key words: education, human resources, quality and effectiveness of education, motivation, creative environment; psychological climate; development of relations; expansion of replacement and transfer of rights, ensuring participation of employees in decision-making; general and professional training of employees; encourage exchange of ideas and discussions; providing innovations with material resources; HR strategy.

Ключевые слова: образование, человеческие ресурсы, качество и эффективность образования, мотивация, творческая среда; психологический климат; развитие отношений; расширение замещения и передачи прав, обеспечение участия работников в принятии решений; общее и профессиональное обучение работников; поощрять обмен идеями и дискуссии; обеспечение инноваций материальными ресурсами; Стратегия управления персоналом.

Ҳаётимизнинг барча соҳаларида инсон ресурсларини бошқаришда, янгиликларни қўллашда, қийин дамларда масъулиятни ўз зиммасига ола биладиган, ҳаёт билан ҳамқадам юришга қодир, имони пок, билимдон, ишбилармон одамларни топиш, уларга ишонч билдириш ҳамда улар томонидан ходимларни бошқаришда замонавий усуллардан фойдаланиш энг долзарб масалаларидан биридир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил Парламентга Мурожаатномасида: - “Давлат бошқарувида самарадорликни ошириш мақсадида давлат хизматига малакали мутахассисларни жалб этишга қаратилган ягона кадрлар сиёсатини шакллантириш зарур”лигини алоҳида таъкидладилар.

Айни пайтда мамлакатимизда олиб борилаётган ижтимоий муаммоларни еча оладиган, аввало, уни теран англайдиган, ислохотлар жараёнида жонқуярлик қила оладиган, ма’навий-ахлоқий баркамол, қодир шахсларни бошқарув бўғинларига кўпроқ жалб этиш асосий ва бош масала ҳисобланади. Кўрсатилган муаммоларни ҳал этиш учун - Инсон ресурсларини бошқариш жараёнини ўрганиш мақсадга мувофиқдир.

Таълим соҳасида инсон ресурсларини бошқариш (ИРБ) борасида охириги пайтлар кўплаб тадқиқотлар олиб борилаётган бўлса-да, бошқа тармоқларга масалан, ишлаб чиқариш соҳаларига қараганда анча камдир. Бу таълим секторида ИРБ тамойилларини ҳали янги ва долзарб дейишимиз мумкин. Шу билан биргаликда, таълим секторида ИРБ бўйича етарлича модел ва ёндашувлар йўқлигини аниқлатади.

Таълим ташкилотларида инсон ресурсларини бошқариш борасидаги замонавий модел ва ёндашувларни таҳлил қилганимизда, уларни онтологик (ontology), янги ўқитувчиларни мослаштириш (HR architectures for new teachers) компетенцияга асосланган (competence-based), низоларни ҳал қилишга қаратилган (conflict management case studies) модел ва ёндашувларни алоҳида ажиратиб кўрсатишимиз мумкин.

Онтологик ёндашув бошқарувда ишчи-ходимлар билан боғлиқ барча меҳнат муносабатларини ўз ичига олади. Маълумки, инсон ресурсларини бошқариш функцияси ишга қабул қилиш, рағбатлантириш, бўшатиш, ҳар бир

ходимнинг шахсий ёзувлари (маълумотлар, кўникмалар, қобилиятлар) ва иш тажрибасидан тортиб то иш ҳақи ёзувларигача бўлган сон-саноксиз маълумотларни тартибга солишдан иборатдир [1]. Онтологик ёндашув ушбу жараён ва вазифаларни тўғри тартибга солиш ва ривожлантириш учун уни рақамлаштиришни назарда тутди.

Онтологик ёндашув иш изловчилар ва унинг CV (таржимаи ҳоли) маълумотларини, шунингдек, иш таклифи ва иш берувчи маълумотларини моделлаштиришга қаратилган [2]. Мақсад иш изловчи ва иш берувчи ўртасидаги дастлаб муносабатларни осонлаштириш ва очик-шаффоф кўринишга келтиришдир. Шу боис, бўш иш ерлари ишнинг хусусияти, талаб ва мажбуриятлари, компетенциявий талаблар, иш ҳақи миқдори ва рағбатлантириш шакллари рақамлаштирилган (онлайн) кўринишда эълон қилинади ва номзодлар ҳам ўз аризаларини, CV (таржимаи ҳоли) ва бошқа маълумотларини масофадан (онлайн) топширади. Бу анъанавий усулларни яъни кўлдан ариза бериш, тўғридан-тўғри иш берувчи билан контакт қилишни олдини олади ва ишга кириш аризалари ишга қабул қилиш учун тузилган комиссия кўлига келиб тушади. Комиссия аъзолари номзодларни маълумоти, тажрибаси, ютуқлари, тил билиш даражаси, компетенция ва қобилиятларини баҳолаш орқали энг мақбул номзодни танлайди.

Ишга янги кирган ўқитувчи учун нима қилиш керак, уни жамоага кириб кетиши ва мослашиши учун нима қилиш керак? Ушбу савол ва масала бўйича инсон ресурсларини бошқаришнинг ўзига хос модел ва ёндашувлари бор. Шулардан бири, тадқиқотчилар Ева Векеман, Герт Девос ва Мартин Валькелар томонидан олиб борилган тадқиқотлар ҳисобланади [3]. Ушбу тадқиқотчилар HR архитектураси маъмурий, ривожланиш, стратегик ва стратегик-ривожланиш архитектурасига бўлинишини таъкидлайди. Аммо тадқиқотчиларнинг фикрича, фақат озчилик директорлар янги ўқитувчилар учун HR амалиётлари тўпламини стратегик жиҳатдан ишлаб чиқади. Бунинг сабаби янги ўқитувчиларни қандай бошқариш кераклиги ҳақида стратегия ишлаб чиқилмаган ва директорлар орасида номуносивлик бор.

Умуман олганда, ИРБ икки йўналишга бўлинади: “стратегик йўналиш” ва “инсон ресурсларига йўналтирилганлик”. Иккала йўналиш ҳам ИРБ амалиётларини конфигурация қилиш учун таъсир қилади. Стратегик йўналиш “вертикал” ва “горизонтал”га бўлинади. Вертикал стратегия ИРБ амалиёти ташкилий мақсадларга мослаштириш ёки интеграциялашни назарда тутди. Горизонтал стратегия эса ИРБ амалиётларини турдош вазифа ва мақсадларга боғлиқдир. Вертикал стратегия давлат ташкилотларида бўлганидек, мактабларда ҳам ташкилот раҳбарининг қийматини ошириш билан боғлиқ эмас, балки ташкилотнинг аниқ қадриятлар ва миссияларга асосланган

бўлиши керак. Горизонтал стратегия вертикал стратегияни амалга ошириш учун барча ён ва турдош йўналишларни бирлаштириши ва ҳаракатга келтириши керак. Масалан, ўқитувчиларнинг етишмаслиги, янги ўқитувчиларни жалб қилиш каби омилларни ҳал қилиш ва бошқалар [3].

Бироқ амалиёт шуни кўрсатадики, кўплаб мактаблар ИРБ амалиётини маъмурий кўринишда амалга оширади ва янги ўқитувчилар учун ИРБни мослаштирмайди. Мактаб директорлари ИРБни янги ўқитувчиларнинг эҳтиёжлари ёки мактаб мақсадларига эмас, балки бюрократик қоидаларга йўналтиради. Қолаверса, ИРБ ўз мактабларининг стратегия мақсадларини акс эттиришни таъминлашдан кўра, ИРБнинг операцион тартиблари билан шуғулланади. Кўпчилик директорлар янги ўқитувчиларнинг ривожланиш эҳтиёжларини тан олса-да, амалиётда уларни стратегик ресурс сифатида кўрмайди. Чунки, мактаб директорлар ўқитувчиларни ишлаб чиқарилиши керак бўлган стратегик ресурслардан кўра, биринчи навбатда сотиб олинishi ёки танланиши керак бўлган ресурслар сифатида қабул қилинади [3].

Бундан келиб чиқиб, тадқиқотчи Е. Векеман, Г. Девос ва М. Валькелар мактабларда ИРБ амалиётида стратегик-ривожланиш архитектурасини ишлаб чиқиш ва йўлга қўйиш лозим. Бу стратегик-ривожланиш бошқаруви янги ўқитувчиларни ривожлантириш ва уларнинг мактаб мақсади ва миссиялари учун истиқболли етук кадр бўлишини таъминлашга қаратилади. Шунингдек, бу ўқитувчиларни касбий ривожланишини таъминлайди [3].

Муаммо шундаки, тижорий сектордан фарқли ўлароқ, таълим соҳасига янги кадрларни жалб қилиш бироз қийин. Чунки, тижорий секторда ташкилотнинг обрўси ва маошига қараб янги кадрларни ўзи кела бошлайди. Аммо, мактабларда одатда бундай бўлмайди. Мактабларда янги ўқитувчиларнинг ўзига хос хусусиятлари бўйича тадқиқотлар таҳлили шуни кўрсатадики, янги ўқитувчиларнинг ривожланиш эҳтиёжларига алоҳида эътибор бериш керак. Янги ўқитувчиларни жалб қилиш ва малакали ўқитувчиларни ушлаб туриш учун касбий ривожланиш ва мактаб томонидан қўллаб-қувватланиш жуда зарур. Бошқача қилиб айтганда, мактабларга инвестициялар ташкилотга қиймат яратишни таъминлаш учун мактабларда ИРБда янги ўқитувчиларни қўллаб қувватлаш ва уларнинг малакасини оширишга катта эътибор қаратишлари керак. Шу нуқтаи назардан, тадқиқот шуни кўрсатадики, инсон ресурсларига йўналтирилган директорлар қўллаб-қувватлаш ва касбий ривожланишга бўлган эҳтиёжини ҳисобга олган ҳолда янги ўқитувчиларнинг ўзига хос хусусиятларига эътибор қаратадилар ва ИРБ ушбу хусусиятларнинг сифатини яхшилашга ҳаракат қилади [3].

Хулоса қилидиган бўлсак, умумтаълим мактабларида инсон ресурсларини бошқариш модели муҳим аҳамиятга эга. Ҳар бир мактаб ИРБ

борасида ўз моделига ва стратегиясига эга бўлиши керак. Модел доим такомиллаштириб борилиши, стратегия эса мактаб компетенциясига мос келиши керак. ИРБ да мактаб қадриятлари, қарашлари, мақсадлари ва ички ва ташқи тизимлар билан ҳамкорлик тамойиллари бўлиши керак. Ҳар қандай ИРБ модели мактаб фаолиятини янада яхшилаш, инсон ресурслари борасидаги муаммо ва камчиликларини олдини олиш ва мактабнинг яқин ва узок келажакдаги ютуқларига мос келиши ва таълим соҳасидаги муваффақиятларини кафолатлаши керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Legge Karen. Human Resource Management: Rhetorics and Realities Anniversary ed. Houndmills Basingstoke Hampshire: Palgrave Macmillan, 2005.

2. Gómez-Pérez A., Ramírez J. and Villazón-Terrazas B., An Ontology for Modelling Human Resources Management Based on Standards. In: Apolloni, B., Howlett, R.J., Jain, L. (eds) Knowledge-Based Intelligent Information and Engineering Systems. Lecture Notes in Computer Science, vol 4692. Springer, 2007, pp.1-8.

3. Vekeman E., Devos G., & Valcke M., Human Resource Architectures for New Teachers in Flemish Primary Education. Educational Management Administration & Leadership, 44(6), 2016, pp. 970-995; Vekeman E., Devos G., & Valcke M., Linking educational leadership styles to the HR architecture for new teachers in primary education. SpringerPlus, 5:1754, 2016.

ИНСОН РЕСУРСЛАРИНИ БОШҚАРИШ ВА МАКТАБ ЖАМОАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ


*Халимов Мухаммад Рахимбердиевич – А.Авлоний номидаги миллий-тадқиқот институти мустақил тадқиқотчиси,
muxammadxalimov80@gmail.com tel.: (+99899) 530-80-34*

Мактабларда инсон ресурсларини бошқариш самарадорлигини таъминлашнинг асосий мақсади мактаб фаолияти ва компетенциясини ривожлантириш, таълим сифатини ошириш орқали ўқувчиларнинг таълим кўрсаткичларини ошириш ва ўқитувчиларнинг касбий ривожланишини ва меҳнат мамнуниятини таъминлашдан иборатдир. Бироқ, буни амалга ошириш осон эмас ва бу учун яхши механизмлар, усул ва воситалар лозим. Мукамал ва илмий асосланган механизмлар, усул ва воситаларни аниқлаштириш ва тадбиқ қилиш учун бу борада қилинган илмий ишлар ва хорижий тажрибаларни ўрганишга доим эҳтиёж сезилади.

Шундай тадқиқотлардан бири Э.Ю.Черкесова, С.С.Беликова ва бошқаларнинг тадқиқотлари бўлиб, унда ривожланган ҳамда ривожланаётган мамлакатларда инсон ресурсларини бошқариш, бизнеснинг ижтимоий масъулияти доирасида ташкилотларнинг инсон капиталини ривожлантиришга жалб этишни таҳлил қилади. Таҳлил натижаларига кўра, ривожланган мамлакатларда инсон капиталини ривожлантириш ва ижтимоий масъулиятга катта эътибор қаратилаётган бўлса, ривожланаётган мамлакатларда ташкилотларнинг 30%дан камроғи ушбу масалага эътибор беради [1].

Тадқиқотчилар кўрсатганидек (1-расм), ривожланган мамлакатларда масалан, Италияда инсон ресурсларини бошқариш соҳасида инсон капиталини ривожлантириш билан шуғулланадиган ташкилотларнинг улуши 2014 йилда 86%ни, Исроилда – 83%, Испанияда – 82% ва АҚШда – 80%ни ташкил этган.

Шу билан бирга, 2014 йилда ривожланаётган мамлакатларда инсон ресурсларини бошқариш доирасида инсон капиталини ривожлантириш билан шуғулланувчи ташкилотларнинг улуши 4 баравар кам эди. Жумладан, бундай ташкилотларнинг улуши Тунисда – 35%ни, Россияда – 32%ни, Эстонияда – 28%ни, Непалда – 22%ни ташкил этган.



1-расм. 2014 йилда инсон ресурсларини бошқариш доирасида инсон капиталини ривожлантиришда ташкилотларнинг иштироки бўйича мамлакатлар рейтинги

Манба: CRANET Survey, 2015.

Юқоридаги кўрсаткичлардан (1-расм) келиб чиқиб, тадқиқотчилар Э.Ю.Черкесова, С.С.Беликова ва бошқалар ривожланаётган мамлакатларда инсон ресурсларини бошқариш доирасида инсон капиталини ривожлантириш механизмларини яратиш зарур деб таъкидлайди.

Уларга кўра, ушбу механизм учун инсон ресурсларини бошқаришда гуманистик ёндашувга асосланиш керак. Ушбу ёндашув ходимларнинг мавжуд қадриятлар тизимиغا интеграциялашганлигини назарда тутаяди.

Таклиф этилаётган механизм куйидаги тамойилларга асосланади: ижодий фаолиятни рағбатлантириш, ижрочиларнинг кучли фазилатларини фаоллаштирадиган ижодий муҳит; барча даражадаги ижрочиларнинг ўзаро боғланишини комплекс ташкил этиш – иш жойи ва гуруҳдан бутун ташкилотгача; психологик иқлим қулайлигини қўллаб-қувватлаш; расмий ва норасмий алоқаларни ривожлантириш; меҳнат ташкилотларининг гуруҳ шаклларида фойдаланиш; алмаштириш ва ҳуқуқларни топширишни кенгайтириш, ходимларнинг қарорлар қабул қилишда иштирокни таъминлаш; янги ғояларни танлаш ва амалга оширишнинг мослашувчан тизимини яратиш; ходимларнинг ташкилот ичида ва унинг ташқарисида умумий ва касбий тайёргарликка интилишини қўллаб-қувватлаш; фикр алмашиш ва мунозараларни рағбатлантириш; инновацияларни моддий ресурслар билан таъминлаш; уларни бизнес маълумотлари билан таъминлаш; ташкилотдаги ўзгаришларга мойилликни рағбатлантириш [1].

Ижодий фаолиятни рағбатлантиришнинг замонавий тизими моддий манфаатлар билан бирга маънавий келиб чиқишига ҳам аҳамият қаратиш лозим. Гап шундаки, бошқарув концепциясининг эволюцияси жараёнида ташкилотларда шахсга муносабат кескин ўзгарди. Ходим ташкилотнинг асосий субъектига айланди. Рағбатлантириш тизими ҳар бир ходимнинг захирадаги салоҳиятини сафарбар қилишга йўналтиради. Бу ходимнинг индивидуал натижаларининг ўсишига, ижодий салоҳиятнинг намоён бўлишига, ўзини-ўзи ривожлантиришга бўлган қизиқишини ортиради. Ходимларнинг ижодий фаолияти янада муҳим манбага айланади, ташкилот фаолиятини такомиллаштиради ва ривожлантиради.

Умумтаълим мактабларида ҳам бу жуда катта аҳамият касб этади. Бу борада Гарвард университетининг тадқиқотчилар Николас Блум, Рената Лемос ва бошқалар муҳим илмий ишларни олиб боради. Тадқиқотчилар саккизта мамлакатда 15 ёшли болаларга таълим берадиган 1800 дан ортиқ мактабнинг фаолият, мақсад ва инсон ресурсларини бошқариш амалиёти бўйича маълумотларни таҳлил қилиб, бошқарув сифати юқори таълим натижалари билан кучли боғлиқ эканлигини кўрсатади. Тадқиқотларида Буюк Британия, Швеция, Канада ва АҚШ таълим менежменти бўйича энг яхши кўрсаткичларни қўлга киритар экан, кейинги ўринларда Германия, Италия, Бразилия ва энг охириги ўринни Ҳиндистон эгаллайди [2].

Шунингдек, тадқиқотчилар таълим менежментида катта номуносивбликлар нафақат мамлакатлар орасида ва бир мамлакатнинг ҳудудлари ичида, балки мактаб турлари бўйича ҳам мавжудлигини кўрсатиб ўтади. Хусусан, автоном бошқарувга эга давлат мактаблари (давлат томонидан молиялаштириладиган, лекин номарказлаштирилган ёки мустақил

бошқарувга эга) масалан, АҚШдаги чартер мактаблар, Буюк Британиядаги академиялар, оддий ёки марказлашган бошқарувга эга давлат мактаблари ва хусусий мактабларга қараганда анча юқори бошқарув балларига эга [2].

Таълим менежменти яхши йўлга қўйилган мамлакатлар мактабларнинг ўзига хосликлари нимада? Улар қандай бошқарув механизмларидан фойдаланади? Ушбу саволларга тадқиқотчилар Николас Блум, Рената Лемос ва бошқалар ўз илмий ишларида батафсилроқ маълумот бериб ўтади. Тадқиқотчиларга кўра, автоном мактабларда таълим менежментининг яхши йўлга қўйилганлигининг сабаби кўпчилик ўйлаганидек, улар давлат мактабларига қараганда кичикроқ ёки шаҳарларда жойлашганлиги эмас. Шунингдек, автоном давлат мактабларини бошқаришдаги фарқ ўқувчилар таркиби, мактаб ва ҳудудларнинг хусусиятлари, шунингдек, асосий демографик ёки ўзига хосликлар, масалан, ўқиш муддати, жинси бўйича кузатиладиган фарқларни ҳам акс эттирмайди. Бироқ, автоном мактабларда икки хусусият катта аҳамиятга эга (I) бошқарувнинг кучлилиги, яъни ўқувчиларнинг таълим кўрсаткичлари бўйича юқори турувчи ва ташқи ташкилот олдидаги кучли жавобгарлиги ва (II) мактабнинг узоқ муддатли стратегияси ишлаб чиқилганлиги. Қайси механизмлар бу икки хусусиятни автоном мактабларда амалга ошириш имкониятини таъминлайди? Тадқиқотчиларга кўра, бунинг асосий механизми автоном мактаблари молиялаштиришнинг катта қисмини ҳукуматдан олади, лекин ўқув дастури ва режасини, ўқитувчиларни ишга олиш ва танлашда, (баъзан) чекланган ўқувчиларни қабул қилиш бўйича мактаб низомларига риоя қилишда кўпроқ автономияга эга. Ўқувчиларни қабул қилишда ҳам фақат академик (билим) қобилиятларини эмас, балки бошқа ўлчовларини ҳам инобатга олади. Масалан, Буюк Британия академиялари ўқувчиларнинг камида 10 фоизини спорт ва мусиқа қобилиятлари бўйича танлаб олади [2]. Ушбу имкониятлар ёки ҳуқуқлар давлат мактабларида катта эҳтимол билан мавжуд эмас. Хусусий мактаблар ҳам асосан ким пулини тўласа, ўқишга қабул қилаверади.

Албатта, автоном мактаблардаги имкониятларни давлат мактабларида ҳам амалга оширса бўлади. Балки, ўқувчиларни мактабга қабул қилишда танлаш имконияти бўлмаса-да, мактаб маъмурияти (директор ва ўринбосарлари) ва ўқитувчиларни ишга қабул қилиш ёки танлашда маълум бир мезон, меъёрлардан келиб чиқиши мумкин ҳамда мактаблар бу борада мустақил ҳаракат қила олади. Муҳими шаффоф танлов тизимини яратилишидир. Айни шаклда, ўқув дастурлари ва режаларини ишлаб чиқишда ҳам мактаблар мустақил ҳаракат қилишини таъминлаш мумкин.

Умуман олганда, тадқиқотчиларга кўра, ҳар қандай давлат мактаблари, автоном ва/ёки хусусий мактаблар бўлсин, муваффақиятли бошқарувга эга

мактаблар инсон ресурсларини бошқаришда қуйидаги механизмларни жорий қилган:

юқори ижрочиларни тақдирлаш;
паст ижрочиларни тузатиш;
юқори натижаларга эришганларни рағбатлантириш;
истеъдодларни бошқариш;
истеъдодни сақлаб қолиш;
ходимлар учун ўзига хос қиймат тақлифини яратиш [2].

Бошқа кўплаб тадқиқотларда ҳам юқоридаги фикрларни тасдиқлайди. Масалан, профессор Ханушек ўқувчиларнинг билим ва муваффақияти ўқитувчиларга боғлиқлигини кўплаб илмий ишларида исботлаган, шу боис, мактаблар кўпроқ ўқитувчиларнинг малакаси ҳамда иш фаолияти билан шуғулланиш кераклигини таъкидлаб келади [3]. Баъзи муаллифлар мактабда ўқитувчиларнинг сифатини яхшилаш учун мактаб хусусиятларига ва ўқитувчилар имтиёзларига алоҳида аҳамият қаратишни илгари суради [4]. Бошқа муаллифлар эса мактаблар кўпроқ кадрлар масаласи билан шуғулланиш кераклигини таъкидлайдилар. Ушбу тадқиқотчилар директорлар ўзлари ёллаган ўқитувчилар орқали ўқувчиларнинг таълимига катта таъсир кўрсатишини, шунинг учун ўқитувчиларни синфларга қандай тайинлашлари, қандай сақлаб қолишлари ва яхшилаш учун қандай имкониятлар яратиши каби ишларни йўлга қўйиш кераклигини илгари суради [5].

Стэнфорд университети тадқиқотчилар С. Леб, Д.Калогридес ва Т.Бетейллар муваффақиятли мактабларнинг инсон ресурсларини бошқаришдаги самарли механизмлари сифатида қуйидагиларни келтириб ўтади:

Биринчидан, муваффақиятли мактаблар бўш иш ўринлари пайдо бўлганда бошқа мактаблардан малакали ўқитувчиларни жалб қилиш ва ёллаш олиши мумкин;

Иккинчидан, муваффақиятли мактаблар янги ўқитувчиларга адолатли тарзда вазифа юклайди;

Учинчидан, муваффақиятли мактаблар ишга олган ўқитувчилари олдинги ишлаган самарасиз мактабларига қараганда тезроқ яхшиланиши учун имкониятларга ва қўллаб қувватланишга эга;

Тўртинчидан, муваффақиятли мактаблар юқори сифатли ўқитувчиларни сақлаб қолиш имкониятига эга.

Умуман олганда, мактабнинг муваффақияти ўқитувчиларни ёллаш, тайинлаш, ривожлантириш ва ушлаб туриш усуллари билан ўзаро боғлиқлигини илгари суради. Бу ўз навбатида, ўқувчиларнинг таълим натижаларига ҳам ижобий таъсир кўрсатишини очиб беради [5].

Мазкур вазифаларни тўғри, тартибли йўлга қўйиш учун мактаб директори ҳамда унинг бошқарув маъмурияти билимли, дунёқараши кенг, темпераментли ва етакчи бўлиши керак. Мактаб директори ва маъмурияти бошқарувнинг демократик шаклларида фойдаланиш лозим. Мактаб жамоасининг ҳар бир аъзоси билан индивидуал шуғулланиши, уларни мактаб фаолиятига жалб қилиш ва иштирокини таъминлаши лозим.

Мактаб директори ва маъмурияти ўз қўл остидагиларга, ўқитувчиларга тепадан туриб (авторитар кўринишда) муомила қилиш эмас, ҳамкасб ва ҳамкор сифатида муносабатда бўлиши лозим. Шу билан бирга, етакчилик қобилиятига эга бўлиши, жамоани мактабнинг мақсад ва вазифалари йўлида бирлаштира олиши ҳамда сафарбар эта олиши керак.

Хулоса қиладиган бўлсак, умумтаълим мактабларида HR амалиётларини тадбиқ қилиш муҳим аҳамиятга эга. Шу билан бирга, замонавий мактаб жамоасини шакллантириш жараёнида ходимларни бошқариш механизмлари, усул ва воситаларини такомиллаштириш етарлича адабиётлар мавжуд деб бўлмайди. Шу билан бирга, инсон ресурсларини бошқариш компонентлари кўплаб конфигурациялардан иборат эканлигини инобатга олсак, таълим соҳасида бу борада қилинадиган ишлар ҳали талайгина эканлигини кўришимиз мумкин. Мавжуд адабиётлардан келиб чиқиб ёндашадиган бўлсак, умумтаълим мактабларида инсон ресурсларини бошқаришда “директор-ўқитувчи-ўқувчи=таълим натижалари” схемаси доирасида олиб борилишини, ушбу учликнинг ҳамкорлиги, ўзаро муносабатлари ва фаолиятларига таъсир қилувчи омилларни ўрганишга қаратилганлиги билан ўзига хос аҳамиятга эга. Умумтаълим мактабларида инсон ресурсларини бошқаришнинг самарали механизмларини яратиш масаласида асосий вазифалар директор ва мактаб маъмуриятининг ўқитувчиларни ишга олишнинг шаффоф тизимини яратиш, адолатли вазифа юклаш, рағбатлантиришни кенгайтириш, компетенциясини ривожлантириш (касбий ривожланишини таъминлаш), малакали ўқитувчиларни жалб қилиш ва ўзида сақлаб қолиш, низоли вазиятларни тинч ва конструктив кўринишда ҳал қилиш, мактаб фаолияти учун снергетик ишлаш, ҳамкорликни жорий қилиш, ўқув жараёни мониторингини юритиш, таълим ва фаолият натижаларини баҳолашни йўлга қўйиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Cherkesova E.Y., Belikova S.S., Popova E.M. et al. Mechanism of Development of Human Capital Within Human Resources Management of Modern Organization, Mediterranean Journal of Social Sciences, Vol 6 No 5, 2015, p. 399-404.

2. Bloom Nicholas, Renata Lemos, Raffaella Sadun, and John Van Reenen. "Does Management Matter in Schools?" *Economic Journal* (Royal Economic Society) vol. 125, no. 584, 2015, p. 647-674.
3. Hanushek E., Kain J. and Rivkin S. Why public schools lose teachers. *Journal of Human Resources*, 39(2), 2004, pp. 326-354.
4. Boyd D., Lankford H., Loeb S., Ronfeldt M. and Wyckoff J. The role of teacher quality in retention and hiring: Using applications to transfer to uncover preferences of teachers and schools. *Journal of Policy Analysis and Management* 30(1), 2011, pp. 88-110.
5. Loeb S., Kalogrides D. and Beteille T. Effective schools: teacher hiring, assignment, development, and retention. *Education Finance and Policy* 7(3), 2012, pp. 269-304.

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMINI SAMARALI BOSHQARISHNING DEMOKRATIK OMILLARNING AHAMIYATI.

Oydin Tursunova – Namangan shahar 26-sonli maktabning boshlang'ich ta'lim fanlari o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi.

Anontasiya: Ushbu maqola maktabgacha va maktab faoliyatini samarali boshqaruvini to'g'ri tashkil etish usullari, ularga ilmiy pedagogik jihatdan yondashuvini tashkil etishda klaster usulida, sifatli ta'limni amalga oshirish amaliyotini muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Maktab ta'limi va o'quv markazlari faoliyati bilan raqobati, maktabdagi ta'lim berish usuli o'quv markaziga nisbatan cheklovlar borligi sababli kamroq yutuqlarga erishilayotgan sababini ochib beradi. Maktablarda qiziqarli dars o'tish, o'quvchilarni mustaqil ishlashga, fikrlashga undaydigan g'oyalar haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Maktab faoliyati, modernizatsiya, innovatsion yondashuv, klaster, ilmiy-pedagogik jihatlar, faoliyat turlari, demokratlashtirish, raqobat, mahalliy fikrlar, dars etaplarimuammoli vaziyatlar.

*Insoniyat olijanob g'oyalar bilan yashaydi...
(Shavkat Mirziyoyev)*

Bizga ma'lumki Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda, maktabgacha va maktab ta'limi ni samarali boshqaruvining demokratik omillarning ahamiyati muhim o'rin egallaydi.

Chunki, jamiyatning qaysi sohasini olaylik, albatta boshqaruv tizimini to'g'ri yo'lga qo'yishda, bizga har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatga ega, milliy, umumbashariy talablarga mos keladigan, ta'lim muassasalarini boshqaruv tizimini

to'g'ri boshqara oladigan rahbarlar etishtirishimiz zarur. Chunki rahbar bo'lmish shahs ham dunyoviy, hamda diniy, mahalliy bilimlar bilan qurollangan bo'lishi, yot ta'sirlarga qarshi kurasha oladigan, ommaviy madaniyatni asl mohiyatini yoshlarga zararli tomonini ochib bera oladigan, ta'lim muassasida bilim oladigan yoshlarni davlatimizda ishonchi, vatanparvar, milliy mintelitetimizga mos, milliy urf-odatimizni, udumlarimizni chuqur e'zozlaydigan, kelajakda vatan ravnaqi uchun jonini fido qiladigan farzand bo'lishi, u yerdagi yaratilgan muhit asosida shakllanishi ni unutmash kerak.

Chunki, rahbar xodim o'zi bilim va tajribaga ega bo'lsagina, u yerda ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qiladi. Ta'lim muassasida qaysi hududda bo'lmasin, u yerdagi mahalliy fikrlarni inobatga olishi, jamiyatimiz rivoji uchun hissa qo'shayotgan mehnat faxriylari, tashabbuskor insonlar bilan uchrashuvlar tashkil qilishi, maktab, oila, mahalla faoliyatini tizimli olib borishi natijasida, yoshlarni zararli odatlardan himoya qilib, sog'lom turmush tarzi va tayyorlab borishi lozim.

Maktabga yangi ishga kelgan bo'lajak pedagog ni suhbat asosida, sinovdan o'tkazishi, bilim bera olish imkoniyati bormi, yo'qmi tekshirib olishi kerak. Darslarni, ta'lim sifatini tez-tez nazorat qilib turishi kerak.

Bizni ta'lim tizimidagi eng og'riqni nuqta iz, o'zimizni o'zbekona ta'lim tizimimizni yarata olmayotganimizdir. Boshqa davlatlarning ta'lim tizimiga taqlid qilaversak qachon tong o'tadi. Yoshlarga beriladigan ta'lim shunday ko'rinib turibdi kun, bizni vazifamiz, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish. Shunday ekan qo'limizda kitoblar manbalar yetarli, shundan foydalanib o'zbek ta'lim tizimini to'g'ri yo'lga qo'yib olishimiz kerak.

Biz buyuk ajdodlarimiz bilan doim faxrlanib gapiramiz, nega mustaqil ta'lim tizimini yaratolmayapmiz. Har yili davlatlarda unday ekan, bunday ekan deya bermaylik, nima o'zbeklar yarata olmaydimi?

Yarata oladi. Bunga kuchimiz etadi, faqat ozgina e'tibor, sharoit va mablag' kerak.

Mana Amerika ta'lim tizimidan foydalandi, bu narsalar bizga yangilik emas, biz foydalanadi, faqat vaqt, etaplar qolipi cheklangan.

Dars etaplariga ham zamon talabi bo'yicha yondashishi kerak.

O'tgan m. M

Y. M. Bayoni

Y. M. Mustahkamlash

Uyga vazifa

Bular eskirdi, endi boshqacha nomlashimiz kerak. O'quvchilarning erkin fikrlash ini, mustaqil ishlashini hisobga olgan holda, ularning fikrlash doirasini hisobga olib men bundan 10 yil oldin shu etapida dars o'tishini boshlaganman....

B. B. O-buni bilib oldim sahifasi. Bunda o'quvchilar o'rganilgan mavzu bo'yicha tayyorgarligidan tekshiriladi.

B. B. K. - buni bilishimiz kerak sahifasida yangi o'rganishimiz kerak bo'lgan mavzu ustida ishlanadi.

B. B. - buni bilasizmi? Sahifasida yangi mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlardan to'plangan bilimlar asosida ishlanadi.

B. B. O-buni bilib oling sahifasida o'rganilgan mavzular bo'yicha mustaqil ish topshiriladi.

Bu esa o'quvchilarni mustaqil ishlash, qo'shimcha adabiyotlarni o'qishga undaydi.

Darsliklarni ham shu usulda ishlab chiqarishi iz kerak.

Bugungi kunda o'quv markazlarida tayyorlangan o'quvchilar ko'proq yutuqqa erishyapti. Chunki, u yerda mavzu ustida ko'proq, atroflicha ishlash imkoni berilgan. Vaqt chegaralanmagan.

Aslida fan mavzusini o'zlashtirish darajasida bilim berishga 45 minut kamlik qiladi, endi mag'zini chaqishga kelganda tanaffus bo'ladi. Dars jadvalini tuzishda fanlarga 2 soatdan chuqurlashtirilishi ajratish kerak.

Shunda bir mavzuni klaster usulida kengroq tushuntirish imkoni yaratiladi. Sinf dan tashqari, tadbirlar, fan to'garaklari ham shular asosida yaratiladi. Aniq tizim ni yaratib, faoliyat olib borilsa o'quvchilarga o'quv markazlarida borishlariga xojat kamroq imkon beradi. O'quvchilarning bilimdagi bo'shliq, buni ham dars jarayonida to'ldirish imkoni yaratiladi.

Maktab ta'limi faoliyatini samarali boshqarishning yana bir tomoni, boshlang'ich sinflarida ko'proq bayon yozdirish, yuqori sinflarida esse yozishni o'rgatib borish ularda yozma nutqini o'tiradi, fikrlash doirasini kengaytiradi, atrofni kuzatishga, har bir voqea va hodisalarga to'g'ri baho berishga o'rgatib boradi.

Maktab ta'limi boshqaruvida o'quvchilarni jamoat talabi asosida tarbiyalashdan yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida o'zini - o'zi boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish lozim. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini nazoratga olishi, ko'chada yo'l harakati tizimini nazorat qilib borishi lozim.

O'quvchilar o'rtasida ko'proq "quvnoq sartlar", "Zakovat" intellektual o'yinlari, qizlar ortasida "orasta qizlar", "Gigiyena va salomatlik" kabi musobaqalari va davra suhbatlari o'tkazib turilishi kerak. Bundan tashqari ta'limda ortda qolgan o'rtoqlari yordam uyushtirishi, mahalladagi keksalar holidan xabar olish kabi milliy udumlarimiz asosida faoliyatni yo'lga qo'ysak, boshqaruv tizimi asosida vatanga munosib farzandlari yetkazib berishga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son qarori bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, T.: 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni, T.: 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, T.: 2019.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur”, T.: 2022.

UMUMTA’LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHDA STRATEGIYADAN FOYDALANISH MUAMMO SIFATIDA

Xudoyberdiyev Eldor Uktamjonovich – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti maqsadli tayanch doktoranti, xudoyberdiyeveldor1234@gmail.com (+99899) 526-09-09)

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshqaruv strategiyasi va strategik boshqaruvning o‘zaro aloqadorligi, boshqaruv samaradorligini oshirishdagi o‘rni hamda o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maktablar boshqaruvida strategiyani ishlab chiqish va uni amalga oshirishda ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Strategiya, boshqaruv strategiyasi, samaradorlik, ta’lim sifati, rahbarlik va boshqaruv mahorati, ehtiyoj, muhit.

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь стратегии управления и стратегического менеджмента, их роль в повышении эффективности управления, а также их особенности. Также выявлены аспекты, которым следует уделить внимание при разработке стратегии и ее реализации в управлении школами.

Ключевые слова. Стратегия, стратегия управления, эффективность, качество образования, лидерские и управленческие навыки, потребность, окружающая среда.

Abstract. This article analyzes the interrelationship of management strategy and strategic management, their role in increasing management efficiency, and their specific features. Also, the aspects that should be given importance in the

development of the strategy and its implementation in the management of schools have been revealed.

Key words. Strategy, management strategy, efficiency, quality of education, leadership and management skills, need, environment.

Zamonaviy dunyoda strategik rejalashtirish va strategik fikrlash natijasida oldimizdagi xavflarni aniqlab, unga avvaldan yechim topish zarurati yuzaga kelmoqda. Dunyohamjamiyatida inson kapitaliga bo‘lgan ehtiyojning oshib borishi oqibatida ta’lim sifatiga munosabat ham o‘zgarib bormoqda. Bunday vaziyatda maktablardagi ta’lim sifatini oshirish uchun boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish muammoning asosiy yechimi ekanligiga ko‘plab olimlar va amaliyotchilar tomonidan e’tibor qaratilgan.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, strategiya “qanday qilib” bu yerdan u yerga borishdir[3]. Strategiya, shuningdek, “tashkilot intilayotgan maqsadlar va u o‘z maqsadiga erishish uchun boshqaradigan siyosatlarning kombinatsiyasi”[4] sifatida qaraladi va strategik menejment bu strategiyani amalga oshirish mexanizmidir [6; 61-64].

Strategiyani “tashkilotning asosiy uzoq muddatli maqsadlari va vazifalarini belgilash va harakat yo‘nalishlarini qabul qilish, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishish uchun zarur resurslarni taqsimlash” deb ta’riflash ham mumkin[1; 727].

M.Sharifxo‘jayev, Yo.Abdullayev, G‘.M.Qosimov, R.X.Djurayev va S.T.Turg‘unovlarning ta’kidlashicha, strategiya “strategos” grekcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “general san’ati” degan ma’noni anglatadi [9; 399]; [8; 55]; [7; 119]. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham mazkur atama urish olib borish san’ati, ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san’ati va ilmi ma’nolarida talqin etilgan[5]. Bundan bilishimiz mumkinki, dastlab strategiyalar urush olib borishda qo‘llanilgan va dushmanidan keladigan xavf-xatarni oldindan bashorat qilib, shunga mos chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Strategiyani puxta ishlab chiqib, uni mahorat bilan amalga oshirgan generallar janglarda g‘alaba qozonishgan. Keyinchalik bu tushuncha sanoat va biznesga kirib kelgan hamda ularning rivojlanishi, raqobatbardoshligini oshirish uchun xizmat qilgan. Bugungi kunda biznesdan ta’limga joriy qilinmoqda, rivojlangan mamlakatlarning ta’limidagi yutuqlari strategik boshqaruvning natijasidir.

Strategiya va strategik boshqaruvning mazmun-mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari haqida bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan, M.Sharifxo‘jayev “Istiqbolni aniq bashorat, tasavvur qilish uchun strategiya zarurdir”, deydi va uning quyidagi xususiyatlarini sanab o‘tadi:

- istiqbolni tadqiq qilish, turli ssenariyalarni tahlil qilish san’ati;
- istiqbolda raqobat kurashida afzallik beruvchi g‘oya;

- korxonaning umumfaoliyat (fondi, quvvati, xarajati, foydasi va hokazo)ni nazorat qiluvchi keng qamrovli tizimdir”.

Shuningdek, olim strategik boshqaruvga ham ta’rif berib o’tadi: “Strategik boshqaruv – bu korxonalar (firma)ning istiqbol maqsadi va imkoniyatini xodimlar manfaati bilan uyg’unlashtirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli boshqaruv usulidir. Boshqacha qilib aytganda, strategik boshqaruv – bu strategik maqsadni amalga oshirishga yo’naltirilgan boshqaruv faoliyatidir”[9; 399, 404].

G’.M.Qosimov strategiyaga ta’rif berar ekan, uni maqsadni amalga oshirishda rahbarlik qilish san’ati, har bir jarayon holatiga yechim qabul qilishda ma’lum harakatning taraqqiyotidagi eng muhim masalalar va yo’nalishlarni ajratish va ularni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqishdir, deb ta’kidlaydi. Shu bilan birga, startegiyasiz boshqarishning salbiy oqibatlariga diqqat qaratadi va bunda tashkilot o’z faoliyatini rejalashtirishda xuddi atrofidagi muhit o’zgarmaydi, o’zgarsa ham unda sifat o’zgarishi ro’y bermaydi, degan fikrda bo’ladi hamda muayyan harakatlarning rejasi muhitning haqiqiy holati amalda o’zgarmaydigan deb tuziladi [8; 54, 56]. Bunday boshqaruv ta’lim muassasasini amalda turg’unlikka olib keladi, natijada jamiyatning ta’limga bo’lgan ehtiyojlari o’zgarib boraveradi, maktabdagi ta’lim sifati o’zgarishsiz qoladi.

Strategiya va strategik boshqaruvning mohiyatini ochib berishda, uning xususiyatlarini ta’lim menejmenti nuqtai nazaridan yanada aniqlashtirishda R.X.Djurayev va S.T.Turg’unovlarning xizmatlarini alohida ta’kidlash zarur. Ularning fikriga ko’ra, strategiya bugungi kunda biron-bir faoliyatga rahbarlik qilish, korxonalar yoki muassasalar faoliyatini boshqarishda istiqbolni oldindan aniqlash, shuningdek, maqsadga erishish natijalarini avvaldan bilish va nazorat qilish yo’nalishida keng qo’llanilmoqda. Boshqaruv strategiyasi – ko’zlangan maqsadlarga erishishda ta’lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish, pedagogik xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, strategik reja asosida faoliyatni tashkil etish va boshqarish yo’nalishida asosan boshqaruvning ikki xil turi – strategik boshqaruv, konyukturaviy boshqaruvni nazarda tutadi. Amaliy faoliyatda u yoki bu boshqaruv yo’nalishining ustunligi tashkiliy tizimning yangilik darajasi ko’rsatgichlari bilan belgilanadi. Masalan, strategik boshqaruv – bu ta’lim muassasasining strategik maqsadi yo’nalishida muassasa imkoniyatlarini pedagogik xodimlarning umumiy manfaatlari bilan muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatga tuzilgan dastur, reja va loyihalar asosida boshqarishdir. Strategik boshqaruv odatda, mazkur tizim boshqaruv madaniyatining yuqori darajasini belgilovchi keng innovatsion dasturlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Strategik boshqaruv haqidagi ushbu fikrni Sh.Po’latovda[10; 105] ham ko’rishimiz mumkin. Konyukturaviy boshqaruv – ma’lum bir davrda muassasaning iqtisodiy holatini tavsiflovchi belgilar majmuasi bilan bog’liq bo’ladi.

Shuningdek, ushbu olimlar tomonidan strategiyaning to'rtta turlari mavjudligi va ularning o'ziga xos xususiyatlariga aniqlik kiritilgan. Ular quyidagilar:

Maxsus strategiya – ta'lim muassasasida ta'lim jarayoni samaradorligining pasayib ketishini, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasining DTS talablari darajasidan tushib ketmasligini, shuningdek, tajribali, bilimli, o'z kasbining fidoyilari bo'lgan pedagoglarning ta'lim muassasasidan ketib qolishlarining oldini olish maqsadida uzoq muddatga tuziladi.

Funksional strategiya – ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, bo'limlari, jamoaviy boshqaruv organlari va ma'muriyat hamda jamoatchilik tashkilotlari oldidagi vazifalarni amalga oshirish usullarini o'z ichiga olgan ishchi strategiya hisoblanadi.

Mujassamlashtirilgan strategiya – ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishning barcha yo'nalishlarini qamrab olgan hamda ta'lim muassasasining yaxlit faoliyatini o'zida jamlagan mo'ljaldir.

Diversifikatsiyalashgan strategiya – ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularni o'qitishda tabaqalashtirilgan yondashuvlarni joriy etish asosida o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatgichlarini ko'tarish, maktab bitiruvchilari o'rtasida raqobatbardosh, xorijiy tillarni biladigan, bilimli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan bitiruvchilar sonini ko'paytirishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirish yo'llarini ifodalaydi[7; 119-122].

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan tushunish mumkinki, strategiya maktabni davlat va jamiyat talab hamda ehtiyojlariga mos sifatli ta'lim-tarbiya beradigan, raqobatbardosh, jozibador maskanga aylantirish kuchiga ega. Bunga erishish uchun esa belgilangan maqsadni amalga oshiruvchi mohir yetakchi hamda kuchli va ahil jamoa kerak.

Ushbu fikrimizning tasdig'i sifatida B.Kattakishiyev va I.Mamayusupovlarning strategiya haqidagi quyidagi ta'rifini keltirish mumkin. "Kelajak strategiyasi – tashkilot a'zolari madaniyatini o'zgartirishga o'rnatirilgan kurs hisoblanib, u korxonada ishchilariga bir qancha talablarni, masalan, malakali harakat qilish, bir-biriga yordam berish va qo'llab-quvvatlashlarni bajarishni shart qilib qo'yadi"[2; 13].

Xulosa qilib aytish lozimki, umumta'lim muassasalarini boshqarishda strategiyadan foydalanishda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish, maktab rahbarlarining strategiyani ishlab chiqish va uni amalga oshirish ko'nikmasini rivojlantirish, strategiyani ishlab chiqish mexanizmini takomillashtirish bugunning dolzarb masalasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ioana Marin, Andreea Marin-Pantelescu. Educational Management Strategies. "Ovidius" University Annals, Economic Sciences Series Volume XX, Issue 1/ 2020, pp. 727.
2. Kattakishiyev B., Mamayusupov I. Strategik menejment. fanidan praktikum. - T., "Fan va texnologiya", 2008. – 13-b.
3. Mintzberg H., 2008. Mintzberg on Management. New York: Free Press
4. Nickols, F., 2012. Strategy: Definitions and Meaning
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati
6. Sourkouhi, Z. K. et al., 2013. Strategic management, concepts, benefits and process. Journal of Business and Management (IOSR_JBM), 13 (3), pp. 61-64), Almasi, Bayat & Makouey, 2013.
7. Джураев Р.Х. Турғунов С.Т. Таълим менежменти. Тошкент. "VORIS-NASHRIYOT", 2006. – 119-122 б.
8. Қосимов Ғ.М. Менежмент: Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. Т.: Ўзбекистон, 2002. — 54-56-б.
9. Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент // дарслик. – Тошкент. "Ўқитувчи", 2001. – 399, 404-б.
10. Пўлатов Ш. Таълим менежменти ёхуд таълим муассасасини илмий-методик бошқариш стратегияси. "Yosh kuch". Тошкент – 2019. – 105 б.

МАКТАBLARDA BOSHQARUV STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY JIHLTLARI

Xudoyberdiyev Eldor Uktamjonovich – A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti maqsadli tayanch doktoranti, xudoyberdiyeveldor1234@gmail.com (+99899) 526-09-09)

Annotatsiya. Ushbu maqolada strategiyaning maktablar boshqaruvidagi ahamiyati, uning nazariy jihatlari, boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, strategiyani ishlab chiqish mexanizmining zarurati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Maktab, ta’lim, sifat, strategiya, boshqaruv, mexanizm, samaradorlik.

Аннотация. В данной статье раскрывается значение стратегии в школьном управлении, ее теоретические аспекты, особенности и закономерности разработки стратегии управления и ее реализации. Обсуждалась также необходимость создания механизма разработки стратегии.

Ключевые слова. Школа, образование, качество, стратегия, управление, механизм, эффективность.

Abstract. This article reveals the importance of strategy in school management, its theoretical aspects, specific features and laws of management strategy development and its implementation. The need for a strategy development mechanism was also discussed.

Key words. School, education, quality, strategy, management, mechanism, efficiency.

Bugungi kunda O‘zbekistonda maktab ta’limi sifatini yuqoriga ko‘tarish, o‘quvchilarni yetuk, salohiyatli kadr va umuminsoniy fazilatlarga ega shaxs sifatida shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabda ta’lim sifati samaradorligiga erishish uchun unga ta’sir etuvchi tashqi va ichki, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillarni inobatga olish, ularning ijobiy hamda salbiy oqibatlarini tahliliy, tanqidiy o‘rganish natijasida rivojlanish yo‘lini belgilash, shu asosida harakatlanish kerak. Bu ishlarning barchasi strategik baholash, strategik rejalashtirish, strategik faoliyatni amalga oshirish, strategik faoliyat natijalarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Bu esa maktablarda ta’limni samarali boshqararish uchun strategiyaning muhim ahamiyatga ega ekanligini va uni ishlab chiqish hamda amalga oshirish bo‘yicha mavjud mezonlar, mexanizmlarni milliy xususiyatlar, shuningdek, ta’limdagi yangi tendensiyalarning talablari asosida takomillashtirilishga zarurat mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

X.A.Muxitdinov va A.A.Sobirovlar boshqaruv turlarini boshqaruv darajalari deb ataydi va ularning ichida strategik daraja ham borligiga to‘xtalib, u tashkilotning uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishishga yo‘naltirilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishni ta’minlashini aytib o‘tadi hamda qabul qilinayotgan qarorlarning natijalari uzoq vaqt o‘tganidan keyin namoyon bo‘lishi sababli, bu darajada boshqaruvning strategik rejalashtirish kabi funksiyasi alohida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi [2; 102].

N.S.Fayzullayeva esa strategiyaning quyidagi jihatlarini sanab o‘tadi:

- strategiya – pirovard natijaga erishish vositasi;
- strategiya tashkilot faoliyatining barcha asosiy jihatlarini bir butunga birlashtiradi;
- strategiya tashkilotning uzoq muddatli imkoniyatlarini belgilaydi.

Shu bilan bir qatorda, strategik boshqaruv ta’lim muassasalarining bo‘lg‘usi muammolari va imkoniyatlarini prognoz qilishning asosiy usuli, ta’lim muassasalarini boshqarishda pedagogik xodimlar hamda ta’lim oluvchilar faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi, shuningdek, muassasa faoliyatini takomillashtirishda

muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy jarayonlardan biri qaror qabul qilish va uning bajarilishini ta'minlash jarayoni degan xulosaga keladi [10; 4].

Demak, strategik boshqaruv maktabning uzoq muddatli rivojlanishi uchun belgilangan maqsadlarga erishish, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashish, raqobatbardosh bo'lish uchun qanday xatti-harakatlarni amalga oshirish haqida qarorlar qabul qilishdir.

Strategik boshqaruv haqida chiqargan xulosamizga N.K.Yo'ldoshevning ham fikri mos kelishini ko'rishimiz mumkin. U strategik boshqaruvni strategiyani, ya'ni tashkilot rivojlanishining asosiy yo'nalishini sifatli ishlab chiqish va uning resurslarini shakllantirish va ulardan samarali foydalanish, istiqboldagi raqobat afzalliklarini ta'minlash va maqsadlarga erishish uchun tashqi muhit o'zgarishlariga mutanosib javob berish asosida amalga oshirish bo'yicha faoliyatdir, deb ta'kidlaydi [4; 178].

O.M.Pardayev strategik boshqaruvni strategik menejment tarzida ifodalaydi va quyidagi ta'riflarni keltiradi:

“Strategik menejment – bu tashkilotni qamrab oluvchi muhit deb tushuniladigan, tanlangan maqsadlardan foydalanish orqali va tashkilotning resurslarini taqsimlash yo'li bilan uzoq muddatdagi samarali reja harakatlariga muvofiq kutiladigan natijalarga erishishdir”.

“Strategik menejment – bu menejmentning tashkilotni uzoq muddatlarda rivojlantirish yo'nalishlarini belgilaydigan, o'ziga xos bo'lgan maqsadlarini, ichki va tashqi tomonlardagi barcha imkoniyatlardan foydalangan hollarda maqsadlarga erishish strategiyasini rivojlantiruvchi va tanlangan rejaning bajarilishini qabul qiluvchi boshqaruv jarayonidir”.

“Strategik menejment – bu tashkilotning shunday boshqaruviki, bunda tashkilotning asosi, tayanchi inson salohiyati deb qaraluvchi, ishlab chiqarish faoliyatini iste'molchilarning ehtiyojlariga mo'ljallovchi, o'rab turgan tomonlarning chaqiruviga javob beruvchi va raqobatda ustunlikka imkon beruvchi jarayonlarning umumlashganligi tashkilot maqsadlariga erishishni va uzoq muddatli istiqbolda yashab qolish imkoniyatlarini beradi” [9; 65-66].

Yuqoridagilardan xulosa qilib, muhim bir omilni e'tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur, ya'ni har qanday strategiyani ham strategik boshqaruvsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Har bir menejer maktab ta'limi sifatini yuqoriga ko'tarish strategiyasini amalga oshirishda strategik boshqaruvdan foydalanadi.

Sh.Po'latov strategiya tashkilot maqsadiga erishish uchun intiluvchi rahbarning harakat tarzi ekanligiga urg'u beradi [12; 516].

Ushbu fikrlarga qo'shimcha tarzda aytish mumkinki, strategiya rahbar yetakchiligida jamoa bilan birgalikda tashkilotning asosiy maqsadiga kelib chiqqan

holda qadriyatlar va zamonaviy tendensiyalar asosiga qurilgan uzoq muddatli rivojlanish mexanizmidir.

A.V.Fomenko strategiyalarni shakllantirish mexanizmi tashkilotni rivojlantirish va rag‘batlantirishning asosiy muammolarini ko‘rib chiqishini va u ilm-fanga asoslanishini, shuningdek, strategiya bugungi bozor sharoitida korxonani takomillashtirish, strategik rivojlanishini boshqarish va rasmiylashtirish vaqtini tahlil qilish zaruratini yuzaga chiqarishini ta’kidlaydi [11; 197-200].

Natalia L. Sherstneva, Angelina B. Vishnyakova va Elena I. Chuchkalovalar o‘zlarining tadqiqotlarida korxonaning barqaror rivojlanishi strategik boshqarish mexanizmini ishlab chiqishga bog‘lik ekanligini e’tirof etish bilan birga, strategik boshqarish – bu uning ishidan maksimal samara olish, shuningdek, uni mutlaqo yangi faoliyat shakliga aylantirish maqsadida rivojlanish istiqbollari hisobga olgan holda ichki va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy soha omillari bilan samarali o‘zaro ta’sir qilish orqali amalga oshiriladigan muayyan harakatlarni bajarish jarayoni ekanligini aytib o‘tadi [3].

A.V.Medvedevning fikriga ko‘ra, strategiya – muayyan boshqaruv rejasi bo‘lib, firma o‘z mavqeini mustahkamlash, mijozlar ehtiyojini qondirish va maqsadga erishishga qaratilgan. Korxonaning amalda rivojlanish rejasini ishlab chiqishda zarur yo‘nalishni tanlash bo‘yicha qaror qabul qilish ushbu jarayonning muhim qismi, u barcha funksiyalarni qamrab olishi kerak [8; 174].

R.S.Kaplanga ko‘ra, strategik boshqaruvdagi eng muhim qadam bu strategik rejalashtirish. Strategik rejalashtirish tashkilot missiyasini shakllantirish bo‘lib, missiya strategik maqsadlar va strategik prognozlar asosida belgilanadi. Global miqyosda strategik rejalashtirishning maqsadi uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun har tomonlama rivojlanishdir [7]. O.S.Vixanskiy ham strategik rejalashtirish bosqichida maqsadlar va missiya ishlab chiqilishini haqida fikr bildiradi va bashorat qilingan strategiyani taxmin qilish uchun korxonaning tashqi hamda ichki muhitidagi tahdidlar, yuzaga kelayotgan imkoniyatlar inobatga olinishi zarurligi xususida mulohaza yuritadi [5].

Shu o‘rinda “missiya” tushunchasiga aniqlik kiritib o‘tsak. Bizning fikrimizcha, missiya – ta’lim muassasasining qadriyatlari, maqsadlari, ustuvor vazifalari, ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘langan oliy maqsad.

Nazariy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, hozirgi vaqtda barqaror rivojlanish strategiyasini tushunishning ikkita asosiy yondashuvi mavjud. Xususan, birinchi yondashuvda ma’lum vaqt oralig‘idan keyin erishish kerak bo‘lgan aniq yakuniy maqsad va harakatlarning zarur algoritmi qo‘yiladi. Ikkinchi yondashuvning mazmuni barqaror rivojlanish strategiyasini tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sir qiluvchi uzoq muddatli, rejalashtirilgan ssenariy sifatida belgilaydi [6; 32].

I.A. Antipin umumiy qabul qilingan strategiyani amalga oshirish mexanizmlari mavjud emasligi sababli bir qator tavsiyalarni ishlab chiqqan. Ular quyidagilar:

Birinchi, strategiyani amalga oshirish mexanizmlari har qanday ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismiga aylanishi kerak, chunki u strategik boshqaruv, monitoring va strategiyani yangilashning asosiy tamoyillarini tavsiflaydi.

Ikkinchi, strategiyani amalga oshirish va monitoring qilish bosqichlari, mexanizmlari va tamoyillarini hamda har bir bosqich uchun mas'ul tomonlarni belgilashi kerak. Strategiyani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yangi institutlarning tavsifi, ularning vakolatlari, funksiyalari, moliyalashtirish manbalari, faoliyat ko'rsatkichlari va nazorat shakllarini o'z ichiga olishi mumkin.

Nihoyat, strategik boshqaruvni tashkil etish sxemasini, fazoviy rivojlanishning o'ziga xos strategik va ustuvor yo'nalishlarini, shuningdek, tegishli davlat organlarini o'z ichiga olishi tavsiya etiladi.

Strategiyani amalga oshirish mexanizmlari strategik boshqaruvning asosiy elementlaridan biri bo'lib, aslida bu mexanizmlar strategiyani hayotiy qiladi. Umumjahon uslubiy yondashuvlarni, shu jumladan, barcha darajalarda (munitorlikdan tortib makromintaqa va butun mamlakatgacha) amalga oshirish mexanizmlarini joriy etish strategik rejalashtirish va boshqarishning samarali yaxlit tizimi uchun asos yaratadi [1; 121].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, oldindan puxta ishlab chiqilgan strategiya orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Shu bilan birga, strategiyani amalga oshirishda maktab rahbarlaridan liderlik ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Antipin I.A. Implementation mechanisms of strategies of socio-economic territorial development: methodological approach. R-ECONOMY, 2019, 5(3), 115–122. Pp. 121. doi: 10.15826/recon.2019.5.3.012

2. Muxitdinov X.A., Sobirov A.A. Boshqarish nazariyasi / darslik. – T., Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijdiy uyi. 2012 – 102-b.

3. Natalia L. Sherstneva, Angelina B. Vishnyakovaa and Elena I. Chuchkalova. Specific Nature of Formation of the Strategic Management Mechanism of Sustainable Development in Modern Economic Conditions. IEJME— MATHEMATICS EDUCATION 2016, VOL. 11, NO. 8, 3076-3088.

4. Yo'ldoshev, N.K. Menejment: darslik / N.K. Yo'ldoshev, G.E. Zaxidov. – Toshkent: – “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018. – 178-b.

5. Виханский О. С. Стратегическое управление [Текст] / О.С. Виханский; 2-е изд., пере- раб. и доп. - М.: Экономиста, 2011.

6. Гусев И.С. Механизм разработки стратегии управления устойчивым развитием предприятий мясоперерабатывающей промышленности. Теория и практика сервиса: экономика, социальная сфера, технологии. 2016. № 2 (28). – 32 с.

7. Каплан Р. С. Организация, ориентированная на стратегию. Как в новой бизнес-среде преуспевают организации, применяющие сбалансированную систему показателей / Роберт С. Каплан, Дейвид П. Нортон; пер. с англ. - М.: ЗАО “Олимп-Бизнес”, 2012.

8. Медведев А.В. К вопросу финансово-аналитического планирования в электронном бизнесе / А.В.Медведев // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2014. № 9(3). С. 174.

9. Пардаев О.М. Менежмент. Ўқув қўлланма. – Т.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2019. – 65-66-б.

10. Файзуллаева Н.С. Таълим тизимида стратегик бошқарувнинг амалий жихатлари // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2012. – № 5. – 4 б.

11. Фоменко А.В. Науково-теоретичне обґрунтування механізму управління стратегічним розвитком підприємства. Вісник економіки транспорту і промисловості № 48, 2014. – С. 197-200.

12. Шукуров П. Таълим менежменти ёхуд таълим муассасасини илмий-методик бошқариш стратегияси. “Yosh kuch”. Тошкент – 2019. – 516 б.

UMUMTA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBAR KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGI DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

Umarova Nilufar Xasanovna – Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti doktoranti, nilufar.umarova1983@gmail.com тел: (+99897) 896-62-15

Annotatsiya: ushbu maqolada kommunikativ kompetentlik ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirishda umumta'lim muassasalari rahbarlarining menedjerlik faoliyatidagi muhim sifatlaridan biri ekanligi, ta'lim islohotlari jarayonida uni takomillashtirish bilan bog'liq muhim vazifalar to'g'risida mushohada yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, boshqaruv, maktab rahbari, menedjer, kasbiy kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, komponentlari, umumiy kommunikativ kompetensiya, maxsus kommunikativ kompetensiya, rasmiylashtirilgan kommunikativ kompetensiya, rasmiylashtirilmagan kommunikativ kompetensiya.

Annotation: in this article, it is observed that communicative competence is one of the important qualities of the managers of general educational institutions in

the managerial activity of improving the effectiveness of education and training, and the important tasks related to its improvement in the process of educational reforms.

Key words: education, management, school leader, manager, professional competence, communicative competence, general communicative competence, special communicative competence, formalized communicative competence, informal communicative competence.

Аннотация: в данной статье отмечается, что коммуникативная компетентность является одним из важных качеств менеджеров общеобразовательных учреждений в управленческой деятельности по повышению эффективности образования и обучения, а также рассматриваются важные задачи, связанные с ее повышением в процессе обучения образовательные реформы.

Ключевые слова: образование, менеджмент, руководитель школы, менеджер, профессиональная компетентность, коммуникативная компетентность, компоненты коммуникативной компетентности, общая коммуникативная компетентность, специальная коммуникативная компетентность, формальная коммуникативная компетентность, неформальная коммуникативная компетентность.

Respublikamiz aholisi demografik jihatdan kundan kunga o'sib borayotgan hozirgi davrda ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Globalashuv, fan-texnikaning rivojlanishi umumta'lim muassasalarida olib boriladigan islohotlar ta'lim-tarbiyaning mazmunini o'zgartirishni, ta'lim tizimini bugungi zamon talablari asosida boshqarishni talab etmoqda. Mamlakatimizda 2023-yil "Inson qadri va sifatli ta'lim yili" deb nomlandi va bu o'z navbatida ta'lim tizimining har bir bosqichida sifat va samaradorlikka erishish bilan bir qatorda barcha umumta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv sohasidagi faoliyatini samarali tashkil etish talabini ham orttiradi. Shuningdek, umumta'lim muassasalari rahbarlari zimmasiga ta'lim sifatini oshirish yo'lida dahldorlik bilan mehnat qilish mas'uliyatini yuklaydi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan boshqaruv islohotlarida davlat boshqaruvining turli sohalarida menedjerlar bilim va malakasini rivojlantirish, bu boradagi yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish, ularni tayyorlashning mazmuni va texnologiyalari bilan bog'liq muammolar kundan-kunga dolzarblashib bormoqda. Maktabda ta'lim-tarbiya jarayonini namunali tashkil etish zamonaviy tamoyillarga asoslangan boshqarishning yangi yondashuvlari va usullarini qo'llash zarur. Shu ma'noda boshqaruvda asosiy kompetensiyani tushunish, uni qo'llash usullari, shakllari, vositalaridan maktab direktori to'liq habardor bo'lishi juda muhim. Chunki, bugungi pedagoglar jamoasi, o'quvchilar va ota-onalar bilan ishlashda yangicha uslubga ega bo'lgan har tomonlama menedjerlik kompetentligini o'zida

namoyon eta oladigan rahbar boshqaruvini jamiyatning o‘zi talab etmoqda. Bunday yondashuvlardan biri sifatida korporativ boshqaruv va personalni boshqarishda rahbarning kasbiy kompetentli mihim hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik kasbiy faoliyatni amalga oshirish, kasbga oid muhim fazilatlar va orttirilgan faoliyat tajribasi, maktab rahbariga o‘zgaruvchan kasbiy maqomiga muvofiq boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishga imkon beradi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasining zamonaviy talqinlari tahlili maktab direktorining kasbiy kompetentligini rahbarga boshqaruv funksiyalarini uning o‘zgarayotgan kasbiy maqomiga mos tarzda amalga oshirish imkonini beradigan bilim va ko‘nikmalardan tashqari shaxsiy xususiyatlar va faoliyat bo‘yicha orttirilgan tajribalarni qamrab olgan umumlashgan kasbiy va shaxsiy xususiyat sifatida aniqlash imkonini beradi.

Demak, umumiy o‘rta ta‘lim maktabi rahbarining kasbiy kompetensiyasi – bu rahbarning maktabni boshqarish amaliyotida kasbiy (boshqaruv) bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llashga tayyorligi va qobiliyatidir.

Rahbar kadrlarning kasbiy yetuklik darajasini belgilab beruvchi, boshqaruvda sifat va samaradorlikka erishishni ta‘minlab beruvchi navbatdagi kompetensiya kommunikativ kompetensiyadir.

Kommunikativ kompetensiya odatda boshqa odamlar bilan kerakli aloqalarni o‘rnatish va saqlash qobiliyatini anglatadi. Bu kompetensiya samarali muloqotni ta‘minlaydigan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Kommunikativ kompetensiya - bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zaro ta‘sirlashish sharoitida shakllanadigan odamlar o‘rtasidagi rivojlanayotgan va asosan ongli aloqalar tajribasi bo‘lib, uni takomillashtirish jarayoni shaxs rivojlanishi bilan bog‘liq. Kommunikativ kompetensiya insonning ijtimoiy rollari xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Kommunikativ kompetensiya og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositalarining moslashuvchanligi va ulardan foydalanish erkinligini nazarda tutadi va insonning o‘ziga, tabiiy va ijtimoiy olamga bo‘lgan munosabatlari tizimini tartibga soluvchi kategoriya sifatida qaralishi mumkin.

Hozirgi kunda pedagogika ilmida kommunikativ kompetensiya muammosi e‘tiborsiz qoldirilgan deb aytish mumkin emas. Aksincha, so‘nggi o‘n yilliklarda unga tobora ko‘proq ishlar bag‘ishlangan. Ushbu muammoning turli qirralarini ishlab chiqqan olimlar qatorida biz Yu.N.Emelyanov, A.A.Bodalev, Yu.N.Jukov, N.Yu.Xryashchev, I.I.Seregin, F.I.Sharkov, M.A.Vasilik kabi olimlar o‘z ishlarida tadqiq qilganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, shu paytga qadar ko‘rib chiqilayotgan sohadagi ko‘plab nazariy va amaliy muammolar yetarli yechim topmagan. Ulardan eng muhimi quyidagilar:

birinchidan, bu “shaxsning kommunikativ kompetentsiyasi” tushunchasini qat’iy belgilash, uni kommunikativ samaradorlik kabi tegishli tushunchalardan ajratish.

ikkinchidan, bu kommunikativ kompetensiya parametrlarini aniqlash.

uchinchidan, faoliyatning turli sohalarida mutaxassislarning kommunikativ vakolatlarini o‘lchash va baholash.

Dastlabki ikkita vazifa aloqa nazariyasining predmet sohasiga tegishli. Keling, ularning yechimiga murojaat qilaylik.

Ilmiy adabiyotlarda kommunikativ kompetensiyani anglashning bir necha yondashuvlari keltirilgan.

Demak, M.A.Vasilik buni quyidagicha ta’riflaydi: “Kommunikativ kompetensiya - bu shaxs o‘z qobiliyati va ijtimoiy mavqei doirasida kasbiy muhitda va jamiyatda muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo‘lgan boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarning shaxsiy va kasbiy tajribasini shakllantirishning ma’lum darajasidir”[1].

F.I.Sharkov kommunikativ kompetensiyani “ma’lum vaziyatda ma’lumotni yetarli darajada idrok etish va maqsadli uzatishni ta’minlaydigan kommunikativ kodni tanlash qobiliyati” [2]deb tushunadi.

Kommunikativ kompetensiyaning batafsil ta’rifi Yu.M.Jukov tomonidan berilgan. Unga ko‘ra: “kommunikativ kompetensiya - bu insonning shaxs sifatida psixologik xarakteristikasi bo‘lib, u odamlar bilan muloqot qilishda yoki odamlar bilan kerakli aloqalarni o‘rnatish va saqlash qobiliyatida namoyon bo‘ladi”[3].

Yu.N.Emelyanov kommunikativ kompetensiyani insonning turli xil ijtimoiy rollarni bajarish va ijtimoiy guruhlar va vaziyatlarga moslashish, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqotni yaxshi bilishi bilan bog‘laydi. U kommunikativ kompetensiyaning muhim belgilariga odamning “shaxslararo makon”ni tashkil qilish va odamlar bilan faol va faol muloqot jarayonida boshqarish qobiliyatini bildiradi [4].

N.V.Kuzminaning ta’rifiga ko‘ra, kommunikativ kompetensiya - bu tabiiy ijtimoiylashuv, o‘qitish va ta’lim jarayonida odam tomonidan olingan bilimlar, lingvistik va lisoniy bo‘lmagan ko‘nikmalar va aloqa qobiliyatlari majmuasidir. Bunda tabiiy ma’lumotlar va shaxsning potentsiali muhim rol o‘ynaydi [5].

Demak, Kommunikativ kompetensiya - bu murakkab muloqot qobiliyatlari va qobiliyatlarga egalik qilish, yangi ijtimoiy tuzilmalarda yetarli malakalarni shakllantirish, muloqotdagi madaniy me’yorlar va cheklovlarni bilish, urf-odatlar, aloqa sohasidagi odob-axloq qoidalarini bilish, odob-axloq qoidalariga hurmat, milliylikka xos bo‘lgan kommunikativ vositalardan foydalanish layoqatidir.

Kommunikativ kompetensiya - bu kasbiy faoliyatda umumiy madaniyat va uning o'ziga xos ko'rinishini sintez qiladigan ajralmas sifat bo'lib, kommunikativ kompetensiyaning shartlaridan biri bu ma'lum qoidalar va talablarni bajarishdir.

Umumiy holda, rahbar kommunikativ kompetensiyasi ikki komponentdan iborat - umumiy va maxsus kommunikativ kompetensiya. Kasbiy faoliyati aloqani tashkil etish va amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmaganlar uchun, umumiy kommunikativ kompetensiya shu kabi kommunikativ vakolatlarga to'g'ri keladi.

Umumiy kommunikativ kompetensiya - bu shaxsning ijtimoiy vakolatiga kiradi. Bu shaxsning turli vaziyatlarda muloqot qilish qobiliyatini tavsiflaydi va kundalik aloqa darajasida, kundalik hayotda ham, professional sohada ham o'zaro axborot almashinuvining amaliyoti darajasida amalga oshiriladi. Menedjerlar uchun umumiydan tashqari, maxsus kommunikativ kompetensiya ham talab qilinadi. Ikkinchisi – boshqaruvchi uchun professional funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan kommunikativ bilim, ko'nikma va malakalarning “aerobatika”si bo'lib, har qanday maxsus vakolat kabi, maxsus tayyorgarlikni talab qiladi.

O'zining mazmuni bo'yicha kommunikativ kompetensiya tushunchasi insonning kommunikativ malakasi tushunchasiga eng yaqin.

Kommunikativ kompetensiya rasmiylashtirilgan va rasmiylashtirilmaganlarga bo'linadi. Ularning har biri o'ziga xos talablar tizimiga ega va bir qator tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Ularsiz kommunikativ kompetensiyani shakllantirish mumkin emas. Bularga so'z boyligi, vakolatli og'zaki va yozma nutq, axloq qoidalarini bilish va qo'llash, aloqa strategiyalari, har xil turdagi odamlar bilan aloqa o'rnatish va ularning xatti-harakatlarini tahlil qilish qobiliyati, nizolarni hal qilish, suhbatdoshni tinglash va unga qiziqish, o'ziga ishonish va hattoki harakat qilish qobiliyati kiradi.

Shunday qilib, umumta'lim muassasasi rahbarining kommunikativ kompetentligi murakkab hodisadir.

Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish shaxsning umumiy va kasbiy rivojlanishi, uni tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirish bilan bog'liq. Ta'lim muassasasi sharoitida ta'lim menedjerlarining kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning texnologik asoslari bo'yicha tizimlashtirilgan material quyidagilarga imkon berishi bilan belgilanadi:

- mazkur hodisaning nazariyasi va metodologiyasida o'rganishning sifat darajasini oshirish;

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish;

- ta'lim muassasasi mutaxassislari e'tiborini kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida kasbiy muloqotni takomillashtirish jarayonlarini yanada o'rganish, ijtimoiy-madaniy faoliyatning texnologik kompleksini mazmun-uslubiy ta'minotining tarkibiy qismlaridan biri sifatida qo'llash zarurligiga qaratish;

- kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni.

Kasbiy muloqotga bo'lgan ehtiyojni belgilaydigan motivatsiyalarni shakllantirish, kasbiy faoliyatda kommunikativ jarayonni tashkil etish qonuniyatlarini bilish, kommunikativ jarayonni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, professional muloqotda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish, kommunikativ xatti-harakatlarning aks etishi ta'lim menedjerlari faoliyatining sifatini ta'minlaydi.

Xulosa: Mazkur tadqiqotda kommunikativ kompetensiyani tavsiflashning mavjud yondashuvlarini tahlil qilgandan so'ng, u shaxslararo o'zaro ta'sirning ma'lum holatlarida samarali kommunikativ harakatni yaratish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi va zamonaviy fanda integrativ shaxsiy resurs sifatida tavsiflangan degan xulosaga keldik. Kommunikativ faoliyatning muvaffaqiyati shundaki, u jamoada sog'lom muhitni yaratishda, xodimlar bilan demokratik aloqalarni ta'minlashda, nizolarni bartaraf etishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Василик М.А. “Актуальные проблемы теории коммуникации”. Сборник научных трудов. - СПб. - Изд-во СПбГПУ, 2004. - С. 4-11.

2. Sharkov F.I. Kommunikologiya: entsiklopedicheskiy slovar'-spravochnik. M., 2009. 766 str. [Sharkov, F.I. (2009) Communicology: encyclopedic dictionary catalogue, Moscow].

3. Жуков Ю.М. Эффективность делового общения. Знание, М., 1988, 64 с.

4. Емельянов, Ю.Н. Теория формирования и практика совершенствования коммуникативной компетентности / Ю.Н. Емельянов. – Москва: росвещение, 1995. – 183 с.

5. Кузмина Н.К. Специалисты-субъекты изучения продуктивности своей деятельности (в свете акмеологической теории фундаментального образования) // Акмеология –2005. Методические проблемы. СПб.: Изд – ЦСИБ, 2005.

МАКТАБ БОШҚАРУВИДА ДЕМОГРАФИК ОМИЛЛАР: МУАММО ВА ЕЧИМ

А.Т.Усмонова – А.Авлоний номидаги миллий-тадқиқот институти докторанти.

Илм-фан ва техника тараққиётининг ўсиб бориши таълим муассасалари учун ҳам янги талабларни юзага келтирмоқда. Ўрта таълим тизими бошқаруви ҳолати таълимдан қутилган самарадорликка катта таъсир кўрсатувчи омилдир.

Мактаб таълими бошқарувидаги юзага келаётган бугунги мураккабликлар таълим сифати ва самарадорлигига салбий таъсир кўрсатаётгани афсуски кўп кузатилмоқда. Айниқса, ўқувчилар юқори синфларга ўтган даврларда таълим олишга ёндошув нафақат ўқувчи, балки ота-оналар томонидан ҳам ўзига хос тарзда ўзгара бормоқда. Мактаб таълими масъулият катта бўлган таълим босқичи ҳисобланади. Ўсмирлик даврига ўтилиш, ёшга хос ҳарактер хусусиятларнинг юзага келиши, оилалардаги носоғлом муҳит буларнинг барчаси мактаб таълими даврида яққол юзага чиқади. Истаймизми йўқми мактаб бошқарувида ўқувчи ва ота-оналар билан ишлашда юзага келаётган муаммоларни бартараф этишда ўзига хос ёндошув олиб боришга эҳтиёж туғилмоқда.

Демографик муаммоларнинг таълим жараёнига таъсири масаласида куйидаги ҳолатларни таҳлил қиламиз:

- мамлакатимизда аҳоли сонининг ўсиши мактаб ёшидаги аҳоли сонининг ўсишига олиб келади. Республикаимизда мавжуд мактаблар сони мактаб ёшидаги ўқувчилар сонига номуносив бўлган ҳудудларда мактаб синфларида ўқувчи сони талабдан ортиқ. Бу мактабда дарс хоналари етишмаслиги, дарсларни ташкил қилиш, вояга етмаганлар билан ишлашда қийинчиликларни юзага келтирди;

- оилаларнинг тўлиқ эмаслиги, бу муаммо бир неча кўринишда мавжуд, ота ёки она, ёки биргаликда мигрантлик асосида узокда эканлиги; ажрилишлар сонининг ошиб бориши натижасида тўлиқсиз оилалар; ярим етим, ёки етим болалар сонининг ортиб бориши ўқувчилар тарбиясида салбий иллатларнинг кўпая боришига сабаб бўлмоқда;

- тўлиқ оилалардаги носоғлом муҳит, ёки фарзанд таълим-тарбиясига нисбатан масъулиятнинг камлиги;


- ўқувчи ёшидаги ногиронлиги бўлган болалар билан ишлашдаги ижтимоий муаммолар;



- ички миграция натижасида ҳудудий демографик муаммоларнинг мактаб таълими муҳитига таъсири кабиларни киритиш мумкин. Демографик муаммолар билан ишлашда келиб чиқиш сабабларини ўрганиш ва шунга мувофиқ чора-тадбирлар ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ.


Таълим самарадорлигига эришишда таълим ҳизматлари сифати, мактаб таълим муҳити, ижобий-психологик соғлом муҳит, жамоада креатив ҳамкорликнинг бўлиши таълим самарадорлигининг асосий омиллари ҳисобланади. Мактаб таълими бошқарувида таълим самарадорлигига эришиш учун муассаса жойлашган ҳудуд аҳолисида мавжуд бўлган демографик муаммолар билан ҳисоблашмасликнинг мумкин эмас. Биз юқорида кўриб ўтган аҳоли билан боғлиқ муаммолардан келиб чиқиб мактаб таълими

самарадорлигига эришишда мактабнинг бошқарувига комплекс ёндашув асосида бир қатор муаммоларни бартараф этиш мумкин. Хусусан, мактабнинг ота-она ёки уларнинг ўрнини босувчи шахслар, юқори синф ўқувчилари, вояга етмаганлар билан ишлашга масъул бўлган ҳудудий ташкилотлар, касб-хунар ва олий таълим муассасалари билан ишлашда аниқ мақсадларга йўналтирилган фаолиятни ташкил қилиши юзага келиши мумкин бўлган муаммоларни олдини олиш ёхуд оқибатларини бартараф этишга эришишда ёрдам беради. Мактабнинг бундай фаолияти орқали унинг жамиятдаги ўрни ва мавқеини, таълим хизматлари бозоридаги имижини шакллантиришга эришилади. Жамият аъзоларининг мактабга унинг фаолиятига нисбатан ишонч, суянч ва масъулият билан ёндошишлари аҳоли, айниқса вояга етмаганлар ўртасида масъулият ҳисси, эртанги кун учун курашиш, ўзлигини англаб етиши, мустақил ҳаётга тайёргарлик кўникмаларини шаклланиши кўплаб ижтимоий муаммоларни олдини олишга ёрдам беради. Шунингдек, мактабда ота-оналар, ёки уларнинг ўрнини босувчи шахслар билан режали асосда ишлаш. Ўқувчиларни вақтларини мақсадли ташкил мақсадида мактабнинг турли доирадаги ҳамкорлик ишларини кенгайтириш, таълим соҳасида амалга оширилаётган турли халқаро ва маҳаллий доирадаги лойиҳалар, танловларга ўқувчиларни жалб қилиш, хунар соҳаларида кўникмаларини ошириш каби ишлар мактабга фаолиятига нисбатан ижобий қарашларни юзага келишига таъсир қилади. Аҳоли орасида мавжуд муаммоларни бартараф этиш, демографик ўзгаришлардан оқилона йўл билан манфаатдорликка эришиш, ўсмирлар орасида билим олиш, хунар эгаллаш, тадбиркорлик кўникмаларини ошириш лозим.

Мактаб бошқарувида комплекс ёндошув деганда ўқитувчи, ўқувчи ва ота-оналар жамоаси билан олиб бориладиган тизимли ишлар назарда тутилади. Бунда мактаб бошқарувида бир қатор компонентлар механизмлари асосида ишланади. Қуйида механизмлар ишлаш структураси тасвирланган.









Мазкур механизмда келтирилган таклифлар асосида иш олиб бориш билан мактаб тизимига тегишли аҳоли билан ҳар томонлама манфаатли натижаларга, таълим жараёнида юзага келаётган турли салбий ҳолатларни бартараф этишга эришиш мақсад қилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Имиж. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 4-том. –Т.:, 2002. Б. 129.
2. «Имидж психолога», **Издательство:** [Академия Естествознания](#); **Год издания:** 2009
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълимини бошқариш тизimini такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 5538-сон фармони.
4. И.А. Хоменко. Имидж школы: механизмы и формирования и способы построения.

DEMOGRAFIK OMILLARINI HISOBGA OLIB MAKTABLARNING TA'LIM DASTURLARI VA YANGI DARSLIKLARNI YARATISH ISTIQBOLLARI

Norqulova Dilfuza Ro'ziboy qizi – “Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar” universiteti Qarshi filiali talabasi.

E-mail: dilfuzanorqulova05@gmail.com, tel: +998906729835

Anotatsiya: Ushbu maqolada Davlatimiz demografik omillariga asoslangan holda mamlakatimizning barcha hududlardagi maktablarda o'qitish metodikalari hamda fan resurslarini to'g'ri tashkil etishlikni tahliliy munozara etilgan, hozirgi kunda jamiyat demografikasini bog'lagan holda ilmiy asoslangan metodologiyalarni tadbiq etish, asosan o'quvchilarning demografikasi bo'yicha o'qitish ya'ni erkin ta'lim shaklini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib yosh avlodni ko'tarinki ruhda sifatli ta'lim olishlari uchun, zarur tavsiya va fikrlar keltirilib o'tilgan. Muammolarni belgilab, yechimlarni aniqlash va istiqbolini ko'rsatib berishdan iborat. Hozirgi davrda demografiya nufus nazariyasi asosida rivojlanayotgan qator demografik sohalari keng tarmog'i tizimini qamrab olganni bilan bog'liqdir.

Kalit so'z: Demografik, ta'lim, fanlar majmuyi, metodika, raqamli dasturlar, sinflar, umum jamiyat demografikasi, milliy g'oya, yangi darsliklar, erkin ta'lim.

Аннотация: В данной статье, исходя из демографических факторов нашей страны, аналитически обсуждаются методы преподавания и правильная организация научных ресурсов в школах всех регионов страны, в настоящее время применение научно обоснованных методик в связи с демография общества, главным образом демография студентов. Она направлена на развитие бесплатной формы образования, чтобы побудить молодое поколение получать качественное образование в веселом духе, и были представлены необходимые рекомендации и идеи. Он состоит из выявления проблем, определения решений и демонстрации перспективы. В современный период демография связана с широкой сетью ряда демографических областей, развивающихся на основе теории народонаселения.

Ключевые слова: Демография, образование, набор предметов, методика, цифровые программы, классы, демография общества, национальная идея, новые учебники, бесплатное образование.

Annotation: In this article, based on the demographic factors of our country, the methods of teaching and the proper organization of science resources in schools in all regions of the country are analytically discussed, nowadays, the application of scientifically based methodologies in connection with the demographics of the society, mainly the demographics of students It is aimed at the development of the

free form of education in order to encourage the young generation to receive quality education in a cheerful spirit, and the necessary recommendations and ideas have been presented. It consists of identifying problems, identifying solutions and showing perspective. In the present period, demography is related to the wide network of a number of demographic fields that are developing on the basis of population theory.

Key word: Demographics, education, set of subjects, methodology, digital programs, classes, demography of the general society, national idea, new textbooks, free education.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ta'lim-tarbiya sifatining yuqori darajada bo'lishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omillardan biri – ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganligi hamda ta'limning innovatsion axborot-didaktik shakllarini ilmiy tadqiq qilish hisoblanadi. Bu o'z o'rnida ta'lim tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta'lim tizimi respublikamizning kelajakdagi intellektual imkoniyatlarini va rivojlanishini belgilab beruvchi o'quvchiyoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi [1].

Bugun mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalarida tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining har bir hududida joylashgan maktablarda ta'limni yangilash ya'ni ta'lim olib kelayotgan, barcha o'quvchilarga kerakli bo'ladigan darslar majmuiyini tashkil etish bilan birga uni raqamlashtirishni, Ijtimoiy demografik talablariga mos holda tashkil etishni ishlab chiqish zarur. Shu sababli hozirgi kunda Maktablarda fanlarni o'zlashtirishga yordam beruvchi amaliy o'quv dasturiy vositalarni ko'paytirishda ishlar olib borilmoqda. Asosan o'qtuvchi va o'quvchilarni vaqtlarini samarali tarzda taqsimlash, darslardan zerikish omillarini pasaytirish, har bir o'quvchidagi iqtidorlarini erta yuzaga chiqarish, hamda kelajakdagi tanlagan kasbiga to'g'ri ko'rsatmalarga asoslangan bilimlarni o'z ichiga olishi lozim bo'lgan o'quv dasturiy platformalarni tashkil etilishi muhim hisoblanadi.

Hozirgi demografik omillarni hisobga olgan holda o'zimizning milliy g'oyamiz asosida hamda jaxon sitandartlari metodikalaridan foydalanib yangi o'quv darsliklarini kichik va katta sinflar uchun ayni talablariga javob beradigan holatda joriy etish zarur. Kichik sinflar uchun boshlang'ich darsliklarni qiziqarli qilish

maqsadida o‘quvchini o‘ziga tortadigan o‘quv materiallar asosida darslikarni tashkil etish ham muhimdir [2]. Katta sinf darsliklarini tartiblash ya’ni odatiy biriktiriladigan ko‘pchilik fanlar qatorida zamonaviy fanlarni qo‘shish hamda bu fanlarni o‘quvchi tomonidan tanlashiga imkon berish, ya’ni ta’lim olib kelayotgan yosh avlodga kelajakdagi tanlagan kasbiga zarur bo‘ladigan fanlarni erkin tanlagan tarzda o‘rganishlari maqsad muvofiq bo‘lishi aniq.

Maktablarda ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturini to‘laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish;

jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag‘batlantirish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg‘or maktab direktori va namunali o‘qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish; bularni amalga oshirish joiz [3].

Xulosa qilib shuni aytolamanki Milliy g‘oyamizni ilgari surgan holda o‘quvchilarga buyuk ajdodlarimiz siymosini hamisha yodda saqlashlari va ular uchun ajdodlarimizning qilgan ishlari doimo matevatsiya yo‘nalish bo‘ladigan darajada tanishtishimiz kerak. Negaki bundan bir necha asrlar oldin Yevropa uxlayotgan bir paytda Osiyoda ilmga intilish ya’ni uyg‘onish davri bo‘lgan.

Shularni inobatga olgan holda buyuk bobolarimiz bizlarga meros qoldirgan bilimlarini qullay metodikalar asosida o‘quvchilarga o‘rgatish zarur. Albatta hozirgi kunda ta’lim yo‘nalishida ko‘plab islohatlar olib borilmoqda hususan Prezident maktablarini tashkil etilishi, Jahon ta’lim standartlariga monan o‘quvchilar uchun ko‘plab manfa’li qaror va muhokamalar bo‘layotgani sir emas,yana shuni takidlashim joizki Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytgan gaplari ayni xaqiqat! “faqatagina prezident maktablarigina emas balki barcha ummumiy o‘rta ta’lim maktablarida ham malakali kadrlar dars berishlari hamda sifatli ta’limni tadbqiq etishlari zarur deganlar” yuqoridagi barcha chora tadbirlarni tez fursatda amalga oshirilishi uchun biriktirilgan ma’sul xodimlar o‘z ishlariga vijdonan va ma’sulyat bilan yondashishlari zarur hisoblanadi!...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sharipov Sh.S.. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyiligini ta’minlash texnologiyalari. Toshkent 2007-yil
2. Abdurizayeva S.R., Ta’lim-tarbiya jarayonida ijodiy muhitni yaratish muammolari Toshkent 2022-yil
3. Asqarov A., Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari va takliflar... Toshkent -2023 yil.

II SHO‘BA

DEMOGRAFIK HOLATNI O‘RGANISH VA TAHLIL QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

MAKTABGACHA TA‘LIM TIZIMINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Jo‘rayeva Nargiza Tairovna – Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrası (PhD) v.b.dotsenti.

Axunova Munisa – Nizomiy nomidagi TDPU talabasi.

O‘zbekiston Respublikasida Ta‘lim tizimini isloh qilish borasida islohotlar amalga oshirilmoqda. “Zamonaviy maktablarni tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori 2019-yil 26-noyabr, PQ-4537-son, “2017-2021-yillarda maktabgacha Ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident Qarori 2016-yil 29-dekabr 2707-son, “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 20-fevral, PQ-4199-son Prezident Qarori va boshqa ko‘plab respublikamizdagi Ta‘lim tizimini dunyodagi etuk Ta‘lim tizimlariga tenglashtirish borasidagi islohotlarni Ta‘kidlab o‘tish mumkin. Ushbu maqsadlarni bajarish uchun 2016-yildan boshlab milliy Ta‘lim tizimida STEAM O‘zbekiston Respublikasida Ta‘lim tizimini isloh qilish borasida islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda STEAM Ta‘lim tizimi dunyo miqyosida keng tan olinmoqda. [1]

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” va “Ilk qadam” o‘quv dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta‘lim tizimida maktabgacha ta‘limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Albatta maktabgacha ta‘limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta‘lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi. Maktabgacha ta‘lim muassasalari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish (rivojlanish) markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘lashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. [2, b.76.]

Bugungi kunda bunday yondashuv STEAM deb atalib, bu taniqli STEM qisqartmasining rivojlanishi bo‘lib, san‘at bundan mustasno. S – ta‘lim yoki fan. T - texnologiya. Ingliz tilida muhandislikni anglatadigan elektron muhandislik. M - matematik, fanlar malikasi matematika. San‘at ostida A - qisqartmasining yangi

tarkibiy qismi butunlay boshqa yo‘nalishlarni - rasm, arxitektura, haykaltaroshlik, musiqa va she‘riyatni tushunish mumkin.

STEAM – bu tanqidiy fikrlash, tadqiqot qobiliyatlari va guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida bir nechta fan sohalarini birlashtirgan yangi o‘quv texnologiyasi. San‘atning qo‘shilishi biz loyihada ishtirok etadigan o‘quvchilar tarkibini kengaytirishga imkon beradi, shuning uchun dizayn va matematikada aniq qobiliyatlarga ega bo‘lmagan bolalar loyihani estetik jihatdan amalga oshirishda guruhga yordam berishlari mumkin. [3, b.16.]

STEAM o‘qitish - bu bolalarimizning mahoratini yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradigan innovatsion usul. Uning yordami bilan biz iqtisodiy jihatdan mustaqil va raqobatbardosh mamlakat bo‘lishimizga imkon beradigan ilg‘or kadrlar bazasini shakllantirishimiz mumkin. STEAM ta‘limining afzalliklari:

- mavzular bo‘yicha emas, balki mavzular bo‘yicha integratsiyalashgan mashg‘ulotlar;

- ilmiy va texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash;

- tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilish;

- o‘ziga ishonchni shakllantirish; - faol aloqa va jamoada ishlash;

- texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish;

- loyihalarga ijodiy va innovatsion yondashuvlar;

- har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar faoliyati orqali texnik ijodkorlik motivatsiyasini rivojlantirish;

- dastlabki kasbiy rahbarlik;

- bolalarni hayotdagi texnologik yangiliklarga tayyorlash; [3, b.17.]

STEAM - hozirgi kunda dunyo ta‘lim tizimining eng asosiy urf bo‘lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanib, ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog‘liqligini ko‘rsatib o‘rgatiladi. Maktabgacha ta‘limda steam texnologiyasi fanining vazifasi - talabalarga STEAM ta‘lim texnologiyasidan foydalanish usullarini o‘rgatish, STEAM ta‘lim texnologiyasini ta‘lim-tarbiya jarayonida qo‘llashda turli xil faoliyatlarni integratsiyalash, maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash vazifalarini bajaradi. STEAM bolalarda muammolarni tushunish, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa, kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi.

Bugungi kunda STEAM - ta‘lim dunyodagi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo‘llashda beshta sohani yagona o‘quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o‘rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy

ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi.

STEAM texnologiyasida bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktab o'quvchilariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Globalashuv davridagi texnologik o'zgarishlarni ortidan qolib ketmaslik maqsadida, yangi texnologiyalar, bazalar shakllanishi, sun'iy aql kabi trend texnologiyalarni bilish, ularga muvofiq ta'lim berish hozirgi zamon pedagoglarning, pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanmoqda. [4, b.36.]

Zamonaviy bolalar doimiy ravishda multimedia vositalari bilan yuzma-yuz muloqot qilganliklari uchun, kun davomida multfilmlar tomosha qilishadi, ularni yaratilish murakkabligini anglab yetishmasada, ularda alohida ishtiyoq bo'lgani uchun o'zlarida kuch, energiya topa oladilar, o'zlarining ijodiy multfilmlarini yaratishga osonlik bilan kirishadilar. Ularning animatsiyadan foydalanishi vizual faoliyatga, AKT ga qiziqishni oshiradi, o'zlarini ijodkor sifatida tasavvur etishadi. [5]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston respublikasi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/Toshkent-2022
2. T.Tolipova. Tabiatshunoslik fanini o'qitishda STEAM yondashuv (O'quv-uslubiy qo'llanma). Samarqand – 2019. 16-bet
3. Z.Ashurova. Maktabgacha ta'limda steam texnologiyasidan foydalanish. Metodik qo'llanma. Buxoro. Durdona nashriyoti, 2022.36-bet
4. Z.Qodirova. "Maktabgacha ta'limda steam o'qitish asoslari" N.-2022
5. <https://fayllar.org/psixologik-korreksiya-haqida-tushuncha.html>

ТАЛАБАЛАРНИНГ БАДИЙ ТАЪЛИМ ОРҚАЛИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ КРЕАТИВ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Н.Х.Талипов – Низомий номидаги ТДПУ Тасвирий санъат кафедраси доценти.

Д.Пўлатова – Низомий номидаги ТДПУ 2-курс магистранти.

А.Каримова – Низомий номидаги ТДПУ 2-курс талабаси.

Аннотация: Мақолада тасвирий санъатнинг тури бўлган графика яъни қаламтасвирнинг рангтасвирда тутган ўрни бекиёслиги ҳақида назарий фикр ва мулоҳазалар ҳамда амалий қўлланилиши таҳлил этилади.

Аннотация: Статъя посвящена теоретическому анализу академической живописи и основам графического рисунка в практических занятиях изобразительного искусства а также методике преподавания роли рисунка в живописи.

Resume: The article is devoted to the theoretical analysis of academic painting and the basics of graphic drawing in the practical studies of fine art as well as the methodology of teaching the role of drawing in painting.

Калит сўзлар: тасвирий санъат, тур ва жанр, қаламтасвир, рангтасвир, композиция, фазовий перспектива, бўёқ, ранг ва тус, штрих, нисбат, ҳажм, жойлаштириш, уйғунлик, суртма, ёруғ ва ранг муносабатлари.

Ключевые слова: изобразительное искусство, вид и жанр, рисунок, живопись, композиция, воздушная перспектива, краска, цвет и тон, штрих, пропорция, объем, компоновка, гармония, мазок, световое и цветовое отношение.

Keywords: art, look and genre, drawing, painting, composition, aerial perspective, paint, color and tone, stroke, proportion, volume, layout, harmony, brushstroke, light and color ratio.

Ҳозирги кунда барча соҳаларда бўлгани каби олий таълим тизимида, ихтисослашган мактабларда тасвирий санъат ўқитилишини янгича ташкил этиш, унинг мазмуни ва методикасини янада такомиллаштириш долзарб педагогик муаммолардан бири ҳисобланади. Хусусан, ихтисослашган мактабларда иқтидорли ўқувчиларни янада шакллантиришда янги ўқув режалар, намунавий дастурлар тузиш уларга тасвирий санъат орқали бадиий таълим бериш муҳим вазифалардан биридир.

Республиканинг турли олий ўқув юртлари ва илмий текшириш институтларида талабаларга миллий санъат намуналарини ўқитишнинг илмий

асосланган янги шакли, методлари ишлаб чиқилмоқда. Талабаларни бадиий жиҳатдан баркамол, Ватанга ва миллий санъатга садоқат руҳида тарбиялаб вояга етказишда тасвирий санъат хусусан, қаламтасвир, рангтасвир, композиция фанларининг ўрни алоҳида аҳамият касб этади. Бу эса ўз навбатида олий ўқув юрти факультетларида, ихтисослашган мактабларда ўқитиладиган махсус фанларнинг чуқур ва асосли бўлишини тақозо этиб, педагоглар зиммасига юксак вазифаларни белгилайди.

Тасвирий санъатда рангтасвир фани ихтисослашган мактабларда ўқитиладиган барча фанлар қатори муҳим ҳисобланади ва улар орасидаги боғлиқликни таъминлайди. Тасвирий фаолиятнинг назариясини мунтазам ўрганиш, тасвирий санъат таълимини муваффақиятли ўзлаштиришнинг асосий шартларидандир. Рангтасвир қонун-қоидаларини пухта эгаллаган талабагина амалий ижодда самарали шуғулланиши мумкин[1,19]. «Кимда-ким илмни амалиётсиз тасаввур этса, - у бамисоли сузишга эшқаксиз чиқаётган қайиқ ҳайдовчисидир ва у ҳеч қачон қаерга кетаётганлигига тўла ишонч ҳосил қила олмайди дея таъкидлаган Леонардо да Винчи. Айниқса рангтасвир соҳасида амалиёт ҳамиша кучли назарий билан боғлиқ ҳолда амалга оширилиши зарур ва буларсиз ҳеч нарсага эришиб бўлмайди» [2, 124].

Рангтасвир ҳаққоний шаклнинг рангли тузилиши қонуниятларига асосланган. Рангтасвирни ўрганиш – бу текисликдаги рангли шаклнинг нисбатлари, конструктив қурилиши, ҳажми, фазовий тузилиши усулларини излаш йўлидир. Шуларга боғлиқ ҳолда ҳар бир талаба буюм ва нарсаларни перспектива қонунларига асосланиб конструктив тузилиши, фазовий жойлашуви, нисбат, ҳажмни мукамал тасвирлай олиши зарур. Қаламтасвирда ранг ва туснинг яхлит бир бутунликда гармоник уйғунлашуви бу ҳақиқий рангтасвирдир.

Тасвирда қаламсурат мукамал бўлиши лозим, акс ҳолда турли бўёқлар ҳам оддийгина нарса ва буюмнинг қурилиши, ҳажмини саводли ифодалаб бермайди. Ҳаво перспективасига боғлиқ ҳолда рангларнинг нозик ўзгаришини ифодаловчи, матога берилган ранг-баранг суртмалар ҳам, ўз-ўзидан фазовий кенгликни ифода эта олмайди. Фақат перспектива қоидаларига тўғри амал қилиб тасвирланган қаламтасвиргина рангларни янада ҳам жозибали кўрсатади.

Агар табиат манзараси перспектива қонун-қоидаларига амал қилинмай тасвирланса, кенгликни ифодаловчи рангнинг ўрни аҳамиятсиз бўлиб қолади. Рангтасвирни рассомлар шундай таърифлайдилар: «Бу юз фоиз қаламтасвир ва юз фоиз рангтасвирнинг бир-бирига чамбарчас боғлиқлигидир».

Рангтасвирнинг жозибали чиқишида қаламтасвирнинг ўрни бекиёсдир. Аммо, моҳир рассом, қаламдан фойдаланмасдан ишни бўёқлар билан

тасвирлаши ҳам мумкин. Ижодкор изланиш жараёнида рангтасвирни қаламтасвир билан бевосита боғлиқлигини ҳис этади. Яъни буюмларнинг фазовий жойлашуви, нисбатларнинг аниқлиги, рангларнинг тўғри қўйилиши ишни бир бутунликда яқунланиши кўп жиҳатдан ижодкорга боғлиқдир. Рассом қаламтасвирни пухта ўзлаштириб олгандагина (қоғозга тўғри жойлаштириш, нарса ва буюмларнинг фазовий жойлашуви, перспектива қоидаларига амал қилиш, нисбатларни тўғри топиш, методик кетма- кетликда ишни туслаш ва ҳ.к) рангтасвирда кўзланган мақсадга эришиш мумкин, акс ҳолда ноаниқ ечилган қаламтасвир ишини таҳлил этсак, ранглар қанчалик жозибали бўлмасин, барибир бу ишни сифатли деб бўлмайди. Шунинг учун турли рассомлик мактабларининг тарихий тажрибалари шундан гувоҳлик берадики, таълимнинг дастлабки босқичларида қаламтасвирни мукамал ўзлаштириш, кейинги ўрганиш машқ жараёнлари учун замин яратади. Ёш рассом Эдуардо Фиолетти Венецияга ўқишга келганида «рангтасвирни мукамал эгаллаш учун нима қилиш керак», деган саволига устоз рассом Тинторетто: «Расм чизиш!» деб жавоб берган. Рассом бўлиш учун яна кўшимча нималарни маслаҳат берар эдингиз деган Фиолеттининг қайта саволига Тинторетто: «Расм чизиш ва яна расм чизиш!» деб жавоб қилган у- расм чизиш рангтасвирга нафислик ва мукамаллик ато этишини ҳақ, деб билган [3, 257].

Буюк ҳайкалтарош Микеланжело қаламтасвирда (рангтасвир, ҳайкалтарошлик, меъморчиликда) «ҳар қандай илмнинг илдизи ва негизини кўрган». «Қаламтасвир доимо бизга йўл кўрсатиб турувчи қутб ва компас бўлиб, турли бўёқлар уммонларида чўкаётганларга нажот бериш омилидир,- дея таъкидлаган Шарль Лебрен.

Энгр ўз устахонасининг эшикларига қуйидаги сўзларни ёзган. «Бу ерга келган шогирдларга қаламтасвирни ўргатаман, кетаётганда эса улар рангтасвирни устаси бўлиб етишади».

«Шундай нарса мавжудки у ҳамма санъат турларининг асоси ҳисобланади, бу- қаламтасвир. Кимки қаламтасвир санъатини мукамал эгалласа, у рангтасвирни ҳам ҳайкалтарошликни ҳам ўзлаштира олади»,- деб айтган Караччи. «Ҳар қандай шаклни ажойиб нафис қилувчи ранглар эмас балки аниқ чизилган қаламтасвирдир»- деган Тициан. «Қаламтасвирга асосланмаган рангтасвир, санъат эмас, балки рангли доғларнинг тартибсиз йиғиндисидир»,-дея доим такрорлаган В.Е.Маковский. «Қаламтасвирни пухта билмаган ижод ҳам қила олмайди»,- деб таълим берган П.П.Чистяков. И.Е.Репин кунора 2-3 соат қаламтасвир билан шуғулланган, ва уни «рангтасвирни асоси», деб ҳисоблаган.

А.В.Васнецов, П.П.Чистяковнинг таълим бериш тизимини ёдга олиб, «унинг сеvimли машғулоти қаламтасвир эди», деб эслайди. А.Ашбенинг Мюнхендаги рассом-педагог мактабида, ҳаттоки санъат Академиясини тамомлаганлар ҳам таълим олар, таълим бериш фақат қаламтасвир бўйича бўлиб (шаклнинг конструктив тузилиши, тус-соя, ёруғ муносабатлари акс этган тасвир, гризайль), у узоқ вақт ўтказилган, шунинг натижасидагина шаклни конструктив қуриш ва тус муносабатларини пухта эгаллаб олиниб- сўнг ранглар билан тасвирлашга ўтилган.

Машҳур рассомларнинг кўпчилиги авваламбор етук қаламтасвир усталаридир. Булар қаторига К.П.Брюллов, И.И.Шишкин, В.Е.Маковский, В.А.Поленов, И.Е.Репин, М.А.Врубель, В.А.Серов, К.А.Коровин, М.Набиев, Р.Аҳмедов, Б.Жалолов, А.Мирзаев, А.Икромжонов каби моҳир мўйқалам соҳиблари киради.

Д.Н.Кардовскийнинг фикрича, агар биз рангтасвир бу қаламтасвирнинг рангда давом этиши деб айтсак, шаклнинг рангда талқин этилиши қаламтасвирдан бошланади ва ижод жараёнида у бир неча маротаба тўғриланади, ранглар билан сайқалланади. Қаламтасвир маҳоратини пухта эгаллаш, бетакрор рангтасвир асарлари яратиш гаровидир. П.П.Кончаловский рангтасвирда қаламтасвирнинг моҳиятини кўриб шундай ёзган: «Рангтасвирнинг ҳақиқий усули-бу шаклни мутлақо аниқ етказиб бериш йўли билан бериладиган бўёқ суртмадир» [4, 27].

Ихтисослашган мактабларда тарбияланган ўқувчилар ҳам тасвирий санъатнинг ҳар қайси тури бўйича яратилган ижодий ишнинг қийматига қараб баҳоланади ва кадрланади.

Талабалар рангтасвирда моҳирона ижод қилишлари учун қуйидаги билим ва малакаларни пухта ўзлаштирмоғи лозим:

1.Кузатув перспектива (уфқ чизиғи, ясси жисмлар ва уфқ чизиғи перспективаси) элементлари. Текисликлар билан чегараланган жисмларни конструктив ва перспектив қурилиши (куб, призма, интерьер ва экстерьер).

2.Цилиндр шаклидаги жисмларнинг перспектив қурилиши.

3.Геометрик шаклларда соя-ёруғ муносабатлари (куб, цилиндр ва шардаги соя-ёруғликнинг тақсимланиши, ҳаво перспективасининг элементлари).

4.Қаламтасвирда ҳажм, фазо ва материалликни тасвирлаш усуллари (турли материалларни соя-ёруғ хусусияти, тус муносабатлари, ҳажмни кўрсатишда чизиқ ва «штрих»ни ўрни фазо ва моддийлик).

Талабалар қаламтасвирда фақат назарий билимларни мустаҳкамлаб қолмай, балки амалий жиҳатдан ҳам катта тажрибага эга бўлмоғи лозим: кўйилмадаги нисбатларни аниқ топиш, нозик перспектив ўзгаришларни сеза

билиш, тасвирни қоғоз юзасида асосли-конструктив қуриш ва жойлаштириш шакл ҳажмини тушаётган соя-ёруғ орқали моҳирона ифода этиш ҳамда ишни тус жиҳатидан яхлит бир бутунликда яқунлаши зарур. Қўйилмани турли рангларда бажариш ҳам масъулиятли вазифадир, чунки рангтасвирда ранг ва тус муносабатлари яхлит бир бутунликка асосланади. Шакл ҳажмини тасвирлашда тус ўрнини моҳиятини тўғри тушунмаслик турли чалкашликларга олиб келади. Демак энг муҳими талабаларнинг қаламтасвирда ишни тус жиҳатдан яхлит бир бутунликка эришиб яқунлаши ҳисобланади. Бу эса ўз навбатида талабаларни рангтасвирда самарали ижод қилишларига қулай имкон яратади.

Талабаларнинг узлуксиз машқлари натижасида ранглардаги нозик ўзгаришларни фарқлашга, кузатувчанликни ривожланишига ранг-барангликни сезишга, ҳамда тасвирий воситаларни моҳирона эгаллашларига замин яратилади. Таҷрибали рассомларнинг ранглавҳаларини кузатганларида уларнинг ниҳоятда нафис ва жозибали тасвирланганига ҳавас билан қарайдилар. Шунинг учун талабалар моҳирона тасвирлаш малакасига эга бўлишлари учун доимо тинмай машқ қилишлари натижасида кўзланган мақсадга эришадилар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдирасилов С., Толипов Н., Орипова Н., «Рангтасвир». -Т., Ўзбекистон, 2006, 19-бет.
2. Мастера искусства об искусстве М.,1966, т 1, 124-бет.
3. Мастера искусства об искусстве М.,1967, т 2, 257-бет.
4. Кончаловский П.П. Мысли о художественном творчестве. М., 1994, 27-бет.

ПОДГОТОВКА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАТИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Эгамбердиев Сардор Собитович - НИИ педагогических наук им. Т.Н.Кары Ниязи, докторант.

Аннотация: Развитие цифровых технологий на сегодняшний день ведёт к появлению новых возможностей для организации образовательного процесса. Отсутствие научно-обоснованной, базирующейся на передовых исследованиях методологии развития высшего и средне-специального профессионального образования не позволяет эффективно использовать все возможности, которые сегодня предоставляют современные цифровые

технологии. Наиболее перспективными являются возможности работы с базами данных; глубинного погружения в профессиональную среду; облачные технологии. Вполне вероятно, что в условиях развития виртуальных машин будет реализован ряд ранее не изученных образовательных возможностей, позволяющих дополнить спектр известных ранее методов обучения. Таким образом, современная дидактика высшего и средне-специального профессионального образования для успешной реализации возможностей цифровой технологии должна быть ориентирована на формирование профессиональной информационной культуры выпускников.

Ключевые слова: цифровые технологии, высшее и средне-специальное профессиональное образование; личность студента, дидактика профессионального образования; профессиональная культура; смарт-дидактика, целевая подготовка специалистов.

Цифровые технологии активно входят во все сферы жизни. Акселератором этих процессов стали экономика и банковская сфера. Доступность информационных ресурсов всем категориям граждан – формирует представление о том, что информационные технологии способны решить абсолютно все задачи, которые волнуют современное общество. Более того, роботизация производств и процессов, например в банковской сфере, поставила вопрос о конкуренции роботов и сотрудников. При безусловной пользе внедряемых технологий, основанных на использовании «цифры», на передний план все отчетливее выходят вопросы, связанные с этикой, защитой персональных данных, правовыми аспектами конкуренции роботов и сотрудников организаций и т.д. Необходимость понимания места и роли цифровых технологий в современном образовании должна найти отражение в современных исследованиях в области методологии и дидактики высшего и профессионального образования. Целью данного исследования является выявление приоритетных направлений развития образовательного процесса на основе анализа возможностей цифровых технологий, исходя из гипотезы о необходимости научно обоснованного их внедрения в работу организаций высшего и профессионального образования, опираясь на опыт и мировую практику. Материалы и методы исследования. В качестве исследовательского материала послужили: информационные ресурсы и технологии образовательных и научных организаций; практика работы научно-педагогических работников вузов и преподавателей университетов. В качестве методов исследования выступили изучение и анализ сложившейся практики, систематизация и обобщение в построении выводов, актуальных для формирования научно обоснованного подхода по внедрению цифровых

технологий в систему высшего и профессионального образования. Стремительность, с которой сегодня в цифровые технологии погружается система образования, не просто поражает, она дает основание для серьезного анализа и педагогического обоснования многого из того, что сегодня предложено в информационном пространстве. Важно то, что за последние годы не появилось ни одного государственного проекта или значимого психологического исследования проблем «цифровизации» образования, ее влияния на формирование личности. При этом важность влияния интернет среды на молодежь, современных СМИ, в обсуждениях педагогического сообщества, исследованиях магистрантов и аспирантов, докторов наук. Наиболее остро это проявляется в системе средне специального образования, когда информационное пространство изобилует всевозможными сообществами, оказавшимися в социальной группе студентов, особенно лицеев и колледжей. Отсутствие психологически обоснованной информационной образовательной политики дает на откуп стихийному развитию, а иногда и не стихийному, а целенаправленному, в интересах различных групп и сообществ, процесс формирования ментальности подрастающего поколения. Необходимо отметить, что государство озаботилось внедрением цифровых технологий во всех сферах: промышленности, экономики, банковской сферы и т.д. В государственных структурах вводятся заместители руководителей по цифровому развитию. Тотальная активизация в направлении цифровизации происходит во всех бизнес-структурах. Сегодняшнее «наступление» цифровых технологий во всех сферах, особенно там, где обнаруживается экономический эффект, поддерживается на всех уровнях. Погружение молодого поколения в информационную среду необходимо, это никем не оспаривается. Динамика происходящих процессов в экономике требует активной позиции образовательного сообщества по анализу и выработке предложений по развитию системы высшего и средне специального образования в условиях цифровой трансформации экономики. Сложившаяся ситуация отчасти объясняется тем, что нам в условиях информационного общества не использовать цифровые технологии уже просто невозможно, поскольку мы безнадежно отстанем. Но и двигаться вперед необходимо весьма продуманно, поскольку «цифровизация» только как стихийно развивающийся модный тренд может оказать негативное влияние на формирование личности школьника, студента. Что необходимо сегодня предпринимать для научно обоснованного внедрения цифровых технологий в подготовку кадров? В общем образовании драйвером всех процессов выступает Министерство цифровых технологий Республики Узбекистан. Поддержка со стороны

Министерства позволила обозначить ряд приоритетов в развитии образовательного процесса. Многие из предложенной образовательной технологии действительно актуально и способно совершенно по-новому строить учебный процесс. Однако как построить образовательную технологию, основанную на использовании «цифры», чтобы быть уверенным в ее эффективности и отсутствии вреда обучаемым? Стимулирование педагогов, использующих цифровые технологии, вещь, безусловно, важная. То есть мотивация со стороны учителя есть. Со стороны учеников это тоже интересно, увлекательно. Внедрение цифровых технологий, использование их дидактических возможностей должно быть педагогически оправдано с позиций решения задач, обучения, воспитания и развития личности как школьника, так и студента. Более того, учет возрастных особенностей в связи с внедрением цифровых технологий в обучение должен быть реализован как при формировании образовательной цели, так и выборе технологии и методов работы преподавателя с обучаемыми. Продолжать подобный анализ происходящего можно и дальше, только в этом нет смысла, поскольку процесс запущен и следует ждать первых результатов. Следует отметить, что выпускники школ, для которых электронное обучение стало составной частью освоения образовательной программы, придут в образовательные организации высшего и профессионального образования, которые должны быть готовы к работе с этой категорией обучающихся. Высшее и средне специальное образование сделало в этом направлении целый ряд очень важных шагов, в частности используя открытые онлайн-платформы например «My Dars» для доступа студентов к информационным ресурсам, обучения и прохождения тестирования, которое отображает сегодняшний уровень знания учеников. В системе профессионального образования ситуация, на первый взгляд, проще. Вместе с тем требования к реализации практико-ориентированной подготовки достаточно жестко регламентированы и сформировать требуемые компетенции у студентов колледжа возможно только при очень обоснованном сочетании электронного и практического обучения. Демонстрационный метод – показательный процесс, который позволяет достаточно быстро и объективно оценить уровень практической подготовки выпускника. То есть без дидактического обоснования использование цифровых технологий в педагогической практике преподавателей высшего и профессионального образования весьма затруднительно. К сожалению, процесс их внедрения происходит достаточно стихийно: возникают идеи, которые сразу же пытаются внедрять без какого-либо психологопедагогического анализа. Многие из специалистов, занимающихся сегодня внедрением цифровых технологий в образовании, не знакомы с педагогикой, а хорошо

ориентируются в информационных и технических системах. Для этой категории работников – программистов, инженеров, важна элементарная психолого-педагогическая подготовка, знание результатов научных исследований в сфере психологии, педагогики, медицины, прежде всего, с позиций внедрения цифровых технологий. В основе построения учебного процесса в организациях высшего и средне специального образования лежат требования образовательных стандартов.

Список литературы:

1. Сковородкина И.З., Герасимов С.А. Общая и профессиональная педагогика: Сев.(Арктич.) федер. ун-т им. М.В. Ломоносова. Архангельск: ИД САФУ, 2014. 553 с.

2. Блокчейн: уровень и перспективы развития: [Электронный ресурс]. <https://bitnovosti.com/2017/03/18/blockchain-state-of-the-art-and-prospective/comment-page-1> (дата обращения: 25.12.2018).

3. Туракулова С.Т. К вопросу о возможности использования онлайн-платформ для интенсификации обучения в вузах // Молодой ученый. 2017. № 20. С. 497-499. [Электронный ресурс]. URL: <https://moluch.ru/archive/154/43660> (дата обращения: 21.12.2018).

4. Дорога к академическому совершенству: Становление исследовательских университетов / под ред. Ф. Дж. Альтбаха, Д. Салми; пер. с англ. М.: Издательство «Весь Мир», 2012. 403 с.

5. Strasser T. Moodle im Fremdsprachenunterricht. Blended Learning als innovativer didaktischer Ansatz oder pädagogische Eintagsfliege? Boizenburg: Werner Hülsbusch. 2011. P.21.

O‘QUV JARAYONIDA INTERAKTIV DASTURLARDAN FOYDALANISH

*Normatov Sulton – A.Avloniy milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti.
Email:ilm2025@mail.ru*

Demografiyaning maqsadi muayyan hudud, davlat aholisi yoki qaysidir millatning progressiv yoki intensiv o‘shish jarayoni va unga sabab bo‘lgan omillarni ilmiy o‘rganish, ijobiy yoki salbiy tasirlarga sabab bo‘lgan muammolarni va ularning yechimlarni aniqlash, shuningdek, taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilashdan iboratdir. Bevosita demografiyaning vazifalariga tug‘ilish, o‘lim, nikoh va ajralish, oilaning demografik xususiyatlari, aholining yoshi va jinsi, mavjud ko‘rsatkichlarining o‘shishi va kamayishi, kelgusidagi ehtiyojlar va ularga sabab

bo'lgan omillarini o'rganish kabilar kiradi. Maktab ta'limida demografik omillar sabab ta'lim sifatining tushish ehtimoli mavjud. Bu ehtimol maktablarning yetishmasli (moddiy texnik baza), o'qituvchilar orasida erkak va ayol jinsidagi pedagoglarning son jihatidan tengligi yoki shunga yaqinligi, o'quv jarayonida foydalanilayotgan pedagogik metod va texnologiyalarning bir jins yoki bir guruh manfaatlariga mosligi va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Maktab ta'limida o'quv sifati va pedagogik xizmatning tabaqalashtirilishi ma'lum guruhlarning savodsiz holatga kelishiga sabab bo'lmasligi kerak. Maktab ta'limi fundamental va ahamiyatlilik nuqtai nazaridan kelajak kadrlarining sifatini (past, o'rta va yuqori) belgilaydi. Bu sifat mamlakatning ishchi kuchi klassifikatsiyasini belgilaydi va taraqqiyotning muhim progressiv bo'g'ini sifatida ta'siri mavjud.

Ta'lim sifatini oshirishda ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati axborot texnologiyalarni ta'limga joriy qilishning ijobiy jihatlarini e'tirof etishadi. Ammo jarayonga chuqurroq e'tibor qaratilsa texnologiyalarning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rish mumkin. Ba'zi adabiyotlarda bunga ham alohida e'tibor berilgan. Ushbu jarayonni yurtimizdagi ijobiy va salbiy jihatlarini tadqiq qilish va xulosalar chiqarish ham muhimdir.

Ta'limda qo'llash mumkin bo'lgan dasturiy vositalarda to'g'ri foydalanish uning salbiy jihatlarni kamaytirishi mumkin. Quyida "Natural sonlarning o'qilishi va yozilishini ko'rsatuvchi dastur" deb nomlanuvchi dastur yordamida matematikani o'qitish imkoniyatlari haqida bo'lib demografik tabaqalashtirishga qarshi bo'lgan bepul ilova hisoblanadi.


5-sinf matematika kursining 1-darsiga moslab qilingan "Natural sonlarning o'qilishi va yozilishini ko'rsatuvchi dastur" deb nomlanuvchi dasturimiz 4 ta ilova qismdan iborat. Bular:

1. I QISM
2. II QISM
3. Dastur haqida
4. Muallif

Yuqoridagi to'rta ilova qismning ikkitasi asosiy ilova qism xisoblanadi. Bular I va II QISM lardir. I QISM ning asosiy vazifasi sonlarni raqam ko'rinishidan o'qish va dastur xususiyati asosida tartiblash bo'lsa, II QISM ning asosiy vazifasi sonlarni matn ko'rinishidan o'qish va ularni tahrirlashdan iborat.

Qolgan ikkitasi esa yordamchi ilova qismlardir. Muallif ilova qismi dastur yaratuvchilari haqida bo'lsa, Dastur haqida ilova qismida esa dastur vazifasi va imkoniyatlariga ta'rif berilgan. Quyda dasturdan foydalanish metodikasi ko'rsatilgan.

Yaratgan natural sonlarning o‘qilishi va yozilishini ko‘rsatuvchi TIK-TAK dasturini ishga tushirsak quyidagicha ko‘rinishida namoyon bo‘ladi:




Dasturning I QISMI 4 bo‘limdan iborat. Bular:

1. Menular qatori;
2. Sonlarni raqam ko‘rinishida kirgazish va o‘qish bo‘limi;
3. Raqamning yozilishi, soni va qiymatini ko‘rsatuvchi bo‘limi;
4. Sonlarning yozilishini sinf va xonalar bo‘yicha taqsimoti bo‘limi;



Yuqori bo‘lim menyular qatori hisoblanadi bunda 3 ta qo‘shimcha oynalarga o‘tish mumkin. Bular Dastur haqida, Muallif, II qism kabilardir. Quyda menyular qatori tasviri keltiriladi.




Keyingi bo‘lim yani ikkinchi bo‘lim sonlarni raqam ko‘rinishida kiritish ularni o‘qish (to‘g‘ri va teskari) va tozalash tugmalaridan iboratdir.




“Son kirgazing:” degan yozuv yonidagi qiymat kiritish joyiga yani tasvirdagi to‘rtburchak shakl ichiga son kirgiziladi.

Kirgizilgan soni tezkor tozalash uchun  tugmasidan foydalanishimiz mumkin. Masalan:  shu

tartibda son yoziladi agar xatto bo‘lsa  tugmasidan foydalanilib soni qaytadan kiritish imkonini yaratadi. Kiritilgan sonni o‘qish uchun ikkita tugmamiz mavjud.

Bular “To‘g‘ri o‘qish” va “Teskari o‘qish” tugmalaridir.



To'g'ri o'qish tugmasi kiritilgan soni aslidek o'qib beradi. Masalan: 237 deb yozilgan sonni *ikki yuz o'ttiz yetti* deb o'qiydi va shu tartibda son xususiyatlari, sinflar va xonalar taqsimoti bo'yicha tartiblaydi.

U quydagicha ko'rinishda bo'ladi:

SONLARNING O'QILISHI VA YOZILISHINI KO'RSATUVCHI DASTUR

SON KIRGAZING: X

Raqamlari soni: ta

Matn ko'rinishi:

Sondagi qiymati:

SONLARNING YOZILISHINI SINFLAR VA XONALAR BO'YICHA TAQSIMOTI

Sinflar nomi:	Milliardlar sinfi			Millionlar sinifi			Minglar sinifi			Birlar sinfi		
Sinf xonalari	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi
Son:	0	0	0	0	0	0	0	0	0	2	3	7

Sonlarni aniq va lo'nda talaffuz qiling.

Teskari o'qish tugmasi esa kiritilgan sonni teskari tartibda o'qib beradi. Masalan, 237 deb kiritilgan sonni *yetti yuz o'ttiz ikki* deb o'qiydi va shu tartibda son xususiyatlari, sinflar xonalar taqsimoti bo'yicha tartiblaydi. Bu jarayonda o'quvchilar sonlarni teskari o'qish orqali tezkor fikrlash va hisob-kitobni tezroq hisoblash kabi o'ziga xos ko'nikmalarni hosil qiladi.

Quydagı tasvirda 237 ning teskari qiymati keltirilgan.

SONLARNING O'QILISHI VA YOZILISHINI KO'RSATUVCHI DASTUR

SON KIRGAZING: X

Raqamlari soni: ta

Matn ko'rinishi:

Sondagi qiymati:

SONLARNING YOZILISHINI SINFLAR VA XONALAR BO'YICHA TAQSIMOTI

Sinflar nomi:	Milliardlar sinfi			Millionlar sinifi			Minglar sinifi			Birlar sinfi		
Sinf xonalari	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi
Son:	0	0	0	0	0	0	0	0	0	7	3	2

Sonlarni aniq va lo'nda talaffuz qiling.

Uchinchi bo'lim sonning yozilishini, raqamlar sonini va qiymatini ko'rsatuvchi bo'limi (yani son xususiyatlari).

Raqamlari soni:	
Matn ko'rinishi:	
Sondagi qiymati:	

Bu bo'limda kiritilgan sonning raqamlari soni, matn ko'rinishi va sondagi qiymatlari ko'rsatiladi. Masalan: 237 sonining xususiyatlari quydagicha ko'rsatiladi:

Raqamlari soni:	3 ta
Matn ko'rinishi:	ikkiyuz o'ttiz yetti
Sondagi qiymati:	237

To'rtinchi bo'lim Sonlarning yozilishini sinf va xonalar bo'yicha taqsimoti bo'limi. Bu bo'lim sonlarni sinflarga va xonalarga bo'ladi va shu asosda o'quvchilar kiritilgan sonning sinfini tezkor bilishi va o'rganishi, sondagi ixtiyoriy raqamning xonasini bilishi va shu kabi ko'nikmalarni shakllantirishi mumkin.

Quyda bu bo'lim tasviri keltiriladi:

SONLARNING YOZILISHINI SINFLAR VA XONALAR BO'YICHA TAQSIMOTI												
Sinflar nomi:	Milliardlar sinfi			Millionlar sinifi			Minglar sinifi			Birlar sinfi		
Sinf xonalari	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi
Son:												

Vazifasini aniqroq tushinish uchun dasturga kattaroq sonni kirgazamiz, masalan: 956427163. Bu son quydagicha sinflar va xonalarga taqsimlanib ko'rsatiladi:

SONLARNING YOZILISHINI SINFLAR VA XONALAR BO'YICHA TAQSIMOTI												
Sinflar nomi:	Milliardlar sinfi			Millionlar sinifi			Minglar sinifi			Birlar sinfi		
Sinf xonalari	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi	yuzlar xonasi	o'nlar xonasi	birlar xonasi
Son:	0	0	0	9	5	6	4	2	7	1	6	3

Matematika aniqlik va mulohazakorlikni talab etadi.

Yuqorida kiritgan qiymatimizning milliardlar sinfiga raqamlar yo'q. Chunki kirgizgan sonimiz 956 milliondan boshlangan. Ko'rib turganimizdek millionlar sinfining yuzlar xonasida 9, o'nlar xonasida 5 va birlar xonasida 6 raqamlari joylashdi. Biz kirgizadigan sonlarning maksimal qiymati 999 milliardni tashkil qiladi shu qiymatgacha bo'lgan ixtiyoriy natural sonni dastur o'qishi va uni xususiyatlari bo'yicha ko'rsatib, sinf va xonalar bo'yicha taqsimlab beradi.

XXI asr bu katta evaliyutsion o'zgarishlar asri bo'lishi XX asrdayoq juda ko'plab olimlar va siyosatchilar tomonidan aytib o'tilgan bo'lsa uning yadrosi Axborot texnologiyalari bo'lishi muhtaram birinchi prзидентimiz I.A Karimov tomonlaridan e'tirof etilgan edi. Axborot texnologiyalarida qaysi davlat ildamlasa u eng kuchli ta'bir joiz bo'lsa eng qudratli bo'ladi. Bu hozirgi kunda hech kimga sir emas. Shunday ekan bizning asrimizda aynan informatika mutaxassislarining ro'li ahamiyati jihatidan juda yuqori turadi. Buni to'g'ri anglagan holda qo'limizdan kelgancha ta'lim tizmini avtomatlashtirishga yordam beruvchi, bilm olish jarayonini osonlashtiruvchi va o'quvchilarga qulay ta'limiy muhitni shakllantiruvchi dasturlarni yaratishimiz va pedagog sifatida ta'lim jarayonida faol foydalanishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Palay, Andrew. (1992). C++ in a Changing Environment.. 195-206.
2. S.A.Normatov. "Ta'limda qo'llaniladigan elektron dasturlarni ovozlashtirish" Ilmiy axborotlari jurnali. 2018-y. №3(16).Toshkent Davlat pedagogika unversiteti

TARBIYA FANINI O'QITISHDA PEDAGOG KASBIY KOMPETENTLIGINING RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Umarova Nilufar Xasanovna – Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti 1-kurs doktoranti nilufar.umarova1983@gmail.com

Xasanova Nazokat Xolmuratovna – Samarqand shahar 29-umumta'lim maktab o'qituvchisi xasanovanazokat70@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tatbiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda axborotlarni izlash, saqlash, saralash, qayta ishlash hamda olingan ma'lumotlar ustida xulosalar chiqarish, ularni baholash va o'z kasbiy faoliyatida samarali foydalanishlarida raqamli texnologiyalarning o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, raqamli texnologiya, axborot kommunikatsion texnologiya, axborot, bilim, ko'nikma, kasbiy rivojlanish .

Аннотация: В данной статье освещена роль цифровых технологий в развитии профессиональной компетентности учителей предмета воспитания в поиске, хранении, сортировке, обработке информации, а также в формировании выводов по полученной информации, их оценке и эффективном использовании в своей профессиональной деятельности.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, цифровые технологии, информационно-коммуникационные технологии, информация, знания, умения, профессиональное развитие.

Annotation: This article highlights the role of digital technologies in the development of professional competence of teachers of the subject of education in the search, storage, sorting, processing of information, as well as in the formation of conclusions on the information received, their evaluation and effective use in their professional activities.

Key words: professional competence, digital technologies, information and communication technologies, information, knowledge, skills, professional development.

Bugungi kunda globalashuv va modernizatsiyalash asosida ta'lim sifatini oshirish, kadrlar kompetentligini rivojlantirish va boshqarishning zamonaviy tizimlarini yaratish ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, kadrlar innovatsion kompetentligini rivojlantirish strategik yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz [1] deb ta'kidladilar.

Demak, zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'ymoqda. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da ta'limning sifati va mazmunini xalqaro talablar darajasiga ko'tarish ustuvor vazifa sifatida belgilandi[2].

Ta'lim sohasida aniq maqsad sari yo'naltirilgan siyosatning amalga oshirilishi jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi ustuvor yo'nalish sifatida 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida "O'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur"[3]ligi ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni va mazkur Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarorda mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat va e'tiborni yanada oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish

maqsadida O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo‘lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo‘naltirildi. Ushbu konsepsiyalar yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo‘nalishlarni belgilab beradi. Ushbu ustuvor vazifa, asosiy maqsad va yo‘nalishlarda lozim natijaga erishish o‘qituvchidan kasbiy kompetentlikni talab etadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakaning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishidir.

Kasbiy kompetentli pedagog birinchidan ta’lim-tarbiya jarayonida ijodkor bo‘lishi ikkinchidan, o‘z kasbiy faoliyatida yuqori natijalar ko‘rsata olishi va uchinchidan, shaxsiy kasbiy imkoniyatlarini maxsulli amalga oshira oladi.

Kasbiy kompetentlilik o‘qituvchining ma’naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya’ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi. Mazkur salohiyatni pedagogik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qituvchi faoliyatining holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo‘ladi [8;44-b.].

Fikrimizcha, kasbiy kompetentlilik pedagog uchun intilishi lozim bo‘lgan kasbiy cho‘qqi va faoliyatining konseptual loyihasi bo‘lishi lozim. Pedagog doimo turli murakkablikdagi kasbiy vazifalar va pedagogik vaziyatlarning maqbul yechimini topishga layoqatli, yangiliklar uchun ochiq, tashabbuskor, intiluvchan bo‘lishi kerak bo‘ladi. Demak, bu jarayon pedagogdan o‘z faoliyatiga munosabatini o‘zgartirish, lozim bo‘lsa, qayta qurishni talab talab etadi.

Shulardan kelib chiqqan holda, maktablarda ta’lim-tarbiya jarayonini axborotlashtirish, zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar bilan boyitish hamda dars jarayonida hosil bo‘ladigan, qayta ishlanishi kerak bo‘lgan axborotlar hajmi ortib borayotganligini e’tiborga olish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu esa, zamonaviy kompyuter va telekommunikatsion texnologiya vositalari tez sur’atlar bilan takomillashib borayotgan sharoitda ta’limni, shu jumladan o‘qituvchi-pedagoglarni kerakli axborot manbalari bilan ta’minlash, ularni qayta ishlash usullari bo‘yicha kerakli bilim va malakalarini, ya’ni kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim vazifalardan ekanligini belgilab beradi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishning muhim omillaridan biri - bu umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchi-

pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan yuqori darajada foydalana bilish zaruriyatidir. Shuning uchun har bir o'qituvchi faoliyati davomida o'z ustida ko'proq ishlashga bo'lgan talabning va tayyorgarligining shakllanganligi muhim hisoblanadi.

Har bir pedagog sigari tarbiya fani o'qituvchisi ham o'z sohasi bo'yicha mavjud axborotlar oqimining zarurligi va muhimligini bilishi, o'zi mustaqil axborotlarni izlashi, qayta ishlashi, turli manbalardan, jumladan internet tarmoqlaridan axborotlarni izlashi, olishi, ularni o'zlari va yetkazib berishi lozim bo'lgan auditoriya tushunadigan ko'rinishda ifodalashi hamda dars jarayonida mashg'ulotlarda samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Buning uchun har bir tarbiya fani o'qituvchisi nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, balki kasbiy madaniyatining asosiy turi sifatida - kasbiy kompetentligini ham shakllantirgan holda dars jarayonini faol tashkil etishi va o'zining iqtidori va qobiliyatini namoyon qila olishi kerak.

Tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish, ularda doimiy ravishda bilimga bo'lgan qiziqish va intilishni uyg'otish, axborotlarni izlash, saqlash, saralash hamda olingan ma'lumotlar ustida ishlash, ularni baholash ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish kabi xususiyatlarda ko'rinadi.

Tarbiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, quyidagi masalalarda alohida o'rin tutadi:

birinchidan, o'qituvchi va o'quvchilarning internet tarmog'idan fanga oid axborotlar olish, izlash, tarqatish va undan foydalanishda o'quvchilarni raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanishga o'rgatish;

ikkinchidan, mazkur fan bo'yicha mutaxassislar yetishmaydigan hududlarda ham o'quvchilar videodarslar, videoroliklar asosida fan asoslarini o'rganish;

uchinchidan, raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish, samaradorlik darajasini oshirish, vaqt va mablag' sarfini kamaytirishda muayyan ustunlikka ega bo'lish;

to'rtinchidan, tarbiya darsliklarida berilgan QR kodlar orqali o'quvchilarni qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishishlarini ta'minlash;

beshinchidan, o'quvchilarda frilanserlik ko'nikmalarini shakllantirib borish;

oltinchidan, fan o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi, mahoratini oshirish maqsadida tashkil etilayotgan onlayn seminar va vebinarlarga tayyorgarlik va o'tkazish.

Raqamli texnologiyalar asosida Tarbiya fanini o'qitishda dars mashg'ulotlarini sifatli tashkil etish uchun kontent, slayd, matnlarni yaratish, darslarda interfaol topshiriqlar bilan ishlash, ko'rgazmali vositalar, uslubiy metodik qo'llanmalar tayyorlash, video va elektron darsliklar tayyorlash, manbalarni namoyish qilish kabi

o'qituvchiga bir qancha imkoniyatlarni berishi bilan birga o'quvchilarning fanga oid bilim va ko'nikmalarini shakllanishida vosita vazifasini o'taydi.

Zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan Tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida foydalanish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

➤ *axborot-telekommunikatsion texnologiyalar o'rganish ob'yekti sifatida*, ya'ni o'qituvchilar yangi axborot texnologiyalar, ularning tarkibiy qismlar va foydalanish sohalari bo'yicha umumiy tushuncha va malakalarga ega bo'ladilar;

➤ *axborot-telekommunikatsion texnologiyalar o'qitish vositasi sifatida*, ya'ni o'qituvchilar zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish yuzasidan yetarlicha bilim va malakalarga ega bo'ladilar;

➤ *o'quv jarayonini boshqarish vositasi sifatida*, ya'ni o'qituvchilar umumta'lim maktabining barcha ish faoliyati, shu jumladan o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tatqiqot ishlari samaradorligini oshirishda axborotlashtirish, tahlil va bashorat qilish tizimini yaratish vositalaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini egallaydilar;

➤ o'qituvchilarda ilmiy-tatqiqot va pedagogik izlanishlar samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot tizimlarini yaratish va tatbiq etish bo'yicha bilim va malakalar shakllantiriladi.

Zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanib tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosiy e'tibor axborot resurslari va jamiyatning axborotlashuvi, internet tarmog'idan axborotlar izlash va topish, ta'lim tizimida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, axborot texnologiyalari asosida o'quv-uslubiy va pedagogik-tatqiqot faoliyatlarni shakllantirish yuzasidan bilim va malakalarni shakllantirishga qaratish muhim hisoblanadi.

Ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish va undan dars jarayonini tashkil etishda foydalanish tarbiya fani o'qituvchilaridan bir qator ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlikni talab etadi: didaktik materiallarni va darsni tashkil etishga ta'luqli hujjatlarni tayyorlashda matn muharriridan, reyting natijalari va o'quv hisobotlarini tayyorlashda elektron jadvallardan, darsni ko'rgazmaliligi va mukammalligini oshirish uchun multimedia taqdimotlarini tayyorlashda taqdimot dasturlaridan samarali foydalanish hamda internet tarmog'i ichida ma'lumotlarni izlash, topish, saqlash, qayta ishlash va muloqot qilish va hk.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar Tarbiya fanini o'qituvchilari kasbiy kompetentligini shakllantirish uchun o'z fanlari bo'yicha o'qitishning yangi noan'anaviy usullarini tatbiq qilishga, dars jarayonida yangicha yondoshuvlarni qo'llashga, g'oyalarni ro'yobga chiqarish va yangi ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Konstitutsiya qabul qilinganligining 28 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi.

2. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2019-yil 29-aprel. 06/19/5712/3034-son.

3.Sh.Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi” Xalq so‘zi //2022 yil 21-dekabr, №272 (8334)

4.“O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmoni, 6-noyabr 2020-yil.

5. “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-son Qarori, 6-noyabr 2020-yil.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarori 2019-yil 31-dekabr

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-sonli qarori 2020-yil 6-iyul

8.Аминов,И.Б., Кадиров,Т. Формирования информационной компетентности учителей математики с применением межпредметной связи информатики и математики.//Научно–методический журнал «Вестник науки и образования», ELIBRARY, Академия Google, 2019, №22(76).Част 2. стр.44-47.

YOSHLARNI AXBOROT XURUJLARIDAN HIMOYALASHDA MA’NAVIY TARBIYANING ROLI

Nuraliyev Shohruxbek – Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi tarix fani o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Yoshlarimizga ma’naviy-marifiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy bilimlarni shunchaki etkazish emas, bu bilimlardan kelib chiqib munosabat bildira olish ko‘nikmalarini hosil qilinmog‘i kerak. Bugungi kunda yoshlarning xulq-atvoriga, ma’naviy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar quydagilar.

Kalit soʻzlar: demokratiya, erkinlik, taʼlim, yoshlar, vatan, ota-ona, axborot, xulq-atvor.

XXI asr boshida insoniyat oʻta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy maʼnaviy mafkuraviy jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Oʻzbekiston ham ana shunday murakkab xalqaro munosabatlar sharoitida oʻzining ertangi kunini barpo qilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizga qilinayotgan axborot xurujlari "demokratiya, erkinlik va farovonlikni ilgari surish" niqobi ostida turli geosiyosiy manfaatlarini ham oʻzida mujassamlashtirgan. Bugungi taxlikali zamonda yuksak maʼnaviyatli yoshlarni tarbiyalash jamoatchilik oldida turgan dolzarb vazifadir Prezident Sh. Mirziyoyev takidlanganidek: Bugun dunyoda insonning ongi va qalbini egallash uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Shu yoʻlda harakat qilayotgan kuchlar oʻz maqsadiga erishish uchun targʻibotning barcha usullaridan keng foydalanmoqda".¹ Bu borada aholining asosiy qismini tashkil etadigan yoshlarning hali toʻla echilmagan muammolariga etibor qaratish muhim. Shu bois chetdan koʻrsatilayotgan axborot xurujlari yoshlar dunyoqarashiga, ruhiyatiga salbiy taʼsir koʻrsatishi ular tuzogʻiga ilingach yoshlarimizdan esa oʻz gʻarazliq maqsadlari yoʻlida qurol sifatida foydalanishi xavotirliydir. Bunda yoshlarimizga maʼnaviy-marifiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy bilimlarni shunchaki etkazish emas, bu bilimlardan kelib chiqib munosabat bildira olish koʻnikmalarini hosil qilinmogʻi kerak. Bugungi kunda yoshlarning xulq-atvoriga, maʼnaviy tarbiyasiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi omillar quydagilar.

-Internet orqali kirib kelayotgan turli xayosiz, pornografik mazmundagi axborot vositalari.

-Yoshlar orasida "ommaviy madaniyat"ga qiziqishning ortishi va internetdan tarqalayotgan notoʻgʻri axborotlar.

-Nosogʻlom turmush tarzi

-Zoʻravonlikka asoslangan kompyuter oʻyinlari.

-Ota-onada tarbiyaviy saviyaning pastligi.

-Nazoratsizlik va qarovsizlik.

-Taʼlimga boʻlgan qiziqishning pastligi

-Farzandni ota-ona tomonidan haddan tashqari erkalatish

-Moddiy muammolar tufayli kelib chiqadigon ziddiyatlar

-Farzandagi oʻzgarishlarni sezmaslik, befarqlik va loqaydlik

-Boʻsh vaqtni besamar oʻtishi

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki yoshlarning maʼnan etuk jismonan sogʻlom boʻlib voyaga etishi uchun avvalo ularga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi omillarni bartaraf etish lozimdir. Yurtboshimizning: "Dunyo shiddat bilan oʻzgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi

tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kundama'naviyat va ma'rifatga, ahloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir".²deganidan kelib chiqqadigon bo'lsak. Yoshlarning vatanparvarligi oiladagi tarbiya, mahalla va ta'lim muassasalaridagi ma'naviy muhitdan boshlanishni hisobga olgan holda, ayniqsa maktablarda ma'naviyat masalalari bilan shug'illanagigan mutaxassislar faoliyatini yanada kuchaytirish hamda ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarning milliy asoslarini rivojlantirishimiz lozim.

Xulosa qiladigan bo'lsak xilma-xil usullar orqali amalga oshirilayotgan axborot hurujlaridan yoshlarni ximoyalashda biz shunday ma'naviy muhit yarataylikki bunda yoshlarimizning qalbiga Vatanga bo'lganmehr-muhabbati shakillanib borsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent''Tasvir'' nashiryot uyi 2021-yil 28-bet.
2. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qattiyat bilan davom ettrib yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent''O'zbekiston'' 2017-yil 27-bet.

DEMOGRAFIK HOLATNI O'RGANISH VA TAHLIL QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Suyunova O'g'iloy Jura qizi – “Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar” universiteti Qarshi filiali talabasi [Tel:+998908724674](tel:+998908724674)
E-mail: ugiloyssuyunova476@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada demografik holatni o'rganish raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha qo'llanmalar bor. Hozirgi davrda demografiya nufus nazariyasi asosida rivojlanayotgan qator demografik fanlarning keng tarmog'i tizimini qamrab oladi. Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Kalit so'zlar:Demografiya,raqamli texnologiyalar,ijtimoiy-iqtisodiy soha, sotsial tarmoq, ma'lumotlar, Facebook, Instagram, LinkedIn,

Аннотация: В данной статье содержатся рекомендации по использованию цифровых технологий для исследования демографической ситуации. Сегодня демография охватывает широкую сеть демографических наук, развивающихся на основе теории народонаселения.Цифровые технологии настолько прочно вошли в нашу жизнь, что сегодня уже

невозможно представить не только нашу повседневную деятельность, но и развитие социальной и экономической сферы. без них.

Ключевые слова: демография, цифровые технологии, социально-экономическая сфера, социальная сеть, данные, Facebook, Instagram, LinkedIn,

Annotation: This article contains guidelines for the use of digital technologies for the study of the demographic situation. Nowadays, demography encompasses a wide network of demographic sciences that are developing on the basis of population theory. Digital technologies have become so embedded in our lives that today, not only our daily activities, but also the development of social and economic spheres cannot be imagined without them.

Keywords: demography, digital technologies, socio-economic sphere, social network, data, Facebook, Instagram, LinkedIn,

Demografiya yunonchadan olingan bo`lib demos-xalq grafiya-yozmoq degan ma`noni bildiradi. Demografik holatni o`rganish va tahlil qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, jamiyatning va tashkilotlarning jamoaviy o`qitish, marketing, strategik rejalashtirish va sotsial so`roq analizida ahamiyatga ega. Bu usul, foydalanuvchilar, mijozlar yoki jamoalar haqida ma'lumotlar to`plamini tahlil qilishda yordam beradi. Quyidagi raqamli texnologiyalardan foydalanish mumkin:

1. **Sotsial tarmoq analitikasi:** Sotsial tarmoqlarda, masalan, Facebook, Twitter, Instagram va LinkedIn, foydalanuvchilar tomonidan qoldirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi.

2. **Ma'lumotlar tizimlari va boshqaruv dasturlari:** Demografik ma'lumotlarni to`plamay va tahlil qilish uchun ma'lumotlar tizimlari (masalan, Customer Relationship Management (CRM) tizimi) va boshqaruv dasturlari ishlatiladi. Bu usullar foydalanuvchilar, mijozlar yoki jamoalar haqida ma'lumotlarni to`plash va tahlil qilish imkonini beradi.

3. **Mijozlar anketalar va so`rovnomalar:** Raqamli so`rovnomalar va mijozlar anketalari yordamida foydalanuvchilarning demografik ma'lumotlarini olish mumkin. Bu ma'lumotlar, tashkilotlar va kompaniyalar uchun mijozlar tomonidan berilgan axborotni tahlil qilishda yordam beradi.

4. **Axborotlarni ma'lumotlar bazasidan olish:** Boshqa resurslar bilan bog`liq yozuvlardan, statistiklardan va ma'lumotlardan foydalanib, demografik tahlil qilish imkonini beradi. Bu usul, foydalanuvchilar, jamoalar va so`rovnomalar tahlili uchun ma'lumotlar olishda foydalaniladi.

5. **Sotsial media monitoring vositalari:** Raqamli vositalar, masalan, Brandwatch, Hootsuite, Sprout Social kabi sotsial media monitoring vositalari, tashkilotlar va kompaniyalar uchun sotsial tarmoqlardagi aloqalar, meninglarni izohlar va o`ylashlari haqida statistik ma'lumotlarni olishga yordam beradi.

6. **Geografik axborot sistemlari (GIS):** Geografik axborot sistemlari, shahar yoki mintaqaning demografik holatini tahlil qilishda yordam beradi. Bu tizimlar ko'p xil ma'lumotlarni bir qator xaritalarda ko'rsatish imkonini beradi.

7. **Boshqa so'roq tizimlari va statistikalari:** Boshqa tashkilotlar yoki hokazolarni statistikalari va so'roqlari ham demografik ma'lumotlarni to'plashda foydalaniladi.

8. **Kameralar va tasdiqlovchi ma'lumotlar:** Kameralar, masalan, axborotlar to'plagan bo'limlardan foydalanuvchilar, mijozlar yoki jamoalar haqida axborotlar to'plab olishda yordam beradi.

Demografik holatni o'rganish va tahlil qilishda raqamli texnologiyalar yordamida foydalanish, tashkilotlar va kompaniyalar uchun o'z mijozlari va jamoalari haqida ko'proq ma'lumotni olish va ularning talablari va istaklarini tushuntirish imkonini beradi. Bu ma'lumotlar, strategik rejalashtirish, xizmatlarni yaxshilash, marketing va kompaniya rejalashtirish jarayonlarida yordam beradi.

Demografik holatni o'rganish va tahlil qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, axborotlarni avtomatlashtirish va ma'lumotlarni tahlil qilishni yanada yaxshi va samarali qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Quyidagi texnologiyalar demografik ma'lumotlarni o'rganishda va tahlil qilishda foydalanilishi mumkin:

1. **Ma'lumotlar tizimlari va ma'lumotlar analitikasi:** Raqamli ma'lumotlar tizimlari, ma'lumotlarni tahlil qilish uchun asosiy vosita hisoblanadi. Ma'lumotlar tizimlari (masalan, CRM) va ma'lumot analitikasi, mijozlar haqida demografik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish uchun foydalaniladi.

2. **Sotsial media monitoring vositalari:** Sotsial media platformalaridan demografik ma'lumotlarni olib, mijozlar va foydalanuvchilar haqida ma'lumotlar to'plab olishga yordam beradigan vositalardir. Bu, sayt yoki ilova ma'lumotlarini tahlil qilishda yordam beradi.

3. **GIS (Geografik axborot sistemlari):** Geografik axborot sistemlari, ma'lumotlarni geografik hududda ko'rsatishda va demografik holatni geografik tarzda tahlil qilishda yordam beradi. Bu texnologiya shahar yoki mintaqaning axborotini tahlil qilishda yordam beradi.

4. **Raqamli tahlil vositalari:** Tahlil vositalari (masalan, Google Analytics) foydalanuvchilar va sayt yoki ilova axborotlarini tahlil qilish uchun foydalaniladi. Ular mijozlar yoki foydalanuvchilar demografik ma'lumotlarini yaxshi tahlil qilishda yordam beradi.

5. **Nömrasha belgilar va tanlangan axborotlar:** Raqamli tanlangan axborotlar (masalan, tanlangan ma'lumotlarni ishlab chiqish va masofaviy o'qitish) tahlil qilish uchun foydalaniladi. Bu texnologiya foydalanuvchilar demografik holatini o'rganish va ma'lumotlarni tahlil qilishni osonlashtiradi.

6. Mijozlarning mulohazalari va sharhlari: Raqamli texnologiyalar, mijozlar sharhlarini va mulohazalarini tahlil qilishda foydalaniladi. Bu tahlil, mijozlarning ehtiyojlari va tarzini tushuntirishda yordam beradi.

7. Savol-javob platformalari va anketalar: Raqamli savol-javob platformalari va anketalar foydalanuvchilar bilan interaktsiyada demografik ma'lumotlarni olish uchun foydalaniladi.

8. Yozuv analitikasi: Raqamli texnologiyalar yordamida yozuvlardan, axborotlardan va sharhlardan ma'lumotlar olish va tahlil qilish uchun foydalaniladi. Bu usul, mijozlar haqida ma'lumotlarni olishda va ularning axborot ehtiyojlarini tushuntirishda yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar, demografik ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilishda avtomatlashtirish va ma'lumotlarni tahlil qilishni osonlashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/>. 2022-y.
2. To'ychiyeva N. Elektron ta'lim tizimining afzalliklari va kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 40-41.
3. <https://yuz.uz/uz/news/raqamli-texnologiyalar-imkoniyatlari>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Demografiya>

III SHO‘BA
TA‘LIM VA ISHLAB CHIQUARISH INTEGRATSIYASINI TASHKIL
ETISHDA DEMOGRAFIK OMILLARNING O‘RNI VA ROLI

TO‘GARAKLARDA O‘QUVCHILARGA NAQQOSHLIK SAN‘ATINI
O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

M.B.Axmedov – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.

Annotatsiya: Maqolada to‘garaklarda o‘quvchilarga naqqoshlik san‘atini o‘rgatishda interfaol metodlarning ahamiyati, mashg‘ulot davomida qo‘llash va uning samaralari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: taraqqiyot, madaniyat, qadryat, naqqoshlik, ganchkorlik, o‘ymakorlik, miniatyura, bino, naqsh, borliq, estetik, usta, ijod, obraz, amaliy san‘at, innovatsiya, texnologiya, innovatsion texnologiya, metod, interfaol metod, pedagogika, pedagogik texnologiya.

Аннотация: В статье рассматривается значение интерактивных методов обучения искусству учащихся в кружках, их использование в процессе обучения и его эффекты.

Ключевые слова: развитие, культура, ценность, живопись, сокровище, резьба, миниатюра, строительство, узор, существование, эстетика, мастер, творчество, образ, практическое искусство, новаторство, технология, инновационная технология, метод, интерактивный метод, педагогика, педагогическая технология.

Annotation: The article discusses the importance of interactive methods of teaching art to students in circles, their use in the learning process and its effects.

Keywords: development, culture, value, painting, treasure, carving, miniature, construction, pattern, existence, aesthetics, master, creativity, image, practical art, innovation, technology, innovative technology, method, interactive method, pedagogy, educational technology.

“Bizni madaniyat bog‘lab turadi va u insoniyatni taraqqiyotining asosi hisoblanadi.”[1]. Har bir xalqning asrlar davomida rivojlanib avloddan-avlodga o‘tib kelgan madaniyati, qadryatlari bor. Bu madaniyatni yo‘qolishi xalqning o‘zligini yo‘qotish bilan barobardir. O‘zbekistonda amaliy san‘atning turlari naqqoshlik, ganchkorlik, o‘ymakorlik, miniatyura va h.k.lar taraqqiy etgan.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Kamoliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy,

Umar Xayyom, Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va naqqoshlar binolarimizni kishilar xayolini o‘ziga tortuvchi, tabiatning go‘zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezashga chaqirganlar. Naqsh — haqqoniyatni qo‘l bilan ushlab ko‘rish emas, go‘zallikning mohiyatini anglash, shu go‘zallikni dilda tasdiqlash, chodir ortidagi holatga o‘zni tayyorlash va unga kirib borish timsolidir [7].


O‘zbekiston xalqlarining tarixini, qadriyatlarini, ilm-fan va madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o‘rganish va tahlil etish g‘oyat muhimdir. O‘quvchilarni xalq ustalari ijodida obrazlilik bilan tanishtirish, borliqda estetik munosabatni o‘stirishga yordam beradi. Xalq amaliy san‘atini o‘rganish o‘quvchilarning borliqqa estetik munosabatini shakllantirish va badiiy fikr doirasini kengaytirish borasidagina emas, balki u bolalarning tasviriy ijodiy faoliyatida ham alohida ahamiyat kasb etadi [4].




Amaliy san‘at, xususan naqqoshlik darslarini mazmunli tashkil etishda innavatsion texnologiya, interfaol metod va pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kun talabidir. Innavatsion texnologiya, interfaol metodlar, hamda pedagogik texnologiyalar dars samaradorligini oshiradi, talabalar qiziqishini rivojlantiradi, dars mazmunini boyitadi [3].

Interfaol metod — ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyida amaliy san‘at, naqqoshlik darslarida foydalanish mumkin bo‘lgan pedagogik texnologiya va interfaol metodlarni ko‘rsatib o‘tamiz:

Tasvir va Fikr metodi. Bu metodda talabalarga mavzuga doir tasvir, rassomlar asaridan biri beriladi, talabalar o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq har turli yondashuvlar, tushunchalar, tavsiflar, toifalar, ajralib turadigan belgilar va shu kabilarni tegishlicha taqqoslash, toifalash asosida tahlillar o‘tkazish, xulosalari haqida fikr bildirishadi.

“Tasvir va Fikr” metodi.

Tasvir	Fikr
	<p>Marg‘ula — agar novda bilan marg‘ula tasvirlangan bo‘lsa, u marg‘ulali novda, agar bir novdani ichida ikkita marg‘ula hosil bo‘lgan bo‘lsa, u qo‘sh marg‘ula deb ataladi. Marg‘ula naqqoshlikda to‘ldiruvchi element sifatida qo‘llaniladi.</p>
	<p>Jalil Xakimov 1920-yilda Toshkent shahrida hunarmand-usta oilasida dunyoga kelgan. J.Xakimov o‘z shogirdlari bilan Bekobodagi madaniyat uyi xiyobonining “ko‘k</p>

	<p>gumbazli” choyxonasini, Oqqo‘rg‘ondagi “Shon-shuhrat” muzeyini, Toshkent vokzalini, Toshkentdagi “Guliston” restarani va boshqa binolarni o‘zining jonli chizgilari, jozibador ranglari, inson ruhiyatini ko‘taruvchi naqshlari bilan bezagan. Ustaning har bir naqshida chiziqlarning ravonligi, bir-biriga nisbati va har bir elementida uyg‘unlik, joziba sezilib turadi.</p>
	<p>Girih (forscha — muammo, tugun, chigal) — murakkab handasiy naqsh; me‘morlik va badiiy hunarmandlikda keng ishlatiladi. Naqsh asosi uchburchak, to‘rtburchak, murabba, aylana va yoy shaklli taqsimlardan tashkil topadi. Handasiy jihatdan girihni tahlil etish, chizib chiqish, yangi turlarini ijod etish maxsus tayyorgarlik va mahoratni talab qiladi. Girihlar yaratilish davrida sodda bo‘lib, keyinchalik takomillashib, murakkablashib borgan. Girih qancha murakkab mujassamotga ega bo‘lmasin, uning qulay tomoni ham bor: har qanday girih takrorlanuvchi ma‘lum bo‘lak (taqsim)larga ajraladi. Taqsimlar takrorlangan sari go‘zal, jozibador bo‘lib boradi. Shu tufayli ba‘zi sodda girihlardan tashkil topgan murakkab girihni qayta parchalab, bir necha sodda va mustaqil girih yasash, ikki girihni bir-biriga chatishtirib uchinchi xil girih yaratish mumkin.</p>
	<p>Islimiy — o‘simliksimon shakldagi takrorlanuvchi taqsimlardan tuzilgan asosiy naqsh turi. Naqsh asosini tanob, band, barg, butalar tashkil etadi. Islimiy naqsh bir-biriga uzluksiz ulanib, o‘ralib ketadigan chirmoviqsimon, o‘simliksimon naqshlarning takrorlanishidan tashkil topadi. Shuning uchun ba‘zan ustalar uni o‘rama yoki o‘simliksimon? uygiruvchi naqsh deb ham ataydilar. Islimiy naqshning xillari ko‘p, u qaysi shakl bilan to‘ldirilsa, naqsh shu shaklning nomi bilan ataladi.</p>

Amaliy san‘at darslari mazmunida o‘quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni tasviriy san‘atga qiziqtirish, kuzatish tahlil qilish, mashq qilish, tasvirlar bajarish, kompozitsiyalar tuzish, ijodkorlik bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan birga ularni tasviriy san‘at, uning rivojlanish tarixi,

tasviriy san'at tarixida chuqur iz qoldirgan va uning rivojiga muhim hissa qo'shgan xalq rassomlari, naqqoshlar, me'morlar, haykaltaroshlar hayoti va ijodi bilan ham sistimali ravishda tanishtirib borishni nazarda tutadi. Pedagogik kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablari o'quvchilari o'zbek mutafakkirlari yoki ayrim fanlar bo'yicha atoqli namoyandalar, olimlar, shoirlarni yaxshi bilishgani holda tasviriy san'at darg'alari — rassomlar, naqqoshlar, haykaltaroshlarning ham hayoti va ijodi haqida bilishlari o'z navbatida ta'limning eng jiddiy muammolarini hal qilishida o'rinlidir.

Yoshlar O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati turlariga oid beriladigan bilimlar ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan badiiy madaniyatni uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi va shaxs uchun muhim bo'lgan qator sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa yoshlarni milliy merosni o'zlashtirish hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishlari uchun ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -T.: O'zbekiston, 2022, 414 b.
2. Avlayev O.U., Jo'rayeva S.N., Mirzayeva S.R. Ta'lim metodlari. -T.: NAVRO'Z nashryoti, 2017, 208 b.
3. Axmedov M.B. Yog'och o'ymakorligi. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2017, 220 b.
4. Axmedov M.B. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyalari (monografiya). -T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2020, 128 b.
5. Akhmedov, M.-U., & Kholmatova F. (2021). FORMATION OF CREATIVE PROCESSES IN STUDENTS THROUGH TEACHING COMPOSITION IN FINE ARTS. Збірник наукових праць ЛОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.03>
6. Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). TEACHING STUDENTS TO DRAW ELEMENTS OF PATTERNS IN WOOD CARVING CIRCLES. Збірник наукових праць ЛОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.17>
7. G'afur G'ulom. Ibtidodagi ahd. -T.: Tafakkur jurnali, 1994, №1.
8. Sharopova Z.F. Ta'lim texnologiyalari. -T.: "NAVRO'Z" nashryoti, 2019, 340 b.

QADIMGI SHARQ XALQLARINING YOSH AVLODGA HUNAR O'RGATISHNING METODIK ASOSLARI

M.B.Axmedov – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.

Yu. Saparbayeva – A.Avloniy nomidagi MT Instituti tasviriy san'at va chizmachilik faninini o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash kursi tinglovchisi.

Annotatsiya: Maqolada Sharq xalqlarining yosh avlodga amaliy san'atni o'rgatishlaridagi an'analar, ularga ta'lim-tarbiya berish, kelajak hayotga tayyorlash, ijodiy faoliyatga, odoq-axloqli bo'lishga, ilm olishga, foydali yumushlar bilan shug'ullanishga yo'llash ishlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tosh, jez, suyak, dasta, g'ildirak, omoch, nayza, egar, manjanaq, narvon, dekcha, ustun, to'sin, eshik, panjara, darvoza, kursi, tokcha, arava, taxtiravon, pandnoma, xontaxta, lauh, dizayn, ekobana, ganch, yog'och, metall, zahira.

Аннотация: В статье рассматриваются традиции восточных народов в обучении молодого поколения прикладному искусству, его воспитании, подготовке к будущей жизни, ориентации на творческую деятельность, на вежливость, на получение знаний, на занятие полезным трудом.

Ключевые слова: камень, латунь, кость, ручка, колесо, плуг, копье, седло, манджанак, лестница, стойка, колонна, луч, дверь, забор, ворота, стул, полка, телега, трон, нравоучение, хантаха, лаух, дизайн, эcobана, гипс, дерево, металл, запаска.

Annotation: The article discusses the traditions of the Eastern peoples in teaching the younger generation about applied arts, their upbringing, preparation for a future life, orientation towards creative activity, politeness, knowledge acquisition, and useful work.

Keywords: stone, brass, bone, handle, wheel, plow, spear, saddle, manjanak, stairs, rack, column, beam, door, fence, gate, chair, shelf, cart, throne, moralizing, khantakhta, laukh, design, ecobana, gypsum, wood, metal, reserve.

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularni kelajak hayotga tayyorlash, ijodiy faoliyatga, odoq-axloqli bo'lishga, ilm olishga, foydali yumushlar bilan shug'ullanishga yo'llash ishlari Sharq xalqlarining qon-qoniga singib ketgan noyob amallardandir. Ta'lim-tarbiya ishlarining qonun bilan himoyalaniishi, barcha tashkiliy, rahbarlik va ta'minot ishlarining davlat tasarrufida bo'lishi, davlatning, xalqning o'z kelajagi uchun jiddiy qayg'urishidan dalolat beradi.

Sharq xalqlarining uzoq tarixida, hatto odamzod paydo bo'lishining boshlang'ich davrlarida, masalan, ibtidoiy jamoa tuzumida, quldorlik jamiyati tuzumida ham yosh bolalarning, kelajak avlodning tarbiyasiga e'tibor berib kelingan. Ibtidoiy jamoa tuzumida dastlab yog'ochlardan ayrilar, o'tkir uchli nayzalar yasash va ular bilan ov qilish o'rgatilgan bo'lsa, keyinchalik yog'ochlardan turli tosh, jez, suyak kabilarga dastalar o'rnatish, ular bilan mehnat qilish, ov qilish, turli xil moslamalar yasash o'rgatilgan.

Quldorlik tuzumiga kelib, yog'och asboblari, dastalar, moslamalar yasash takomillashdi, o'ziga xos sifat, jilo beradigan qilib, qo'llanilish maqsadiga qarab, o'z vazifasini aniq bajara oladigan qilib yasaldi va bu ishlar farzandlarga, shogirdlarga o'rgatib borildi. Yog'ochdan uy-ro'zg'or buyumlari: chelaklar, kosalar, laganlar, tog'oralar, bochkalar, suvdonlar, qoshiqlar, turli asboblari uchun dastalar, g'ildiraklar, omoch qismlari; harbiy maqsadlar uchun ashyolar: nayzalar va o'qlar dastalari, egarlar, devorlarni buzish moslamalari, manjanaqlar, narvonlar, ko'priklar, dekchalar, safar anjomlari; qurilish maqsadlari uchun ashyolar: ustunlar, to'sinlar, eshiklar, panjaralar, darvozalar, kursilar, tokchalar, aravalar, taxtiravonlar va boshqa yuzlab nomdagi moslamalar tayyorlangan, hayotda samarali foydalanilgan. Albatta, ushbu yog'och jihozlarni tayyorlash, yasash va foydalanish davrida yosh o'smir bolalar bevosita yoki bilvosita ishtirok etganlar, bu yo'l bilan ularning shu sohadagi bilimlari takomillashtirib borilgan.

Feodal tuzumi davriga kelib, buyuk davlatchilik siyosatlari baravar rivojlantirildi, barcha sohalardagi asbob-uskunalar, jihozlar ishlab chiqarish juda keng miqyosda taraqqiy etdi, hatto, nafis san'at darajasiga yetdi. Endi buyumlar va jihozlarning faqat ish bajarishga chidamliligigagina emas, balki nafis, go'zal, chiroyli, bezakli qilib tayyorlanishiga ham jiddiy e'tibor berildi. Turli davrlarda har xil buyumlarning tayyorlanishi, taraqqiyoti, rivojlanishi turli xil arxeologik qazishmalar paytida topilgan ashyolar, shuningdek, ular bilan bog'liq tavsiflar og'zaki va yozma manbalarda bizgacha yetib kelgan [2, -310-311 b].

Yoshlarni mehnat qilishga, turli hunarlarni egallashga da'vat qiluvchi fikrlar yozma va og'zaki manbalarda juda ko'p. Sharqning buyuk mutafakkirlarining qimmatbaho asarlarida bu masalaga juda katta e'tibor berilgan. Pandnomalar, nasihatlar, o'gitlar, hunarlar risolalari, tarixiy asarlardagi tavsiflar, nasriy va nazmiy bayonlarda, g'azallarda, ta'limotlarda o'z aksini topgan.

Yoshlarga odob-axloq qoidalarini o'rgatish, ularni ilm-fan sirlarini egallashga jalb etish, savob ishlarni bajarishga yo'naltirish, ijod bilan shug'ullanishga da'vat etishga juda ko'p allomalar o'z asarlarida e'tibor berdilar. Ahmad Yugnakiy (XII-asr), Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870), Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892), Abu Nasr Forobiy (873-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy (860-

941), Nosir Xisrav (1004-1088), Yusuf Xos Hojib (XI-asr), Maxmud Koshg'ariy (XI-asr), Ahmad Yassaviy (1103-1166), Bahouddin Naqshband (1318-1389), Mirzo Ulug'bek (1394-1449), Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Alisher Navoiy (1441-1501) kabi ko'plab jahon madaniyatining, ma'naviyatining yetakchi allomalari sifatida tan olingan mutafakirlarimiz ham o'z asarlarida yoshlar ta'lim-tarbiyasiga, ularda insoniy fazilatlarning shakllanishiga, foydali mehnat qilishga, ilm-fanni o'rganishga jiddiy e'tiborlarini qaratganlar.

Movarounnahrning ulug' mutafakirlaridan Abu Nasr Forobiy o'z umri davomida ilm-fanning turli sohalariga bag'ishlangan 160 dan ziyod asarlar bitgan. Ular orasida "Nufuzli shahar aholisining mosligi", "Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola" (Risola fi-t tanbih ala asbob as-saodat), "Fazilatli xulqlar" (As-siyrat al-fozila) nomli ta'lim-tarbiyaga oid asarlari inson fazilatlari, ta'lim-tarbiya borasidagi noyob durdonalar hisoblanadi.

Tasviriy san'at o'ziga bir necha tarmoqlarni qamrab olgan yirik qismlardan: haykaltaroshlik, rangtasvir, grafika, ekobana, amaliy san'at turlari, mo'jaz miniyura san'ati, gravyura, foto san'ati, dizayn kabi ko'plab qismlardan iborat. Tasvirlash san'atining ba'zi turlari paydo bo'lishi (rangtasvir, musavvirlik, miniatyura, haykaltaroshlik va boshqalar) qadimiy o'tmishga borib taqalsa, ba'zilari esa (dizayn, foto san'ati, ekobana) keyingi 100 yillikda paydo bo'lganligini ko'ramiz [5, -10 b].

Tasviriy va amaliy san'atning ajralmas qismlaridan hisoblangan o'ymakorlik san'ati turli materiallarga, tasvirlarni o'yib yoki bo'rttirib tasvirlash tarzida namoyon bo'ladi. 200 dan ziyod turli tarmoqlarga bo'linadigan amaliy san'at ham tarix silsilalarida taraqqiy etdi, takomillashdi, rivojlandi.

"O'ymakorlik – o'yib naqsh solish kasbi; xalq amaliy san'atining eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan (ganch, yog'och, metall, suyak, tosh va b. o'ymakorligi) naqsh yoki biror tasvirni yog'och, ganch, metall, tosh, suyak va boshqalarni o'yib, tirnab, chizib, bo'rttirib, teshib ishlanadi. O'ymakorlik namunalari bino qismlarini, uy-ro'zg'or buyumlarini bezashda, haykalchalar yaratishda keng qo'llaniladi" [3, -43 b]. Chunki hozirgi paytda respublikamizda amaliyotga joriy etilayotgan ta'lim-tarbiya tizimida, jumladan, ushbu tizimning umumta'lim bosqichida bevosita yog'och o'ymakorligidan doimiy ravishdagi o'quv mashg'ulotlari olib borilmaydi. Amaliy san'at ta'limining ko'plab turlari kabi yog'och o'ymakorligi ham o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari o'quv faoliyatida, mustaqil o'rganishlarida amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'lim tizimida, xususan, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning amaliy san'at sirlarini o'rganishlarida sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishning ahamiyati kattadir. Tasviriy va amaliy san'at bo'yicha tashkil etiladigan sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarni o'tkazishda o'quvchilarning estetik

madaniyatini shakllantirish, san'atning, go'zallikning ajoyib dunyosini o'rganishga, his qilishga bo'lgan intilishlarini, qiziqishlarini shakllantirish va tarbiyalash, o'z faoliyatini go'zal qilib tashkil etishlariga yo'naltirishni maqsad etib qo'yimoq lozim bo'ladi [4, -13 b].

To'garaklar maktab, maktabdan tashqari muassasalar pedagogik kengashi va ma'muriyati qarori bilan qo'shimcha dars soatlarini ajratish sifatida tashkil etiladi. To'garaklar mashg'ulotlarida o'quvchilarning ma'lum yo'nalishdagi qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy faoliyatlarini faollashtirish nazarda tutiladi.

Tasviriy va amaliy san'atdan tashkil etiladigan to'garaklarning asosiy vazifasi o'quvchilarga badiiy yo'nalishda beriladigan bilimlar ko'lamini kengaytirish, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish va takomillashtirish, ijodiy faoliyatini, tarbiyalanishini oshirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduqodirov A. Ulug'bekning Samarqanddagi obidalari. -T.: O'zbekiston, 1969, 21 b.
2. Axmedov M.B. To'garaklarda yetim bolalar va ota – ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga yog'och o'ymakorligini o'rgatishning pedagogik asoslari. -T.: /“Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar farovonligini ta'minlashning strategik modellari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 2022-yil, 11-noyabr, 305-311 b.
3. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. -T.: Mehnat, 1991, 384 b.
4. Гапбаров А.П. Подготовка студентов педвуза к трудовому обучению на основе народных промыслов. Автореф. ... канд. пед.наук.-М.:1991, 17 с.
5. Каримов И. Взаимосвязь технического и художественного творчества учащихся 5-7 классов как средство повышения эффективности трудового обучения. Автореф. ... канд. пед. наук. -М.:1992, 16 б.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O'STIRISHNING SAMARALI USULLARI

Jo'rayeva Nargiza Tairovna – Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi (PhD) v.b.dotsenti.

Lutfullayeva Odinabonu – Nizomiy nomidagi TDPU talabasi.

Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik, shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlash ota-onalarga yordam beradi. So'ngi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim -tarbiya

mazmuni, shakl vosita va metodlarini yangilashga alohida e'tibor berilmoqda. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochadi. Nutqning egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgachha yoshga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olimlar nutqqacha bo'lgan bosqich muhim rol o'ynashini tushunib yetib, uni batafsil tahlil qilmoqdalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni shakllantirish masalalarini nutqiy faoliyat nazriyasi asosida tadqiq etish maktabgacha ta'limning nazariyasi hamda amaliyot uchun dolzrab va ahamiyatli hisoblanadi.

Til-bu ijtimoiy hodisadir. Til tafakkur bilan monanad bog'langanligi holda ongni shakllantiradi. Bolaning nutqi til qonuniyatlariga to'g'ri amal qilish, kattalar nutqini idrok etish va o'zuining ijodiy faolligi natijasida rivojlanadi. Nutqni samaraliroq rivojlantirish maqsadida bolalarning tevarak-atrof obyektlari to'g'risidagi tasavurlarini aniqlash va izchil, rejali tarzda kengaytira boorish talab etiladi. Maktabgach ta'lim muassasasida sog'lom, tabiiy muhit yaratish, ularning to'g'ri muomalaga kirishishi, boshqalar bilan gaplashish ishtiyoqining ortishiga turtki bo'ladi. Bolalarni narsalarning nomlarini to'g'ri aytishiga, ularning o'xshash va farqli tomonlarini tushunish, shakli, rangi, sifati, xossalarini, turiga oid yo'naltiruvchi lug'atni faollashtirish, nutqning gramatik va monologik nutqni takomillashtirish va nihoyat savod o'rgatishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir mashg'ulotlarni didaktik o'yinlar, ermak o'yinlar, sahna ko'rinishlari shaklida o'tkazish tavsiya qilinadi. Ular nafaqat ko'ngilochar tusga balki albatta ta'lim tusiga ega bo'lishi lozim.

Uch yoshli bola nutqini rivojlantirishga oid vazifalar quydagilardan iborat:

1. Bolaning imkon doirasi va undan tashqaridagi nutq vositalari bilan faol muloqotga kirishishi, kattalarning savol va takliflariga javob berishi, o'z istak xoxishlari, xissiyotlari, fikrlarini ifoda qilgan holda tashabbus ko'rsatib fikr bildirishga intilishini qo'llab-quvvatlang;

2. Tengdoshlari ishiga qiziqishi, o'z taassurotlarini ular bilan o'rtoqlashishini istashi, o'yin harakatlari, ro'y berayotgan hodisaga munosabatini nutq bilan ifodalashga qiziqishini rag'batlantiring;

3. Bolaning lug'at zaxirasini kishilar, o'simliklar, oziq-ovaqt, kiyim-boshlar, mebellar, uy hayvonlari, o'yinchoqlar, narsa-buyum qismlari(ko'yлак yengi, cho'ntaklari va yoqasi) nomlari bilan boyitib boring.

4. Gapda so'zlarning bir-biriga to'g'ri bog'lashni (masalan, uyda ketdi emas uyga ketdi, kecha boraman emas bugun boraman ;

5. Bolalarni unli va undosh tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishiga o‘rgatig.

Bolalardagi ko‘plab nutqiy muloqot va ko‘nikmalar mashg‘ulotlardan tashqarida shakllanadi. Maktabgacha ta‘limda bolalarning kattalar (pedagoglar, tibbiyot hamshiralari, tarbiyachi yordamchisi va boshqalar) bilan muloqoti har xil faoliyat turlarida ro‘y beradi. Mehnat jarayonida – xo‘jalik- maishiy, qo‘l va qishloq xo‘jaligi mehnatida bolalarning lug‘ati boyiydi aniqlashadi va faollashadi. O‘yin faoliyati mobaynida pedagog ularda mustaqil nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Bolalardalug‘at mashg‘ulotlarda olingan bilim mustahkamlanadi va faollashadi. O‘yinlarda pedagogning ishtirok etishi lug‘atning boyishiga, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalshga yordam beradi. Matnli, harakatchan musiquy o‘yinlar. Sahnalashtirish o‘yinlari bola nutqining ifodaliligini shakllantirsh, to‘g‘ri sur‘at , nafas olish, yaxshi diksiyani mashq qilishda yordam beradi. Nutq madaniyati avvalo, to‘g‘ri, adabiy til me‘yorlariga amal qilgan holda so‘zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz. Buning uchun talaffuzda, so‘z shakllaridan foydalanishda, jummalarni tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni kuzatib borishimiz kerak[5].

Bir yarim ikki yoshlarida bola 50-70 tacha so‘z gapira oladi, bular asosan otlar: o‘yinchoqlar nomi va yaqin o‘rab turgan buyumlar nomi, ismlar; ”shu yer” va ”hozir” ravishlari ; ”katta”, ”kichkina” sifatleri, ora-orada-fe‘llar, shaxsiy joy nomlari. Bolalar 2 yoshlarida [a], [u], [o], [i] kabi unli tovushlarni bemalol ayta olishadi. [e], [e] tovushlarini [ye] tovushi bilan almashtirishlari mumkin . Bolalar ba’zi bir undoshlarni qulayroq, osonroq bo‘lgan boshqasiga almashtirishadi, buzib aytishadi yoki umuman talaffuz qilishmaydi. Ular nutqida [t], [d], [s], [z] kabi yumshoq undoshlar ko‘p uchraydi. Bu yoshda so‘zlarni osonlashtirilgan talaffuz qilish uchrashi mumkin, masalan, qisqartirish yoki bo‘ginni nomlash, ko‘pincha urg‘uli yoki birinchi bo‘g‘inni :”shoko”, ”shokolad” so‘zi o‘rniga . 2 yoshlarida bolaning nutqida oddiy gaplar bo‘lishi kerak:”Oyi, non ber. Oyimga boraman . Sok ichaman!”. Bola 3 yoshlarida juda ko‘p savol beradi, o‘zi savollarga bajonidil javob berdi, kichkina qo‘shiq, she‘rlar yodlaydi. Bu yoshda odatda bola unli va undoshlarni to‘g‘ri o‘qiydi. [b], [p], [f], [m], [t], [n], [k], [g], [v]. Bolalar 3 yoshida yoyiq gaplarni gapirishadi.[6] Maktabgacha ta‘limda nutqni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida badiiy so‘zdan tashqari tasviriy san‘at, bayramlar va tomoshalardan foydalaniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga boshqa tilni (rus, o‘zbek, ingliz va boshq.) o‘qitish jarayonini yosh xususiyatlarini, ta‘limning psixologiya, pedagogikaga oid tamoyillarini hisobga olgan holda, qurish zarur. Bu shuni anglatadiki, birinchidan, nutq mazmuni qiziqarli va mazmunli bo‘lishi, bolaning yosh imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari doirasiga mos kelishi lozim. Folklor asarlari, bolalar

adabiyotning eng yaxshi namunalari mazmunning yosh qiziqishlarini hisobga olgan holda tanlanishiga o'ziga xos misol bo'la oladi.

Nutqiy faoliyatning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalarga o'zga tilni (rus, o'zbek va boshq.) o'qitish metodikasi uchun zarur bo'lgan xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

- Ta'limning boshidan boshlab so'zlash va tushunishning faol jarayoni sifatida bolalarning o'rganilayotgan tildagi nutqiy faoliyatini shakllantirish zarur. Bu talab shuning uchunki, so'zlash va tushunish bitta umumiy psixologik asosga – til qobiliyatiga ega (qisman bir-biriga mos keluvchi ichki jarayonlar).

- Ta'lim metodikasi nutqiy harakat tamoyillariga asoslanmog'i lozim. SHuni unutmaslik kerakki, har qanday nutq tovushlarini talaffuz qilish ham nutq bo'lavermaydi (garchi bu yaxlit matnlar bo'lsa ham). Bolaning o'rganilayotgan tilda aytayotgan so'zlari faqat bir qator shart-sharoitlarga rioya qilingan taqdirdagina nutqiy harakat natijasi bo'ladi: o'rganuvchida ichki motiv (nima uchun u buni aytishi kerak), maqsad (nima uchun buni aytish lozim, buni aytish natijasida nima ro'y beradi), fikr (qaysi mazmunni so'z bilan aytish kerak) bo'lishi lozim. O'quv jarayonini shunday qurish lozimki, unda bola harakatlari ta'limning har bir daqiqasida haqiqatdan ham nutqiy bo'lsin. Metodik jihatdan to'g'ri o'qitish natijasida bolalarda o'rganilayotgan til materialida ularsiz har qanday, hattoki eng oddiy fikrni ham tuzishning (so'zlarni tanlash, ularni o'zgartirish, konstruksiyani tanlash, «grammatik majburiyatlar»ga rioya qilish, ushbu grammatik majburiyatlarga muvofiq holda so'zlarni o'zgartirish va boshq.) imkoni bo'lmagan nutqiy ko'nikmalar shakllantirilishi mumkin. Nutqiy ko'nikma faqat yangi, bola hali uchramagan so'zlar va nutqiy vaziyatlarga ko'chirilgan taqdirdagina shakllantirilgan, deb hisoblanishi mumkin. O'zga tilni o'qitishning maktabgacha davrida o'rganilayotgan tilda muloqot qilishning dastlabki ko'nikmalari, nutqiy vaziyatda yo'nalish topa olish ko'nikmasi, ushbu vaziyat asosida mazmuni va nutqiy ifodalanishi jihatdan eng oddiy fikrni yaratish ko'nikmalari hosil qilinishi darkor. Aks holda, ta'lim tayyor ibora va dialoglarni qotib qolgan va shuning uchun sun'iy bo'lgan vaziyatlarda yod olishdan iborat bo'lib qoladi va bunda bola o'rganilayotgan tilda real muloqot qilish sharoitlarida ilojisiz bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. D.R. Babayeva.2018-yil.
2. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. D.R. Babayeva.2012-yil
3. “Bolalar nutqini o'stirishga oid nazariy ishlar metodologiyasi. Ontolingvistika bolalardagi nutqiy jarayonni o'rganuvchi soha sifatida”
4. “Nutq madaniyati” Vikipediya ochiq ensklopediyasi 2023-yil
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Nutq_madaniyati

TARBIYALANUVCHI PORTFOLIOSI VA MTTDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLAR

Jo'rayeva Nargiza Tairovna – Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasasi (PhD) v.b.dotsenti.

Telmanova Toxira – Nizomiy nomidagi TDPU talabasi.

Tarbiyalanuvchi portfoliosi – unda asosan bolaning ijodiy ishlari yig'indisi jamlanadi va u faqat tayyorlov guruhi bolalari o'rtasida qilinadi. Portfolio yig'ishdan ko'zlangan maqsad – bolaning o'zi yasagan, chizgan ijodiy ishlarini yig'ish va shu asnosida unda MTT xotiralarini o'zi bilan olib ketishiga imkoniyat yaratish, tarbiyalanuvchining o'ziga bo'lgan bahosini oshirish. Portfolio yig'ish jarayonida bola faollik ko'rsatadi, maqsad qo'yish va uni bajarishni o'rganadi, ma'lum qiyinchiliklarga dosh beradi va bu uning fe'lida qat'iyatlilik va sabr qilish tuyg'usini rivojlantiradi.

Portfolio yig'ish jarayonida ma'lum shartlarga rioya qilish majburiy hisoblanadi. Birinchisi, bu rostgo'ylik bo'lib, bunda faqat bolaning o'z qo'li bilan yasalgan ijod namunalari jamlanishi shart. Chunki bola bu jamlanmani maktabga chiqqanida o'qituvchisiga ko'rsatishi va lozim bo'lsa o'sha o'yinchoqni yana yasay olishi kerak. Har bir portfolio albatta bir yo'nalishda bo'lishi shart emas. Chunki har bir bolaning o'ziga yarasha iqtidori bor va o'sha yo'nalishda qobiliyatini aks ettiradigan narsalar yig'gani ma'qul.

Quyidagi bo'limlar har bir portfolio asosini tashkil qiladi: “Men bilan tanishing”. Bu bo'limda har bir bolaning ismi, bolaligida tushgan suratlari, qaerda yashashi haqidagi ma'lumot yoziladi. Tarbiyalanuvchining ismi nima va bu ismni unga kim nima maqsadda qo'ygan, ushbu ism qanday ma'noni bildirisha haqida ham ma'lumotlar yozish mumkin. “Men o'sayapman”. Bu bo'limda bolaning o'sishi bilan bog'liq ma'lumotlar hamshiradan olib yoziladi. Unda bolaning qanday kasalliklar bilan kasallangani, surunkali kasalligi bor yo'qligi haqidagi ma'lumotlarni ham ilova qilish mumkin. “Mening oilam”. Bu bo'limda oila a'zolari haqida qisqacha ma'lumot beriladi, ular qaysi sohada ishlaydi, sevimli mashg'uloti nima, ularning qanday yaxshi fazilatlari bor kabi savollarga javob berish ham mumkin. “Men yordamchiman”. Bolaning oilada uy ishlarida yordam berayotgani tasvirlangan fotosuratlar ilova qilinadi.[1]

“Oltin qo'llar”

– Bolaning o'z qo'li bilan yasagan ijodiy ishlari ilova qilinadi.

“Mening yutuqlarim”.

Tarbiyalanuvchining shu kungacha qo‘lga kiritgan yutuqlari, olgan diplomlari, faxriy yorliqlari ilovaqilinadi.

“Men haqimda”.

Bu bo‘limga tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning aynan shu portfolio egasi haqidagi fikrlari yoziladi. Portfolio birdaniga bir kun yoki bir haftada tayyor bo‘lmaydi. Uni o‘quv yili boshidan boshlab rejalab tayyorlab borish bola uchun ham tarbiyachi uchun ham ortiqcha qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bir haftada bir marta portfolio uchun topshiriqni bajarish me‘yor sanaladi. Faqat uni yig‘ayotganda judayam ko‘p material bilan ko‘paytirib yubormaslikka, uning tashqi ko‘rinishi va ko‘tarish uchun qulay bo‘lishiga ham alohida e‘tibor qaratish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, ahloqiy me‘yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, unda “men”obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va ahloq subyekti sifatida yaxlit rivojlanishini talab etadi. Ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga hos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xir turlari shakllanadi. Ulardan asosiylari: munosabatda bo‘lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyat, o‘yin, oddiy mehnat va o‘quv faoliyatlaridir. Ta‘lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o‘zlashtirib olmaydilar, aksincha ularni tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim mazmunini takomillashtirishda o‘ziga xos metodik, pedagogik, psixologik tayyorgarlik bilan ishlash davr taqazosiga aylandi. Chunki maktabgacha ta‘lim mazmunini takomillashtirish keng ma‘noli tushuncha bo‘lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta‘lim tashkiloti binosining holati, tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar hamda bolalarning ta‘lim jarayonidagi ishtiroki innavatsion bo‘lishi lozimligini talab etadi. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida kompetensiyaviy yondashuv jarayonida pedagogik-psixologik, metodik, badiiy adabiyotlar soni va sifati, har bir yosh guruhiga mos va xos adabiyotlar bilan boyitib borish ham muhim masaladir.

Bolalarni o‘ynab turib o‘ylashga undovchi muammoli vaziyatlarni o‘yinlarda aks ettiruvchi ta‘limiy rivojlantiruvchi o‘yin markazlari tashkil etish va ular faoliyatini muvofiqlashtirishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi va boshqa shu kabi omillar maktabgacha ta‘lim mazmunini oshiradi Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari Kommunikativ

kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.[2]

O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi. Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me‘yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tuta olish mahorati.[3] Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish

Maktabgacha ta’limning sifat va samaradorligiga erishishda bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, bo‘sh vaqtlardan unumli foydalanish, qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, bolalar uchun o‘tkazilgan mashg‘ulotlar va manbalarni bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadida ratsional va tizimli tahlil qilishni ko‘zda tutadi. Buning uchun innovatsion usullardan biri bo‘lgan “Keystadi” texnologiyasidan maktabgacha ta’lim tashkilotida ham foydalanish bolalarni faol ta’lim olishga undaydi. Bu usulni qo‘llash orqali tarbiyachi bolani berilgan savolga to‘g‘ri javob berishga o‘rgatadi. Bolalarga ko‘proq kitob o‘qib berish yoki kitob sovg‘a qilish ularni so‘z boyligini oshirish bilan bir qatorda xotirasi va tafakkurini o‘stiradi. [4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan.

2. Мактабгача ёшдаги болалар илк ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 20-martda “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus

4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo'yicha trening moduli. T.: 2017-y.

5. "Bolangiz maktabga tayyormi?" O'z. Res. Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi, Ma'rifat-Madadkor nashriyoti.

STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN MAKTABGACHA TA'LIM-TARBIYA TIZIMIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Jo'rayeva Nargiza Tairovna – Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasida (PhD) v.b.dotsenti.

Ubaydullayeva Mohira – Nizomiy nomidagi TDPU talabasi.

O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilinib borilayotgan uzluksiz ta'lim tizimida bugungi kunda rivojlangan Yevropa davlatlari ta'lim tizimi tajribasidan na'muna olish orqali dunyo ta'limi bilan yuzlasha olishm, tajriba almashish, raqobatga kirishish, uzluksiz aloqada bo'lish ishlari sezilarli darajada rivojlanmoqda. Jumladan dual ta'lim, enkuliziv ta'lim, eksternat ta'lim, masofaviy ta'lim va **STEAM** ta'lim shakllari fikrimizga yaqqol misol bo'loladi. Mazkur ta'lim shakllaridan bugungi kunda keng foydalanilib yuqori natejalarga erishilmoqda. Hozir biz fikrimizni STEAM ta'lim texnologiyasi haqida davom etiramiz.

STEAM ta'lim texnologiyasi ilk bor Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi ta'lim bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi.[1] (Fan, texnika, muhandislik va matematika).

Keyinchalik bu tushunchalarga Art qo'shildi va endi STEAM butunligicha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi, deb hisoblashdi. STEAM yondashuviga oid darslik va o'quv qo'llanmalari Cambridge University Press shu jumladan Oxford University Press va Collins kabi nufuzli nashriyotlar tomonidan chop etilgan. Cambridge taklif qilayotgan o'quv dasturining asosiy afzalligi jahon mehnat bozoridagi tamoyillardan kelib chiqib, o'quvchilarda tegishli zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga olib keladi, bu esa bu ta'lim texnologiyasining keng yoyilishiga sabab bo'ladi. STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi – Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT). Ushbu dunyo universitetining shiori "Mens et Manus" (Aql va qo'l). Massachusetts Texnologiya Instituti bolalarga STEAM tushunchasini oldindan o'rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba'zi ta'lim muassasalarida STEAM o'quv markazlarini yaratdi.[2]

STEAM - hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda STEAM abbreviaturasi

juda murakkab ko‘rinadi, lekin uni alohida ko‘radigan bo‘lsak sodda va aniq ekanini kavrishimiz mumkin, ya’ni:

S – science,

T – technology,

E – engineering,

A – art,

M – mathematics,

yoki tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik san’ati, ijod, matematika. Oddiy so‘z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko‘p talab etilayotgan fanlardir. Hech kimga sir emaski, ko‘plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o‘zlashtiriladigan turli sohalardagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Aynan shunday muammolarni hal qilishda STEAM texnologiyasi yordam beradi.

Bu metodika ta’limni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. STEAM bu maktabda va maktabdan tashqarida loyiha va o‘quv–tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir. Ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog‘liqligini ko‘rsatib o‘rgatiladi. Fanlarni kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishdan tashqari, texnologiya o‘quvchilarning ijodkorligini ham ko‘rsatib berishi mumkin. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning faoliyatiga bir qancha vazifalarni taqdim etadi, o‘quvchi ularni hal qilishida ijodkorligini namoyon qilishni o‘rganadi. Bunday vazifalar yordamida o‘quvchi g‘oyalarni nafaqat o‘ylab topadi, balki ularni kundalik hayotida amalga oshirishni ham o‘rganadi. Shu tariqa, o‘quvchi o‘z faoliyatini oldiga qo‘yilgan vazifalari va mavjud imkoniyatlari doirasida hal qilishga o‘rganadi.[3]

STEAM (Sfan, T-texnologiya, E-muhandislik, A- san’at, M - matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv. STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi: Muammolarni keng qamrovli tushunish Ijodiy fikrlash Muhandislik yondashuv Tanqidiy fikrlash Ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash

Dizayn asoslarini tushunish. Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Bugungi kunda STEAM - ta’lim dunyodagi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo‘llashda beshta sohani yagona o‘quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta’limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o‘zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo‘lib, buna ular fikrlarni to‘plashi va fikrlar almashishi mumkin. Shuning uchun, asosiy ta’lim dasturiga

quyidagilar: lego-texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi. STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi. O'z-o'ziga ishonchni shakllantirish. Bu yondashuvda bolalar o'z qo'llari bilan yaratgan ko'prik va yo'llar, samolyotlar va avtomobillarni "ishga tushirib", suv osti va havo tuzilmalarini "rivojlantirib", sinovdan o'tkazib, har safar ular maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan "mahsulot"ni qayta-qayta sinovdan o'tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni o'zi hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g'alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g'alaba, o'zlarining qobiliyatlariga ko'proq ishonch uyg'otadi. Faol muloqot va jamoaviy ishni tashkil etishni o'rgatadi.

STEAM dasturlari ham faol muloqot va guruh bo'lib ishlashni o'rgatishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida bolalar fikr bildirishga qo'rqmaslikka o'rganadilar. Faoliyatlar jarayonida bolalar frontal usulda stol atrofida o'tirmaydi, o'zlarining dizaynlari asosidagi "mahsulot"larni sinovdan o'tkazadi va rivojlantiradi. Faoliyat jarayonida bolalar hamma vaqt hamkorlikni ta'minlaydigan jamoada tarbiyachilar va ularning do'stlari bilan muloqot qilish bilan band bo'lishadi. Texnik fanlar bo'yicha qiziqishlarni rivojlantirish. Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi STEAM ta'limi vazifasi qiziqishning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Bolalar uchun tabiat fanlari va texnik fanlar bo'yicha, qilgan ishni yaxshi ko'rish, qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir. [4]

STEAM – bolalar uchun juda qiziqarli va dinamik bo'lib, bolalarning zerikishlariga to'sqinlik qiladi. Ular vaqt o'tayotganini sezmaydilar, lekin ham charchamadilar

S – science - tabiiy fanlar

T – technology - texnologiya

E – engineering – muhandislik

A – art - san'at

M – math. – matematika.

Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotgan tizimdir. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning

iqtidorlarini e'tiborga olib va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu erda Art qo'shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi [5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'tkir Tolipov, Dilnoz Ro'ziyeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" «Toshkent innovatsiya-ziyo» T.: 2019
2. R.A. Mavlonova, N. H. Raxmonqulova, K.O.Matanazarova, M. K. Shirinov S. Hafizov "Umumiy pedagogika" « Fan va texnologiya» nashriyoti T.: 2018
3. Z.M. Ashurova Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi
4. G.N. Davranova Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi
5. M.J. Saidova Buxoro pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası mudiri, p.f.f.d dotsent
G.Q. Hasanova Buxoro davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi p.f.n. dotsent
6. N.N.Azizxo'jayeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" «O'zbekiston yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamg'armasi» nashriyoti T.: 2006
7. S.T.Turg'unov, L.A.Maqsudova, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova, M.A.Umaraliyeva "Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari" «O'zbekiston Respublikasi O'zPFITI » nashriyoti, T.:2014

MAMLAKAT RIVOJIDA STEAM TA'LIMINI JORIY ETISHNI DEMOGRAFIK OMILLARGA TA'SIRI

X.X.Tajiboyeva – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.

E-mail: xolidatojiboyevaaa@gmail.com mel: (+99893) 573-70-79

Annotatsiya

Maqolada Koreya texnologiyasi asosida o'quv jarayoniga STEAM ta'limini joriy etish istiqbollari ko'rib chiqilgan.

Annotation

The article examines the prospects for the introduction of STEAM education into the educational process based on Korean technology.

Annotatsiya

В статье рассматриваются перспективы внедрения STEAM-образования в учебный процесс на основе корейской технологии.

Tayanch soʻzlar: STEAM taʼlimi, Koreyadan tajribasi, taʼlim sistemasini, oʻqituvchi, oʻquvchi.

Ключевые слова: STEAM образование, опыт из Кореи, система образования, учитель, ученик.

Keywords: STEAM education, experience from Korea, education system, teacher, student

Jamiyatimizning yuksak darajada rivojlanishi, unda boʻlayotgan demografik oʻzgarishlar, jumladan ilmiy-texnik taraqqiyotini eʼtiborga olgan holda, taʼlim sistemasini uzluksiz ravishda takomillashtirishni hamda mutaxassislarining umum taʼlim darajasini keskin oshirishni taqozo etadi. Taʼlimning mazmunini yangilash, demografik nuqtai nazardan qaralganda mamlakatimiz aholisi va millatning kelajagini belgilovchi omillarini oʻrganish, muammolarni, yechimlarni aniqlash va istiqbolini koʻrsatib berishdan iborat. Bular esa, oʻqituvchilarni berayotgan bilim va konikmalarini ilmiylik darajasini oshirish, oʻqitish metodlarini uzluksiz takomillashtirish, oʻquvchilar bilimining oʻsib borilishi – oʻqituvchidan oʻz bilimini uzluksiz ravishda toʻldirib va yangilab borishni, malaka va metodik mahoratini yuksaltirishni taqozo qiladi. Tarixga nazar tashlasak, ajdodlarimizning asriy orzu armonlari roʻyobga chiqayotgan istiqbol yillarida boshqa sohalar qatori, umummilliy masala boʻlgan taʼlim tizimini isloh qilish va rivojlantirish, shu jumladan maktab taʼlimini taraqqiy ettirish ishlariga ham davlatimiz rahbari doimiy eʼtibor va gʻamxoʻrlik koʻrsatib kelmoqda. Chunki, kelajagimiz poydevori maktabda bunyod etiladi. Ulugʻ vatandoshlarimizdan biri taʼkidlaganidek maktab – taraqqiyotning boshlangʻichi, madaniyat va saodatning kalitidir[1].

Yuqoridagi fikrlar izohi shuni taqozo etadiki, har bir oʻqituvchi oʻzi ustida ishlashi va rivojlangan davlatlar taʼlim sistemasini oʻrganishi va uni amaliyotda sinab koʻrgan holda ommalashtirishi har bir taʼlim sohasida faoliyat olib borayotgan insonlardan masʼuliyatni talab etadi. Shu nuqtai nazardan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq, Xalq taʼlimi vazirligi huzuridagi Respublika taʼlim markazi oldiga oʻquv-tarbiya jarayoniga “STEAM” fanlarini (Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiyalar, Engineering — texnik ijodkorlik, Art — sanʼat, Mathematics — matematika) oʻqitish boʻyicha ilgʻor pedagogik texnologiyalar va boshqa maqbul metodikalarni joriy etish vazifasi qoʻyildi. Oʻzbekiston taʼlim tizimiga STEAM taʼlimini joriy etish uni SCIENCE — Tabiiy fanlar tarkibiga singdirishdan boshlandi. Bugungacha umumtaʼlim maktablarining 1-2 sinflari uchun tabiiy fanlar darsligi yaratildi va ushbu fan 2022-oʻquv yilidan boshlab maktablarda oʻqitib kelinmoqda. Darslikka STEAM taʼlimiga asoslangan mavzu va mashqlar kiritilgan. Endilikda umumtaʼlim maktablariga STEAM

ta'limini joriy etishda uni bir qancha fanlar tarkibiga singdirilgan holda integratsion o'qitish yo'lidan boriladi. Rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga nazar tashlasak, jumladan Koreya davlatida boshlang'ich sinfdan to yuqori sinf o'quvchilargacha STEAM ta'limiga asoslangan holda darslar rejalashtiriladi, har bir dars STEAM darsi bo'lishi shart emas ekanligi, butun yil davomida besh yoki oltita dars amalga oshirilishi lozimligi va bu darslardan namunalar keltirildi.

Janubiy Koreyada STEAM Integrated Training kirib kelishi va rivojlanishiga nazar solaylik-bu jamiyat uchun yuqori sifatli ishchi kuchi va o'qimishli fuqarolarni tayyorlashga qaratilgan yuqori texnologiyalarga asoslangan ta'lim yondashuvi hisoblanadi. Bu mamlakatda STEAM ta'limi uchta komponentni o'z ichiga oladi - ijodiy dizayn, emotsional, konvergentsiya va kontent integratsiyasi shular jumlasidandir. Janubiy koreyalik o'quvchilar PISA (xalqaro o'quvchilar uchun dastur), TIMSS ("xalqaro matematika va fan tendentsiyalari" tadqiqotlari), PIRLS ("xalqaro o'qishdagi taraqqiyot" tadqiqotlari) kabi xalqaro baholash dasturlarida o'qish, matematika va aniq fanlar bo'yicha birinchi o'ntalikka kiradi[3].

Janubiy Koreyada STEAM ta'limiga o'tish-2011 yilda boshlangan. Mamlakat ta'lim vazirligi "Janubiy Koreyada ta'limi uchun harakat rejasini ishlab chiqish" hujjatini e'lon qildi, bu fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasini targ'ib qilishni ta'minlaydi. Ushbu davrda mamlakatning davlat korxonalarini uchun bir nechta quyidagi ta'lim loyihalari amalga oshirildi: Jumladan: 2014 yilda "Koreyaning STEAM ta'lim holati loyihasi", 2015 yilda "Koreyada STEAM ta'lim effekti", 2014-2019 yillarda "robotlar va sun'iy intellekt uchun STEAM o'quv materiallarini ishlab chiqish", 2020 yilda "K-12 STEAM Education Koreyada" tadqiqoti shular jumlasidandir.

So'nggi 10 yil ichida Janubiy Koreyada STEAM ta'limida innovatsion pedagogik o'zgarishlar, ya'ni o'qitish usullari va o'qitish usullarini takomillashtirish, STEAM o'qituvchilarining malakasini oshirish, o'qituvchilar tarmog'ini kengaytirish va hamkorlik qilish, maktabdan tashqari muassasalar, universitetlar va kompaniyalar bilan faol hamkorlik qilish bo'yicha ishlar olib borildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari ularning tashabbusi va STEAM-ni o'qitishga bo'lgan ishonchini oshirdi. Ushbu davrda Janubiy Koreya hukumati STEAM ta'limini rivojlantirish uchun turli yo'nalishlar orqali muhim ta'lim byudjetini ajratdi.

Markaziy hukumatning Kofac (Koreyaning ilm-fan va ijodkorlikni rivojlantirish jamg'armasi) o'quv rivojlanishining dastlabki bosqichida, STEAM tashabbuslariga hukumatning o'zi tomonidan davlat tomonidan moliyalashtirish, o'quv dasturlarini ishlab chiqish kabi strategik rejalar orqali amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida STEAM texnologiyasi-muhandislik, san'at va matematika elementlarini birlashtirgan o'qitish usuli bo'lib, bu erda yangi

kashfiyotlar nuqtai nazaridan san'atning o'rni alohida ta'kidlangan. Bolalarga kashf qilish, o'rganish, savollar berish va asosiy maydonlaridan foydalangan holda yaratish imkoniyati beriladi. Shu maqsadda, maktabgacha ta'lim muassasalarida ishlaydigan o'qituvchilar ikkita asosiy vositadan - o'quv materiallari va atrof-muhitdagi manbalar foydalanadilar.

Seulning Kyundong bolalar bog'chasida turli xil bloklar va o'yinchoqlar to'plamidan yangi qurilmalar yaratishga intilishadi, robot "Genibo" bilan o'ynashadi, kosmik kema qurishadi. Bu erda ota-onalar o'qituvchilar bilan birgalikda darslarda va ularning ta'limida ham faol qatnashadilar[3].

STEAM yozgi Akademiyasi bolalarni STEAM-ga asoslangan mavzular bilan asoslangan ta'lim yondashuvi orqali tanishtiradi, ularga etakchilik qobiliyatlari, muloqot, tanqidiy fikrlash va boshqalarni o'rgatadi va rivojlanadi.

So'nggi yarim asrda koreys maktablarida texnologiya darslari juda o'zgardi. Ilgari, bu yog'och, metall, elektr qismlariga va boshqa qurilish materiallariga nisbatan qo'llanilgan. 90-yillardan boshlab muhandislik fanlari va kompyuterlardan foydalanish kirib keldi. STEAM-ning ko'plab integratsiyalashgan ta'lim dasturlarida texnologiya va muhandislik sohasidagi dizayn amaliyotiga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Sinfidagi guruhlarda ishlash o'quvchilar uchun hamkorlik va o'z-o'zini o'rganish, muloqot qobiliyatlarini o'rgatish orqali yuqori natijalarga olib kelmoqda. Texnologiya darslarining maqsadi o'quvchilarga moslashuvchan bilimlarni, muammolarni samarali hal qilishni, hamkorlik ko'nikmalarini va ichki motivatsiyani rivojlantirishga yordam berishdir.

Janubiy Koreyada STEAM fanlarni birlashtirib, innovatsion mutafakkirlarni tarbiyalash va integratsiyalashgan ta'limga, yani o'quvchilarga muammolarni hal qilishda ishtirok etadigan bilimlarni, shuningdek tanqidiy va analitik fikrlash kabi bilim qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi va shakllangan yangi g'oyalar yoki mahsulotlarni yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, STEAM ta'limining asosiy maqsadi iste'dodlarini rivojlantirishdir.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, xorijiy davlatlarni tajribasini o'rganish va ta'lim jarayoniga tadbiiq etish, o'qituvchilarimiz o'z ustida ishlashlari va o'quvchilarni har tomonlama yetuk shaxs bo'lib tarbiyalanishlarida STEAM ta'limining o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, STEAM darslari vatanimiz kelajakda har tomonlama dunyoga tanilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, avtosanoat, kiyim-kechak va parfyumeriya sohasi boyicha Koreya dunyo bo'yicha nechanchi o'rinda turishi haqida o'quvchilarga STEAM darslarini o'tishadan oldin ma'lumot berilishi, kelesakda kutilayotgan texnologiyalar bo'yicha yangiliklar o'quvchilarni yanada milliy g'urur va vataniga nisbatan muxabbatni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son
2. STEAM dasturi asosida darliklar yaratishda Koreya tajribasi.
https://uza.uz/uz/posts/steam-dasturi-asosida-darsliklar-yaratishda-koreya-tazhribasidan-foydalaniladi_349509
3. Cənubi Koreyada STEAM.
<https://www.muallim.edu.az/news.php?id=22379>
4. STEAM-подход в образовании_Елена Годунова.pptx

TALABALARNI MANZARA KOMPOZITSIYASINI ISHLASHGA O‘RGATISHNING AYRIM MASALALARI

N. Talipov – Nizomiy nomidagi TDPU, Tasviriy san’at kafedrasida dotsenti.

D. Egamberdiyeva – Nizomiy nomidagi TDPU 2-kurs magistranti.

D. Orifjonova – Nizomiy nomidagi TDPU talabasi.

Abstract. In the article, main practical recommends on drawing etudes are given. The peculiarities of individual methods using in this direction are explained.

Key concepts. Etude, arrangement, specify ratios, composition, the lows of perspective, relations of color and tint, constructive building, plastics, plein air.

Rezume. Maqolada manzara kompozitsiyasini ishlash bo‘yicha asosiy amaliy tavsiyalar berilgan, mazkur yo‘nalishda qo‘llaniladigan individual metodlarning xususiyatlari tushuntirilgan.

Tayanch tushunchalar: manzara, ranglavha, komponovka, nisbatlarni aniqlash, kompozitsiya, perspektiva qonunlari, rang va tus munosabatlari, konstruktiv qurilish, kolorit, plener.

Резюме. В статье даны основные практические рекомендации по выполнению композиции пейзажа, описаны особенности индивидуальных методов, применяемых в этом направлении.

Основные понятия: пейзаж, этюд, компоновка, выявление отношений, композиция, законы перспективы, отношения света и оттенка, конструктивное строение, колорит, пленэр.

Manzara tasviriy san’atning eng hissiyotli janlaridan biri hisoblanadi. Go’zal manzara asarlar o’zining nafosatli ta’siri bilan insonni ma’naviy boyitishga erishadi. Ona tabiat qo’ynida bo’lish ijodiy fikrlar tug’ilishi va ruhlanishni o’zgarmas manbai hisoblanadi. Rassom biror bir joyni tasvirlashda o’sha muhitni chuqur o’rganmay, tahlil etmay hayolan tasvirlasa bu ish soxta chiqib tomoshabinni

o'ziga jalb eta olmaydi. Muntazam ijod etish rassomni nozik sezishga va tabiatni ma'lum holatini rangli va tusli xususiyatlarini to'laqonli yetkazishga o'rgatadi.

Talabalarni tabiat va san'atdagi betakror go'zalliklarni ko'ra bilishi, onayurtga bo'lgan cheksiz muhabbatini orttirish orqali ularda manzara janrini tasvirlash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni anglashi, tushunishi va uning faol ishtirokchisiga aylanishi kabi muammolar o'z yechimini topishi zarur. Manzara janri ustida ishlash jarayonida talabalar uning oddiy qonuniyatlarini (chiziqli va havo perspektivasi, kolorit, kompozitsiya qonunlari) ham nazariy ham amaliy o'zlashtirib boradilar. Shu tarzda talabalarda yurtimiz tabiatiga, uning betakror qir-adirlari-yu, bog'u-roq'lari, hayvonot dunyosi va manzaralariga bo'lgan muhabbat hissi sekin asta uyg'onib boradi.

Manzara - tasviriy san'atning tabiat ko'rinishini aks ettiradigan san'at asaridir. Unda real, hayolan ko'z oldimizga keltirilgan joylar, shahar ko'rinishlari va hokazolar tasvirlanadi. Manzara tasviriy san'atning qadimiy janrlaridan bo'lib, tarixiy va maishiy asarlarda ham vosita-fon sifatida muhim rol o'ynaydi [4.-444].

Ayniqsa, talabalarni tasviriy san'atga bo'lgan kasbiy qiziqishlarini shakllantirishda manzara janri asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Dastavval, manzara mustaqil janr sifatida qadimgi Xitoyning o'rta asrlar tasviriy san'atida muhim o'rin tutadi. Yevropada esa manzara janri XVI-XVII asrlarda yaxshi rivojlangan bo'lsa, Rossiyada manzara janri XVIII asrga kelib rivojlandi. Xususan, Moskva, Sankt-Peterburg arxitektura yodgorliklari rassom F.E.Alekseev tomonidan yuksak mahorat bilan tasvirlangan [2. -26].

XIX asrning II yarmida realistik manzara janri gurkirab o'sdi. Bu davrda I.Shishkin, A.Savrasov, I.Levitan, V.Mashkov va boshqa rassomlar salmoqli ijod qilganlar.

O'rta Sharq san'ati, jumladan Xirot, O'rta Osiyo miniatyura san'atida manzara janri yuksak darajada namoyon bo'lgan. Ayniqsa, Kamoliddin Behzodning mo'jaz asarlarida manzara tabiat ko'rinishi yuksak mahorat bilan ishlangan [5.-43].

O'zbek manzara janrining haqiqiy rivojlanishi XX asrga to'g'ri keladi. Bu davrda dastgoh san'atida manzaraning nodir namunalari yaratildi. Shu davrda P.Benkov, O'.Tansiqboev, N.Karaxan, A.Mirsoatov va boshqa rassomlar o'z san'at asarlarida masalan, O'.Tansiqboevning "Issiq ko'l", "Ona o'lka", "Qayraqqum suv ombori", N.Qoraxonning "Nanay yo'li", "Sijjakda bahor", R.Temurovning Samarqand arxitektura manzara asarlarida tabiatga muhabbat va go'zallik sirlarini ochishda shakllantirdilar. Hozirgi vaqtga kelib ko'plab izlanuvchi iqtidorli rassomlar, jumladan A.Nuriddinov, O.Qozoqov, Z.Islomshikov, A.Mo'minovlar tabiatni madh etuvchi maftunkor manzaralarni chizib kelmoqdalar [3. -27].

Manzaraning bir qancha turlari mavjud: shahar (arxitektura), qishloq (tog'lar), sanoat (zavod, fabrika, me'moriy qurilishlari) manzara janrlari kiradi. Bularning

har bir negizida o'zgacha mazmun, g'oya yotadi. Masalan, shahar manzarasida, shahar hayoti, baland imoratlar, transport vositalari, oromgoh bog'lar, yer osti o'tish joylari, qishloq manzarasida bepoyon kenglik, qoya toshlar, yaylovlar, tog'lar, o'simliklar, jilvakor suvlar, ko'priklar o'quvchi yoshlarni o'ziga jalb qilishi tabiiydir. Lirik manzarada, tabiatdagi fasllar "Erta tong", "Bahor", "Oppoq qor", "Oltin kuz" kabi manzaralar tabiatning nozik, sokin go'zalligini uning uyg'onish holatini aks ettiruvchi, insonga quvonch baxsh etuvchi asarlarni ko'z oldimizga keltiramiz. Voqelik tasviri va inson atrofini o'rab olgan tabiat ko'rinishi manzarada o'z aksini topadi. Shu ma'noda manzara his-hayajonli ko'rinish va g'oyaviy mazmun kasb etadi[1. -28].

Talabalarni tasviriy san'atga kasbiy qiziqishlarini shakllantirishda manzara janri alohida ahamiyatga ega. Chunki tabiat qo'yniga chiqqan har bir talaba tabiatni o'zi bilganicha tasvirlashga intiladi. Tasviriy san'atda manzara ishlash jarayoni quyidagi amaliy mashg'ulotlar bajarilishini talab etadi:

- talabalarni manzara chizish jarayoniga bog'liq bo'lgan barcha kuzatishlari ulardagi boshlang'ich tasavvurlarini shakllantiradi;

- manzara ishlashda ufq chizig'i, ko'rish nuqtasi, ko'rish maydoni, havo perspektivasi, surat tekisligi, yorug'-soya qonuniyatlarini o'zlashtiradi.

Shu bilan bir qatorda tasvirlanayotgan ob'ektdagi shox-shabba va dov-daraxtlarning shakllari, hayvonot olamining anatomik tuzilishi xususiyatlari, tog'utoshlarning ko'rinishlarini haqqoniy obrazlarda tasvirlashni o'rganadilar. Bunday mavzuli tasvirlarni chizishda yilning har bir fasllarida turli materiallardan: al'bom, rangli qog'oz, akvarel bo'yog'i, oddiy qora qalam, rangli qalamlar, flomaster, rangli bo'rlardan foydalanib amalga oshiriladi.

Tasviriy san'at janrini talabalarga jonli yetkaza bilish uchun, ularni darsdan tashqari bo'sh vaqtlarida manzara chizish uchun nihoyatda qiziqarli syujet joyini tanlay bilishga o'rgatish alohida ahamiyatga ega. Manzaradagi asosiy narsalarni farqlagan holda avvaliga qog'ozga joylashtirish, keyin esa perspektivadagi ufq chizig'i, ko'rish nuqtasi, ranglar bilan ishlash, yorug'-soyalarni ajrata bilish, manzara ishlash jarayonini to'g'ri tanlay olgan holda ifodalash, qog'ozga manzara ko'rinishini joylashtirish, manzaradagi daraxtlar va o'simliklarga yorug'likni qanday tushishi hamda tabiatni erta tongdagi ranglarining tiniqligini tasviray olish lozim. Manzara ishlashda perspektiva va to'g'ri rang tanlash o'quvchilarning ijodiy tafakkurini hamda tasavvurining boyishiga olib keladi. Tabiat manzarasidagi kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bizni o'rab olgan go'zal tabiatni aks ettirishga bo'lgan urinishlar o'quvchilarda individual xususiyalarni shakllanishiga xizmat qiladi. Masalan, ufq chizig'ini to'g'ri tanlash, ranglarni to'g'ri bo'yash va h.k.lar.

Talabalar tasvirdagi kompozitsiyaning ta'sirchanligini oshirishda uning o'lchamlarini to'g'ri tanlashi kerak. Ayniqsa manzara chizish jarayonida

perspektivani va kompozitsion to'g'ri joylashtirishni hamda rangni to'g'ri tanlashi muhim. Manzara chizish jarayonida bo'yoqlar bilan ishlash murakkab jarayon hisoblanadi. Bo'yoqlar bilan ishlashni to'g'ri tashkil etish uchun zarur bo'lgan metodik tavsiyalar, zarur bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish kerak. Manzara chizish vaqtida ranglarning och-to'qligi, yorug'-soya, ranglarga tushayotgan yorug'lik ta'sirida bo'ladi. Yorug'likni ta'siri uzoqlashgan sari ranglar ocharib boradi, yaqinlashgan sari esa to'qlashib, yorqinlashib ko'rinadi.

Shuning uchun talaba yorug'lik ta'siriga berilib, rang tanlashda xato qilib qo'ymasligi zarur. Ba'zan, o'z xatosidan ranjib, o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotishi mumkin. Undan tashqari, ranglar fasllarga qarab ham och va to'q tusda bo'ladi. Ranglarni tabiatda issiq va sovuq tus ko'inishida deb ham yuritiladi. Misol uchun, tabiatdagi birorta daraxtni tasvirlashda uni birgina yashil bo'yoqda bo'yash noto'g'ridir. Chunki, daraxt rangi yorug'lik ta'sirida, soya ta'sirida, yon atrofdagi narsalar ta'sirida o'zgaradi. Shuning uchun daraxtga rang berayotganda boshqa xil ranglar aralashmasidan foydalana olishga talabani o'rgatish kerak.

Akvarelda ishlash talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shaklanishiga, rangni idrok qilish, badiiy didini tarbiyalashga hamda hajm va fazoviy kenglikni tasavvur qilishga yordam beradi. Talabalarni manzara chizishga o'rgatishda, ularni maktab hovlisiga yoki bog'larga olib chiqish kerak. Ochiq havoda (plener) rasm chizish sinf xonasida chizishdan keskin farq qiladi. Tabiat qo'yniga chiqilganda o'quvchi manzarani tasvirlash bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Bu muammo natijasida perspektivani, ya'ni ko'rinib turgan manzarani to'g'ri, yaxlit tasvirlashda havo perspektivasini ko'rsatib berish murakkabligi, rang tanlash qiziqarli motiv va kompozitsiyani topish mahoratini kuzatish mumkin.

Shunday qilib talaba yoshlarni tasviriy san'atga kasbiy qiziqishlarini shakllantirish uchun dastavval manzara janrini tanlash ko'zlangan maqsadga tezroq erishish imkonini beradi. Manzara janrini tasavvur qilishda uning rivojlanishi, tarixi ham alohida ahamiyatga ega. Talabalarga tabiat go'zalligini uning maftunkor jihatlarini tasvirlashni o'rgatish qanchalik maroqli ekanligini xis qilish mumkin.

Ayniqsa, manzara ishlash jarayonini amaliy mashg'ulotlar paytida bajarish maqsadga muvofiqdir. Talabalar manzara ishlashda ufq chizig'i, ko'rish nuqtasi, ko'rish maydoni, havo perspektivasi, surat tekisligi, yorug'-soya qonuniyatlarini o'zlashtirishlari shart. SHuning uchun tasviriy san'at janrlarini talabalarga jonli yetkazish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash joiz. Xususan, manzaradagi eng asosiy narsalarni farqlash, ularni avvalo qog'ozga joylashtirish undan keyingi jarayonlar ketma-ketligini esda saqlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'.M.Abdurahmonov «Kompozitsiya asoslari». -T.,- 2003.

2. B. Boymetov « Qalamtasvir». – T., Musiqa, 2006 y.
3. N. Tolipov, S. Abdirasilov, N. Oripova «Rangtasvir». -T., Musiqa, 2006.
4. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2003.-704 b. T.5. B-444.
5. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi.-T.: Fan, 1997. - 160 b.

SHAXS FAOLIYATIDA TABIIY FANLAR BO'YICHA INTEGRATSIYANI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Xashimova Xadiqaxon To'lkunovna – Farg'ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi.

e-mail: xoshimovaxadiqaxon@gmail.com, tel: (998) 99-367-97-29

Ushbu maqolada shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatida tabiiy fanlar bo'yicha integratsiyani tashkil etishning o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Unda tabiiy fanlardan turli o'quv materiallaridan foydalangan holda integratsiyani tashkil etish orqali o'quvchilarda bilim, ko'nikma, kompetensiyalarni shakllantirish yo'llari bayon qilingan. Shuningdek, tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyalari o'z ichiga oladigan bir qator ko'nikmalar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bilim, jarayon, kompetensiya, ko'nikma, savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, talablar.

Hozirgi globallashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi jihatidan ahamiyati kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talab va vazifalarni qo'ymoqda. Olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi yuksak marralarni zabt etish, mamlakatning rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o'rin egallashida bilimli, tajribali va teran fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlarning o'rni beqiyos. Bunday raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, sodda qilib aytganda, inson va uning salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug'vor vazifalar turadi.

Tabiiy fanlardan turli o'quv materiallaridan foydalangan holda integratsiyani tashkil etish orqali o'quvchilarda kimyo, geografiya, fizika fanlaridan o'zlashtirgan bilimlarini biologik obyekt, biologik jarayonlar bilan bog'lay olish ko'nikma va malakalari paydo bo'ladi.

Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g'oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog'liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi. Chunki tabiiy fanlar bo'yicha savodxon bo'lgan shaxs tabiiy

fanlar va zamonaviy texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi.

Tabiiy fanlar mazmuniga oid bilimlar o'quvchilarning fandagi asosiy g'oyalar va nazariyalar, jumladan, koinot tarixi va miqyosi, moddaning zarrachalardan tuzilganligi, evolutsiya haqida bilimga ega ekanliklari va tushunishlarini ifodalaydi. Fanning mazmuniga oid bilimlar deganda o'quvchilarning tabiat haqida fan tomonidan aniqlangan faktlar, qonuniyatlar, g'oyalar, nazariyalarni bilishlari tushuniladi. Masalan, o'simliklarning yorug'lik ta'sirida karbonat angidrid, suv va unda erigan mineral tuzlardan qanday qilib murakkab molekulalarni sintez qilishini bilish.

Tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyalari bir qator ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasiga quyidagi ko'nikmalar kiradi:

- o'quvchilarning tabiiy yo'nalishdagi (biologiya, kimyo, fizika) fanlaridan tegishli bilimlarni yodga olish va ulardan foydalanishlari;
- tegishli prognozlar qilish va asoslash;
- izohlovchi farazlarni taklif etish.

Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasiga oid ko'nikmalar quyidagilardir:

- berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usullarini baholash;
- ma'lumotlarning obyektivligi va ishonchliligini ta'minlashda olimlar tomonidan qo'llaniladigan usullarni tavsiflash va baholash;
- berilgan muammoni ilmiy tadqiq qilish usulini taklif etish;
- berilgan ilmiy tadqiqotda o'rganilayotgan muammoni aniqlash.

Ma'lumotlarni va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasiga oid ko'nikmalar quyidagicha:

- ma'lumotlarni tahlil va talqin qilish hamda tegishli xulosalar chiqarish;
- ma'lum bir ko'rinishdagi ma'lumotlarni boshqa ko'rinishda ifoda etish;
- ilmiy dalil va nazariyalarga asoslangan mulohazalarni ilmiy bo'lmagan qarashlardan farqlay olish;
- turli manbalar (masalan, gazeta, jurnal, internet tarmog'i) dan olingan ilmiy mulohaza va dalillarni baholash.

O'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish uchun quyidagi bilimlar zarur:

- fizik sistemalar (fizika va kimyo fanlari), tirik sistemalar (biologiya fani), yer va fazo sistemalari (geografiya, geologiya, astronomiya)ga oid fanlarining mazmunini bilish;

- ilmiy ma'lumot (bilim)lar olish uchun qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari, shuningdek, standart tadqiqot jarayonlarini bilishga doir metodologik bilimlar;

- epistemik bilimlar, ya'ni bizning ilmiy tasavvurlarimiz ilmiy tadqiqot metodlari imkoniyatlarini tushunishimiz natijasi ekani, shuningdek, faraz, gipoteza va kuzatish kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini bilish.

O'quvchilar fizik sistemalarga oid quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari talab etiladi:

– harakat va kuch (masalan, tezlik, ishqalanish) va masofadan ta'sir ko'rsatish (masalan, magnit kuchlari, yerning tortish kuchi va elektrostatik kuchlar);

– materiyaning tuzilishi (masalan, zarrachalarning modeli, bog'lanishlar);

– energiya va uning transformatsiyasi (masalan, energiyaning saqlanishi, tarqalishi, kimyoviy reaksiyalar);

– moddaning fizik xossalari (masalan, agregat holatining o'zgarishi, issiqlik va elektr o'tkazuvchanligi);

– moddaning kimyoviy xossalari (masalan, kimyoviy reaksiyalar, energiyaning o'zgarishi, kislotalar/asoslar);

– energiya va materiyaning o'zaro ta'siri (masalan, yorug'lik va radio to'lqinlar, tovush va seysmik to'lqinlar).

O'quvchilar tirik sistemalarga oid quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari zarur: hujayralar, organizmlarning tuzilishi, odamlar, populatsiyalar, ekosistemalar, biosfera kabilar.

XXI asrda insoniyat oldida turgan muammolar ilmiy tafakkur va ilmiy kashfiyotlarga asoslangan innovatsion yechimlarni talab etishi shubhasiz. Jamiyatga iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishda zarur bo'ladigan innovatsiyalarni rivojlantiradigan va ilmiy tadqiqotlar olib boradigan ilm egalari, olimlar kerak. Aytish mimkinki, tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik tayanch kompetensiya sanalib, tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy maqsadidir. Tabiiy fanlarga asoslangan bilim hamda ko'nikmalar har bir shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatida katta ahamiyatga ega, ilm-fan va unga asoslangan zamonaviy texnologiyalarni tushunish esa "yoshlarni hayotga tayyorlash"da markaziy o'rinni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2021. – 464 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 – 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-son qarori.

5. Tabiiy fanlar bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv dasturi.

6. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. – T.: RBIMM, 2008. – 68 b.

7. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: 2006. – 163 b.

8. Ziyomuxammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. T.:TIB-KITOV, 2009.

МАКТАБГА ТАЙЁРЛОВ ГУРУҲЛАРИДА КИТОБХОНЛИК КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ДЕМОГРАФИК ОМИЛЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

*Эшназарова Гулзода Журақуловна – Ўзбекистон-Финляндия педагогика
институтини ўқитувчиси. gulzoda.juraqulovna@mail.ru*

Аннотация: Ушбу мақолада мактабга тайёрлов гуруҳи тарбияланувчиларида китобхонлик кўникмаларини таркиб шакллантиришда демографик омилларнинг аҳамияти ҳақидаги маълумотлар баён этилган.

Калит сўзлар: китобхонлик, китоб мутолааси, мактабгача таълим, китобхонлик кўникмалари.

“Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Президент Қарорида “мактабгача таълим муассасаларини замонавий ўқув-методик материаллар ва бадиий адабиётлар билан тўлдириш; мактабгача ёшдаги болаларнинг ҳар томонлама интеллектуал, ахлоқий, эстетик ва жисмоний ривожланиши учун шарт-шароитлар яратиш; мактабгача таълим тизимида илғор педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш” каби катор вазифаларнинг белгиланиши мактабгача тайёрлов гуруҳи тарбияланувчиларида китобхонлик кўникмаларини мақсадли таркиб топтириш ва бу жараёнда демографик омиллар билан боғлиқ масалаларни кўндаланг кўяди.

Авваллари кичик ёшдан китобга қизиқиш уйғотиш усуллари хусусида ижтимоий-маданий тарбиянинг илк босқичи саналган мактабгача таълим

тизимидан бошлаб аҳамият бериш зарурлиги тўғрисида кўп гапирилган бўлса ҳам, бироқ амалда бу масалага етарли даражада риоя қилинмас, китобхонлик маданияти тарбияси умумпедагогик тарбиянинг муҳим бўлаги эканлигига тегишлича эътибор қаратилмас эди. Бугунги кунга келиб таълим-тарбия олувчиларни китоб ўқишга мажбурлаш ёки мазмунини сўзлаб беришни талаб қилиш билан китобхонлик кўникмаларини шакллантиришга эришиб бўлмаслиги, мутолаага нисбатан бундай ёндашув уларни фақатгина бадий адабиётдан узоклаштириши, чинакам санъат асарларининг жозибасини туйишдан маҳрум қилиши мумкинлиги аён бўлиб қолди.

Шу боис сўнгги йилларда республикамизда мактабгача таълим тизимидан бошлаб маънавий тарбиясини китобхонлик маданиятини таркиб топтириш орқали юксалтириш бўйича турли ислохотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, мактабгача таълимга қўйиладиган Давлат талабларига мувофиқ ишлаб чиқилган “Илк қадам”, “Болажон” таянч дастурлари, мазкур дастурлар асосида махсус адабиётларнинг яратилиши ёки “Мактабгача таълим муассасаларида кичик кутубхона яратиш, унинг фаолиятини ташкил этиш ва болалар адабиётидан самарали фойдаланиш бўйича йўриқнома”лар ишлаб чиқилганлигини соҳа фаолиятини давр талаблари асосида модернизация қилишнинг яққол намунаси сифатида баҳолаш мумкин.

Мактабгача таълим ташкилотлари тарбияланувчиларида китобхонлик кўникмаларини таркиб топтиришда дастлаб уларнинг эҳтиёж ва қизиқишлари аниқланиши, сўнгра мутолаага рағбат уйғотилиши мақсадга мувофиқ. Масалан, баъзи болаларнинг қушларга, баъзиларининг ҳайвонлар ҳаётига ёхуд яна бошқаларининг техника оламидаги янгиликларга қизиқишларини ҳисобга олган ҳолда китоб танлаш, бадий асарларни жанр ва тарбиявий аҳамияти, болаларнинг ёш, индивидуал, ҳатто гендер хусусиятларига кўра ўрганиш, сўнгра таълимнинг самарали шакл ва воситаларини белгилаш кўзланган натижани бериши мумкин.

“Тараққий этган хорижий мамлакатларда, – деб ёзган эди бу борада таниқли болалар ёзувчиси Худойберди Тўхтабоев, – китобхонлик фан даражасига кўтарилган. Китобхонлик китобни тарғиб қилишнигина эмас, балки китоб ўқишни, ўқиладиган китобни танлай олишни, мағзини чақишни, яъни китоб ёрдамида ўзини англашни ўргатади”.

Дарҳақиқат, китобхонлик кўлига тушган асарни эмас, балки эҳтиёж, қизиқиш, дид ва тафаккур даражасида танлаб ўқиш ва ўқиганларини уқиш ҳам демакдир. Шу боис бу борадаги дастлабки иш ёш ривожланишини даврларга бўлиш, онтогенезнинг илк босқичларида боланинг психик ривожланишига хос хусусиятлар, ички регуляцияси таркибига кирувчи эҳтиёж, қизиқиш ва мотив тушунчалари нима эканлиги, уларнинг бола ҳаётидаги аҳамиятини белгилаш

хамда масаланинг педагогик жиҳатларига эътибор қаратилиши мақсадга мувофиқ.

Психология фанида мактабгача даврдаги боланинг шахс сифатида шаклланиши уч босқичга ажратилади.

Биринчи босқич 3–4 ёшни ўз ичига олади. Мазкур давр болада эмоционал жиҳатдан ўз-ўзини бошқаришнинг мустақамланиши билан кечади.

Иккинчи босқич 4–5 ёшгача бўлган даврга тўғри келади. Бунда, асосан, болада ўзини ахлоқий жиҳатдан бошқариш сифатлари таркиб топа бошлайди.

Учинчи босқич 6–7 ёшни қамраб олади. Болада ишбилармонлик, ўз-ўзини англаш, шахслик хусусиятларининг таркиб топиши айнан шу даврнинг характерли жиҳатидир. Бундан биринчи ва иккинчи босқичлар кичик ва ўрта боғча ёшига, учинчи босқич эса катта боғча ёшига тўғри келиши аёнлашади.

Мактабгача ёшдаги давр мобайнида содир бўладиган ўзгариш ва қийинчиликлар боланинг идроки, фикрлаш тарзи, хотираси қатори ўз хатти-ҳаракатларини бошқаришни йўлга қўйишни ҳам талаб этади. Бола шахсининг ривожланиши унинг атроф-муҳитни аста-секинликда англаб бориши ва ўз ўрнини ҳис қилишини англатади. Шу сабабли хулқ-атворидаги ўзгаришлар таъсири остида бола муайян ҳаракатларни амалга оширади. Яқин инсонларининг таъсири болани уларга тақлид қилишга, одатларини ўхшатишга, одамлар ҳақида, нарса-ҳодисаларга нисбатан фикрларини ифодалашга мойиллик уйғотади. Бу даврда нутқининг жадал ривожлана бошлаши боланинг ўз билганларини мустақамлашига, ўзи билган эртак, қўшиқ ёки шеърларни қайта-қайта эшитишга эҳтиёж сезиши билан уйғунликда кечади. Бундай такрорлардан зерикмаслиги эса шу даврдаги болаларга хос айрича хусусиятдир.

З.Иброҳимова тўғри қайд этганидек, “Боғчаларда тарбияланаётган болалар ҳали мактабга бормай туриб, оқилона ҳаракат қиладиган, теварак-атрофни мустақил кузатадиган, катталар юмушига қарашадиган, равон сўзлаб, фикр юрита оладиган, бирмунча билим ва малака орттирган бўлади. Боланинг ана шундай даражага етишида, хусусан, унинг жисмоний, ақлий ва ахлоқий камолотида, халқ, Ватан олдидаги бурчни тушунишда, гўзалликни ҳис қила олишида, хунук нарсалардан жирканиб, ёмонлик ва ёвузликдан нафратланишида уларга боғчада, оилада ўргатиладиган бадий асарлар жуда катта роль ўйнайди”.

Ҳақиқатан ҳам, бола шахсининг шаклланишига таъсир кўрсатувчи муҳим омиллардан бири бу бадий адабиёт намуналаридир. Бу даврда ўзлари яхши кўрган яқин кишилари томонидан айтиб берилган эртак ёки ҳикоялардаги персонажларнинг хатти-ҳаракатлари, гап-сўзлари, ўзларини тутишлари, бошқалар билан муносабатлари-ю саргузаштнамо воқеа-

ходисалар бола тасавурида тамомила янги қиёфа касб этади. Сюжетдаги муҳим нуқталар ёки қаҳрамонлар характеридаги ижобий сифатлардан ўрناق олиши натижасида болада эзгу фазилатлар куртак ёза бошлайди, болаларча орзу-истаклар (сеҳргар бўлиб қолиш, фазога учиб, ерости салтанатига саёҳат қилиш) уйғонади, мақсадли хатти-ҳаракатлар (катта-кичikka ёрдамлашиш, жониворларга ғамхўрлик ва ҳ.к.) амалга оша бошлайди. Аксинча, қилмишлари ёвузликлардан иборат қаҳрамонларнинг ҳалокат билан яқунланган қисматлари мисолида эгрилик, ноҳақлик, ёлғончилик каби зарарли одатларга нисбатан дастлабки иммунитет шакллана бошлайди.

Китобхонлик кўникмаларини таркиб топтиришда болаларнинг бадиий асар мазмунини идрок қилиш, сюжет чизиғидаги воқеа-ҳодисаларни тасаввур этиш, хотирада сақлаш каби психологик; нутқий аъзоларининг ривожланиши билан боғлиқ физиологик хусусиятлари, шунингдек, миллий қадрият ва анъаналар ҳам ўзига хослик касб этади. Айниқса, матн мазмунини тушуниш, образлар моҳиятини англаш, эстетик завқ-шавқнинг юзага келишида асарнинг идрок қилиниши билан боғлиқ жараёнлар муҳим ўрин тутди. Алоҳида таъкидлаш жоизки, сўнгги йилларда ғарб тадқиқотчилари томонидан истеъмолга киритилган “эртақ ёши” атамаси боланинг неча ёшидан бошлаб эртақларни идрок эта олиши масаласига қаратилганлиги билан ўзгачадир. Бизнингча, эртақларни ўрганишда асар матнининг ҳажми, тилининг содда, тушунарли, оз сўзга кўп маъно юкланганлиги, ундаги миллий колорит, халқнинг турмуш тарзи ва тафаккур даражаси, интилишилари, орзу-ўйлари каби жиҳатларни ёдда тутиш ҳар бир ёш даврида боланинг ақлий ривожига ўз таъсирини кўрсатади.

Мактабгача таълим ташкилотлари ўрта ва катта ёшлилар гуруҳидаги болалар меҳнатсеварлик, ростгўйлик, меҳрибонлик, оқкўнгиллик каби ғоялар улуғланган эртақларга катта қизиқиш билан қарайдилар. Бу ёшдаги болаларга мос эртақларнинг асосий хусусияти антропоморфизм характердалиги, яъни ҳайвонларнинг худди одамлардек “сўзлашиши”дир. Антроморфизм (грекча – одам, шакл) ёки шахслаштириш деб одам бўлмаган мавжудот ёки мавҳум нарсаларни одамсимон ёки одам хулқига эга қилиб тасвирлашга айтилади. Масалан, антропоморфик асар ва қарашларда шамол, ёмғир каби табиат ҳодисалари, худо ёки ватан каби мавҳум концепциялар одам каби фикрлаб, суҳбатлашади.

Бундай шакл ва мазмундаги эртақлар болалар учун жуда севимли бўлиб, ҳар вақт уларни қизиқиш ва ҳайрат билан эшитадилар. Ҳайвонлар ҳақидаги эртақлар уларда вазиятга нисбатан турли муносабатларни юзага келтиради, образларга нисбатан хуш ёки нохуш туйғуларни уйғотади. Масалан, ҳамиша кўнгилсизликларга ўралашиб юривчи бўри ёки хийла-найрангга эш айёр

тулки, ишѣкмас ниначи ѳки дангаса чигиртка каби образлар болаларга унчалик маъкул келмайди. Уларга, асосан, шер, йўлбарс, от, ит каби кучли ва вафодор; сигир, эчки, хўроз, чумоли каби беозор жониворлар образлари кўпроқ ѳқади. Бу даврда болаларда лақмалигидан ҳамиша панд еб юрадиган бўри, манфаати йўлида айёрликлардан тоймайдиган тулки, ўзини ботир қилиб кўрсатадиган мақтанчоқ куён каби эртак қаҳрамонлари хатти-ҳаракатлари юзасидан саволлар туғила бошлаши мазкур жанрдаги асарларнинг тарбиявий таъсири ҳамда тафаккуридаги эврилишлар натижаси дейишга асос бўлади.

Катта ёшлилар ва тайёрлов гуруҳларидаги болалар эртак ѳки ҳикоя эшитаётиб, ким яхши-ю нима ёмонлигини аниқлашга ҳаракат қиладилар, ҳатто жонсиз предметларнинг баъзан ота-оналар ѳки тарбиячилар унчалик эътибор ҳам қилавермайдиган баъзи жиҳатларини синчковлик билан илғаб, ўзларича баҳолашга интиладилар. Масалан, “Зумрад ва Қиммат” эртагидаги Зумраднинг адашиб, ўрмонда ёлғиз ўзи қолганида: “Қоронғи ўрмон Зумрадга ваҳима солди” ѳки “Гуллар жуда яхши экан. Улар Зумраднинг йўлини ёритиб борди” тарзидаги фикрларни билдиришиболаларга хос зийраклик, ўткир нигоҳ ва мустақил тафаккурнинг илк кўринишидир.

Бу каби жиҳатлар уларда қаҳрамонларнинг қувонч ва шодликларини ҳис қилиш ѳки бошига тушган оғир вазиятларга нисбатан ачиниш, дарддошлик туйғуларини ҳам тарбиялайди. Қаҳрамонлар (жасур, кўркмас; саранжом, окила)га ўхшаш, улар каби имкониятлар (учар гилам, сирли сандик, сеҳрли кўзгу)га эга бўлиш истаги болада дастлаб орзу-ҳаваслар негизида пайдо бўлса, кейинчалик мантиқан фикрлаш, тасаввур қилиш орқали келгусидаги амалий фаолиятига кенг йўл очади. Е.Мельникова тўғри қайд этганидек, “Меҳнат ва фаолият жараёнида тасаввур пайдо бўлди ва ривожланди. Ҳеч нарса қилмасдан олдин, инсон нимани амалга ошириш кераклигини, қандай қилиб бунинг амалга оширилишини, нарсанинг нимага ўхшашлигини англашга уринади. Бу эса инсон миясида жойлашган асаб толаларига ўзаро таъсир қилиб, унинг меҳнат фаолиятига киришишига ёрдам беради. Тасаввур ҳақиқатдан ажралишдир. Бирор киши баъзида ҳали кўрилмаган нарсаларни тасаввур қилади. У ҳали мавжуд эмас, аслида бор эмас, балки ташқи дунёда объектив ҳақиқатда тасаввурнинг манбаидир”.

Демак, теран дунёқараш, бой тасаввур, юксак дид ҳамда гўзал ахлоқ тарбиялашга қаратилган фаолият замирида асл санъат асарларига бўлган эҳтиёж ва қизиқишлар ётади.

Хулоса қилганда, мактабдаги ўқишнинг илк кунидан бошлаб мустақиллик ва ижодкорлик билан боғлиқ қобилиятларини кўрсатиш талаб қилинар экан, бадий асарлардаги ҳаёт мисолида боланинг эзгулик ва ёмонлик каби қарама-қарши тушунчалар моҳиятини тушуна бошлаши, қаҳрамонларга

ишониб яшаши ўзини-ўзи тарбиялашига муҳим восита вазифасини ўтайди. Демак, бу болаларда юксак маънавият, интеллектуал салоҳият ва эстетик дидни тарбиялашда бадиий адабиётнинг ўрни муҳим деган хулосани шакллантиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари асосида ишлаб чиқилган “Болажон” давлат дастури. – Тошкент: 2010.
2. Миржалилова С.С, Грошева И.В, Нишанова М. Мактабгача таълим муассасаларида кичик кутубхона яратиш, унинг фаолиятини ташкил этиш ва болалар бадиий адабиётидан самарали фойдаланиш бўйича йўриқнома .
3. Тўхтабоев Х. Болалар адабиёти ҳақида. – Тошкент, Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1992 йил 15 февраль.
4. Иброҳимова З. Кичкинтойлар адабиётининг хусусиятлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 3 б.
5. Мельникова Е. Психологическое сопровождение развития творческого воображение в условиях современного обучения: Автореф. дисс. канд. псих. наук. – Алматы, 2011. – С. 11.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI ERKIN FIKRLASHGA O‘RGATISHNING AHAMIYATI.

N.B.Valiyeva – Asaka tuman 12-umumta‘lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ayni davrda o'quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda ularda erkin fikrlashni tarbiyalash zarurligi mutlaqo ravshan bo'lib qoldi. Bola faoliyati erkin bo'lsa, hurrligiga dahl qilinmasa, unda shaxsga hurmat tuyg'usi paydo bo'ladi. Fikrlashni tarbiyalash muayyan moddiy, pedagogik sharoitlarni talab qiladi. Mustaqil fikrlovchi birinchidan, borliqni kuzatish, his qilish, idrok etish imkoniyatiga ega bo'lmog'i zarur, ya'ni jismoniy ruhiy sog'lom bo'lmog'i kerak.

Kalit so'zlar: erkin fikrlash, shaxs, ruhiy erkinlik, mustaqil fikrlash.

Hozirgi davrda ta'lim sohasida eng muhim vazifalar eskirgan tamoyillar va bir qolipdagi o'qitish metodlaridan voz kechib, zamon talablariga javob beradigan yangi yo'nalishlarni izlashni taqozo etmoqda.

O'qitishning eng samarali yo'li - mashg'ulotlarda o'quvchilarning haqiqatni bilishga, fikrlashga, erkin muloqotga, hamkorlikka intilishidir. Darslarda bu ruh bo'lmasa, bunday mashg'ulotlar jonsiz, zerikarli va samarasiz bo'ladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogic mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuvni talab etadi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchi shaxsiga mos metodlarni qo'llay olmasa, o'quvchi shaxsini o'zgartirish uchun sharoit yaratilmasa, uning tarbiyasida chekinish yuz beradi.

Ayni paytda o'qituvchi oldida mas'uliyatli va mashaqqatli vazifa-o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish hamda ijodiy fikrlashni shakllantirish turibdi.

Ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta'lim berish jarayonini sifat jihatidan takomillashtirishni talab qilmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda mehnat bozorida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash uchun o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirish muhim ahamiyatga ega va rivojlangan mamlakatlar tajribasida isbotlangan.

O'zbekistonning to'la mustaqil bo'lishida fuqarolarning ruhiy va fikriy mustaqilligi muhim kasb etadi. Shuning uchun ham jamiyat a'zolarini, ayniqsa yoshlarni mustaqil fikrlay olishga o'rgatish bugungi kunda o'ta dolzarb masala bo'lib turibdi. Yoshlarni tashabbuskor kishilar sifatida tarbiyalash, ularni nostandart fikrlashga odatlantirishda ta'lim tizimi alohida o'rin tutadi.

Hozirgi paytda milliy pedagogikaning asosiy diqqati tarbiyalanuvchi shaxs ma'naviyatini kamol toptirishga, uning o'ziga xos tarzda fikrlaydigan, mustaqil xulosalarga kela oladigan, ijodkor, tashabbuskor, mas'uliyatni zimmasiga olishdan cho'chimaydigan faol inson qilib shakllantirishga qaratilgan.

Insonning tuyg'ular olami, hissiyotlar dunyosi erkin bo'lmas ekan, o'qituvchi yoki o'zga kishining tazyiqlaridan, zo'ravonliklaridan hayiqib turar ekan, u hech qachon mustaqil fikr aytolmaydi.

Hissiyotlariga daxl qilinmagan odamdan erkin fikrlay oladi, o'z fikrini asoslay biladi, uni himoya qila oladi. Erkin fikrlashga o'rgatish zarurati, qolaversa mustaqillikni mustahkamlash ehtiyojini ko'zlab, xalq ruhiga singib qolgan mute'lik, jur'atsizlik kabi illatlarni tugatish, shuningdek serandishalik, kattalarga ko'r-ko'rona itoat qilish, sabrtoqatlilik kabi fazilatlarni ongidan chiqarish lozim edi.

Ushbu masalalarni hozirgi kunda bevosita aloqador muassasalar, shaxslar hisobga olib, tarbiyalanuvchiga bo'lgan munosabatni o'zgartira boshladilar va ta'lim jarayonining pirovard erkin fikrlash va ma'naviyat ekanini tushunib yetdilar. Eng

muhimi, mustaqil fikrlaydigan o'quvchi shunday sifatga ega bo'lmagan sinfdoshidan farqli o'laroq barcha narsani maqsadi bilishga qiziqdi, ta'lim jarayonidan zavqlandi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchi erkin va mustaqil fikrlashning usul va yo'llarini egallaganda o'quv materialini tez idrok etadi, puxta o'zlashtiradi. Dars mashg'uloti bilan qanoatlanmay qoladi. Sinfdoshining fikrlashiga xalal beruvchi nojo'ya xatti-harakatlaridan ranjiydi.

Ayni paytda fikrlashga o'rganmagan o'quvchi fikrlaydigan sinfdoshi oldida ojizligidan iymanadi, iztirob chekadi, turli salohiyatdagi o'quvchilardan tashkil topgan guruhda ishlashdan esa o'qituvchi tez toliqadi.

Bunday holatlar esa sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi, qobiliyatiga qarab guruhlashga taqazo qiladi. O'quvchilar ishining yuqori samaradorligini asosiy sharti, tashabbuskorlik va faolligini vujudga keltirish ular faoliyatlarini vujudga keltirish ular faoliyatlarini baholashdan iboratdir.

Ba'zida o'qituvchilar, o'quvchilar qobilyatini yaxshi bilaman deb o'ylaydilar va shuning uchun biri biriga baho qo'yishi mumkin, bu yerda shaxsiy bilim va mashqlarni bajara bilishliklarini tekshirmaydilar, ayniqsa, axborot va o'rganuvchi asosiy vazifa tomonlarini yoddan chiqaradilar. Bu vazifalar, aytilgan talablarni bajarish uchun darsda besh olti bolaga baho qo'yishni talab etadi.

Bundan tashqari, har bir darsda "sizlarga-barakalla! «Xammasi yaxshi bo'lyapti" Sizlar tezda o'rganib olasizlar! Yana biroz kuchaytirsalaring sizlar kuchli yengil, chiroyli bo'lasizlar degan so'zlari ishlatish maqsadga muvofiqdir. Bunday so'zlarni har dam ishlatmasdan nigoh tashlash, imo ishora ko'rsatish, luqma tashlashorqali izzor qilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat.- T.:2003.
2. Yuldashev J./."Ta'lim yangilanish yo'lida", - T.: O'qituvchi.2000.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM SIFATINI "LESSON-STUDY" METODIKASI ORQALI TAKOMILLASHTIRISHDA DEMOGRAFIK OMILLARNING O'RNI VA ROLI

Muradova Feruza Abdurazak qizi – A.Avloniy nomidagi pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti 1-bosqich tayanch doktoranti. Tel: +99 895 002-40-90, E-mail: feruzabonu_muradova@mail.ru

Annotatsiya: Lesson Study – bu o'quv jarayonidagi bilimlarni takomillashtirishga qaratilgan darsdagi tadqiqotning maxsus shaklini tavsiflovchi

pedagogik yondashuvdir. Shu maqsadda “LESSON-STUDY” metodikasi orqali ta’lim tizimini yanada rivojlantirish zarur deb hisoblaymiz.

Kalit soʻzlar: LESSON-STUDY, tadqiqot, oʻqituvchi, oʻquvchi, dars jarayoni, model.

Аннотация: Lesson Study – педагогический подход, описывающий особую форму исследования на уроке, направленную на совершенствование знаний в образовательном процессе. Для этого мы считаем, что необходимо дальнейшее развитие системы образования по методике «УРОК-ИЗУЧЕНИЕ».

Ключевые слова: LESSON-STUDY, исследование, учитель, ученик, учебный процесс, модель.

Annotation: Lesson Study is a pedagogical approach that describes a special form of research in the lesson aimed at improving knowledge in the educational process. For this purpose, we believe that it is necessary to further develop the education system through the "LESSON-STUDY" methodology.

Keywords: LESSON-STUDY, research, teacher, student, teaching process, model.

Lesson Study - bu o'quv amaliyoti sohasidagi bilimlarni takomillashtirishga qaratilgan darsdagi harakatdagi tadqiqotning maxsus shaklini tavsiflovchi pedagogik yondashuvdir. Yondashuv 19-asrning 70-yillarida Yaponiyada paydo boʻlgan boʻlib, Gʻarbda qoʻllanilgan “Harakatdagi tadqiqot” yondashuvidan qariyb 70 yil avval paydo boʻlgan. Lesson Study o'qituvchilar guruhlarini hamkorlikda rejalashtirish, o'qitish, kuzatish, o'rganish va o'qitishni tahlil qilish va ularning natijalarini hujjatlashtirishni o'z ichiga oladi. Lesson Study tsikli davomida o'qituvchilar pedagogik yondashuvlarni yangilashlari yoki takomillashtirishlari mumkin, keyin ular ochiq Lesson Study o'tkazish yoki ularning ishlarini tavsiflovchi hujjatni nashr etish orqali hamkasblariga o'tkaziladi. G'arbda Lesson Study amerikalik tadqiqotchilar tomonidan yapon o'qituvchilari umuman pedagogika sohasida ham, o'qitiladigan fan bo'yicha ham chuqur bilimga ega ekanligi tasdiqlanganidan keyin faqat joriy asrda mashhur bo'ldi. o'xshash guruhlarga nisbatan yapon talabalarining ta'lim yutuqlari darajasi AQSh talabarlari (Stigler va Hiebert, 1999; TIMSS., 1999). Hozirgi vaqtda Sharqiy Osiyoda Lesson Study Yaponiyadan tashqari Singapur, Gonkong va Xitoyda qo'llaniladi. Ushbu yondashuv G'arb mamlakatlarida, jumladan AQSh, Buyuk Britaniya, Shvetsiya va Kanadada ham qo'llaniladi. Lesson Study boshlang'ich va o'rta maktablarda o'qitish usullarini takomillashtirish va o'quvchilarning asosiy fanlar bo'yicha bilimlarini yaxshilash, ta'limni baholash (ADL) kabi kontseptual pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Lesson Study sikli davomida guruhlarda (yoki juftlikda) ishlaydigan o'qituvchilar:

- har kuni to'playdigan davriy baholash materiallaridan o'rganish va o'quvchilar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini kelishish uchun foydalanadilar;

- belgilangan maqsadlarga javob beradigan, yanada rivojlantiriladigan yoki takomillashtiriladigan o'qitish uslubini birgalikda belgilab oling;

- har biri sinfdagi ma'lum bir o'quvchilar guruhining vakili bo'lgan uchta "o'quvchi" ni aniqlang, masalan: umumiy o'quvchilar sonida yuqori, o'rtacha yoki o'rtachadan past;

- Lesson Study metodologiyasi natijalarini uchta o'rganilayotgan talabalarni kuzatish natijalari kontekstida sinchiklab o'rganadigan Lesson Studyni birgalikda rejalashtirish;

- o'rganilayotgan talabalarni o'rganish va rivojlantirishga e'tibor qaratgan holda Lesson Study o'tkazish va ularni birgalikda kuzatish. Ushbu protseduralarni bir necha darslar davomida takrorlash va yaxshilash mumkin. Har bir Lesson Study uchun kuzatish talab etilmaydi;

- Lesson Study haqidagi fikrlarini tushunish uchun talabalar bilan suhbat;

- Lesson Study mavzusini muhokama qilish;

- o'rganilayotgan o'quvchilarning qo'llanilgan metodga munosabatini, erishgan yutuqlarini, ko'rsatayotgan ta'lim natijalarini yoki ular boshdan kechirgan o'rganishdagi qiyinchiliklarni, shuningdek, o'qitish yoki o'qitish usullarini ishlab chiqishda olingan tajribalarni tahlil qilish uchun. kelajak;

- Lesson Study yondashuvidan foydalanish natijalarini taqdimot, namoyish yoki murabbiylik orqali keng hamkasblar auditoriyasiga rasman taqdim etish. Ushbu bosqichlarning har biri bo'yicha batafsil tavsiyalar ushbu nashrning tegishli bo'limlarida keltirilgan va mualliflarning Angliya va xorijdagi maktab va kollejlarda Lesson Study yondashuvining ishlashi haqidagi bilimlariga asoslanadi.

Oxirgi ikki bo'limda maktab rahbarlari qanday qilishlari mumkinligi haqida g'oyalar mavjud:

a. Lesson Study uchun vaqtni rejalashtirish va ushbu yondashuvni maktab dasturlariga joriy etish;

b. Lesson Study asosida kasbiy ta'limni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun yetakchi o'qituvchilardan foydalaning va Lesson Study modelidan maktabda murabbiylik platformasi sifatida foydalaning.

Lesson Study maqsadi nima?

Lesson Study yondashuvi samaralidir, chunki u o'qituvchilarga yordam beradi:

- bolalarning o'rganishi odatda mumkin bo'lgandan ko'ra ko'p jihatdan va tafsilotlarda aniqroq isbotlanganligini ko'rish;

- o'qituvchining fikricha, bolalarni o'qitish jarayonida sodir bo'lishi kerak bo'lgan narsalar va haqiqatda sodir bo'layotgan narsalar o'rtasidagi farqni ko'rish;

- natijada o'quvchilarning ehtiyojlarini to'g'ri qondirish uchun o'rganishni qanday rejalashtirish kerakligini tushunish;

- Lesson Study yondashuvini o'qituvchilarning professional hamjamiyatida amalga oshirish, uning asosiy maqsadi o'quvchilarga guruh a'zolarini o'rganish va professional tarzda tayyorlashga yordam berishdir (Dudli, P. 2011a).

- O'qituvchilik amaliyotida Lesson Study imkoniyatlaridan foydalaning.

Lesson Study yondashuvi: mohiyati, qanday ishlaydi va undan kim foydalanadi.

Muvaffaqiyatli o'qituvchilar, aksariyat hollarda, sinfda sodir bo'layotgan voqealarning muhim qismiga, ehtimol, ko'p qismiga e'tibor bermaydilar. Bu kamchilik emas! Bu ularning muvaffaqiyatli o'qituvchi bo'lishiga yordam bergan jarayonlarning natijasidir. Keling, batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Sinf xonalari - bu mutaxassislar ishlashi kerak bo'lgan murakkab ish sharoitlari: sinfda taxminan bir soat ishlaydigan 30 yoki undan ortiq talabalar juda katta hajmdagi ma'lumotlarning tashuvchisiga aylanadi. Bu ma'lumotlarning o'qituvchiga yetib borish tezligi qanchalik katta bo'lsa, bu darsni yapon tili bilan aytganda, "tezda oqayotgan daryo"ga o'xshatadi (Lyuis, 1999). Tadqiqotchilar o'qituvchilarning ma'lum bir ma'lumot oqimi bilan qanday munosabatda bo'lishlarini va uni etkazib berish tezligini kuzatdilar. Wragg va boshqalar (1996) o'qituvchilar ishning dastlabki uch yilidagi qiyinchiliklarni yengib, yaxshi o'qituvchi bo'lishlarini aniqladilar, chunki ular har safar o'zlari uchun muammo bo'lgan o'quv vaziyatini boshqarishning yangi usulini topganlarida, ular darhol shu yo'lni o'zgartiradilar. qabul qilinadigan shaklga aylantiriladi, keyinchalik u shunga o'xshash vaziyatlarda intuitiv ravishda ishlatiladi. Bunday hollarda amaliy bilim ularning o'qituvchisi xabardor bo'lganligini tasdiqlamaydi va faqat velosiped haydash haqidagi bilimimizga o'xshash ko'zda tutilgan (yoki yashirin) bilimdir: bilim kerak bo'lganda paydo bo'ladi, lekin uni ifodalash juda qiyin. so'zda. Masalan, amaliy bilimlari eng mayda detallarigacha yozib olinadigan, boshqalarga uzatiladigan va keyin qayta ishlab chiqariladigan jarrohlardan farqli o'laroq, o'qituvchining amaliy bilimlari, qoida tariqasida, o'zida qoladi, chunki u bu bilimlarni amaliyot davomida olgan, lekin ko'pincha shunday qiladi. buni tushunmayapman. O'qituvchilar o'z sinflarida "yagona mutaxassis" sifatida avtonom ishlashga moyil bo'lganligi sababli, boshqa o'qituvchilar kamdan-kam hollarda hamkasblarining "ko'zda tutilgan" bilimlarini amalda ko'rish imkoniyatiga ega. O'qituvchining amaliyoti mutaxassis tomonidan nazorat qilinsa, baholash ko'pincha professionallik nuqtai nazaridan emas, balki uning ishining samaradorligini baholash, baholash yoki mulohaza yuritish kontekstida amalga oshiriladi, shuning uchun bunday vaziyatlarda o'qituvchilar tavakkal qilishga moyil bo'ladilar. va ko'proq "xavfsiz" o'qitishni namoyish eting.

Lesson Study ham tajribali, ham yangi boshlanuvchi o'qituvchilarni yaxshilashga yordam beradi. Chunki birgalikda rejalashtirish, birgalikda kuzatish, birgalikda tahlil qilish natijasida o'qituvchilarda ham ta'limga "birgalikda qarash" shakllanadi. Bu holda o'rganish jihatlari nafaqat o'z nuqtai nazarimizdan, balki Lesson Study tayyorlanayotgan hamkasblar ko'zi bilan ham ko'rib chiqiladi, buning natijasida Lesson Studyda kuzatilgan haqiqiy o'rganish o'rganish bilan taqqoslanadi. biz rejalashtirish jarayonida tasavvur qildik. Bu bizni biz odatda ahamiyat bermagan narsalardan xabardor bo'lishga undaydi, chunki ular biz tomondan "tekshirilgan" yoki nazarda tutilgan bilim sifatida saqlanib qolgan. Lesson Study yondashuvidan foydalanadigan ko'pchilik, o'zlari o'qiyotgan talabalarning o'rganish ehtiyojlari va xatti-harakatlariga urg'u berish va shu tariqa ko'proq o'rganish orqali ular o'z talabalarining har birining individualligini ma'lum darajada ko'proq bilib olishlarini ta'kidlaydilar. Shu sababli, kuchli va zaif o'quvchilar o'rtasidagi "o'rta" sinf uchun dars berishdan farqli o'laroq, Lesson Study o'qituvchilarga o'z tajribasini ikkinchi darajali ma'lumotlar bilan "ortiqcha yuklamalik" bilan birga, o'z amaliyoti davomida har bir talabaning ehtiyojlarini ko'proq bilish va hisobga olish imkonini beradi. Mening tadqiqotim (Dudli, 2011 b) shuni ko'rsatadiki, bu murakkab ta'lim ma'lumotlarini mustaqil ravishda to'plashga qodir bo'lgan tajribali o'qituvchiga faqat kerakli narsalarni tanlashda yordam beradigan Lesson Studying refleksi, rekursiv va hamkorlikdagi amaliyoti natijasi bo'lishi mumkin ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Bu nazorat qilish imkoniyatini, kuzatilgan o'rganish bilan bevosita bog'liq bo'lgan, aks holda foydalanish mumkin bo'lmagan o'rganish ma'lumotlarining ko'rinishini ta'minlaydi. Ishonamanki, Lesson Study yondashuvi o'qituvchilarga ushbu filtrlarni o'chirishni o'rganishga yordam beradi, garchi ularning avvalgi tajribasi ularni yoqish muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

Lesson Study o'tkazish

Lesson Study samarali ishlaydi, agar bu guruh hech bo'lmaganda bo'lsa boshqaruv vakillaridan biri bo'lardi va muhim o'qituvchilar o'qitish tajribasi. Guruh yig'ilishini o'tkazing. Kutilayotgan natijalarni aniqlash va asosiy qoidalarni belgilash guruh a'zolariga "tavakkal qilish" imkonini beradi ikkilanmasdan va o'zingizni his qilmang qattiq nazorat. Davom etayotgan Lesson Study barcha guruh a'zolari teng maqomga ega professional talabalar.

Muayyan maktab yoki sinf/yosh guruhi ehtiyojlariga asoslangan parametrlar to'plamini ishlab chiqing, masalan, guruh mashg'ulotlarida o'qitish uchun muhokamadan foydalanish tamoyillari va hokazo. Darsni rejalashtirish, kuzatish, tahlil qilish uchun umumiy Lesson Study formatlaridan foydalaning (misollar mumkin). foydalanish ushbu nashrda keltirilgan). Birinchi Lesson Studyni rejalashtirish uchun o'qituvchilarga ajratilgan vaqt (kamida bir soat) bering. Lesson Study davomida ularning vaqtlarini qadrlang va Lesson Studydan keyin darhol yoki

qisqa vaqt ichida muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'lishlariga ishonch hosil qiling. Jarayonga faol qiziqish bildiring. Lesson Study yondashuvini qo'llayotgan guruhga o'z natijalarini hamkasblariga taqdim etish uchun maxsus imkoniyatlarni taqdim eting (pedagogik maslahat, murabbiylik va boshqalar). Lesson Study yondashuvini amalga oshirish uchun keyingi guruhlarini tashkil qilish uchun guruh a'zolarini o'rgatuvchi guruh rahbarlari sifatida foydalaning.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Cordingley, P., Bell, M., Rundell, B., Evans, D., & Curtis, A. (2004). *How do collaborative and sustained CPD and sustained but not collaborative CPD affect teaching and learning?* London: EPPICentre, Institute of Education.
2. Department for Children, Schools and Families. (2008). *Improving practice and progression through Lesson Study: a handbook for headteachers, leading teachers and subject leaders.* London: DCSF.
3. Dudley, P. (2008). Lesson Study in England: from school networks to national policy. Presented at the World Association of Lesson Studies Annual Conference, Hong Kong Institute of Education.
4. Dudley, P. (2011) Lesson Study: what it is, how and why it works and who is using it, www.teachingexpertise.com
5. Dudley, P. (2012) Lesson Study in England: from school networks to national policy, *International Journal of Lesson and Learning Studies*, 1.1 pp 85-100
6. www.teachingexpertise.com

FIZIKA FANINI O'QITISHDA DEMOGRAFIK OMILLARNI HISOBGA OLISH

Elibayev Abdulhamid Bahrom o'g'li – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilmiy kashfiyotlarni amalga oshirish borasida fizika fanining imkoniyatlari, ulardan foydalanish usullari, ilmiy modelni aniqlash. Shuningdek, fanda ishlatiladigan uslublarni qo'llash, fizik hodisalarni modellashtirish orqali anglash bo'yicha atroflicha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: uslub, model, modellashtirish, fizik-matematik usul, kuzatuv uslubi, tajriba, fizik qonuniyat, modernizatsiya.

Abstract: In this article, the possibilities of physical science, methods of their use, and the definition of a scientific model are discussed in this article. In addition, detailed information is provided on the application of methods used in science, understanding of physical phenomena through modeling.

Key words: method, model, modeling, physico-mathematical method, observation method, experience, physical law, modernization.

Ilm-fan dunyosi kishilari aksariyat hollarda atrofimizni o‘rab turgan borliq haqida yuzaga kelgan savollarga javob berish maqsadida tadqiqotlarni rejalashtiradilar va amalga oshiradilar. Ushbu tekshiruvlar ko‘p hollarda tabiiy qonunlarni yuzaga chiqaradi. Bunday qonunlar koinotga xosdir, ya’ni bashariyat vakillari ularni yaratmagan. Shuning bilan birgalikda ularni o‘zgartirish ham ilojsizdir. Biz ularni faqat kashf etishimiz va tushunishimizgina mumkin, xolos. Sohaga oid olimlar tomonidan kashfiyotlarni amalga oshirilishi insoniyatga xos bo‘lgan qiziqishlar mahsulidir. Olam qonuniyatlarini kashf etishning asosi kuzatishdir. Ilm-fan olamni biz tasavvur qilgan yoki xohlagandek emas, balki qanday bo‘lsa shunday tasvirlash uchun xizmat qilishi juda muhimdir.

Barchamiz ma’lum darajada atrofimizni o‘rab turgan borliq sir-asrorlariga qiziqamiz. Biz atrofga qaraymiz, umumlashtiramiz hamda ko‘rganimizni idrok etishga intilamiz. Masalan, biz yuqoriga qaraymiz va bir turkum bulut yaqinlashib kelayotgan bo‘ron to‘g‘risida belgi berish yoki bermasligi haqida o‘ylab ko‘ramiz, albatta. Tabiatni tushunishga astoydil kirishganimiz sari, biz ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishda yanada tartibli va izchil bo‘lib boramiz. Biz aniqroq bo‘lishga harakat qilamiz, nazorat ostida tajribalar o‘tkazamiz (agar iloji bo‘lsa) va axborotlarni qanday shakllantirish mumkinligiga oid g‘oyalarni yozamiz. So‘ngra biz yig‘ilgan ma’lumotlar asosida modellar, nazariyalar va qonunlarni shakllantiramiz va bu natijalarni ommaga yetkazamiz. Bularning barchasi qisqacha qilib aytganda, olimlar kuzatish va eksperiment dalillari asosida ilmiy masalalarni hal qilishda foydalanadigan ilmiy usulni tashkil qiladi.

Kuzatuv-tekshiruv ishlari odatda olimning atrofni kuzatishi bilan boshlanadi. Olim borliqdagi naqsh yoki tendentsiyani kuzatadi. Kuzatish natijasida olim javob bermoqchi bo‘lgan savollar yuzaga kelishi mumkin. Keyinchalik, olim mavzu yuzasidan ayrim tadqiqotlar o‘tkazishi va gipoteza o‘ylab topishi mumkin. Gipoteza – bu tabiatdagi biror narsa qanday ishlashini tavsiflovchi sinovdan o‘tkaziladigan bayonot. Aslini olganda, gipoteza - bu kuzatish to‘g‘risida biror narsani tushuntirib beradigan tahminiy bilimdir[1].

Ilm-fan namoyondalari gipotezani tajriba o‘tkazish orqali sinab ko‘rishlari mumkin. Tajriba mobaynida olimlar bo‘lgan hodisa haqida bilib olishga ko‘mak beradigan ma’lumotlarni to‘playdi. So‘ngra tadqiqotchilar aksariyat statistik, matematik va yoki grafik usullardan foydalangan holda tajriba natijalarini (ya’ni ma’lumotlarni) tahlil qiladilar. Ma’lumotlarni tahlil qilish oqibatida ular ilmiy xulosalar chiqaradilar. Tadqiqotchilar o‘zlarining tajribalari orqali ilmiy taxminlarini asoslashlari yoki rad etishlari mumkin. Mabodo gipoteza isbotlansa, olim odatda u bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa ilmiy taxminni sinab ko‘rishni davom

ettiradi. Agar tadqiqotchilarning gipotezasi rad etilsa, ular o'rganayotgan narsalari haqida yanada ko'proq ma'lumot olishga intilishadi va yangi ma'limotlar oqibatida yuzaga kelgan boshqa gipotezani sinab ko'rishadi.

Ilmiy jarayonlardan ko'p holatlarda foydalanish mumkin. Jumladan, siz mashinangizni yoqishga harakat qilyapsiz, lekin u o't olmayapti. Siz hozirgina kuzatuv jarayonini amalga oshirdingiz. Sizda: "Nega mening mashinam ishlamaydi?" qabilidagi o'rinli savl paydo bo'lishi tabiiy. Endi ushbu savolga javob berish uchun ilmiy jarayonlardan foydalanishingiz mumkin. Dastlab, siz gipotezani yarataysiz. Masalan: "Mashinaning benzin idishida benzin yo'qligi bois ishlamayapti". Ushbu gipotezani sinab ko'rish uchun siz mashinaga benzin solib, uni qayta ishga tushirishga harakat qilasiz. Agar mashina harakatga kelsa, u holda sizning gipotezangiz tajriba orqali qo'llab-quvvatlanadi. Agar aksincha, mashina ishga tushmasa, sizning gipotezangiz rad etiladi. So'ngra sinov uchun yangi gipotezani o'ylab ko'rishingiz lozim bo'ladi.

Modellashtirish. Model – bu to'g'ridan-to'g'ri o'rganish juda mushkul (yoki imkonsiz) narsaning timsolidir. Modellar jismoniy modellar, tenglamalar, kompyuter dasturlari yoki simulyatsiyalar – kompyuter grafikolari, animatsiyalari ko'da bo'lishi mumkin[3].

Modellar ayniqsa zamonaviy fizikada foydali bo'lgan vositalardir, chunki ular odatda bizga sezgilarimiz bilan kuzata olmaydigan hodisalarni, masalan, juda kichik jismlar yoki yuqori tezlikda harakatlanadigan obyektlarni tasavvur qilish imkonini yaratadi. Masalan, biz atomni o'z ko'zimiz bilan ko'rmasdan turib ham, modellar yordamida uning tuzilishini tushunishimiz mumkin. Hozirda atomlarni ma'lum bir shakldagi tasvirlari mavjud bo'lsa-da, bu tasvirlarga erishish juda qiyin va faqat bizning modellarimiz muvaffaqiyati tufayligina erisha olamiz. Ushbu tasvirlarning mavjudligi bizning atomlar to'g'risidagi tushunchamizning manbai emas, balki natijasidir. Modellar har doim taxminiydir, shu bois real vaziyatdan ko'ra ularni ko'rib chiqish osonroq; model qanchalik murakkab bo'lsa, u shunchalik to'liq bo'lishi mumkin. Modellar orqali nomoddiy yoki o'ta murakkab narsalarni biz tasavvur qilishimiz, muhokama qilishimiz va faraz qilishimiz mumkin bo'ladi. Ilmiy modellar bajarilgan tajribalar natijalari asosida tuzilgan bo'lishiga qaramay, ko'pincha hodisani qisman yoki birmuncha cheklangan holatlarda tasvirlaydi. Ayrim hodisalar shu qadar murakkabki, hatto ularni kompyuter ko'magida ham to'liq modellashtirish imkonsiz. Jumladan, atom markazi atrofida elektronlar bulutsimon harakatlanadigan atomning elektron bulut modelidir, bu elektronni turli joylarda uchratish mumkinligini ifodalaydi[5]. Ushbu model bizga atom tuzilishini tasavvur qilishda yordam beradi. Ammo, u bizga elektronni bulut ichida ma'lum bir vaqtda qayerda bo'lishini aniq ko'rsata olmaydi.

Atomning elektron bulutli modeli atomda elektronlar bo'lishi mumkin bo'lgan turli maydonlarning geometriyasi va shaklini bashorat qiladi. Ammo, u elektronning bir vaqtning o'zida qayerda bo'lishini aniq ko'rsatib bera olmaydi.

Yuqorida aytib o'tilganidek fizik olimlar tenglamalar, fizik modellar, kompyuter simulyatsiyalari va boshqalarni o'z ichiga olgan turli modellardan foydalanadilar. Xususan, uch o'lchovli modellar ko'pincha kimyo va fizikada molekulalarni modellashtirish maqsadida keng qo'llaniladi. Tashqi ko'rinish yoki joylashuvdan boshqa xususiyatlar odatda matematika yordamida modellashtiriladi. Buda funktsiyalar bu xususiyatlar bir-biriga qanday bog'liqligini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Yulduz yoki sayyoralarning paydo bo'lishi singari jarayonlarni kompyuter simulyatsiyasi yordamida ham modellashtirish mumkin. Simulyatsiya haqiqiy eksperimental ma'lumotlar asosida to'g'ri dasturlashtirilgandan keyin, bizga o'tmishda sodir bo'lgan, juda tez yoki sekin sodir bo'lgan jarayonlarni to'g'ridan-to'g'ri kuzatish imkonini beradi. Bundan tashqari, olimlar kompyuter texnologiyalariga asoslangan modellar yordamida virtual tajribalar ham o'tkazishlari mumkin. Masalan, sayyora shakllanishi modelida, olim kosmosda mavjud bo'lgan jismlarning miqdori yoki turini o'zgartirishi va uning sayyora shakllanishiga qanday ta'sir qilishini ko'rishi mumkin[2].

Olimlar modellar va tajribalar natijalaridan o'z kuzatishlarni tushuntirish yoki muammolarni hal qilishning dizayn yechimlarini yaratish uchun foydalanadilar. Masalan, avtomobilni yonilg'i borasida tejamkor qilishning bir yo'li - harakatlanayotgan avtomobil atrofida havo oqimi sababli yuzaga keladigan ishqalanish yoki tortishni kamaytirishdir. Buni avtomobil skleti shaklini yanada aerodinamik qilib loyihalash, xususan, o'tkir burchaklar o'rniga yumaloq burchaklarni qo'llash orqali amalga oshirilishi mumkin. Ayni holatda muhandislar avtomobil korpusining fizik modellarini qurishi, ularni shamol tuneliga joylashtirishi va model atrofidagi havo oqimini tekshirishi mumkin. Buni kompyuter simulyatsiyasida ham matematik tarzda ham amalga oshirish mumkin. Havo oqimining sxemasini kuzatib silliq havo oqimi hududlar va tortishish yuzaga kelgan hududlarni tahlil qilish mumkin. Havo oqimining eng silliq naqshini (ya'ni, eng kam tortishish) hosil qilish uchun avtomobil korpusining modelini biroz o'zgartirish kerak bo'lishi ham mumkin. Eng kam tortishish namunasi avtomobilning yoqilg'i samaradorligini oshirish uchun yechim bo'lishi mumkin. Keyinchalik bu yechimni avtomobil dizayniga ham kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fizik hodisalarni o'rganish, ularga oid tajribalar o'tkazish uchun modellashtirish muhimdir. Yuqorida guvohi bo'lganimizdek, bugungu kunda turli fizik hodisalar uchun xilma-xil modellar ishlab chiqilgan. Ushbu modellarni o'rganish va qo'llash orqali yangi ilmiy xulosalar chiqarish

fiziklar uchun muhimdir. Modellarni modernizatsiyalash, yangi modellarni yaratish esa fizika fani rivojidadagi ustuvor vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nosirov M., Bozarov O., Yulchiev Sh. Fizikadan olimpiada masalalari. Toshkent: 2012.
2. Rizayev T., Ibragimov B. Fizikadan masalalar yechish metodikasi. Toshkent: 2015.
3. Chavchanidze V. V., Gelman O. Ya., Modelirovaniye v nauke i texnike, M., 1966; Usmonxo‘jayev H. H., Mexanizm va mashinalar nazariyasi, T., 1970.
4. Кузнецов А.П., Кузнецов С.П., Мельников Л.А. и др. 50 олимпиадных задач по физике. Саратов.: "Научная книга", 2006.
5. Чертов А.Г., Воробьев А.А. Физикадан масалалар туплами. Тошкент: «Узбекистон», 1997.

ЗНАЧЕНИЕ ДОШКОЛЬНОГО И НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ

Abduvaliyeva Mohira Mirzohid qizi – A.Avloniy nomidagi MTI magistri
E-mail: mohira0011@gmail.com +998971370011

Аннотация. В статье акцентируется внимание на вопросе о значении дошкольного образования в учебной жизни школьника в интеграции системы народного дошкольного образования и системы начального образования, раскрываются теоретические основы, история организации и задачи начального образования.

Ключевые слова: непрерывное образование, дошкольное образование, Фридрих Фребел, интеграция образования

Методы: абстракция, сравнительный анализ, научные выводы

THE IMPORTANCE OF PRE-SCHOOL AND PRIMARY EDUCATION IN ENSURING EDUCATIONAL INTEGRATION

Annotation. The article focuses on the issue of the importance of pre-school education in the student's academic life in the integration of the system of public education before school and the primary education system and reveals the theoretical foundations, history of the organization and tasks of primary education.

Key words: continuous education, pre-school education, Friedrich Froebel, educational integration.

Methods: abstraction, comparative analysis, conclusions

TA'LIM INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHDA MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM AHAMIYATI

ANOTATSIYA. Maqolada Xalq Ta'lim tizimi maktabgacha hamda boshlang'ich ta'lim tizimini integratsiya qilishda maktabgacha ta'limning o'quvchi akadem hayotida muhim bosqichlilik masalasiga e'tibor qaratilgan va boshlang'ich ta'limning nazariy asoslari, tashkil etilish tarixi va vazifalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, maktabgacha ta'lim, Fridrix Frobel, ta'lim-tarbiya uzviyligi.

Metodlar: abstraksiya, qiyosiy tahlil, ilmiy xulosa

Asosiy qism. Maktabgacha ta'lim - uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichi hisoblanib, u sog'lom, har tomonlama yetuk bola shaxsi shakllanishini ta'minlashga, uni muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlab, o'qishga bo'lgan havasini uyg'otishga qaratilgan. Bolalarning 6-7 yoshgacha bo'lgan davrda davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi hamda maktabgacha ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagilar ta'lim va tarbiyasining shaxsiy yo'nalganlik modeli ustuvor bo'lib hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim o'zi ichiga bola shaxsi asoslarini shakllantirish va bilishga doir qiziqishlarini, madaniy axloq-odob ehtiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, unda bilimga muhabbat uyg'otish, salomatligini mustahkamlash kabi vazifalarni oladi.

Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq davlat siyosatini negizida amalga oshiradi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, erta ta'limning paydo bo'lishiga asosiy sabab- yetim bolalar va fabrikada ishlaydigan ayollarning farzandlarini qarovsiz qoldirmaslik uchun ta'lim muassasalariga ehtiyoj seziladi. 1840 yilda Germaniyalik tarbiyachi-o'qituvchi Fridrix Frobel (1782-1852) tomonidan birinchi bolalar bog'chasiga asos solindi va u Dastlabki maktabgacha ta'lim muassasasini "kindergarten" deb nomladi. Bolalar bog'chasi so'zi nemis tilidan olingan bo'lib kinder - bolalar, garten – bog' degan ma'noni bildiradi va bu atama 19-asrga borib taqaladi[4]. Fridrix Frobel erta bolalik ta'limiga bo'lgan qarashlarini ramziy ifodasi sifatida: "Bolalar mayda gullarga o'xshaydi; ular xilma-xil va g'amxo'rlikka

muhtoj, lekin ularning har biri yolg'iz, go'zal va tengdoshlar jamoasida ulug'ayishi kerak''degan. Fredrix bolalar o'qituvchining rahbarligi ostida emas, balki o'z-o'zini boshqarish o'yinlari orqali erkin rivojlanishi va gullab-yashnashi mumkinligini islab berdi. Bolalar bog'chasi so'zi bolalar uchun bog' deb boshqa dunyo malakatlarida ham tarjima qilinadi. Bir parcha yer bolalar bog'chasining muhim qismi bo'lib, u bolalar tabiat bilan muloqot qilish, shuningdek, o'ynash, ekish, parvarish qilish, kuzatish va kashf qilish uchun joy edi.

Froebelning ta'lim falsafasi to'rtta asosiy g'oyaga tayangan edi. Uning g'oyasi negizida maktabgacha tarbiya targ'ib etish va bolalar bog'chalarini ommalashtirish yo'lida ulkan ishlarni amalga oshirildi. Bolalarning yoshlariga mos ravishda ishlash usullarini ishlab chiqish orqali maktabgacha tarbiya amaliyotini jiddiy boyitdi ko'plab mamlakatlarda bolalar bog'chalari maktabgacha tarbiya tizimida yetakchi o'rinni egalladi. Tarixida birinchi bo'lib, F.Frebel maktabgacha tarbiya ijtimoiy maktabgacha tarbiyaning yaxlit, uslubiy ishlab chiqilgan, amaliy qo'llanmalar bilan boyitilgan tizimini yaratdi. Ammo, Froebelning pedagogik yondashuvlari K.D. Ushinskiy, E.A. Flyorina, G.N. Vodovozova olimlar tomonidan tanqid qilindiva uning nazariyasida kamchiliklar ham bor degan fikr ilgari surildi. Bunga asosiy sabab, yuqorida nomlari sanab o'tilgan olimlar Froebelni bolaning hayoti didaktik material bilan chegaralananligi, bolaning hayoti haddan ziyod tartibga solingaligi hamda bolaning erkin ijodi cheklanganligi kabi fikrlar bilan tanqid qiladilar. Shunga qaramay, F. Froebel nazariya va amaliyotni birlashtirdi, uning maqsadi bolaning ijodiy salohiyatini namoyon bo'lishiga ko'maklashadigan sharoitni ta'minlovchi muhitni yaratish bo'lgan.

Dunyo olimlarining fikriga ko'ra, o'rganishning eng muhim yillari odam tug'ilgandan so'ng boshlanadi va bu bola hayotining dastlabki uch yili tilni o'zlashtirish, ijtimoiylashuv va o'rganishga munosabat uchun asos yaratishi juda muhimdir. Dastlabki yillarda va ayniqsa, dastlabki 3-5 yil ichida odamlar juda ko'p ma'lumotni o'zlashtira oladi. Miya birinchi yillarda eng tez o'sadi. Rivojlanishga mos dasturlarga ega yuqori sifatli va yaxshi tayyorlangan o'quv dasturlar va MTM bolalarning ta'lim natijalari ravnaqi uchun sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin [1].

Maktabgacha ta'lim o'z ichiga keng ko'lamlı o'zgarishlarni qamrab oladi va ko'pgina dunyo olimlari maktabgacha va maktab ta'limi uzviyligi borasida turli bilim hamda tushunchalarga e'tibor qaratadilar. Xususan, amerikalik psixolog va olimlar Arnold Sameroff va Marshall Haith maktabga o'tish yillarida bolaning xatti-harakati bo'yicha tadqiqotlar o'tzakadilar va ushbu davrni ular 5-7 yillik siljish : aql va ma'suliyat davri deb nomlashadi. Boshlang'ich sinfga kirishda bola psixologiyasida ko'gina o'zgarishlar bo'ladi va aynan shu bosqichni hech qanday ruhiy-jismoniy zo'riqishlarsiz o'tishi kelgusidagi muvaffaqiyatlar uchun muhim ahamiyatga egadir. Ta'lim va ijtimoiy muvaffaqiyatsizlikka uchragan bolalar

sonining ko'payishi bilan beshdan yetti yoshgacha bo'lgan davr psixologiya sohasida e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan masala hisoblanadi. Aynan Sameroff va Haith tomonidan yozilgan kitob maktabga o'tish yillarida bolalarning xatti-harakatlari bo'yicha eng zamonaviy tadqiqotlarni to'playdi [2].

Amerikalik olim-yozuvchi Christina Weiland hamda Hirokazu Yoshikawa o'zlarining "Bolalar bog'chasiga tayyorgarlik dasturining bolalarning matematikasi, tili, savodxonligi, ijro etuvchi funktsiyasi va hissiy qobiliyatlariga ta'siri" nomli asarida davlat tomonidan moliyalashtiriladigan bolalar bog'chalari dasturlari bolalarning kognitiv natijalariga katta ta'sir ko'rsatishi takidlanadi. Xususan, ushbu asarda bolalarda tizimli va izchil savodxonlik, til va matematika, hisoblash, atrof-muhitni tanish ko'nikmalarini rivojlantirishida MTM muximligi isbotlanib berildi. Siyosatchilar uchun tadqiqot natijalar bolalar bog'chasigacha bo'lgan dasturlar bolalar uchun ta'lim jihatidan muhim natijalarni mazmunli va muhim yo'llar bilan yaxshilashi mumkinligini tasdiqlaydi. Rossiyalik revolutsiyachi ayol Nadejda Krupskaya maktabgacha va maktab ta'limi orasidagi integratsiya muhimligini takidlab: "Agar biz bolalarning maktabgacha tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'ysak, biz maktabni yanada yuqori pog'onaga ko'taramiz[3]" degan edi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyasi va ta'limining afzalliklari haqidagi kuchli dalillarga qaramasdan, UNESCOning yangi ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 5 yoshli har to'rtta boladan 1 nafari hech qachon maktabgacha ta'limni olmagan. Bu butun dunyodagi 5 yoshli bolalarning 137 milliondan 35 millionini bildiradi. Dunyo miqyosida barcha mamlakatlarning faqat yarmi bepul maktabgacha ta'limni kafolatlaydi.

2020 yil 14-16-noyabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan UNESCOning Erta yoshdagi bolalar tarbiyasi va ta'limi bo'yicha butunjahon konferensiyasi har bir yosh bolaning sifatli tarbiya va ta'lim olish huquqini yana bir bor tasdiqlaydi va tug'ilgandan sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarga investitsiyalarni ko'paytirishga yordam beradi[3]. Mazkur xalqaro konferensiyada "Erta yoshdagi ta'limga sarmoya kiritish - barcha bolalarga hayotni adolatli boshlash va ta'limning mazkur boshqichida tengsizliklarga qarshi kurashish uchun mamlakat amalga oshira oladigan eng samarali investitsiyasidir. Bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlash, ularning hayot davomidagi ta'lim jarayonida ravnaq topishiga zamin yaratish juda muhim" ,-deb takidlagan UNESCO Bosh direktori Odri Azule.

Xulosa. Empirik dalilarga asoslanib shuni xulosa qilishimiz joizki, o'tish jarayonida maktab yoshidagi bolalarning MTM da olgan psixologik, kognitiv hamda ijtimoiy sohalardagi bilim va ko'nikmalari birinchi sinfga o'tish uchun muhim ko'priklarni bo'lib hizmat qiladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim jarayoni boshlang'ich maktabga o'tgan bolalarning akademik hayotida ahamiyatli rol o'ynaydi va o'quv hamda shaxsiy sohadagi rivojlanishlariga o'zini ijobiy ta'sir

ko'rsatadi. Bolalikdan sifatli tarbiya va ta'lim olish orqali erta yoshda va barcha yosh bolalar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash-ta'lim va turmushda ildiz otgan tengsizliklarni bartaraf etish yo'lidagi muhim birinchi qadam hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. The Early Years Framework/Scottish government. Edinburgh 2008.
2. The five to seven year shift by Arnold J. Sameroff and Marshall M. Haith/ University of Chicago Press 1996.
3. Impacts of a prekindergarten program on children's mathematics, language, literacy, executive function, and emotional skills by Christina Weiland and Hirokazu Yoshikawa/ USA 2013.
4. "Why is kindergarten called kindergarten?" article by Kevin Zoromski/Michigan State University Extension 2019.
5. MAKTABGACHA TA'LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISH. TOSHEVA NURZODA/ Buxoro -2022

TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TASHKIL ETISHDA DEMOGRAFIK OMILLARNING O'RNI VA ROLI

Botirov Jamshid Bahridin o'g'li – "Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar" universiteti Qarshi filiali talabasi. E-mail jamshidb102@gmail.com, tel: +998992044881

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Fan, ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsion hamkorlikni rivojlantirishda innovatsion uslublardan foydalanishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etishi, ilg'or xorijiy tajribalar asosida ilmiy tadqiqot samaradorligini fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi orqali takomillashtirishning samarali yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: takomillashtirish, yo'nalish, integratsiya, innovatsiya, korporativ hamkorlik, oliy ta'lim, fan, ishlab chiqarish, sifatli ta'lim

Abstract: The main directions of improving the integration of science, education and production in the higher education system of Uzbekistan are considered in the article. The importance of ensuring the use of innovative methods in the development of science, integration of producing and innovative cooperation, effective ways of improving the effectiveness of scientific research through the integration of science, education and production based on advanced foreign experiences are shown.

Keywords: improvement, direction, integration, innovation, cooperation, higher education, science, production, quality of education

Аннотация: В статье рассматриваются основные направления совершенствования интеграции науки, образования и производства в системе высшего образования Узбекистана. Показана важность обеспечения использования инновационных методов в развитии науки, производственной интеграции и инновационной кооперации, эффективных путей повышения эффективности научных исследований за счет интеграции науки, образования и производства на основе передового зарубежного опыта.

Ключевые слова: совершенствование, направленность, интеграция, инновации, корпоративное сотрудничество, высшее образование, наука, производство, качественное образование.

Demografiya so'zi yunoncha : demos — xalq grafiya-yozmoq — har yili turli sabablarga ko'ra vafot etgan aholi o'rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to'ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bog'lik holda o'rganadigan fan mamlakatimizda Oliy ta'lim tashkilotlarining pedagogik bo'lmagan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalari uchun ixtiyoriy ravishda o'zlashtiriladigan pedagogik tayyorgarlik modullarini ishlab chiqsin va amaliyotga kiritish, barcha oliy ta'lim tashkilotlarida axborot-resurs markazlari bazasida mavjud darslik, o'quv-uslubiy va boshqa qo'llanmalar raqamli formatga o'tkazilib, ularning elektron platformasi shakllantirilishini ta'minlash hamda ular bo'yicha raqamli yagona axborot qidiruv tizimini joriy qilish, har bir fan kesimida ma'ruza, amaliy (seminar) va laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ishlar bo'yicha elektron modullarni ishlab chiqilsin va amaliyotga joriy etish, xorijiy talabalarni davlat oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilishni yilda ikki marta semestrning boshida tashkil qilish vazifalari yuklatilgan [1]. Bugungi kunda yuqoridagilarni hisobga olib fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish borasida quyidagi asosiy omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Olimlar, professor-o'qituvchilar tarkibi, doktorantlar, izlanuvchilar, injenertexnik xodimlar, magistrant va talabalar ishtirokida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari;

OTMda ilmiy tadqiqot natijalarini tadbiq etish strategiyasini ishlab chiqish;

OTM uchun ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish hamda innovatsion faoliyatni tizimli tarzda takomillashtirib borish uchun trenerlar tayyorlash;

OTMning xususiyati, mintaqa muammolaridan kelib chiqqan holda innovatsion faoliyati istiqbolini aniqlash;

Amaliyotda litsenzion shartnomalar tuzish tizimini joriy etish;

OTMda ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish fondini tashkil etish, OTMda ilmiy tadqiqot faoliyatiga yoshlarni keng jalb etish bo'yicha alohida chora-tadbirlar ishlab chiqish, korporativ hamkorliklarni rivojlantirish, xalqaro aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor berish;

Tayanch OTM va IT imkoniyatlaridan foydalanish, yosh olimlar uchun ilmiy loyihalar tayyorlash va tadqiqot natijalarini impakt faktorli jurnallarga maqola yozish bo'yicha alohida kurslarni tashkil etish;

Talabalar amaliyotlarini sohalar bo'yicha ishlab chiqarish va boshqa tashkilotlarda tashkil etish;

Ish beruvchi tashkilotlarni talablari asosida maxsus kurslarni tashkil etish, bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari ilmiy tadqiqot natijalarining eng asosiy jabhalaridan biri - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishdir [2].

Malaka oshirish markazlariga sohalarga mos ravishda ishlab chiqarish tashkilotlaridan ma'ruzachilarni jalb etish kerak. Ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish orqali ilmiy tadqiqotni rivojlantirish va malakali kadrlarni tayyorlash mumkin. Oxirgi yillarda Osiyo davlatlarining oliy ta'lim muassasalari dunyo reytingida yuqorilab borishiga fan va ta'limga sarflanayotgan mablag' sabab bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son.

2. Юлдашев, Ж., Каюмов, Д., & Жураев, У. (2021). Олий таълим муассасаси профессор ўқитувчисининг маъруза ўтиш услуги ва ўзини тутиши. Экономика и социум, (1-2 (80)), 813-817. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 4 Issue 2 / April 2023

YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM VA ISHLAB CHIQARISHNI O'ZARO BOG'LIQLIKDA TASHKIL ETISHDA DEMOGRAFIK OMILLARNING TUTGAN O'RNI.

Kamolova Sabina Anvarjon qizi – Navoiy Davlat pedagogika instituti Magistratura bo'limi pedagogika faoliyat turlari bo'yicha yo'nalishi 1-bosqich talabasi. Tel: +998931468399

Annontatsiya: Ushbu maqolada yangilanayotgan O‘zbekistonda fan va ta’lim rivojlanishi uchun ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasida bog‘lanishga ta’sir etuvchi demografik omillar haqida batafsil yoritib berilgan va muhim ahamiyatlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, tarbiya, demografik omillar, professional ta’lim, innovatsiyalar, pedagogik texnologiya.

Bugungi kunda O‘zbekistonimizni dunyoning ilm-fan rivojlangan ilgor mamlakatlar qatoriga olib chiqishdek yuksak maqsad asosida har bir sohada yangidan-yangi innovatsiyalar olib kirilib asta-sekinlik bilan eski va o‘z mahsuldorligini va samarasini yo‘qotgan texnologiyalar va metodlardan voz kechib kelinmoqda. Bu yangilanish faqatgina ta’lim sohasida emas balki ishlab chiqarish, raqamli texnologiyalarda va fan va texnikada ham o‘z kuchini ko‘rsatib kelmoqda, bularning barchasida innovatsiyalarni olib kirish insoniyatga bir qator yengilliklarni va aql bovar qilmas darajada kashfiyotlarni o‘ylab topishga zamin yaratadi.

Demografik omillar bu insoniyatning o‘sishi ya’ni tug‘ilish va o‘limning balansining o‘zgarishi, oshib borishi yoki pasayishi hisoblanadi. Sotsiologik jihatdan demografiya mamlakatning faqatgina iqtisodiyotiga ta’sir etibgina qolmay u ilm-fan taraqqiyotiga ham ta’sir etadi. Mamlakatimiz aholisining oshishi ta’lim tizimi oldiga ham bir qator qo‘shimcha vazifalarni yaratadi. Yosh avlodning vaqtini samarali tartibda shakllantirish, ularga ta’lim-tarbiya berish uchun ta’lim muassasalariga yani maktabgacha va maktab ta’limiga jalb qilish ularni savodini chiqarish, chekka hududlarda ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari bilan jihozlangan maktablar sonini oshirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Hozirgi kunda maktablarimizda ta’lim Finlandiya maktab ta’limi tajribasi asosida tashkil etilishi va xususiy va nodavlat maktablarini tashkil etilishi davlat va xususiy maktablar o‘rtasida sog‘lom raqobat shakllanishiga sabab bo‘lishi bilan bir qatorda o‘quvchilarni maktab ta’limiga jalb qilishda bir qancha imkoniyatlarni yaratib keladi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda ta’lim olish esa ma’lum fanlarni chuqur o‘zlashtirib o‘quvchilarimiz Xalqaro Fan Olimpiadalarda yetakchi o‘rinlarni egallashlariga imkonoyat yaratadi, chunki psixologik jihatdan olib qaraganda ham inson o‘z qobiliyatini o‘sha yo‘nalish bo‘yicha rivojlantirsa, o‘sha sohani gullab yashnashiga katta hissa qo‘shadi. Shu o‘rinda professional ta’lim ham ayni damdagi demografik o‘sish jarayonida yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish va ularni ma’lum bir sohaga yo‘naltirish o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim bosqichida hozirda o‘quvchi yoshlarimiz uchun bir qator Davlat va nodavlat Oliygo‘hlari tashkil etilib va bu bilan bir qatorda chet eldagi nufusli universitetlarni O‘zbekistondagi filiallari tashkil etilishi ularning oliy ma’lumot

olishiga bir qancha imkoniyatlar yaratilmoqda bu esa mamlakatimiz bo‘ylab maktablarni o‘z kasbining mutaxassislari bilan ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. 1999 yilga kelib O‘zbekiston Respublikasi aholisi 24 milliondan oshib ketdi. Aholining 50%igacha yaqinini 18 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Shundan 9.6 mln.ni 16 yoshgacha tashkil qiladi. Ushbu keltirilgan statistik ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, yoshlar bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar jamiyat hayotida naqadar jiddiy va dolzarbdir

Oliy ma‘lumotga ega kadrlar sonining oshishi maktablarda faqatgina eng intiluvchan, eng bilimdon, kasbiy va shaxsiy fazilatlarga ega kreativ o‘z ustida izlanuvchan o‘qituvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat bo‘lib shu fazilatlarga mansub o‘qituvchilargina yosh avlodga ta‘lim – tarbiya berishga ma‘qul deb topiladi, bu esa ta‘lim sifatini oshirishga eng katta omil bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda respublikamizda 30 milliondan ortiq aholi mavjud ekan bunda yoshlarning, agar biz yoshlarning 15-17 yoshdan 25 yoshgacha oladigan bo‘lsak, salmog‘i kattadir. Hozirda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar doirasida yoshlarning ta‘lim-tarbiyasi orqali erishiladigan ijtimoiy istiqboli eng avvalo ijtimoiy ishlab chiqarishdagi mehnat faolligini ta‘minlash orqali ularning ehtiyojlarini va manfaatlarini qondirib borish darajasiga bog‘liqdir. yoshlarning kasb tanlash, ish joylariga ega bo‘lish, ishlab chiqarishning intensiv ravishda rivojlanishi va yuksak texnologik takomillashuvi jarayonida ko‘p jihatdan ta‘lim tizimining sifat darajasiga bog‘liq. Bu jihatdan yoshlar esa sotsiologiyasi bilan yaqindan aloqadadir.

Demak, mamlakatimizning ayni damda taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishi uchun aholi ta‘limini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadi ham ilg‘or pedagogik tadbirlarda, texnologiyalardan keng foydalanishni talab etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I. A. O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura.
2. G‘. Yo‘ldoshev Ta‘lim yangilanish yo‘lida.
3. Mustaqil O‘zbekiston: ijtimoiy – siyosiy va ma‘naviy – ma‘rifiy hayot M. To‘tasinov.
4. Yuridik ensiklopediya Toshkent 2001
5. www.ziyo.uz

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIIY ONGINI OSHIRISHDA DEMOGRAFIK OMILLARNING AHAMIYATI

Nuriddinova Azizaxon Bahromjon qizi – Namangan davlat universiteti talabasi. +998990854051 Nuriddinovaaziza80@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat hayotida yuz berayotgan voqea-hodisa va jarayonlarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy ongini shakllantirishning demografik omillarini o'rganishdan iborat bo'lib, u quyidagi vazifalarni: ijtimoiy falsafa tizimida mafkuraviy ongning tarkibiy tuzilishini tahlil qilish asosida, uning ijtimoiy ong shakllaridan biri ekanligini isbotlash; "g'oyaviy-mafkuraviy hayot", "mafkuraviy ong" va "mafkuraviy faoliyat", "mafkuraviy munosabat" kabi tushunchalarining falsafiy ma'no-mazmunini ochib berish; jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy hayotiga nisbatan tarkibiy - funksional yondashuv va qarashlarni aniqlash asosida milliy mafkuraviy ongning ontologik tabiati va gnoseologik xususiyatlarini ochib berish; ta'lim muassasalarida ta'lim- tarbiya olayotgan o'quvchi-talaba yoshlarning milliy mafkuraviy ongini shakllantirishning milliy meros va kadriyatlar, umuminsoniy demokratik prinsiplarga asoslangan usul va vositalarini ishlab chiqish kabilarni bajarishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy ong, demografik omil, mafkura, milliy mafkura, g'oya, g'oyaviy-mafkuraviy hayot, mafkuraviy ong, mafkuraviy faoliyat, mafkuraviy munosabat, mafkuraviy bashorat, mafkuraviy vaziyat.

Milliy mafkuraviy ongni shakllantirish va rivojlantirish, aslini olganda oila qurish, unda farzandli bo'lish jarayonidan boshlanadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Chunki, birinchi navbatda oilaning qonuniy tarzda "Oila va nikoh" kodeksi talablariga mos ravishda qurilishi, so'ngra, ushbu qonun talablarini buzmasdan milliy qadriyatlarimizga asoslangan holda diniy (sha'riy) nikohdan o'tish amalinibajarish oila qurishdagi milliy mafkuraviy ongni shakllantirish va rivojlantirishning xalqchil talablaridan biri hisoblanadi.

Ona homilasi qanchalik halollikka asoslangan bo'lsa, tug'ilajak farzandning nomi ham shunchalik pokiza bo'ladi. Ana shu pokizalik tufayli ota-ona farzandining butun umr davomida milliy qadriyatlarimizning shukuhi asosida mafkuraviy ongining shakllanishi va rivojlanib borishiga tamal toshini qo'ygan bo'ladi. Boshqacha tanlangan yo'l, ya'ni nikohsiz tug'ilgan farzand qanchalik iqtidorli, oqil bo'lmasin, baribir, u qandaydir bemaza gap-so'zlarning qurboniga aylanib, mafkuraviy ongining izdan chiqib axloqiy-ma'naviy tanazzul sari yo'l tutishiga olib keladi. Bunday holatlarning sodir bo'lishi oilaning inqirozga uchrashiga, mahallada esa axloqiy-ma'naviy muhitning yomonlashuviga sabab bo'ladi.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, bugungi kunda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan «uzluksiz ma'naviy tarbiya» siyosatining bosh maqsadi, bir qator umuminsoniy va milliy tarbiya shakllarini (iqtisodiy, axloqiy, huquqiy, estetik, badiiy, ekologik, diniy tarbiya va boshqalar) uyg'unlashtirgan holda yoshlarimizning milliy mafkuraviy ongini shakllantirish va zamon talablari darajasida

rivojlantirishdan iborat. Bulardan ajralgan holdagi, qandaydir mutlaq ahamiyatga ega bo'lgan "ma'naviy tarbiya"ning o'zi yo'q. Bularning ichida "axloqiy tarbiya" ustuvorlik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabr, 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"da: "Oilada uzluksiz ma'naviy tarbiya xususiyatlari: muloqot, o'yin turlari jarayonida predmetlar, namunaviy xulq, xatti-harakat qoidalari bilan tanishish, taqlid orqali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasiga e'tibor qaratish; o'zining va boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish, baho berishga o'rgatish; ilk ma'naviy-tarbiyaviy motivlarni shakllantirish; o'ziga-o'zi xizmat qilish, kundalik turmushda xavfsizlik ko'nikmalarini o'rgatish", kabilar ko'rsatib o'tilgan. Bu xususiyatlar o'zida qaysi ma'naviy tarbiya shakllari orqali o'zini namoyon qiladi va milliy mafkuraviy ong darajasida shakllanishiga zamin hozirlaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda qabul qilingan O'RQ-595 sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonunining 32-moddasida: "Maktabgacha bo'lgan yosh quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi: go'daklik (tug'ilgandan bir yoshgacha); ilk bolalik (bir yoshdan uch yoshgacha); maktabgacha bo'lgan kichik yosh (uch yoshdan to'rt yoshgacha); maktabgacha bo'lgan o'rtacha yosh (o'rt yoshdan besh yoshgacha); maktabgacha bo'lgan katta yosh (besh yoshdan yetti yosh)", – deb ko'rsatilgan. Mana shu yosh davrlarida bolalarning ruhiyatida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi va ular qanday shaklda yoshlarning milliy mafkuraviy onging shakllanishiga zamin yaratadi degan savol tug'iladi? Odam bolasi, onadan sog'lom tug'ilsada, biroq aqlli bo'lib tug'ilmaydi. Uning aqlli bo'lish yoki bo'lmasligi ota-onaning qanday tarbiya berishiga bog'liqdir. Hozirgi kundagi ma'naviy tarbiyadan ko'zlangan maqsad esa har bir bolaning milliy mafkuraviy onigini shakllantirish asosida haqiqiy Vatanparvar qilib yetishtirishdan iborat.

Bolaning go'daklik davrda atrof-muhitni idrok etishining o'ziga xos xususiyatlari. Ma'lumki, bola tug'ilgan paytidayoq muhitni seza boshlar ekan, dastlabki birinchi oyida uning ko'rish va eshitish qobiliyati tug'ma instinkt tarzida shakllanib, keyingi ikkinchi va uchinchi oylariga kelib esako'rish qobiliyati kuchayib ranglarni ajratishi, eshitish qobiliyatining esa ayrim tovishlarni idrok etish, shuningdek hid va ta'm bilish orqali tashqi olam bilan aloqa o'rnatishi boshlanadi. Shunday qilib, go'dak bola o'z hayotining dastlabki oylaridayoq turmush tajribasini to'play boshlaydi, bu to'plangan tajriba esa keyinchalik uning odatlari va xulq-atvorida ifodalanadi [3].

Umuman olganda go'dak bola (chaqaloq)ning hamma asosiy hayotiy ehtiyojlarini ota-onasi va katta yoshli odamlar qondirishadi. Bunda mavjud real voqelik bilan aloqa katta odam orqali amalga oshiriladi: u go'dak bolaga har xil

narsalarni keltirib turadi, bu narsalarni chiqillatadi, ushlab olishuchun unga narsalar beradi, ya'ni kattalar bolaning ko'rish, eshitish va boshha sezgilarini o'stirishga yordam beradi. Tabiiyki, katta odam bolaning barcha istaklarini qondiruvchi sifatida diqqat markazida turadi. Bola uch oylik bo'lganida yoni-beridagi odamlarni tanlab muomala qila boshlaydi, onasini ajratadigan bo'ladi, olti oyligida — begona odamlarni o'z yaqinlaridan farq qiladi, onasini ko'rishi bilanoq sevinib ketadi. To'qqiz oylik bola endi kattalar bilan o'ynay boshlaydi, unda kattalar bilan aloqa qilishga tobora ko'proh ehtiyoj tug'iladi. Bola o'sa borgan sari uning kattalar bilan aloqa qilish shakllari kengaya boradi. Dastlab aloqa nutqsiz shakllarda ifodalanadi. Bu aloqa shaklining birinchi ko'rinishi –bolaning katta yoshli odam ta'siriga emotsional javobi dir: iljayadi, qandaydir ovoz chiharib talpinadi. Bola eng yaqin odamlarini bilib oladi hamda o'z odamlariga va begona odamlarga har xil munosabatda bo'ladi. Bolaning harakatlari ko'pincha qichqirish, hiqillab yig'lash bilan ifodalanadigan o'tinch (iltimos) va talabga aylanadi [4]. Bolaning tili chiqqunigacha bo'lgan ana shu aloqa shakllari hademay yetarli bo'lmay qoladi, kattalar bilan aloqa qilish ehtiyoji yanada osha boradi. Nutqni birinchi marta besh oylikda tushunish boshlanadi. Huddi shu joyda go'dak bolaning dunyoni idrok qilishi boshlanadi. Ota-ona va katta yoshdagilar bolani parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan harakatlari davomida tegishli so'zlarni ishlatishadiki, xuddi shu narsa bolaning nutqnitushuna boshlashiga birinchi sabab bo'ladi.

Ko'z idroki va narsalarga tikilib qarash nutqni tushuna borish uchun eng yaxshi sharoit tug'diradi. Bola so'zlarga javob bera boshlaydi, so'zlarga nisbatan ko'z bilan chamalash paydo bo'ladi. Bola hayotining birinchi yili oxiriga kelib 10—20 ta so'zni tushunadigan bo'ladi. Xuddi shu vaqtda bola aytadigan dastlabki so'zlar paydo bo'ladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bola bir yoshga to'lganida unda kattalar bilan aloqa qilishga ijtimoiy ehtiyoj tug'iladi – bu ehtiyoj bolaning yangi hayot bosqichiga o'tishi uchun juda muhim ahamiyatga egadir. Chunki, shu jarayonda jismoniy va axloqiy tarbiya uyg'unligiga asoslangan mafkuraviy ong go'dak bolaga o'zining ta'sini o'tkazishni boshlab yuboradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M Erkin va obod,demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etamiz.Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz. (2017).1-jild. – T.:« O'zbekiston» NMIU–B.147.

2. Mirziyoev Sh.M. Oltin vodiy durdonasi// Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. (2017) – T.: «O'zbekiston» NMIU.–B.44.

3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi// Milliy taraqqiyot yo'limizni

qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz. (2017)1-jild. – T.:«O'zbekiston» NMIU. – B.110.

4. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiev N.E. Milliy g'oya-taraqqiyot strategiyasi (2018) -T.:Fan. -B. 82.

5. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiev N.E. Milliy g'oya va mafkura. (2015) - T.:Fan. -B. 78.

6. Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. (2009) - T.:Muharrir. -B. 10.

IV SHO‘BA
PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISHDA DEMOGRAFIK OMILLARNING
BOG‘LIQLIGI.

TASVIRIY SAN‘AT DARSLARIDA INTERFAOL O‘QITISH
VOSITALARIDAN FOYDALANISH

S.F.Abdirasilov – Nizomiy nomidagi TDPU professori.

Annotatsiya. Ushbu maqolada interfaol ta‘lim vositalari haqida ma‘lumot keltirilgan. Kompyuter texnologiyalari va multimedia imkoniyatlari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga, uni yanada qizg‘in va qiziqarli qilish imkonini beradi. Tasviriy san‘at darslarida interfaol usullar va pedagogik texnologiyalardan foydalanish va qo‘llash ta‘lim motivatsiyasini shakllantirishga, ijodiy va kognitiv salohiyatni, mas‘uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tasviriy san‘at, interfaol, ta‘lim vosita, krossvord, reproduksiya, tasviriy san‘at asari.

Аннотация. В этой статье рассматриваются сведения об средствах интерактивного обучения. Компьютерные технологии и мультимедийные возможности позволяют повысить эффективность учебного процесса, сделать его более интенсивным и интересным. Использование и применение интерактивных методов и педагогических технологий на уроках изобразительного искусства служит формированию учебной мотивации, развитию творческого и познавательного потенциала, ответственности.

Ключевые слова: изобразительное искусство, интерактивное, образовательное средство, кроссворд, репродукция, произведение изобразительного искусства.

Abstract. This article discusses information about interactive learning tools. Computer technologies and multimedia capabilities make it possible to increase the efficiency of the educational process, make it more intense and interesting. The use and application of interactive methods and pedagogical technologies in fine art lessons serves to form educational motivation, develop creative and cognitive potential, and responsibility.

Keywords: fine art, interactive, educational tool, crossword puzzle, reproduction, work of fine art.

Hozirgi kunda barcha e‘tibor kompyuter texnologiyalariga qaratilmoqda. Har qanday inson zamonaviy sharoitda o‘zini qulay his qila olishi uchun u zamon bilan

hamnafas bo'lishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, an'anaviy o'qitish usullaridan foydalanadigan maktablar insonni hayotga to'liq tayyorlay olmaydi.

Axborot texnologiyalari - axborot jarayonlarini amalga oshirish uchun texnik va dasturiy vositalar, axborot texnologiyalarining mohiyatini texnik vositalar yordamida axborotni olish, qayta ishlash, uzatish, saqlash va takror ishlab chiqarish usullari tashkil etadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarida markaziy o'rinni kompyuter va uning dasturiy ta'minoti egallaydi. [1]


Pedagogik texnologiya - shakllar, usullar, uslublar, o'qitish usullari, tarbiya vositalarining maxsus majmuini belgilovchi psixologik-pedagogik munosabatlar majmui; bu pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy quroli (B.T.Lixachev);

- bu rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishish jarayonining tavsifi (I.P.Volkov);

- bu o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmunli texnikasi (V.P. Bospalko);

- o'qituvchiga ko'proq samaradorlik bilan, o'quvchilarga ta'sir o'tkazishda, to'g'ri o'qitish va ta'sir qilish usuli bilan yordam beradigan barcha zarur ko'nikma, qobiliyat va bilimlar majmui degan fikrni bir qator olimlar bildirishgan.

Interfaol ta'lim vositasi - bu real vaqt rejimida foydalanuvchi va u ishlaydigan axborot tizimi o'rtasida faol xabar almashinuvi mavjud bo'lgan dialogning paydo bo'lishini ta'minlaydigan vosita.




Jadval 1. Interfaol ta'lim vositalari.

Maktabda o'qituvchi ta'lim va tarbiyaning bir qator muammolarini hal qiladi. Ko'pincha darsning ma'lum bir mavzusini yoritish uchun materialni keng taqdim etishning imkoni yo'q. Kompyuter samarali texnik vosita bo'lib, uning yordamida o'quv jarayonini sezilarli darajada diversifikatsiya qilish mumkin. O'quv faoliyatida kompyuterdan foydalanish o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi, ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi, dars samaradorligi oshadi, fanga qiziqish ortadi.

Kompyuterning ko'rgazmali qurollariga ekran vositalari kiradi: taqdimotlar, audio va video filmlar. Ulardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi materialni tushuntirishda, bilimlarni mustahkamlashda, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda, uy vazifasini bajarishda, o'quv materialining o'zlashtirilishini tekshirishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, ekran yordamchilari kitoblarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega: sifatli badiiy asar reproduksiyalar bo'lish kerak; reproduksiyaning o'lchami butun sinfga ko'rinadigan bo'lishi kerak; mavzuga mos milliy musiqa asarining ovozi yozib olish kerak. Shuni esda tutish kerakki, ma'lumotni yaxshi o'zlashtirish va ko'rish uchun proektor o'qituvchining ish joyida joylashgan bo'lishi kerak [2, 71].


Tasviriy san'at darslarida ko'rgazmali ko'rsatish uchun juda ko'p materiallar mavjud - rassomlarning reproduksiyalari, tasvirni bosqichma-bosqich bajarish, ijodiy ishlar, atributlar va boshq. Ko'pincha illyustrativ va tarqatma materiallar mavzuni keng yoritish yoki rasmlarni namoyish qilish uchun yetarli emas. Shuning uchun yaratilgan raqamli resurslar o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, uni yanada qizg'in va qiziqarli qilish imkonini beradi. Kompyuter texnologiyalari va multimedia imkoniyatlari yordamida ovozli yozuvlar, video yozuvlar va juda ko'p rasmlardan foydalanish mumkin. Sayyoramizning eng xilma-xil joylarini o'rganish, dunyoning diqqatga sazovor joylari, buyuk rassomlarning asarlari, haykaltaroshlik va me'morchilik bilan batafsil tanishish imkoniyati mavjud. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda o'qituvchiga o'quvchi bilan samarali hamkorlik qilish imkonini beradi. Bundan kelib chiqadiki, tasviriy san'at darslarida interfaol texnologiyalarni joriy etish keng imkoniyatlar yaratadi.

1) Talabalarga real vaqt rejimida interaktiv krossvordni bajarish taklif etiladi (1-rasm). Bu krossvord to'liq avtomatlashtirilgan, kursorni savol raqami ustiga olib borganingizda, savol yozilgan joyda bir zumda oyna ochiladi. Keyin o'qituvchi darhol natijani ko'rishi mumkin (to'g'ri javoblar soni va baho). Bu testni yanada qiziqarli qilish va o'qituvchining testni qo'lda tekshirishi uchun vaqtni tejash imkonini beradi.




1-рasm. Interfaol krossvorddan parcha (muallif tomonidan tuzilgan)

2) Xuddi shunday, talabalarga interfaol tasviriy san'at testi topshiriladi (2-rasm). Sinovdan o'tgandan so'ng, talaba nechta savolga to'g'ri javob berganini va tegishli bahoni darhol ko'radi (3-rasm).




2-рasm. Interaktiv testdan parcha.



3-рasm. Interfaol testdan parcha.

3) Proyektor yordamida interfaol doskada istalgan tasvirni, jumladan, taqdimotni ko'rsatish mumkin (4-rasm). Taqdimotda rasmlar, matnlar, videolar va boshqalar bo'lishi mumkin, bu o'quvchilarga kerakli materialni yanada samarali o'rganish imkonini beradi.



4-rasm. Interfaol elementlardan iborat dars fragmenti

Tasviriy san'at darslari uchun o'qituvchilar va talabalar eng g'ayrioddiy, eng qiziqarli loyihalarni tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladilar, bular buyuk grafika, arxitektura, haykaltaroshlik olamiga sayohat darslari, taniqli xorijiy ustalar olamiga yo'llanma mavzusi "Tasviriy san'atning tur va janrlari".

Shunday qilib, tasviriy san'at darslarida interfaol usullar va pedagogik texnologiyalardan foydalanish va qo'llash ta'lim motivatsiyasini shakllantirishga, ijodiy va kognitiv salohiyatni, mas'uliyatni, mustaqillikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Katta entsiklopedik lug'at /Axborot texnologiyalari [Elektron resurs]: <http://dis.academic.ru>.
2. Abdirasilov S.F. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. T.: Innovatsiya-Ziyo, 2021 - 151.
3. Абдирасилов Сунатулла Файзуллаевич, & Назирбекова Шахноза Ботировна (2017). Компьютеризация и информатизация художественно-практические занятия в обучении студентов. Инновации в науке, (12 (73)), 21-23.
4. Абдирасилов С. Ф., & Хисамиева, С. (2016). Воспитание школьников в духе патриотизма средствами изобразительного искусства в узбекской школе. Молодой ученый, (1), 667-670.
5. Fayzullaevich, A. S. (2021). The use of the artistic traditions of Uzbek folk art in the lessons of fine art. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 54-61.
6. Абдирасилов, С. Ф. (2016). МЕТОДИЧЕСКОЕ И ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ ШКОЛЫ В СОВРЕМЕННОМ ОБУЧЕНИИ. Научная дискуссия: вопросы педагогики и психологии, (4-1), 125-133.
7. Абдирасилов Сунатулла Файзуллаевич (2016). Художественные традиции как основа профессионального мастерства. Наука и образование сегодня, (2 (3)), 63-69.

8. Абдирасилов Сунатулла Файзуллаевич, Назирбекова Шахноза Ботировна, & Махкамова Саодат Бахтияровна (2016). Художественно-культурные традиции узбекского народного искусства на уроках изобразительного искусства. Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии, (11 (68)), 32-42.

9. Abdirasilov, S. F. (2022). Patriotic Education of Schoolchildren by Means of National Fine Arts. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding , 9(5), 52-58.

TASVIRIY SAN'AT FANININI O'QITISH HUQUQINI BERISH BO'YICHA KASBIY VA PEDAGOGIK QAYTA TAYYORLASH KURSI TINGLOVCHIGA TO'GARAKLAR FAOLIYATINI O'RGATISHNING AHAMIYATI

M.B.Axmedov – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.

Annotatsiya. Maqolada tasviriy san'at faninini o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash kursi tinglovchiga to'garaklar faoliyatini o'rgatishning ahamiyati, to'garaklarni tashkil etish, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, xoreografiya, tasviriy va amaliy bezak san'ati, chizma, tasvir, buyum, loy, tosh, suyak, yog'och, obida, me'moriy bino naqsh, tarixiy yodgorlik, ustun, eshik, xontaxta, lauh, kursi, maktab, muassasa, yo'nalish, qiziqish, qobiliyat, to'garak, shakllanitirish, takomillashtirish, nusxa, modellashtirish, vosita, qurilma, tezkorlik, chaqqonlik, yasash, musobaqa, havaskorlik, bosqon, kompozitsiya, bolalik, o'smirlik, o'spirinlik.

Аннотация. В статье описывается важность обучения студентов курса профессионально-педагогической переподготовки на право преподавания изобразительного искусства, организация кружков, меры по развитию творческой активности студентов.

Ключевые слова: музыка, театр, кино, фантастика, хореография, изобразительное и прикладное декоративное искусство, рисунок, образ, объект, глина, камень, кость, дерево, памятник, архитектурный дизайн, исторический памятник, колонка, дверь, школа, курс, учреждение, направление, интерес, способность, образование, улучшение, копирование, моделирование, инструмент, устройство, быстрота, ловкость, создание, соревнование, хобби, вторжение, состав, детство, подростковый возраст.

Annotation. The article describes the importance of training students in a course of professional and pedagogical retraining for the right to teach fine arts, organizing clubs, measures to develop the creative activity of students.

Keywords: music, theater, cinema, fiction, choreography, fine and applied decorative arts, drawing, image, object, clay, stone, bone, tree, monument, architectural design, historical monument, column, door, school, course, institution, direction, interest, ability, education, improvement, copying, modeling, tool, device, speed, dexterity, creation, competition, hobby, invasion, composition, childhood, adolescence.

Yoshlarning ta'lim-tarbiyasida san'atning, hususan tasviriy san'atning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. San'at insonning madaniyatini, ma'naviyatini, dunyoqarashini rivojlantiradi.

“Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma'rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki bo'lib, bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir,” — degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. [2]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamda o'zgarishlarning muvaffaqiyati dastlab, ta'lim-tarbiya mazmunini o'zgartirish, uni davr talablari asosida yangilash hamda ta'lim oluvchilarning ma'naviyati va intellektual salohiyati darajasining yuksalishi bilan bog'liqdir. Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida” gi Farmonining 4-bo'limidagi 37-51-moddalarida ta'limga qaratilgan bir qator islohatlar, jumladan har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasbhunarga o'qish imkoniyatini yaratish, kasbga o'qitish ko'lamini 2 barobar oshirish, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy va amaliy yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish ta'lim sohasidagi ustuvor yo'nalish sifatida belgilanadi.

Insoniyatning ma'naviy tarkibiy qismi san'atdir. U musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, xoreografiya, tasviriy va amaliy bezak san'ati kabi turlarini o'z ichiga oladi. San'atning har bir turi o'z oldiga qo'yilgan aks ettirishda har xil vositalardan foydalanadi, musiqa — tovushlardan, tasviriy san'at — chizgilardan va hokazo. Shu bilan birga, har bir san'at tur va janrlarga bo'linadi. San'atni kishilar jamiyatidagi rolini aniqlash masalasi butun umr davomida keskin bahs, tortishuvlarga sabab bo'lib kelgan. Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar

uyg'otadigan, kishini ruhlantirib, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishiga va kamolatiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir. [4]

Rasm chiza bilish va hamma masalalarga ijodiy yondashish barcha sohalarda zarurdir. Ijodiy yondashish butunlay yangi g'oyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsni badiiy rivojlantirishda muhim o'rinni egallaydi. [4]

Tasviriy va amaliy san'at asarlari bizgacha turli ko'rinishlarda yetib kelgan. Xususan: Odamzodning qadimgi turar joylarida, g'orlar devorlarida aks ettirilgan chizmalar, tasvirlar; turli buyumlarda loydan, toshdan, rangli materiallardan, suyaklardan, yog'ochlardan ishlangan asarlar; turli tarixiy obidalar, me'moriy binolardagi naqshlar; tarixiy yodgorliklardagi ustunlar, eshiklar; xontaxtalar, lauhlar, kursilar. Alaloqibat, tarixni o'rganish, undan saboq va ibrat olish insoniyatni ulg'ytiradi, ezgu ishlarga undaydi, san'at taraqqiyotida esa muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy san'atning juda keng va ko'p tarmoqli sohasida yog'och o'ymakorligi ma'lum darajada salmoqqa egadir. Yog'och o'ymakorligi amaliy san'atning uy-ro'zg'or buyumlari yasash, sanoat buyumlari, qurilish jihozlari, turli materiallarga (yog'ochga) o'ymakorlik ishlov berish kabi sohasida bevosita qo'llaniladi. Ammo ushbu muhim sohaning keng tarqalganligi, hayotimizda, turmushda va ishlab chiqarishda keng qo'llanilishiga qaramasdan, ta'lim-tarbiya tizimida o'rganilishi darajasi zamon talibiga mos emasligini ta'kidlab o'tish joizdir.

Chunki hozirgi paytda respublikamizda amaliyotga joriy etilayotgan ta'lim-tarbiya tizimida, jumladan, ushbu tizimning umumta'lim bosqichida bevosita yog'och o'ymakorligidan doimiy ravishdagi o'quv mashg'ulotlari olib borilmaydi. Amaliy san'at ta'limining ko'plab turlari kabi yog'och o'ymakorligi ham o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari o'quv faoliyatida, mustaqil o'rganishlarida amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi to'garaklarni biz shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarga ajratdik:

1. Turli xil buyumlarning qurilmalarini asliga nisbatan kichraytirilgan nusxalarini yasash — modellashtirish to'garaklari;

2. Turli xil buyumlar, vositalar va qurilmalarni tezkorlik, chaqqonlik va sifatlilik bo'yicha yasash va musobaqalarda ishtirok etish — havaskorlik — sport mazmunidagi to'garaklar;

3. Turli xil buyumlarni, qurilmalarni, moslamalarni sifatli yasash bo'yicha yosh mutaxassislar, mohir qo'llar to'garaklari;

4. Tasviriy va amaliy san'at kasblari, sohalari, yo'nalishlari bo'yicha tashkil qilinadigan to'garaklar.

To'garaklarda bolalarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda ularda estetik tarbiya elementlarining shakllanishiga ham e'tiborni qaratish lozim. O'quvchilarning naqshlarni yod olishlarida, tasvirlashlarida ularning ijodkorlik qobiliyatlari, kuzatuvchanliklari, mulohazakorlik va sermushohadaliklari, fikrlashlari, nafis tuyg'ulari taraqqiy etib boradi. Narsalar va hodisalar to'g'risidagi bilimlari kengayadi, amaliy san'atga, go'zallikka, hayotga qiziqishlari kuchayadi, tabiat, olam, jamiyat, inson go'zalliklarini his eta oladigan, qalbi ham, hayoti ham go'zal insonga aylanib boradi. Yog'och o'ymakorligini o'rgatishda bolalarning ruhiy va yosh hususiyatlarini o'qituvchi va murabbiy usta mutlaqo unutmasligi lozim.

Tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan xozirgi davrda, yoshlarni milliy, sharqona kadriyatlarni hisobga olgan holda, zamonaviy ruhda tarbiyalash hamda ijobiy, insoniy fazilatlariga ega bo'lgan kasb sohiblarini tayyorlash muammosi davlat miqiyosidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda respublika hukumatining qator xujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari talablari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyat, qadriyat, milliy san'at namunalaridan, ota-bobolar tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashxur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta axamiyat berilmoqda. O'zbekistonning ta'lim tizimida me'morchilik, amaliy san'at, tasviriy san'at turlari, rangtasvir, mahobatli rangtasvir, mahobatli bezak san'ati, kitobat san'ati, miniatyura, sharq miniatyura maktablari, dizayn, haykaltaroshlik va boshqa turlari o'rgatiladi. [8]

Asrlar davomida yaratilgan ulkan madaniy boyligimiz, xususan, o'zbek milliy xalq amaliy bezak san'ati keng tarqalgan turlarining o'ziga xos tomonlari, maktablari, bajarish texnologiyasi, uslublari, ularni yaratgan ustalarning muborak nomlari unutilish darajasiga kelib qolmoqda. Shu sababli bu noyob san'at durdonalarini saqlash, ularni yoshlarga o'rgatish muhim vazifalardan biridir. [9]

Xulosa qilib aytganda yog'och o'ymakorligi to'garagini tashkil etish orqali xalq amaliy bezak san'atini yanada rivojlantirish va uning davomiyligini ta'minlash mumkin. Bu o'sib kelayotkan yosh avlodning tarbiyasida ham muhim ahamiyatga egadir. Yog'och o'ymakorligi to'garagi orqali ularni eng avvalo vatanga muhabbat, sabru-matonat, qatiyat, estetik madaniyat, kiryativ fikrlash, dunyoqarashni o'stirish va eng asosiysi mehnat qilishga o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik! -T.: TASVIR, 2021, 52 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prizidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 23-iyundagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida

“O‘zbekistonda islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi ma‘ruzasi. -T.: //Ma‘rifat gazetasi, 2017-yil 24-iyun, №50 (9011).

3. Abdirasilov S., Hasanov M. Rasm o‘qitish metodikasi. -T.: Iqtisod-moliya, 2010.

4. Abdirasilov S.F. Tasviriy san‘at o‘qitish metodikasi. -T.: Fan va texnologiya, 2012, 232 b.

5. Axmedov M.B., Xasanova M.Z. Qalamtasvir. -T.: IJOD-PRINT, 2021, 188 b.

6. Axmedov M.B. Yog‘och o‘ymakorligi. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2017, 220 b.

7. Ahmedov M.B., Xolmatova F.M., Rasulov M.A., Isayeva D.B. Rangtasvir (Metodik qo‘llanma). -T.: BROK CLASS SERVIS, 2016, 108 b.

8. Bo‘latov S.S., Soipova M.S. Badiiy tahlil tamoyillari. -T.: Fan va texnologiya, 2016, 260 b.

9. Bo‘latov S.S., Tolipov N.X. Go‘zallik falsafasi. -T.: Fan va texnologiya, 2008, 128 b.

9. Bo‘latov S.S., Ahmedov M.B. Badiiy ta‘limning falsafiy asoslari. -T.: Fan va texnologiya, 2010, 168 b.

10. Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. -T.: Мехнат, 1991, 384 б.

11. Qo‘ziyeva Z.E. Xalq amaliy san‘ati. -Namangan: 2012, 52 b.

PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISHDA MUSTAQIL MUTOLA VA DEMOGRAFIK OMILLAR

Mamatqulova Zarifaxon Muxammadsoliyevna – Farg‘ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Demografik tadqiqotlar Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU aholishunoslik, demografiya, ijtimoiy geografiya va mintaqaviy iqtisod, sotsiologiya kafedralari, Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi, Mehnat, aholi bandligi va ijtimoiy muhofazani o‘rganish Respublika ilmiy markazi, O‘zR Fanlar akademiyasining iqtisodiyot instituti, O‘zbekiston Respublikasi “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazida olib borilishini bilamiz, albatta.

O‘zbekistonning demografik taraqqiyoti, uning xususiyatlari, omillari va muammolari I.Mullajonov, R.Ubaydullayeva, M.Qoraxonov, E.Ahmedov, O.Otamirzayev, L.P.Maksakova, A.Soliyev, H.Salimov, A.Qayumov, M.Bo‘riyeva,

O.A.Ergashev, E.Safarov, O.Saidahmedov, G.Murtazina, Z.X.Rayimjonov, R.K.Ortiqboyev va b. olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng o'rganilgan.

1993-yildan O'zbekistonda BMTning aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) o'z faoliyatini boshlagan. Uning aoliyati mintaqa davlatlarini, Qozog'iston va Ozarbayjonni qamrab oladi. Jamg'arma aholi salomatligi, ayniqsa, ayollar salomatligini yaxshilash borasida tadbirlarni amalga oshiradi, mamlakatda milliy tashkilotlar, tibbiyot muassasalariga sog'lom oilani shakllantirish maqsadida keng qamrovli sotsiologik-demografik tadqiqotlar o'tkazadi.

Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda mustaqil mutola va demografik omillar yangidan dunyoga kelgan avlod pedagogik qonuniyatlar o'qituvchining tarkib topishi jarayoni va omillarini o'rganish, muammolarni belgilab, yechimlarni aniqlash va istiqbolni ko'rsatib berish, shakllanishi, oilasining demografik xususiyatlari, uning yosh-jinsi, oilaviy tarkibi, demografik mayli, demografik bashorati, (o'qituvchilarning soni, yoshi, jinsi, demografik vaziyati, istiqbolni ilmiy asoslangan holda oldindan aniqlash)larni demografik o'sishi, chora-tadbirlarini ishlab chiqishda ta'lim-tarbiya tizimi har tomonlama muntazam rivojlanib boradi.

Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda mustaqil mutola va demografik omillarda demografik tadqiqot usuli muhim rol o'ynaydi. Demografik tadqiqot usuli-statistik, taqqoslash, xaritagrafik, sotsiologik, matematik va mantiqiy fikrlash kabilar asosiy omillardir. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda mustaqil mutolada demografiyaning taxliliiy metodi asosiy o'rin egallab, statistikadan farq qiladi: unda mavhum fikrlash usulidan keng foydalanish asosida kelgusida ro'y beradigan sifat o'zgarishlari ham o'rganiladi.

Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda mustaqil mutolada o'qituvchi muayyan ijtimoiy hayot tarziga bo'ysunishi tufayli, demografik jarayonlar ham muayyan usuli va munosabatiga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi murakkab rivojlanish mahsuli bo'lib, turli omillar zaminida o'sadi. Bu jihatdan demografiya fanlari tahlil mavzuiga yaqin bo'lib, ularning yutuqlaridan foydalanadi, ayni vaqtda, ularga muhim ma'lumotlar beradi.

Demografik jarayonlarni o'rganishda juda ko'p ma'lumotlardan foydalaniladi. Ko'pchilik davlatlarda demografik ma'lumotlar o'qituvchi soni, tarkibi va demografik jarayonlarni aks ettirib o'z ichiga ushbu masalalarga oid raqamli ma'lumotlar, ilmiy manbaalar, tadqiqotlar natijalarini oladi. Dunyo miqyosida demografik ma'lumotlarni to'plash BMT boshchiligida tuzilgan dastur asosida o'tkazilishini yaxshi bilamiz. Demografiya har bir o'qituvchining ko'payishi va rivojlanish qonuniyatlarini alohida-alohida o'rganadi,

chunki har bir formatsiyaga xos o'qituvchi o'sish qonuni demografik vaziyatga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda mustaqil mutola va demografik omillarni rivojlantirish, ta'lim darajasi va sifatiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq o'qitiladigan fan bo'yicha yangi bilimlar, malaka va ko'nikmalarni mustaqil o'zlashtirish, shaxsan o'qituvchining o'ziga, uning tafakkuriga bog'liqdir. Mustaqil o'qib bilim orttirishda zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini egallash, o'zini o'zi kamol toptirish jarayoniga tanqidiy va ijodiy yondoshish bilan birga rivojlangan demokratik davlatlar o'quv yurtlarida pedagog kadrlar malakasini oshirish tajribalarini o'rganish muhim hisoblanadi. Ijodiy ta'til jarayonida yangi o'quv adabiyotlari (darslik yoki o'quv qo'llanma) yaratish zamonaviy pedagogik axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va o'quv tarbiya jarayoniga joriy etish, pedagoglarning kasbiy faoliyati, yo'nalishi bilan bog'liq bo'lgan yirik ilmiy ishni (monografiya, dissertatsiya va hokazolarni) tugallash uchun ta'lim muassasasining ilmiy (pedagogik) kengashni qarori bilan pedagog kadrlarga beriladigan ta'til mustaqil izlanuvchilikni ko'rsatadi. Bunda o'qituvchilar ilmiy, ilmiy-metodik va ilmiy - amaliy seminarlar, konferentsiyalar, avgust o'qishlari va hokazolarda ma'ruzalar bilan faol qatnashishlari bilan o'qitish metodologiyasi va texnologiyasiga oid muammolarni hal etishda va o'quv - tarbiya jarayonining yuqori sifatini ta'minlashda amaliy yordam beradilar.

Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda mustaqil mutola va demografik omillarda tinglovchilarni darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi. Ularga mustaqil o'rganish uchun mavzu bo'yicha matnlar tarqatiladi. Ularga mustaqil ravishda o'rganish taklif etiladi. Matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o'qituvchi tinglovchilarga savollar bilan murojaat etadi. Og'zaki so'rov o'tkazadi. Savollarga berilgan javoblar asosida tinglovchilarning to'plagan umumiy ballari aniqlanadi. O'qituvchi darsda o'quv materialini tinglovchilar tomonidan qanday o'zlashtirilganini aniqlash bilan birga o'qilgan va o'zlashtirilgan matnlar asosida tayyorlangan materiallarni tinglovchilarga tarqatib, o'z bilimlarini tekshirib olishlariga imkoniyat yaratadi.

Baxsda muhokama qilinadigan savollar, muammolar tinglovchilarni hayajonlantiradigan, kuyuntiradigan, zamonaviy, ularning hayot tarziga tegishli bo'lish o'z fikrlarini bayon eta olish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'tkaziladigan bahslarning mavzularini tuzishda tinglovchilarning o'zlari, ularning hayotiy tajribalar, yoshlar hayotidagi muammolar, asarlar, gazeta va jurnallardagi maqolalar yordam berishi mumkin. Bahslarni o'tkazishda tinglovchilarda muhokama qilish, so'zga chiqish, fikrlarini bildirish, qiyinchiliklarni bartaraf etish, muhokama qilish, yechilgan muammolarni umumlashtirish kabi ko'nikmalar rivojlanadi. Yuqoridagi

texnologiyalar tinglovchilarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beradi. Ushbu texnologiyalarni amalga oshirishda tanho ishlashi, tinglovchilarda fikrlarni tartibga solish va tasniflash, tanqidiy mulohazalarga baho berish bilimdonlik yangilik va dunyoviy bilimlarga chanqoqlik, so'z bilan ish birligi, izlanish, har bir fanning mohiyatini tushunish, ishga ijodiy yondashish ish tajribalari, o'z ustida ishlash kabilarning rivojlanishi pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda mustaqil mutola va demografik omillarni yanada takomillashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bo'riyeva M. P., O'zbekistonda oila demografiyasi, T., 1997.
2. Bo'riyeva M. R., Demografiya asoslari, T., 2001.
3. Borisov V. A., Demografiya, M., 1999.
4. Jo'raev D. Tafakkurdagi evrilish. – T.: SHarq, 2001. – 242 b.
5. Karim Tohir. Milliy tafakkur taraqqiyotidan. – T.: CHo'lpon, 2003. – 160 b.
6. Musurmanov R. Mutolaa – tafakkur gulshaniga yetaklovchi kuch. – T.: Kutubxona, 2015. - 35 b.
7. Musurmonqulov O. Ijtimoiy ma'naviy muammolar va ularning yechimlari. - T.: Ma'naviyat, 2015. – 31 b.

DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARNING O'QITUVCHI KASBIGA QO'YADIGAN TALABLARI

N.A. Valixanova – Andijon viloyati PYMO 'MM dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya. Demografik jarayonlar iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-mehnat, sanoat – ya'ni jamiyatdagi barcha sohalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas.

Kalit so'zlar: demografik jarayonlar, ta'lim sohasi, o'qituvchi, raqobat, innovatsion faoliyat, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, integrativ yondashuv.

Аннотация. Демографические процессы оказывают существенное влияние на экономические, политические, социально-трудовые, промышленные – то есть на все сферы жизни общества. Сфера образования не является исключением.

Ключевые слова: демографические процессы, сфера образования, педагог, конкуренция, инновационная деятельность, современные образовательные технологии, интегративный подход.

Abstract. Demographic processes have a significant impact on economic, political, socio-labor, industry – that is, on all spheres of society. The field of education is no exception.

Keywords: demographic processes, educational sector, teacher, competition, innovative activity, modern educational technologies, integrative approach.

O‘zbekistonning doimiy aholisi soni 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 35 mln 271,3 kishini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 712,4 ming kishiga yoki 2,1 foizga ko‘payganligi qayd etilgan. Aholi sonining ortib borishi bevosita ta‘lim sohasidagi kadrlar soni, sifati, shuningdek, ta‘lim muassasalariga ham talabni yuklaydi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2026-yilga borib O‘zbekiston aholisi soni 38 mln dan oshishi kutilayotganini ma‘lum qildi. Aholimizning qariyb 55 foizini yoshlar tashkil etadi va har yili mehnat bozoriga kamida 600 ming yoshlar kirib kelmoqda. Bunday demografik o‘shish mamlakat uchun ham imkoniyat, ham juda katta mas‘uliyat ekanligini ta‘kidladi.

Barcha sohalar uchun malakali, raqobatbardosh, zamonaviy bilim va qarashlarga ega kadrlarni tayyorlash davr talabi. Mamlakatimizda bugungi kunda xususiy bog‘cha, maktab va universitetlarning ochilishi ham yurtimizdagi demografik o‘zgarishlar natijalaridan biri hisoblanadi. Bu o‘z-o‘zidan raqobatni yuzaga keltiradi va ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, o‘qituvchilarning tarkibi, o‘quv dasturlar, darsliklar va qo‘llanmalarining mazmuni yangi qarashlar, yangi g‘oyalar va innovatsiyalar asosida isloh qilinishini talab qiladi.

Zamonaviy ta‘limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan ta‘lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta‘lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan an‘anaviy kategoriyalar bo‘lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma‘lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo‘yicha o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatning predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Uzoq yillar mobaynida qayd etilgan pedagogik kategoriyalar jamiyat ijtimoiy talabi darajasidagi maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun yetarli bo‘lib kelgan muayyan davrlarda bir guruh pedagoglar tomonidan barcha davrlarda amalga oshirilgan pedagog faoliyatining darajasi qoniqarsiz deb baholaganlar. Ular tomonidan “metodika” tushunchasi yuqori darajadagi subyektivlikka ega ekanligi ta‘kidlanadi. Haqiqatda esa ta‘lim natijalari o‘quvchining pedagogik jarayonlardan muvaffaqiyatli “o‘tganligi” bilan belgilanadi. Pedagogik jarayonning mohiyati o‘qituvchi hamda o‘quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagogik yordam o‘qituvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning tavsifi, uning ma‘lum

maqsadga yo'naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi. Pedagogik axborotlarni e'lon qilish, ko'rsatish, eslatish, tushuncha yoki maslahat berish, yo'naltirish, haqqoniy lashtirish, kengaytirish, bartaraf etish, hamdardlik qilish, ilhomlantirish, qiziqtirish, talabchanlikni qo'llab-quvvatlash kabi ko'rinishlarda yordam beradi. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – majmuaviy integral tizim bo'lib, unda ta'lim maqsadlari asosida belgilangan ko'nikma va malakalar o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o'zlashtirish ularda, muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat unsurlarining ma'lum tartibga solingan to'plami sifatida aks etadi. Bu o'rinda ta'lim maqsadlarining belgilanishi (kinga va nima uchun?) mazmunini tanlash va ishlab chiqish (nima?) ta'lim jaryonlarini tashkil qilish (qanday?) ta'lim metod va vositalarining belgilanishi (nimalar yordamida?) shuningdek, o'qituvchilarning malaka darajasi (kim?) erishilgan natijalarni baholash metodi (qanday yo'l bilan?) inobatga olinishi lozim. Pedagogik vazifalarning hal etilishini ta'minlovchi o'qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan o'qituvchi faoliyati ta'limning metod, shakl va vositalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, pedagogik faoliyat 3 ta asosiy omil bilan tavsiflanadi: Boshqarish turi, axborot almashishi jarayonining turi, axborotni uzatish vositalarining tiplari va bilish faoliyatini boshqarish. O'qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondoshish yo'riqnomaga asoslanib, uni tashkil etishning quyidagi mantiqiy ketma-ketligini asoslash mumkin. Dastlab o'quv materialining mazmunining tavsifi, uni o'rganishdan maqsad (o'zlashtirish darajalari), shuningdek pedagogik vazifaning qo'yilish shartlari tahlil etiladi. So'ngra, o'qitishning mos ravishdagi metodlari hamda o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish tizimi ishlab chiqiladi. Shu asosda o'qitish vositalarining ro'yxati tuziladi.

Ta'lim ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlarini tashkil etishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

– pedagogik jarayonni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan xolda tashkil etish.

– pedagoglarning mustaqil va ijodiy ishlarini samarali tashkil etish.

– o'qituvchilarning uzluksiz malaka oshirishini tashkil etilishini nazorat qilish (malaka oshirishgacha, malaka oshirish davomida va istiqbolda)

– o'qituvchilarning maqsadli ijodiy izlanishlarini tashkil etish.

Shuningdek, bugungi raqobatli muhitda faoliyat yuritayotgan pedagog xalqaro ta'lim texnologiyalarini (PISA, PIRLS, STEAM va xokazo) ham faoliyatida qo'llashi uzatilayotgan bilimlarni shunchaki axborot emas, balki, o'quvchini kelajakda o'z maqsad va loyiharini amalga oshiruvchi muhim qurolga aylantiradi. Bugungi kunda yangiliklar, yuqori texnikaviy-texnologik innovatsiyalar,

ma'lumotlar oqimining o'sib borishi hayotning barcha jabhalarida to'rtinchi texnologik inqilobni yuzaga keltirmoqda. O'quv predmetini o'qitish orqali o'quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shaxsning qiziqishlari va jamiyatning talablari o'zgarmoqda. Kundalik hayotni ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta'limning integrativ yondashuvini joriy etadi. Bunday yondashuvdan maqsad – ta'lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ'ib qilishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2022-yil 11-maydagi "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-214-son Qarori.
4. <https://www.gazeta.uz>

ILMIY-PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASHDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH MEXANIZMLARI

Bekmuradova Gulnoza Maxmudovna – O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi huzuridagi Paralimpiya sport turlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti Ilmiy-metodik bo'limi boshlig'i. E-mail: bekmuradovagulnoza@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'limdan keyingi ta'limda ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashning samaradorligini ta'minlash va mazkur samaradorlikni baholash masalalari yoritigan.

Kalit so'zlar: oliy ta'limdan keyingi ta'lim, ilmiy-pedagogik kadrlar, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash samaradorligi, sifat madaniyati.

Аннотация: В статье освещены вопросы обеспечения эффективности подготовки научных и научно-педагогических кадров послевузовского образования и оценки этой эффективности.

Ключевые слова: послевузовское образование, научно-педагогические кадры, эффективность подготовки научно-педагогических кадров, культура качества.

Abstract: The article covers the issues of ensuring the effectiveness of the training of scientific and scientific-pedagogical personnel in post-higher education and evaluating this effectiveness.

Key words: post-higher education, scientific-pedagogical personnel, effectiveness of scientific-pedagogical personnel training, quality culture.

O‘zbekistonda ta’lim sohasini modernizatsiya qilish sharoitida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari, jumladan, doktoranturaning samaradorligini oshirish muammosi dolzarb bo‘lib bormoqda. Doktoranturada ilmiy kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishning amaliy jihatlarini ishlab chiqish uchun “samaradorlik” atamasining mohiyatini, uning asosiy tamoyillari va yondashuvlarini to‘g‘ri tushunish lozim.

Har qanday harakat, jarayon, amaliyot, dastur samaradorligini xarajatlar va natijalar nisbatini, maqsadlarga erishishni aks ettiruvchi ma’lum miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari to‘plami orqali baholash mumkin. Ta’lim tizimi kabi murakkab tizimni baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini tanlash masalasi oson emas. Shuningdek, samaradorlikni baholashni butun ta’lim tizimiga ham, uning doirasida qo‘llaniladigan shakllar, texnologiyalar, o‘qitish usullari, boshqaruvi va hokazolarga nisbatan ham amalga oshirilishi mumkin.

Samaradorlik tushunchasini ta’lim tizimiga, xususan ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bosqichiga nisbatan qo‘llash o‘ziga xos yondashuvni va samaradorlikni baholash mexanizmlarini talab qiladi. Mazkur yondashuv va baholash mexanizmlari turli mamlakatlarda turlicha shakllangan bo‘lib, ta’limi rivojlangan Yevropa mamlakatlarida joriy etilgan shakli bir-muncha mukammal hisoblanadi.

Ta’lim tizimlarining samaradorligini baholash turli yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Ushbu turkumda ma’lum bir o‘rinni universitetlarning turli reytinglari (mahalliy va xalqaro) egallaydi, bu ma’lum bir universitetni baholash va universitetlarni bir-biri bilan taqqoslash imkonini beradi.

Hozirda MDH davlatlarida aspirantura va doktoranturaning reytinglari mavjud emas. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Ta’lim vazirligining aspirantura faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan monitoring ko‘rsatkichlari orasida faqat ikkitasi mavjud.

Bu har 100 talabaga to‘g‘ri keladigan ta’lim tashkiloti aspirantlari (ad’yunktlari), rezidentlari, stajorlari, assistentlari soni va hisobot davrida nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan ilmiy-pedagogik xodimlarning ilmiy-pedagogik xodimlarlarning umumiy sonidagi ulushi.

MDH mamlakatlarida aspirantura va doktoranturani ilmiy kadrlar tayyorlashning murakkab ilmiy-ta'lim tizimi sifatida qarash yondashuvi shakllangan. Ilmiy-tadqiqot va ta'lim yo'nalishidagi tayyorgarlikning o'zaro bog'liqligi "aspiranturaning samaradorligi" konsepsiyasining alohida mazmunini belgilaydi.

Ayrim tadqiqotlarda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimining samaradorligini baholashda iqtisodiy yondashuvdan foydalanilgan va bunda uning ikkita tarkibiy qismini ajratib ko'rsatilgan: ichki va tashqi.

Bunday samaradorlik tizimini ishlab chiqish va ko'rsatkichlarni tanlashda asosiy tamoyillar murakkablik, minimallashtirish, muvozanat va qulaylik tamoyillari edi. Samaradorlik ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, ushbu tizim aspirantura samaradorligining umumlashtirilgan ko'rsatkichini aniqlash uchun normallashtirish, ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish, vazni farqlash va ko'rsatkichlarning raqamli qiymatlarini me'yorlash algoritmini ham o'z ichiga oladi. Yuqoridagi metodologiya, mualliflarning fikricha, texnik, ijtimoiy va gumanitar fanlar uchun ham moslashtirilishi mumkin.

Oliy ta'limning boshqa jihatlari singari, Yevropada doktoranturaning sifati ham muassasalar va mamlakatlar o'rtasida katta farq qiladi. Yevropa universitetlarida faoliyat yurituvchi sifatni ta'minlash va nazorat qilish tizimlari ma'lum bir mamlakatga xos bo'lgan sifat an'alariga qarab shakllangan; universitetning kattaligi va muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, muassasaning yoshi, joylashgan joyi, tashkilot madaniyati va umumiy yo'nalishi (tadqiqot yoki pedagogik faoliyatga). Shunga qaramay, doktorantura sifatining bir jihati barcha Yevropa universitetlari uchun umumiydir – doktorantlar ta'limining sifati, ya'ni doktorantlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqot sifati ushbu tadqiqot olib borilayotgan ilmiy muhit bilan uzviy bog'liqligini va shuning uchun ham u bakalavriat yoki magistratura bosqichiga xos bo'lgan ta'lim sifatiga emas, balki ta'lim sifatini ta'minlashning boshqa mezon va metodologiyalar tizimiga asoslanishi lozimligini tushunishdir. Bundan tashqari, doktoranturaning sifati universitetning strategiyasi bilan bog'liq bo'lib, uning yuqori darajadagi tadqiqotlarni ta'minlashga va yuqori standartlarga erishishga intilishiga yo'naltirilganligini belgilaydi.

Xulosa. Olib borilgan o'rganish va tahlillar ta'lim tizimi va uning alohida bosqichi bo'lgan oliy ta'limdan keyingi ta'limning samaradorligini ta'minlashga turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi.

Bunda, bizning mamlakatimizda va MDH mamlakatlarida hozirda ham amalda bo'lgan samaradorlikni baholash yondashuvi bir yoqlamalilik tavsifiga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Samaradorlikni dissertatsiyani o'z vaqtida himoya qilganlarning salmog'i bilan o'lchash yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni sifatini va uning jamiyat uchun foydalilik darajasini baholash imkoniyatini bermasligi aniqlandi.

Doktorantura orqali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashning sifat va samaradorligini ta'minlash uchun faqat doktoranturadagi jarayonlarni takomillashtirish kifoya emasligi, buning uchun doktorantura faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasasida (universitet, institut) sifat madaniyatini joriy etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ковальчук О. В. Методические положения оценки эффективности образовательной деятельности в муниципальных образовательных системах [Электронный ресурс] / О. В. Ковальчук // Современные проблемы науки и образования. – 2011. – № 6. – <https://www.science-education.ru/ru/article/view?id=5089>

2. Анисовец Т. А. Экономика образования и образовательного учреждения [Текст]: учебно-методическое пособие (компендиум) / Т. А. Анисовец; Санкт-Петербургский филиал Нац. исслед. ун-та «Высшая школа экономики». – СПб., 2012. – 180 с.

3. Marginson S. Do Rankings Drive Better Performance? International higher education, 2017, № 89, pp. 6–8. Available at: <https://journals.bc.edu/ojs/index.php/ihe/article/view/9833/8615>

5. Калинина И. А. Специфика и эффективность подготовки научно-педагогических кадров в аспирантуре в контексте развития и модернизации образования [Текст] / И. А. Калинина // Актуальные проблемы психологического знания. – 2014. – № 3. – С. 82–89.

PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA “LESSON-STUDY” METODIKASINI O'RNI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI.

Muradova Feruza Abdurazak qizi – A.Avloniy nomidagi pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti 1-bosqich tayanch doktoranti, Tel: +99 895 002-40-90, E-mail: feruzabonu_muradova@mail.ru

Annotatsiya: Lesson study ildizlari Uzoq Sharqda joylashgan bo'lib, u yerda Xitoy va Yaponiyada keng qo'llaniladi. Lesson study sinfdagi harakat tadqiqoti yoki so'rovining ko'plab boshqa shakllaridan farq qiladi. Lesson study haqiqiy o'quvchilar bilan haqiqiy sinflarda ishlash va amaliyotni bir sinfdan boshqasiga o'tkazish orqali yangi amaliy bilimlarni yaratishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Angliya, LESSON-STUDY, tadqiqot, o'qituvchi, o'quvchi, dars jarayoni, model.

Аннотация: Изучение уроков уходит своими корнями на Дальний Восток, где оно широко используется в Китае и Японии. Изучение урока

отличается от многих других форм исследования действий или опроса в классе. Изучение урока направлено на создание новых практических знаний путем работы с реальными учениками в реальных классах и переноса практики из одного класса в другой.

Ключевые слова: Англия, УРОК-ИЗУЧЕНИЕ, исследование, учитель, ученик, процесс урока, модель.

Annotation: Lesson study has its roots in the Far East, where it is widely used in China and Japan. Lesson study differs from many other forms of classroom action research or inquiry. Lesson study aims to create new practical knowledge by working with real students in real classrooms and transferring practice from one class to another.

Keywords: England, LESSON-STUDY, research, teacher, student, lesson process, model.

Lesson study ildizlari Uzoq Sharqda joylashgan bo'lib, u yerda Xitoy va Yaponiyada keng qo'llaniladi. Bu g'arb o'qituvchilarining e'tiboriga 1990-yillarda uchinchi xalqaro matematika va fanlarni o'rganish (TIMSS) davomida deyarli tasodifan tushdi. Ikki amerikalik tadqiqotchi Ketrin Lyuis va Richard Xieber Yaponiyada bo'lganlarida o'qituvchilar va maktablar orasida "jugyou kenkyuu" yoki "Lesson study" keng tarqalgan amaliyotiga duch kelishdi. Darsni o'rganish jarayonida o'qituvchilar guruhleri o'quvchilarning bilim olishi va o'z sinflarida yaxshilanishi kerak bo'lgan rivojlanish sohasini aniqlaydilar. Keyin ular o'quvchilar ta'limining ushbu jihatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan o'qitishdagi o'zgarishlarni surishtiradilar. Quyida ko'rib chiqamizki, Yaponiyada bu maqsadda so'nggi paytlarda olib borilgan keng ko'lamlil o'qituvchilar tadqiqotlari mavjud.

So'nggi to'qqiz yil ichida Lesson study AQShning bir qator joylarida ishlab chiqilgan. U Angliya va Gonkongdagi Xalqaro Sifatli Ta'lim Assotsiatsiyasi (IQEA) loyihasida ham qo'llaniladi. Ushbu maqolada tasvirlangan tadqiqot Buyuk Britaniyadagi darslarni o'rganish bo'yicha markazlashtirilgan moliyalashtirilgan birinchi ishlanma va tadqiqotdir.

"Lesson study"ni o'rganayotgan amerikalik tadqiqotchilar yapon o'qituvchilari matematika bo'yicha yanada murakkab fan bilimlariga va tanqidiy jihatdan murakkab pedagogik fanlarga - matematikani qanday o'rgatish va bolalar matematikani qanday o'rganishga oid bilimlarga ega ekanligini aniqladilar. Bu hech bo'lmaganda qisman darsni o'rganish bilan bog'liq. Darsni o'rganish amaliyotni har doim ham, o'quvchilarning o'rganishi va ishlashini yaxshilash mumkin degan asosga asoslanadi. Yaponiyada pedagogikani tekshirish va takomillashtirish uchun darslarni o'rganish guruhleri tuziladi. Guruhlar turli yoshdagi, tajribaga ega va maktab ierarxiyasining turli nuqtalarida bo'lgan amaliyotchilarni o'z ichiga olishi

mumkin. Biroq, darsni o'rganish guruhida barcha a'zolar yangi amaliy bilimlarni ishlab chiqish va o'tkazish jarayonida bir xil ahamiyatga ega.

Lesson study guruhi quyidagi jarayonlar orqali fanning ma'lum bir yo'nalishini o'qitish bo'yicha o'qitish va pedagogik bilimlarni yaxshilashga e'tibor qaratadi:

Ehtiyojni guruh tahlili (o'quvchilarni o'rganish)

ularning amaliyotida pedagogik bilimlardagi kamchiliklar qayerda ekanligini tahlil qilish (o'quvchilar faoliyatini baholash asosida) va so'nggi tadqiqotlar ushbu sohadagi o'zgarishlar haqida nima deyishi mumkin.

Guruh o'qituvchilari "tadqiqot" yoki "o'rganish" darsini birgalikda rejalashtirishadi, ular aniqlangan muammoni ba'zi ma'lumotli, lekin sinab ko'rilmagan yoki rivojlanmagan (ular tomonidan) yordamida hal qilishga qaratilgan. Tadqiqot darsini birgalikda rejalashtirgandan so'ng, bir kishi darsni o'rgatadi, boshqalari esa kuzatadi. Dars uchta (yoki ko'paytmalari - olti yoki to'qqiz) o'quvchining maxsus o'rganishini hisobga olgan holda rejalashtirilgan. Ular sinfdagi turli o'quvchilar guruhlariga xosdir (aytaylik, ushbu fan/aspekt bo'yicha quyi, o'rta yoki yuqori darajali). Darsning har bir bosqichi uchta bosqichning har birining ehtiyojlarini hisobga olgan holda rejalashtirilgan va dars rejasi odatda tadqiqot darsi davomida kuzatuvlar qayd etilgan shablona aylanadi - yana uchta o'quvchiga nisbatan. Bir o'qituvchi dars beradi, boshqalari esa - har doim o'quvchilarning xatti-harakati va o'rganishiga e'tibor qaratishadi - ular nima qilishlari va o'rganishlari bashorat qilinganini haqiqatda sodir bo'lgan narsalar bilan taqqoslaydi. Darsdan so'ng guruhda darsdan so'ng muhokama o'tkaziladi, bunda o'quvchilarning o'rganishlari kuzatish yozuvlari yordamida batafsil muhokama qilinadi. Yaponiya va AQSh tadqiqotlari va ushbu RTF dalillari shuni ko'rsatadiki, bu holatga e'tibor qaratish o'quvchilar e'tiborini o'rganishga qaratishga va o'qituvchidan e'tiborni chalg'itishga yordam beradi, bu esa guruh a'zolari o'rtasida erkinroq muhokama o'tkazish imkonini beradi. Ko'proq ochiq kuzatuvlar olib borilishi mumkin, ko'proq potentsial echimlar taklif qilinishi va muhokama va mulohazalarda ko'proq xavf-xatarlar olinishi mumkin. Buning sababi, darsni o'rganish guruhining barcha a'zolari darsning egasidir. Bundan tashqari, munozara o'qituvchi haqida emas - bu ularning barchasi mas'ul bo'lgan o'rganish (yoki uning etishmasligi) haqida. Bundan tashqari, tadqiqot darsida nima ishlaganini kashf qilish qanchalik muhim (ayniqsa, agar u boshidanoq hamma ishlaydi deb o'ylagan bo'lsa). Muayyan o'qitish yondashuvini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot darslari tsiklining oxirida ular mahalliy maktablar va kollejlardan taklif etilgan o'qituvchilar va maslahatchilar auditoriyasi oldida o'zlarining amaliyoti va tajribasini baham ko'rish uchun "ommaviy tadqiqot darsi" ni o'tkazishlari mumkin. tanqidni kengaytiradi. Bu butun shahar miqyosida bo'lib o'tadigan tadbir bo'lishi mumkin - bu erda bolalar maktabdan keyin qoladilar va

dars zalda o'qiladi, so'ngra o'qituvchilar, o'quvchilar va tinglovchilar o'rtasida yondashuvning afzalliklari haqida suhbat bo'ladi. Bunga qo'chimcha, Yapon darslarini o'rganish guruhleri o'z natijalarini nashr etadilar. Ushbu tadqiqotlar mamlakatda ishlab chiqarilgan o'quv tadqiqot adabiyotlarining 50% dan ortig'ini tashkil etuvchi yapon o'qituvchilari tomonidan keng o'qiladi. Aksariyat yapon o'qituvchilari bir vaqtning o'zida kamida bitta darsni o'rganish guruhida qatnashadilar.

Angliyada Lesson Studining rivojlanishi

2003 va 2005 yillar oralig'ida TLRP tadqiqot o'qitish stipendiyasining bir qismi sifatida tajriba o'tkazilib, uning darajasini aniqlash uchun:

Yapon tilini o'rganish modeli ingliz kontekstiga tarjima qilishi mumkin maktablar va o'qituvchilar ushbu modelni amaliyotni yaxshilash uchun foydali deb bilishadi

O'qituvchilar nafaqat darsni o'rganishda, balki o'rganganlarini boshqalar bilan bo'lishishda ham hamkorlik qilish yo'llarini topadilar.

Lesson study o'quvchilar uchun ta'lim natijalarini yaxshilaganligi haqida dalillar mavjud edi.

O'n to'rtta maktab - boshlang'ich va o'rta maktablar ishtirok etdi. Ular Shimoliy-Sharqiy, Sharqiy Angliya, London va Janubi-Sharqiy mahalliy hokimiyat organlaridan olingan. Bu maktablar statistik jihatdan aks ettirilgan maktablar qatorini ifodalagan, ishning katta qismi KS1, KS2 va KS3 ga qaratilgan. Lesson studyga dastlabki kirishdan so'ng olti davr mobaynida o'qituvchilar guruhleri va katta maktab rahbarleri o'z maktablarida dars mashg'ulotlarini o'tkazdilar. Umuman olganda, tajriba davomida 100 dan ortiq tadqiqot darslari o'tkazildi. Har bir davr guruh bir kun davomida (har bir yoz mavsumining oxirida ikki kun) o'z natijalari va tajribalarini solishtirish, shuningdek, Angliyada dars o'tish modelini ishlab chiqish uchun yig'ildi. Uchuvchidan chiqadigan ballar qarama-qarshi sahifadagi katakchada keltirilgan.

Angliyada dars o'qish Yaponiya modelidan qanday farq qiladi

TLRP tadqiqotining pilot bosqichida ishlab chiqilgan yondashuvning yapon modelidan sezilarli farqi shundan iboratki, darsni o'rganish sikli yapon modeliga qaraganda ancha tezroq bo'lib, bir yildan ko'proq vaqtni oladi va uch yilgacha davom etadi. TLRP uchuvchisi orqali paydo bo'lgan model har bir tsikl uchun taxminan yarim muddatni oldi. Ikkinchi farq shundaki, Angliyada ishlab chiqilgan modelda o'quvchilar ko'pincha tsikl davomida ham, oxirida ham dars tahliliga jalb qilinadi. Bu uchuvchining muhim rivojlanishiga aylandi. Uchinchi farq shundaki, ingliz maktablari o'qituvchilari ommaviy tadqiqot darslarini tarqatish usulidan foydalanmagan. Buning o'rniga ular tadqiqot darslarida asosiy amaliyotlarni aks ettiruvchi video parchalarini ishlatdilar va ularni PowerPoint taqdimotlariga

joylashtirdilar va natijalarni boshqa o'qituvchilar uchun kasbiy rivojlanish uchrashuvlarida ishlab chiqdilar. Shuningdek, ular boshqa o'qituvchilarga ham ishlab chiqilgan texnikalar bo'yicha murabbiylik qilishgan.

Nima uchun darsni o'rganish samarali?

Uchuvchi a'zolari darsni o'rganishning o'ziga xos elementlari quyidagilardan iborat ekanligini aniqladilar:

Darsga va uning natijalariga egalik huquqini baham ko'rish orqali tavakkalchilikning kuchayishi mumkin bo'ladi - bu o'qituvchilarni xavfsiz o'ynashga olib kelishi mumkin bo'lgan tekshirish va samaradorlikni boshqarishga yo'naltirilgan kuzatishning aksariyat ta'siridan keskin farq qiladi:

"... tadqiqot darsi bo'lib, unda siz amaliyotingizning ushbu qismini juda qulay va xavf tug'dirmaydigan usulda o'tkazishingiz mumkin, bunda ishlashni boshqarish usulida emas, balki tengdoshlar guruhining kuzatuvlariga o'xshab, o'zingizga yoqmagan narsalarni olib, uni yaxshilash mumkin. ." (uchuvchi o'qituvchi)

ko'p nuqtai nazarlarning barchasi kuzatishlarni o'quvchilar va ularning o'rganishiga qaratadi - bu ko'proq o'quv jarayonlarini ko'rish, tasvirlash va muhokama qilish imkonini beradigan sinfdagi shovqin tezligini sekinlashtiradi.

birgalikda rejalashtirish, o'qitish va tahlil qilish jarayoni o'qituvchilarga tadqiqot darsini o'tkazishda bevosita bir-biridan o'rganish imkonini beradi. Sinovdagi ko'plab o'qituvchilar hamkasblarini darsni o'rganishda ishlab chiqilgan usullarga o'rgatish uchun darsni o'rganish usulini moslashtirdilar.

Lesson study boshqa sinfdagi harakat tadqiqoti yoki so'rovidan nimasi bilan farq qiladi?

Lesson study sinfdagi harakat tadqiqoti yoki so'rovining ko'plab boshqa shakllaridan farq qiladi. Harakat tadqiqotida x bajarishning ta'siri yoki o'quvchilar ma'lum bir tarzda guruhlangan bo'lsa nima bo'lishini o'rganishga qaratilgan tadqiqot savoli bo'lishi mumkin bo'lsa-da, darsni o'rganish har doim o'qitish va o'rganishning bir jihatini yaxshilashga asoslanadi. Tadqiqot savoli har doim: "Qanday qilib biz x ni y ga samaraliroq o'rgatishimiz mumkin?" Darsni o'rganish jarayoni juda aniq qadamlarga ega (qarama-qarshi sahifadagi 1-10-bosqichlarni ko'ring), hatto darsdan keyingi muhokamani o'tkazish usuligacha va diqqatni jamlash va yaxshilashdagi muvaffaqiyatining sabablaridan biridir. Tadqiqotchilar va tajriba o'qituvchilari tomonidan ushbu yuqori tuzilgan "maslahatlashuv" amaliyotiga o'xshash hisoblanadi.

Lesson study haqiqiy o'quvchilar bilan haqiqiy sinflarda ishlash va amaliyotni bir sinfdan boshqasiga o'tkazish orqali yangi amaliy bilimlarni yaratishga qaratilgan. Ta'lim ishchi guruhining hisoboti shuni ko'rsatib turibdiki, shaxsiylashtirilgan ta'lim siyosatidagi potentsialga erishish uchun muvaffaqiyatni yanada yaxshilash uchun. bolalar va yoshlarni samarali va ishonchli umrbod ta'lim

oluvchilar sifatida tayyorlash uchun biz o'qituvchilarni chuqurroq o'rganish modellarini, sinf sharoitida o'rganish uchun ko'proq imkoniyatlarni va nima ishlayotganidan o'rganish uchun ko'proq imkoniyatlarni qo'llaydigan kasbiy rivojlanish yondashuvlarini ishlab chiqishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

7. Dudley, P. (2008). Lesson Study in England: from school networks to national policy. Presented at the World Association of Lesson Studies Annual Conference, Hong Kong Institute of Education.
8. Dudley, P. (2011) Lesson Study: what it is, how and why it works and who is using it, www.teachingexpertise.com
9. Dudley, P. (2012) Lesson Study in England: from school networks to national policy, *International Journal of Lesson and Learning Studies*, 1.1 pp 85-100
10. Dudley, P. (2013) *Teacher Learning in Lesson Study: what interaction-level discourse analysis revealed about how teachers utilised imagination, tacit knowledge of teaching and freshly gathered evidence of pupils learning, to develop their practice knowledge and so enhance their pupils' learning*, *Teacher and Teacher Education*, *Teaching and Teacher Education* 34 (2013) 107e121
11. Hargreaves, D. H., (2012) A self improving school system: towards maturity, Nottingham, NCSL Pedder, D. and Opfer, D., (2012) Professional learning orientations: patterns of dissonance and alignment between teachers' values and practices, *Research Papers in Education*, London, Routledge pp 1-32

PEDAGOG KADRLARNI MALAKASINI OSHIRISHDA FORMAL VA INFORMAL TA'LIMDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI

Joldasova Kamila Jollibayevna – A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti. E-mail: sobrina84@mail.ru, tel: (+99891) 300-27-25

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog kadrlarni malakasini oshirishda formal va informal ta'limdan foydalanishning dolzarbligi, ahamiyati va shu bilan birga dolzarbligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Pedagog kadrlarni malakasini oshirish jarayoni ta'lim sohasidagi mutaxassisliklarni oshirish va yangi o'qituvchilar uchun to'liq tayyor bo'lishlarini ta'minlashga qaratilgan jarayonlardan biri ekanligi aytib o'tilgan. Bu jarayon formal (rasmiy) va informal (norasmiy) ta'lim usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: formal ta’lim, informal ta’lim, o‘quv dasturlari va kurslar, mentorlik, professionallik, teorik.

Аннотация: В данной статье представлена информация об актуальности, важности и в то же время актуальности использования формального и неформального образования в подготовке педагогических кадров. Как было отмечено, процесс подготовки педагогических кадров является одним из процессов, направленных на повышение специализации в сфере образования и обеспечение их полноценной подготовки новых учителей. Этот процесс включает в себя использование формальных и неформальных методов обучения.

Ключевые слова: формальное образование, неформальное образование, образовательные программы и курсы, наставничество, профессионализм, теоретический.

Annotation: This article provides information about the relevance, importance and at the same time the relevance of the use of formal and non-formal education in the training of teachers. As noted, the process of training teachers is one of the processes aimed at increasing specialization in the field of education and ensuring their full training of new teachers. This process includes the use of formal and informal teaching methods.

Key words: formal education, non-formal education, educational programs and courses, mentoring, professionalism, theoretical.

Pedagog kadrlarni malakasini oshirish jarayoni ta'lim sohasidagi mutaxassisliklarni oshirish va yangi o'qituvchilar uchun to'liq tayyor bo'lishlarini ta'minlashga qaratilgan jarayonlardan biridir. Bu jarayon formal (rasmiy) va informal (norasmiy) ta'lim usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Formal (rasmiy) ta'lim usuliga quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

1. **O‘quv dasturlari va kurslar:** Universitetlar, pedagogika institutlari va o‘quv markazlari o‘qituvchilarni rasmiy o‘quv dasturlar orqali tayyorlaydi. Bu dasturlar nazariy va amaliy bilimlarni o‘quvchilarga o‘rgatishni o‘z ichiga oladi.
2. **Ma‘muriyat va sertifikatlar:** Formal ta'lim dasturlarini tamomlagan o‘quvchilar sertifikat yoki diplom olishadi. Bu ma'muriyatlar o‘quvchilarning o‘qitishga ruxsatnomalarini va rivojlanish darajasini tasdiqlaydi.
3. **O‘qitish praktikasi:** O‘quvchilar, o‘zlarini o‘qitish va ta'lim jarayonini boshqarishda amaliy tajriba yig'ishlari lozim.

Informal (Norasmiy) ta'lim usuliga quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

1. **Mentorlik:** O'tgan tajribaga ega o'qituvchilar yangi o'qituvchilarni mentorlik qilib, o'qitish jarayonida yordam berishi mumkin. Bu tarzda, amaliy tajribani o'rgatish va o'sishni oshirish osonlashadi.

2. **Ijodiy jamoalar va ko'ngillar:** O'qituvchilar ijodiy jamoalar va ko'ngillar orqali bir-birlari bilan fikr almashish, tajriba almashish va yangi usullarni o'rganishlari mumkin.
3. **Konferensiyalar va seminarlar:** Ta'lim sohasidagi yangiliklarni kuzatish va o'rganish uchun konferensiyalar, seminarlar va o'qituvchilar uchun foydali bo'ladi.
4. **Online resurslar va o'quv manbalaridan foydalanish:** Online platformalar, videolar, veb-saytlar va forumlar orqali yangi pedagogik qarorlar va tajribalar bilan tanishish va ulardan foydalanish imkoniyatini beradi [1].

Formal va Informal (norasmiy) ta'limning dolzarbligi:

Norasmiy ta'lim formal ta'limning qo'llanilishi va takomillashtirilishi uchun juda muhimdir. Formal ta'lim o'quvchilarga nazariy bilimni taqdim etish va tadqiqot usullarini o'rgatishga yordam beradi. O'qituvchilar rasmiy ta'lim institutlarida o'rganish bilan birga, norasmiy ta'lim usullaridan ham foydalanishlari o'quv jarayonini yanada samarali qilishi va yangi o'qituvchilarni o'zlashtirishda yordam berishi mumkin. Bu ikki ta'lim turi bir-birini takomillashtirishi va o'quvchilarni ta'lim sohasida mustahkam tayyorlashda bir qator bo'lib ishlashlari mumkin. Pedagog kadrlarni malakasini oshirishda formal ta'limning ahamiyati haqida gapiradigan bo'lsak, formal ta'lim, pedagog kadrlarni malakasini oshirish jarayonida o'quvchilarni tizimli, strukturli va ilmiy tarzda tayyorlashga oid rasmiy dasturlar va tizimlarni o'z ichiga oladi. Bu shaklda tayyorlanishning ahamiyatini quyidagi yo'llar orqali ko'rib chiqamiz:

1. **Ilmiy asoslanish:** Formal ta'lim, pedagog kadrlarni ilmiy asoslar asosida tayyorlaydi. O'quv dasturlarida nazariy bilimlarni o'rganish, ta'limning ma'noqib bo'limlarini tushunish va o'quv jarayonini qanday tashkil etishni o'rganish imkonini beradi.
2. **Professionallik:** Formal ta'lim, o'quvchilarni o'qitishda va o'quv jarayonini boshqarishda professionallikni oshiradi. O'qituvchi o'quv dasturini tayyorlash, dars rejalari tuzish, amaliy mashg'ulotlar tashkil etish va o'quv jarayonini boshqarishda tajriba va tushunchaga ega bo'ladi.
3. **Tizimlilik va struktur:** Formal ta'lim, tayyorlanayotgan o'quvchilarni ta'lim jarayonini tizimli va strukturli shaklda boshqarishga tayyorlaydi. Bu, o'quvchilarni yagona dars rejalari, maqsadlari va natijalari bilan tayyorlay olgan holda o'qitishga imkon beradi.
4. **Teorik va amaliy bilimlar:** Formal ta'lim jarayonida pedagog kadrlar teorik bilimlarini oshirishning yanada chuqurligiga kirib kelishadi. Bu o'qituvchilarga o'quv-tarbiya, psixologiya, tahliliy fikrlash, dars tuzish metodikasi va boshqa pedagogik tamoyillarni tushunish imkonini beradi.

5. **Ma'muriyat va litsenziya:** Formal ta'lim jarayonlarini muvaffaqiyatli tamomlagan pedagog kadrlar o'qitish uchun ma'muriyat va litsenziya oladilar. Bu ruxsatnoma o'quvchilarni rasmiy ta'lim muassasalarida o'qitishga imkon beradi.

6. **Ta'limning samarali tashkil etish:** Formal ta'lim o'quv jarayonlarini tashkil etish va boshqarishning asosiy prinsiplarini o'rganishga yordam beradi. Bu tizimli tayyorlanish o'quvchilarni yangi dars usullari va innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan tanishtiradi.

7. **O'quvchilarning o'zlashtirishining yordamchi bo'lishi:** Formal ta'lim, pedagog kadrlarni o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini qanday yaxshi oshirish va o'quvchilarni boshqarishga qanday yordam berishni o'rganishga tayyorlaydi.

8. **Ta'lim sohasidagi o'zlashtirish:** Formal ta'lim tayyorlanayotgan pedagog kadrlarni ta'lim sohasidagi so'nggi yangiliklar va metodikalar bilan ta'minlaydi.

Barcha bu sabablarga ko'ra, formal ta'lim pedagog kadrlarni malakasini oshirishda o'quv dasturlari, ma'muriyat va teorik asoslar orqali samarali tayyorlashga yordam beradi. Pedagog kadrlarni malakasini oshirishda informal ta'limning ahamiyati haqida gapiradigan bo'lsak, informal ta'lim, rasmiy tizimlarda o'qitilmagan, o'z-o'zini o'qish va rivojlantirish jarayonlarini o'z ichiga olgan ta'lim usullarini ifodalaydi. Pedagog kadrlarni malakasini oshirishda informal ta'limning katta ahamiyati bor. Quyidagi sabablar bilan informal ta'limning roli katta:

1. **Amaliyotga o'rgatish:** Informal ta'lim, pedagog kadrlarni amaliy o'qitish va o'quv jarayonini tashkil etishda rivojlantirishda yordam beradi. Bu tarzda, o'quvchilarning o'zlashtirishini oshirish, amaliy tajribani baholash va ta'limni yanada samarali qilishga yordam beradi.

2. **Ijodiy jamiyatlar:** O'quvchilar va o'qituvchilar ijodiy jamoalari, o'zaro fikr almashish, tajriba almashish va yangi o'quv usullarini o'rganish imkonini beradi. Informal ta'limning o'quvchilar va o'qituvchilar orasidagi ijodiy jamiyatlar yaratishdagi roli katta.

3. **Tajribalar almashtirish:** O'qituvchilar o'z tajribalarini almashtirish orqali yangi pedagogik yondashuvlarni o'rganishadi. Boshqa o'qituvchilar bilan ta'lim usullari, amaliy mashg'ulotlar va tajribalarni almashish, o'qituvchilarning rivojlanishiga yordam beradi.

4. **Online resurslar va sotsial tarmoqlar:** Informal ta'limda internet, online platformalar, videolar, bloglar va ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilarni yangi ma'lumotlar va pedagogik tajribalar bilan ta'minlaydi. Bu resurslar o'qituvchilarni o'quv usullari va texnologiyalari bilan tanishishga imkon beradi.

5. **Tajriba:** Informal ta'lim, o'quvchilarni o'zlashtirish, yangi maqbuliyatlarni qanday olishni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

6. **Boshqa o'qituvchilar bilan aloqalar:** O'qituvchilar boshqa kollegalar bilan aloqalar orqali fikr almashish, maslahat so'rish va tajribalar almashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

7. **Ishbilarmonlik va mustaqil o'rganish:** O'qituvchi o'zining sohalari bo'yicha tushuntirish, yangi usullarni o'rganish va o'z fikrlarini rivojlantirishga imkon beradi.

8. **Ta'lim sohasidagi so'nggi yangiliklar:** Informal ta'lim yordamida pedagog kadrlar ta'lim sohasidagi so'nggi yangiliklar va innovatsiyalardan xabardor bo'lishadi [2].

Barcha bu sabablar bilan, formal ta'lim bilan birga, informal ta'lim ham pedagog kadrlarni malakasini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu, o'quvchilarni amaliy o'quv jarayonlarini boshqarish, ijodiy jamiyatlar yaratish va o'zlashtirishlarini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brew, Josephine Macalister. 1946. *Informal Education: Adventures and Reflections*. London: Faber and Faber.

2. Jeffs, Tony. 2001. *First Lessons: Historical Perspectives on Informal Education*. In *Principles and Practice of Informal Education: Learning through Life*, ed. Linda Deer Richardson and Mary Wolfe, 34–51. London: Routledge.

XORIJDA MAKTAB O'QITUVCHILARINING MASOFAVIY TA'LIMDAN FOYDALANISHIDAGI TO'SIQLAR

Rahmonova Gulhayo Saidjon qizi – A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti doktoranti
E-mail: rahmonova17@gmail.com, tel: (+99897) 000-97-38

Annotatsiya: Ushbu maqolada Saudiya Arabistoni, Malayziya, Rossiya, Marokash va boshqa davlatlarda o'tkazilgan, maktab o'qituvchilarining masofaviy ta'limdan foydalanishidagi to'siqlarni aniqlash muammosiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan. Masofaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etishga to'sqinlik qiluvchi demografik omillar va ularning yechimi keltirilgan.

Kalit so'zlar: demografik omil, masofaviy ta'lim, elektron ta'limdan foydalanishdagi to'siqlar, o'qituvchilarning e-learningdan foydalanishi, elektron ta'lim sifat omillari.

Masofaviy ta'lim tizimlarini o'rganish yoki ulardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflovchi ko'pgina adabiyotlar nashr etilgan. Saudiya Arabistonlik Almaiah va boshqa olimlar so'rovnomalar o'tkazish orqali o'qituvchilar va

o'quvchilar o'rtasida masofaviy ta'limni joriy qilish va foydalanishga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganib chiqdilar. O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida E-learningdan foydalanishga yuqori ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar sifatida ishonch omillari (internetga ishonch, xavfsizlik, elektron raqamli imzo, elektron to'lov, qonun va qoidalar), elektron ta'lim tizimining sifat omillari (samaradorlik, foydalilik, foydalanish qulayligi, ishonchlilik, kontent dizayni), o'z-o'zini rivojlantirish omillari (ogohlik, trening dasturlari) va madaniy omillar (AKT savodxonligi, elektron jamiyat, ijtimoiy media) ekanligini aniqlandi. Tadqiqot davomida olimlar o'quv kurs dizayni, uning mazmunini qo'llab-quvvatlash, uni baholash, ishlash muddati va qulay sharoitlar elektron ta'lim samaradorligi darajasiga asosiy ta'sir etuvchi omillar degan xulosaga kelishdi.

Taat va Frensis Malayziyada talabalar o'rtasida elektron ta'limni qabul qilishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganib chiqishdi va tizimning qulayligi, sifati, o'qituvchining mahorati, axborot va texnik ta'minot sifati elektron ta'limni qabul qilish saviyasiga ta'sir qilishini aniqladi.

Boshqa tomondan, Meriem va Youssef Marokashdagi Abdulmalek Essadi universitetida o'qituvchilar nuqtai nazaridan LMSdan foydalanishdagi asosiy to'siqlarni aniqladi. Muallifning ta'kidlashicha, texnik yordamning kamligi, institutsional yordamning yetishmasligi, elektron ta'lim strategiyasi va siyosatini tarqatishdagi aloqa muammolari, o'zgarishlarga qarshilik, axborot almashish madaniyatining yetishmasligi, elektron ta'limdan xabardorlik past darajada bo'lishi o'qituvchilarga MTTdan foydalanishda asosiy to'siq hisoblanadi. Malayziyadagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar o'rtasida elektron ta'limdan foydalanishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar o'quv kursi bilan bog'liq (kurs dizayni, kurs mazmuni, kursni qo'llab-quvvatlash) ijtimoiy va demografik omillar (o'qituvchilarning e'tiqodi, universitet qoidalari) va texnologik omillar (internetga kirish, narx va dasturiy ta'minot ko'nikmalari) ekan.

Rossiyada o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'qituvchilari MTTdan foydalanishda AKT va elektron ta'lim infratuzilmasi, elektron ta'lim siyosatining yo'qligi, elektron kontentni ishlab chiqish va internetga ulanish bilan bog'liq muammolariga duch kelishmoqda.

M. Azlim, K. Husain va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar professor o'qituvchilarining Malayziya oliy ta'lim muassasalarida LMSdan foydalanishini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotlarda 93 nafar professor-o'qituvchiga e'lonlar, fayllar, chat, forumlar, topshiriqlar va hujjatlar kabi ba'zi LMSning ba'zi funksiyalarini o'z ichiga olgan so'rovnomalar tarqatilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, professor-o'qituvchilar ushbu funktsiyalar haqida ijobiy tasavvurga ega, ammo, amaliy tadqiqot natijalar professor-o'qituvchilarning LMSdan foydalanish darajasi past ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, S. Alghamdi va

boshq. Saudiya Arabistonining oltita universitetidan 222 nafar professor-o'qituvchilarni jalb qilib, ularning LMS vositalari va funksiyalari haqidagi tasavvurlarini aniqlash uchun tadqiqot o'tkazishdi. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, professor-o'qituvchilar kurslar davomida LMS imkoniyatlarining ba'zilaridan (g'oyatda kam qismidan) foydalanishgan, chunki, ular LMSdan foydalanishdan qo'rqish kabi ba'zi to'siqlarga duch kelishgan.

Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, LMSdan foydalanish bo'yicha mavjud to'siqlarning aksariyati LMS bo'yicha yagona siyosatning yo'qligiga borib taqaladi. Ish faoliyati LMS siyosatini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan Instructure kompaniyasi 2008-yilda tashkil etilgan bo'lib, Kompaniya 4 ta davlat: AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va Avstraliyada LMS platformalaridan foydalanish bo'yicha hujjatlarni o'rganib chiqdi. Bunda Canvas, Moodle, Blackboard, Sakai va NONE platformalaridan foydalanish bo'yicha hujjatlar tahlil qilingan. Barcha LMS platformalari uchun umumiy bo'lgan LMS siyosati ishlab chiqilgan, bunda o'n yettita element belgilangan va ular rasmda ko'rsatilgandek oltita keng siyosat toifasiga bo'lingan. LMS siyosatini samarali shakllantirishga qo'shgan hissasiga muvofiq ushbu elementlarning nisbiy afzalliklari muhokama qilingan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Almaiah, M. A., Al-Khasawneh, A., & Althunibat, A. (2020). Exploring the critical challenges and factors influencing the E-learning system usage during

COVID-19 pandemic. *Education and Information Technologies*, 25(6), 5261–5280. <https://doi.org/10.1007/s10639-020-10219-y>.

2. Taat, M. S., & Francis, A. (2020). Factors influencing the students' acceptance of E-Learning at teacher education institute: An exploratory study in Malaysia. *International Journal of Higher Education*, 9(1). <https://doi.org/10.5430/ijhe.v9n1p133>

3. Meriem, B., & Youssef, A. M. (2019). Exploratory analysis of factors influencing e-learning adoption by higher education teachers: Case study: Abdelmalek Essaâdi University- Morocco. *Education and Information Technologies*, 25(3), 2297–2319. <https://doi.org/10.1007/s10639-019-10075-5>.

4. Aldowah, H., Al-Samarraie, H., & Ghazal, S. (2019). How course, contextual, and technological challenges are associated with instructors' individual challenges to successfully implement e-Learning: a developing country perspective. *IEEE Access*, 7, 48792–48806. <https://doi.org/10.1109/ACCESS.2019.2910148>

5. Vershitskaya, E. R., Mikhaylova, A. V., & Gilmanshina, S. I. (2019). Present-day management of universities in Russia: Prospects and challenges of e-learning. *Education and Information Technologies*, 25(1). <https://doi.org/10.1007/s10639-019-09978-0>

6. M. Azlim, K. Husain, B. Hussin and M. Zulisman, "Utilization Of Learning Management System In Higher Education Institution In Enhancing Teaching and Learning Process," *Journal of Human Capital Development*. Vol. 7 No. 1 January - June 2014, 2014.

7. S. Alghamdi and A. Bayaga, "Use and attitude towards Learning Management Systems (LMS) in Saudi Arabian universities," *Eurasia Journal of Mathematics, Science & Technology Education*, 2016, 12(9), pp. 2309-2330, 2016.

8. Instructure. (2021). *Our Company Story*. Retrieved 16/4/2021 from <https://www.instructure.com/about/our-story>

FIZIKANI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARNING AHAMIYATI

Rahmonova Gulchehra Zokirjon qizi – A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutining 1-kurs doktoranti. E-mail: viniks_llc@inbox.ru Tel: (97) 198 77 22

Annotatsiya. Maqolada fizika fanini o'qitishda zamonaviy metodlarning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit soʻzlar. Metod, anʼanaviy usul, zamonaviy usul, hamkorlikda oʻqitish, nazariya, tushuncha, muammoli taʼlim, mustaqil taʼlim, koʻnikma, malaka, axborot resurslari.

Annotation: The article talks about the importance of modern methods in teaching physics.

Key words. Method, traditional method, modern method, cooperative learning, theory, concept, problem-based learning, independent learning, skills, competence, information resources.

Аннотация. В статье говорится о важности современных методов в обучении физике.

Ключевые слова. метод, традиционный метод, современный метод, кооперативное обучение, теория, концепция, проблемное обучение, самостоятельное обучение, умения, компетенции, информационные ресурсы.

Taʼlim texnikasining anʼanaviy va zamonaviy usullarining farqi: “Har bir inson daho. Ammo agar siz baliqni daraxtga chiqish qobiliyatiga qarab baholasangiz, u butun hayotida oʻzini axmoq deb oʻylab oʻtadi”, Albert Eynshteyn.

Zamonaviy taʼlimning maqsadi oʻquvchilarni ijtimoiylashuvi, ularda mustaqil fikrlash madaniyati, oʻzaro hamkorlik gʻoyasi va ongli intizomni shakllantirishdan iborat. Zamonaviy taʼlimda oʻquvchilarning qiziqishlari eng muhim deb hisoblanadi va ular oʻz maqsadlari sari yoʻnaltiriladi. Taʼlim faoliyati orqali oʻquvchilar hamkorlikda ishlashni oʻrganadilar va ular raqobatchilarning ishini ham qadrlashadi. Uzluksiz taʼlim tizimida fizika oʻqitishning maqsadi oʻquvchi va talabalarga taʼlim berish, ularni tarbiyalash va rivojlantirishdan iboratdir. Shu bilan birga fizikaning metodik masalalaridan boʻlib, oʻquv kursining mazmunini, tarkibini va dasturini, uni oʻqitishga taalluqli darslik, oʻquv qoʻllanmalar va vositalarni aniqlash va ulardan oʻqitish jarayonida samarali foydalanish usullarini topish hisoblanadi[1]. Oʻqitish jarayoni tushunchasi asosan quyidagi savollarga javob berish kerak:

1. Oʻquvchilarni nima uchun oʻqitamiz? Bu har bir davlatdagi oʻqitishning maqsadi va vazifasidan kelib chiqib, uning direktiv hujjatlarida (konstitutsiyasi, “taʼlim toʻgʻrisidagi” qonun, bilim berish konsepsiyalari, oʻquv muassasasining ustavi, dasturiy hujjatlar va boshqalar) koʻrsatiladi. Uzluksiz taʼlim tizimida fizika oʻqitishning maqsadi oʻquv dasturlarining tushuntirish xatida quyicha bayon etilgan:

-ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtirish jarayonida fizikaning tutgan oʻrni va rolini tushuntirish asosida oʻquvchilarni siyosiy-gʻoyaviy, fidoyilik va internatsional milliy ruhda tarbiyalash, ilm va texnikani rivojlantirishiga vatanimiz va chet ellik olimlarning qoʻshgan hissalarini bilan tanishtirish;

-ilmiy dalillar, qonunlar, tushunchalar, nazariyalar, fizika fanining tadqiqot metodlari, bilimlarni amalda qoʻllash va olamning ilmiy manzarasi toʻgʻrisidagi bilimlarni shakllantirish;

-materiya tuzilishining birligi, tuzilishining cheksizligini, tabiatdagi saqlanish qonunlarining universalligini, fizik hodisalarning dialektik mohiyatini, fizik nazariyalarning uzluksizligi va izchilligini, fizikaning rivojlanishida nazariya bilan tajribani birgalikda qatnashishini, fizikani o'rganishda amaliyotning rolini ochib berish;

-ilmiy-texnik taraqqiyotning asosiy jihatlari bilan tanishtirish – kompleks avtomatlash tirishni, elektronika va mikroprotsektorlarni, texnikani, robotatexnikani, atom energetikani, ishlab chiqarish va axborot texnologiyasidagi fizikaning roli hamda yangi materiallarni ishlab chiqarish jarayonlari bilan o'quvchilarni tanishtirish;

-bilimlarga mustaqil ega bo'lishni tushuntirish, darslik, o'quv qo'llanmalar, ma'lumot beruvchi ilmiy adabiyotlar hamda xrestomatik adabiyotlar bilan ishlash usullarini shakllantirish;

-ayrim eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish: asbob – anjomlar bilan ishlash, o'lchash, o'lchash natijalaridan foydalanish va eksperiment asosida xulosa chiqarish, texnik xavfsizlikka rioya qilish;

-fizika va texnikani bilishga qiziqtirish, bilish imkoniyatlarini rivojlantirish, o'qishga samarali yondashishni shakllantirish, fizikani hayot bilan bevosita bog'lab o'qitish natijasida o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash, o'quvchilarni esa kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish[2].

2. Yoshlarga nimani va qancha o'qitamiz? Bu savolga javob umuta'lim maktab, akademik litsey va kasb – hunar kollejlari, mutaxassislik o'quv rejalari hamda fizika o'quv dasturlaridan, darsliklardan olinadi.

3. Yoshlarni qanday o'qitamiz? Amalda bu savolga aniq javob beradigan direktiv hujjat yo'q. U o'qitish metodlari, vositalari hamda o'qitishni tashkil qilish shakllari orqali amalga oshirishga tegishli. Ularni ishlab chiqish, tanlab olish va foydalanish o'qituvchilardan yuqori darajadagi ijodkorlikni talab qiladi.

Hozirgi kunda texnika va texnologiyaning jadal rivojlanish jarayonida kundalik hayotimizda fizikaning rolini tushunish qiyin emas. Lekin shunga qaramasdan o'quvchilarning katta qismida fizika to'g'risida kelajakda keraksiz yoki tushunarsiz fan degan qarash mavjud. Ko'pchilik o'quvchilar fizik tushunchalar, qonunlar va formulalarni darsda javob berish uchun shunchaki yod olishadi. Bir necha dars o'tgandan so'ng avvalgi darslarni tezda unutib yuborishadi. Buning asosiy sababi qonuniyatlarning mohiyatini to'la tushunmaslik va matematik bilimlarning yetarli emasligidir. Darsda o'qituvchi doskada bolalarga mavzuni tushuntiradi, formulalarni keltirib chiqaradi, ammo matematikani puxta o'zlashtirmagan o'quvchi bitta formuladan ikkinchi formulani keltirib chiqarolmaydi. Bunday o'quvchi uchun fizika fani qiyin va tushunarsiz fan bo'lib qolaveradi. Mahoratli o'qituvchi esa formulalarni keltirib chiqarolmagan o'quvchini qiynamasdan uni boshqa tomondan fizikaga qiziqtirish yo'llarini qidirishi lozim. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga tushuntirishning eng sodda va oson yo'lini

topishdir[2]. Masalan fizikani amaliyot bilan bog'lagan holatda uning fan-texnika va kundalik hayotimizdagi o'rnini ko'rsatish orqali fizikaning ahamiyatini tushuntirish orqali o'quvchida fizika faniga qiziqishni uyg'otish mumkin. Bizga ma'lumki fizik kashfiyotlar bo'lmasa ko'p narsa imkonsiz bo'lishi mumkin. Fizik kashfiyotlar zamonaviy texnologiyalarni rivojlanishi va odamlar turmushining yaxshilanishi uchun asos bo'ldi. Elektr, magnitizm kabi kashfiyotlar televizor, kompyuter, telefon kabi zamonaviy qulayliklarni yaratdi. Samolyot va telekommunikatsiya kabi zamonaviy transport va aloqa vositalari butun dunyodagi odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. O'qituvchi har qanday majburlashsiz o'quvchilarning qiziqish va hohishlarini hisobga olgan holda o'qitish usullarini taklif qilishi o'qituvchi va o'quvchi uchun birdek foydali bo'ladi. Bunday o'qitish usuliga hamkorlikda o'qitish usulini misol qilib olishimiz mumkin. Bu usulda o'qitish o'quvchilarning birgalikda o'rganish usuli bo'libgina qolmasdan ularda bir-birini fikrini eshitish, toqat qila olish, sog'lom tanqid, o'zaro savollarga qarshi turish, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

O'qitishning yana bir qiziqarli usuli bu "Muammoli ta'lim" usulidir. Bu usulda o'qituvchi o'quvchilar oldiga ma'lum muammoni qo'yadi yoki muammo mavzusini beradi. O'quvchilarning o'zi muammoni shakllantirishadi yoki berilgan muammoning yechimini birgalikda izlashadi. Bunda qo'yiladigan muammo oddiy savolga o'xshab qolmasdan o'quvchilarni izlanishga undashi lozim. Masalan biz o'quvchilarga Arximed qonuni mavzusini tushuntirishdan oldin o'quvchilar oldiga "Nima uchun suvga tashlangan tosh cho'kib ketadi, ammo katta kema suv yuzida suzib yuradi?" kabi yoki jismlarning massa markazi mavzusida "Nima uchun o'rdak lapanglab yuradi, tovuq esa to'g'ri yuradi" kabi qiziqarli savollarni qo'yishimiz mumkin[5]. O'quvchilar savollarga birgalikda javob izlashadi va bu orqali yangi mavzu haqida tasavvurga ega bo'lishadi. Hozirgi kunda o'qituvchilar o'quvchilarga mavzuni tushuntirish uchun turli xil innovatsion g'oyalarni kiritmoqdalar. O'quvchilarda kommunikativlik, kreativlik va tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish hozirgi davrning asosiy talablaridan biridir. Kommunikativlik o'quvchilarning boshqalar bilan muloqotga kirishish qobiliyati bo'lib, unda bolalar fikrini aniq va ravshan ifodalashi, suhbatdoshini tinglab tushunishi, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Kreativ fikrlashda o'quvchilarning ijodkorligiga urg'u berilib, topshiriqlarni nostandart usulda hal etish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Tanqidiy fikr yuritish o'quvchilarda axborotni tanqidiy baholash va uning natijasida shaxsiy nuqtai nazarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'quvchilarning jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, topshiriqlarni bajarishda jamoa a'zolarining fikrini e'tiborga olish va ular asosida xulosa chiqarish ko'nikmasini rivojlantirishda kollaboratsiya usuli qo'l keladi[3]. Bu usullar o'quvchilarning muvaffaqiyatida muhim rol o'ynaydigan omillar tarkibiga kiradi. Natijada, ta'limning zamonaviy usullarini qabul qilish sari qadam tashlash o'qituvchining burchiga aylanmoqda.

Sifatli ta'limni ta'minlash uchun malakali o'qituvchi va o'qitishning innovatsion usullarini birlashtirish kerak. Buning natijasida, o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga, balki fanlar bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lib, dunyo bilan yuzma-yuz uchrashishga va raqobatchilar bilan raqobatlashishga tayyor bo'ladilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fizika ta'limida zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish o'quvchilarga bilim berishning an'anaviy takrorlash va tushunmasdan yod olish g'oyasiga qarshi. Zamonaviy o'qitish usullari o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mos keladi. O'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullari ikkalasi ham bir qator afzallik va kamchiliklarga ega. Har ikkala usul ham samarali, bir usulni mutloq to'g'ri yoki foydasiz deyish o'rinsiz. O'qitishda esa har ikki usuldan me'yorida foydalana bilish o'qitish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fizika o'qitish metodikasi. M.Djo'rayev. Toshkent -2015. "Abu matbuot-konsalt".
2. Fizikani o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslubiyati. O.Q. Quvondiqov. Samarqand-2021.
3. Mustaqil ta'limni tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi (informatika va axborot texnologiyalari fani misolida). Dissertatsiya S.Qulmamatov.
4. Fizika o'qitish uslubi asoslari. N.Sadriddinov, A.Rahimov, A.Mamadaliyev, Z.Jamolova. Toshkent — "O'ZBEKISTON" – 2006.
5. I.Ya.Perelmanning "Qiziqarli fizika" kitobi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent -2009.

KREATIV FIKRLASH ORQALI KASBIY SALOHIYATNI YANADA OSHIRISHGA DEMOGRAFIYANING TA'SIRI

To'xtamatova Maftuna Ismonjanovna – Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi metodik xizmat ko'rsatish bo'lim boshlang'ich ta'lim fani metodisti.

Annotatsiya: mazkur maqolada kreativ ta'limning mazmun mohiyati, uning ijodkorligi va kreativ pedagogika haqida so'z yuritilgan. Ulug' allomalarimizning kreativ fikrlashlari ham o'rin olgan

Kalit so'zlar: Evristika, evristik usul, evristika fani, evristik faoliyat, evristik strategiya, creato, kreativ pedagogika, transformatsiya, "heurist", "izlayman", "topaman", "ochdim", uqlariga olib kelavermaydi, morfologik – taktik, ko'p o'lchamli matritsa metodi, morfologik – taktik, empatiya.

Hozirgi zamon ta'limining bosh va asosiy vazifasi – o'quvchining intellektual darajasini, yaratuvchanligini, ijodkorligini, izlanuvchanligini takomillashtirish orqali yangi bilimlarni olish, yaratishga, ruhlantirishga qaratilmog'i kerak.

“Creato”- lotincha so'z bo'lib, yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma'noni bildiradi. **“Creato”**–so'zi ma'nosi, ijodiy fikr, texnik loyiha, ijodkorlikka moyillik, o'quv-biluv jarayonida mas'uliyat, yaratuvchanlik.

Kreativ pedagogika-ijodkorlik va yaratuvchanlik metodlarini yaratishni o'rganish tushuniladi.

“Creato” – so'zi ma'nosi, ijodiy fikr, texnik loyiha, ijodkorlikka moyillik, o'quv – biluv jarayonida mas'uliyat, yaratuvchanlik, kreativ pedagogika.

An'anaviy ta'lim asosan ilgaritdan mavjud bo'lgan didaktikaga asoslangan, ya'ni o'quv jarayoniga ilgaritdan fanga ma'lum bo'lgan bilimlarni o'qitish, o'rgatish, yetkazish bilan xarakterlanadi. O'qituvchi ilgaritdan ma'lum bo'lgan reproduktiv faoliyatni olib boradi. Bu esa asosan o'quvchining ta'lim mazmunini yodlab olishi, qayta takrorlab borishi bilan cheklanadi.

Ya'ni ta'lim ilgaritdan ma'lum bo'lgan predmet “avval hunar o'rgat, keyin shogird o'z hoxishiga ko'ra nima qilsa qilaversin” yo'sinida ish tutish rasm bo'lgan.

Bunday holda bilim kontseptsiyasi to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

1. Bilim bilan tanishish, ma'lum axborotni tushunib olish, voqealarni bir-birdan ajrata olish;
2. Bilimdan nusxa olish, olgan bilimlarini takrorlash;
3. Bilim, ko'nikma, olgan malakalarini amaliy faoliyatda qo'llay olish;
4. Bilim – transformatsiya, olgan bilimlarini keyingi yangi bilimlarni, yangi vazifalarni bajarishda qo'llay olish (ya'ni ijodiy foydalana olish darajasi)dir.

Agar umumiy ta'lim maktablari birinchi, ikkinchi darajadagi bilimlarni o'rgatsa, oliy ta'lim uchinchi, oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'rtinchi darajadagi, ya'ni ilmiy izlanish, magistratura, aspirantura, doktoranturalarda bilim berishni davom ettiriladi.

Shuni yodda saqlash kerakki, ijodkor yaratuvchi shaxsni tarbiyalash, fanga ma'lum bo'lgan bilimlarning o'zi bilangina kifoyalanmay, olingan, o'zlashtirilgan bilimlar zahirida yangi bilimlarni kashf etishlari bilan muhimdir.

Bunga yorqin misol qilib, ulug' allomalarimiz Muso al – Xorazmiy matematika fani asoschisi, Al-Farg'oniyning turli fanlarga tegishli buyuk kashfiyotlari, Al-Farobiyning (70 dan ortiq tillarda erkin so'zlashgan) tovush tezligi, chastotasi, moddiyat, issiqlik, harakat, optikaga oid kashfiyotlari, Abu Rayhon Beruniyning (qomusiy olim) minerologiya, geodeziya, jo'g'rofiya, falakkiyot fanlari rivojiga qo'shgan katta xissalari, Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari”, “Ko'z anatomiyasi”ga bag'ishlangan kitoblari, Ulug'bekning “Zijji Ko'rogoniy” asari va boshqa buyuk allomalarimizning qoldirgan qimmatli asarlari hozirda ham bizning

mamlakatimizda va ko‘plab xorijiy mamlakatlarda o‘qib o‘rganilishini keltirishimiz mumkin.

Ularning buyuk kashfiyotlari butun jahon xalqlarining umummulkiga aylanmoqda. Bu shundan darak beradiki, allomalarimiz mavjud bilimlarni chuqur va puxta o‘rganib, o‘zlashtiribgina qolmay, ular o‘z ishlariga izlanuvchanlik, (kreativ) ijodkorlik bilan yondashib, juda ko‘plab kashfiyotlar qilganlar. Shuning uchun yangilangan didaktikaning vazifasi faqatgina fanga ma‘lum bilimlarning o‘zini o‘rgatish, uni takrorlash bilan cheklanmay, ularni ijodiy, tanqidiy va yaratuvchanlik ruhida ish yuritishlariga zamin yaratib berishdan iborat.

Ma‘lumotlarga qaraganda (yoshlar psixologiyasiga ko‘ra) olti yoshgacha bo‘lgan bolalar 40% iste‘dod potentsialiga ega ekanlar. Bolalar eng kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka juda moyil bo‘lar ekanlar. Agar shu davrda u bilan olib borilayotgan ta‘lim jarayoniga faqat an‘anaviy ta‘lim asosida yondashilsa, undagi ijodkorlikka mayillik so‘nib boradi.

O‘quv – biluv jarayoni ijodkorlikka yo‘naltirilsa, uning faolligi, yaratuvchanlik qobiliyati oshib boradi. Ijodkorlik asosida ish yuritishda faqatgina ob‘ektning o‘zi bilan cheklanmay, ya‘ni sub‘ekt (bola)ning ijodkorligi, moyilligi, extiyojiga qarab, ish yuritilsa, ijobiy natijalar beradi (ijodkorlikka bolalikdan o‘rgatish mumkin va zarur).

Umuman ulug‘ kashfiyot namoyondalari fikrlash algoritmini yaxshi o‘zlashtirganlar, chuqur, atroflicha bilimga ega bo‘lganlar. Ular asosan evristik metod va usullarni yaratganlar, shular asosida ijodkorlik namunalarini namoyon qilganlar. “Creato” lotincha so‘z bo‘lib, yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma‘noni bildiradi. Ijodkorlik va yaratuvchanlik metodlarini yaratishni, o‘rganishni kreativ pedagogika deyiladi.

Agar ta‘lim jarayoni o‘quvchi faolligiga asoslangan muammoli, dasturlangan loyihalar asosida jadallashtirilgan holda kechsa, u holda kreativ yo‘nalishga ega, o‘quvchilarning faolligi tufayli u yangilik, ijodkorlik sari yetaklaydi.

Ijodkorlik va madaniyatlilik o‘quv faoliyatida doimiy tizimli kechsa, u ijodkorlik sari boradi. Shuning uchun ham o‘quv jarayonidan tashqari vaqtda “texnik ijodkorlik asoslari” ilmiy izlanish yo‘nalishidagi to‘garaklar tashkil etilsa, o‘quvchining loyihalash ijodkorligi oshadi. Shuning uchun ham bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli va maqsadli yo‘naltirish, ularning kelgusida kasbiy mahoratli, ijodkor bo‘lib yetishishiga sabab bo‘ladi. Tarixan ta‘lim ikki madaniyat chegarasida rivojlangan, taraqqiy etgan. Birinchisi – gumanitar, badiiy yo‘nalishda bo‘lsa, ikkinchisi – ilmiy va texnik yo‘nalishdadir.

Shu sababli texnik ijodiy rivojlanish kontseptsiyasida texnika fanini insonparvarlashtirish va nazariy muhitda rivojlanishining asosi qilib olingan. Aniq

fanlarning rivojlanishini texnika taraqqiyoti va axborot informatsion texnologiyalar bilan chambarchas bog'lash yaxshi natijalar bermoqda.

Ta'lim bilan bog'liq har qanday faoliyat loyihalashtirish asosida kechsa: Dizayn bilan bog'lashda yaxshi natijalarga olib keladi. Shuning uchun kreativ pedagogika shu loyihalashtirishga asoslangan bo'ladi.

Hozir texnik jixatdan katta o'sish va o'zgarishlar davri. O'z navbatida ta'lim jarayoni oldiga yangi vazifalar qo'ymoqda, ta'lim oluvchi olgan bilimlarini o'zlashtirib, ko'paytirib borishdan tashqari, o'quv – biluv jarayonida qo'shimcha bilimlar olish orqali ijodiy yondashuvga moyilliklari ortib boradi.

- Ta'limni olib boruvchi – o'quv jarayonini olib boruvchi – o'quvchi o'quv jarayonining faol ishtirokchisi o'quv – biluv mas'uliyatini o'z bo'yniga oluvchi hamdir.

- Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, innovatsiyalar, ilg'or texnologiyalar, yangi o'quv ob'ektlari o'quvchining tafakkurini, abstrakt fikrlash, ijodiy fikrlashga olib keladi.

- O'quv jarayonini algoritmlash, loyihalash, modullashtirish o'quvchining o'quv jarayoniga bo'lgan shaxsiy mas'uliyatini oshiradi. Ularda motivatsiyaning kuchayishi orqali qo'shimcha ma'lumotlar olish asosida o'z bilimini boyitib borish extiyojini tug'diradi.

- O'quv jarayonini kreativ yo'naltirish uchun: o'quv jarayonida o'quv materialini berib borish, boshqa qo'shimcha materiallarni taklif etish va o'quvchini izlanishga, ijodkorlikka yo'naltiruvchi material asosida uni o'z extiyoji, xoxishi orqali yangilik sari yetaklash.

- O'quv jarayonini ham shunday o'zgartirish kerakki, unda o'quvchi o'quv materiallarining yaratuvchisiga aylanib, berilgan o'quv materiali o'sha yaratuvchilikka xizmat qilsin.

- O'quv materiallariga yangi qo'shimchalar kiritish orqali evristik strategiya, taktika, metod va usullar taklifi orqali o'quvchini ijodiy fikrlashga qiziqishini oshirish kerak.

Umuman inson faoliyatida yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash, har qanday muammoli vaziyatni o'z vaqtida hal etsa, o'quvchi uchun asta – sekin ko'nikma va malakaga aylana boradi.

3. “Evrastika”–grekcha so'z bo'lib, “heurist” so'zi “izlayman”, “topaman”, “ochdim” ma'nolarini beradi.

O'quvchilarning mustaqil, faol, ijodiy faoliyatini tashkil etishda evristik metodlar asosidagi ta'lim alohida o'rin tutadi. “Umuman evristik ta'lim juda uzoq antik zamonlardan beri qo'llanib kelinadi. Birinchi bora ta'lim jarayonida qo'llanilganda – evristik suhbatlar yo'naltirilgan, ketma – ket berilgan savollarga

javob jarayonida shakllangan, savollarga javob berishda javoblar o'quvchi tomonidan muammolar yechimiga qatnashish jarayonida rivojlantirilgan.

Pedagogikada o'quvchi fikrini rivojlantiruvchi, maqsadli, sermahsul ishlanmalar asosida qo'llanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustivor yonalishlari. Harakatlar strategiyasi.

2. "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlantirish yili" davlat dasturi.

3. Yo'ldashev J.S, Usmonov S. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish". T. "Fan va texnologiya", 2008.

4. Qurbonov Sh, Sayidhalilov E. "Talim sifatini boshqarish". T. "Turon-istiqbol", 2008.

5. Mavlonova R. Rahmonqulova N. Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya integratsiya. T. 2006.

PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISHDA DEMOGRAFIK OMILLARNING BOG'LIQLIGI

*D.Xabibulloyev – Samarqand viloyati PYMO'MM o'qituvchisi.
Tel.:998935694944. doniyorxabibulloyev@gmail.com*

Annotatsiya ushbu maqolada hozirgi kundagi bolalar qalbining me'mori, muhandisi bo'lgan hurmatli o'qituvchi va murabbiylar uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash yuzasidan so'z yuritiladi.

Аннотация в данной статье говорится о повышении квалификации и переподготовке уважаемых педагогов и тренеров, которые сегодня являются архитекторами и инженерами детских сердец.

Annotation this article talks about professional development and retraining for respected teachers and coaches who are the architects and engineers of children's hearts today.

Pedagog xodimlarning malakasini oshirish to'g'ridan-to'g'ri (ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitish) va bilvosita (ta'lim dasturlarisiz o'qitish) shakllari bo'yicha tashkil etiladi.

Pedagog xodimlarning malakasini oshirish quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

❖ asosiy ishdan bo'shagan holda;

- ❖ asosiy ishdan qisman bo'shagan holda (uyg'unlashtirilgan usul);
- ❖ asosiy ishdan bo'shamagan holda (masofaviy ta'lim);
- ❖ asosiy ishdan bo'shagan holda va asosiy ishdan qisman bo'shagan holda (uyg'unlashtirilgan usulda) malakani oshirish milliy markaz bazasida o'tkaziladi;

- ❖ asosiy ishdan qisman bo'shagan holda (uyg'unlashtirilgan usulda) malaka oshirish kursi umumiy davomiyligining 50 yoki 25 foizi — hududiy markazda auditoriya mashg'ulotlariga ajratiladi. Kursning qolgan qismi amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishini nazarda tutadi. Amaliy mashg'ulotlarni asosiy ish joyida o'tkazishga yo'l qo'yiladi;

- ❖ amaliy mashg'ulotlarning har bir o'zlashtirilgan moduli bo'yicha test sinovlari, referat topshirish, amaliyot bo'yicha hisobot va shu kabilar shaklidagi nazorat nazarda tutiladi;

- ❖ asosiy ishdan bo'shamagan holda o'qitishning masofaviy ta'lim shakli qo'llaniladi;

- ❖ pedagog xodimlarning malakasini oshirish davomiyligi uni tashkil etish shakllariga hamda pedagog xodimning kasbiy malaka darajasini va individual kasbiy ehtiyojini hisobga olgan holda buyurtmachi tomonidan belgilanadigan talablarga bog'liq holda aniqlanadi.

Malaka oshirishning to'g'ridan-to'g'ri shakllari uchun auditoriya mashg'ulotlarining va mustaqil ishlarning eng yuqori hajmi *haftasiga 36 soat* etib belgilanadi.

Davlatimiz rahbari o'qituvchilar malakasini oshirish va ularga munosib sharoit yaratish haqida so'z yuritar ekan, o'qituvchilarni ishga qabul qilish, ularning malakasini oshirish va toifa berish tizimi ham to'liq o'zgarishini qayd etdi.

Har yili maktablarda 8 ming o'qituvchi ishga qabul qilinadi, yangi maktablar hisobiga yana shuncha o'qituvchiga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Bundan buyon o'qituvchilikka qabul qilish tanlov asosida bo'ladi. Ilk bor qabul qilingan nomzodlar 1 yil o'qituvchi-stajyor bo'lib ishlaydi va yil yakuni bilan kasbiy sertifikat olishi lozim bo'ladi.

Kelgusida bu tizim barcha o'qituvchilar uchun bosqichma-bosqich joriy qilinadi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga Singapur va Birlashgan Arab Amirligi tajribasi asosida pedagog kadrlarga kasbiy sertifikat berish tartibini ishlab chiqish topshirildi.

O'qituvchilarning malakasi tabaqalashgan holda oshiriladi.

Ya'ni, malaka oshirishdan oldin o'qituvchining bilimi diagnostikadan o'tkaziladi va natijasiga ko'ra individual kasbiy rivojlanish yo'nalishlari belgilanadi.

Bunda muallimning bilim ko'rsatkichlari baholanadi va past natija olganlari bo'yicha o'zi o'qigan oliygohga reklamasiya (e'tiroz) yuboriladi.

Bu natijalar pedagogik oliygohlar faoliyatiga uchun ham baho bo‘ladi. Past natija ko‘rsatgan o‘qituvchilar an’anaviy usulda, yuqori natijaga erishganlari onlayn shaklda malaka oshiradi.

Viloyat hokimlariga 14 ta malaka oshirish markazini ta'mirlash va jihozlash bo‘yicha dastur qabul qilib, amaliy ishlarni boshlash topshirildi. Yil yakunigacha hududiy markazlar boshqaruviga xorijiy mutaxassislar olib kelinadi.

Muallimlarga malaka toifasini berish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda pedagogning bilimi dastlabki imtihonda baholanib, 70 foizdan ko‘p ball to‘plaganlar ikkinchi bosqichga o‘tadi.

Ikkinchi bosqichda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashi, o‘quvchilar bilan ishlash metodikasi va baholashdagi yondashuvlari tekshiriladi, bilim va mhorati natijalariga qarab, muallimga malaka toifasi beriladi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga yil yakuniga qadar yangi tajribani o‘qituvchilarning bilim darajasi past bo‘lgan 20 ta tumanda sinovdan o‘tkazishga topshiriq berildi.

Shuningdek, pedagogika yo‘nalishidagi oliygohlar alohida yondashuv asosida rivojlantiriladi.

Buning uchun Oliy ta'lim vazirligida pedagogik ta'limga mas'ul vazirning brinchi o‘rinbosari lavozimi kiritiladi.

Vazirlikda pedagogik ta'lim bo‘yicha alohida Kengash tuzilib, unga pedagogika oliygohlari rektorlari kiritiladi.

Toshkent va Chirchiqdagi pedagogika universitetlarida o‘qituvchilar Prezident maktabi dasturi asosida tayyorlanadi. Bu oliygohlar pedagogika yo‘nalishidagi institutlar uchun “tayanch oliygoh” bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://iibb.uz/oz/news/>
2. lex.uz
3. https://t.me/Press_Secretary_Uz/3347
4. https://t.me/Press_Secretary_Uz/3345

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI DIREKTORLARINING MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA BOSHQARUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MODELLARI

Bekmurodova Orifat Maxmudovna – Texnologiya fani o‘qituvchisi. E-mail: orifat.m@gmail.com, tel: (+99897) 735-10-21

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishi umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining malakasini oshirish o'z shaxsiy va professional ehtiyojlarini tushunishga, hayot davomida shaxsiy va professional o'sishning traektoriyasini qurish orqali ularni hal qilish mexanizmlarini izlash zarurligini tasdiqlashga qaratilgan. Malaka oshirish jarayonida ta'limning samaradorligi tinglovchilarni faol bilim va refleksiv faoliyatga jalb qilishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: malaka oshirish, kompetensiya, model, innovatsiya, adaptiv daraja, adekvatlik.

Annotation. This research aims to improve the qualifications of general secondary schools to improve their personal and professional qualifications, life helps to improve the need to search for coping mechanisms by building a trajectory of personal and professional growth. Competence supervision involves engaging learning enhancers in active learning and reflexive activities.

Key words: training, competence, model, innovation, adaptive level, adequacy.

Аннотация. Данное исследование направлено на повышение квалификации общеобразовательных школ для повышения их личностной и профессиональной квалификации, жизнь помогает улучшить потребность в поиске копинг-механизмов, выстраивая траекторию личностного и профессионального роста. Надзор за компетенциями включает в себя привлечение усилителей обучения к активному обучению и рефлексивной деятельности.

Ключевые слова: обучение, компетентность, модель, инновация, адаптивный уровень, адекватность

Umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining malakasini oshirish o'z shaxsiy va professional ehtiyojlarini tushunishga; o'z imkoniyatlarini va undan kelib chiqadigan muammolarni muvozanatli baholash; hayot davomida shaxsiy va professional o'sishning traektoriyasini qurish orqali ularni hal qilish mexanizmlarini izlash zarurligini tasdiqlashga qaratilgan. Malaka oshirish jarayonida ta'limning samaradorligi tinglovchilarni faol bilim va refleksiv faoliyatga jalb qilishni o'z ichiga oladi.

Kasbiy faoliyat va o'z kasbiy rivojlanishining subyektlari sifatida, agar ular bu jarayonni tashkil etish, ularni tashvishga solayotgan masalalar va muammolarni muhokama qilish, o'z bilim va tajribalarini boshqalar bilan baham ko'rish, o'z hukmlarini ifoda etish imkoniga ega bo'lsalar, tinglovchilar ta'lim jarayoniga ko'proq tayyorlanadilar.

Malaka oshirish jarayonida qo'llaniladigan turli usullar, shakllar, vositalar va shart-sharoitlarning kombinatsiyasi umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining

boshqaruvchilik kompetensiyasini rivojlantirishni ta'minlaydi. Shu bois, umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruvchilik kompetensiyasi (uslubiy va maxsus) rivojlanishining yetarli darajada emasligini bartaraf etishdagi muhim omil – bu malaka oshirishdir. Bularning barchasi psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, malaka oshirish jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruvchilik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Avvalo, ta'limda qanday modellashtirish usullarini qo'llash kerakligini bilib olishingiz zarur.

Pedagogikada modellashtirish usuli murakkab shakllanish yo'lini bosib o'tdi. B.P.Bitinas "Biz hali ham pedagogik hodisalarning asosiy jihatlari, xususiyatlari va aloqalari haqida juda kam narsa bilamizki, haqiqiy pedagogik jarayonni modellashtirish faqat taxmin sifatida bo'lishi mumkin" deganiga qaramay, modellashtirish usuli keng ma'noda pedagogik tadqiqotlarda tizimli yondashuvni qo'llash imkoniyati asoslangan birinchi ishlardan oq pedagogikaga kirib keldi.

O'tgan asrning o'rtalarida V.A.Shtof modellashtirish muammolari bo'yicha bir qator asosiy ishlarni nashr etdi. Uning ta'kidlashicha, "model - bu shunday aqliy tasvirlangan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizimki, bu obyektning o'rganish ushbu obyekt haqida yangi ma'lumotlarni taqdim etadigan tarzda aks ettiriladi"

A.N.Dahin "model" tushunchasining mazmunini sxema, jismoniy konstruksiyalar, ramziy shakllar yoki formulalar ko'rinishida sun'iy ravishda yaratilgan obyekt sifatida belgilaydi, ular o'rganilayotgan obyektga (yoki hodisaga) o'xshash bo'lib, oddiyroq va qo'polroq shaklda ushbu obyektning tuzilishi, xususiyatlari, o'zaro bog'liqligi va elementlari o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi va takrorlaydi.

Pedagogik modellashtirish nazariyasi sohasidagi tadqiqotlarni sarhisob qilsak, shuni aytishimiz mumkinki, pedagogik modelning eng muhim vazifasi uning pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlarini va uning tuzilishini aniqlash, "o'sish nuqtalarini" aniqlash qobiliyatidir, bu esa o'z navbatida aniqroq prognozlash imkonini beradi.

Pedagogikada ta'lim mazmuni ham, uning ishtirokchilari faoliyati ham modellashtiriladi. Pedagogik jarayon, asosan, o'quvchilarning har qanday sifatleri, xususiyatlari yoki xarakteristikalarini shakllantirish yoki rivojlantirishga qaratilgan o'qituvchining ishini o'z ichiga oladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, modellashtirish ilmiy bilish usuli sifatida ko'plab fanlarda, jumladan, pedagogikada ham qo'llaniladi. Pedagogik modellashtirish – bu haqiqiy pedagogik jarayon yoki hodisani aks ettiruvchi konseptual sxemani qurishdir.

Tadqiqot usuli sifatida modellashtirish pedagogik obyektning eng katta aniqlik va ravshanlik bilan tahlil qilish va tavsiflash imkonini beradi. Bizning holatlarimizda modellashtirishning o'ziga xos obyektini umumiy o'rta ta'lim maktablari

rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishdir. Umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruvchilik kompetensiyasini rivojlantirish modelini yaratishning uslubiy asosini quyidagi yondashuvlar tashkil etadi:

1. Tizimli yondashuv, unga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablarining rahbarlari malaka oshirish jarayonida boshqaruvchilik kompetensiyasini rivojlantirishni tizim sifatida ko'rib chiqish muhim, uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: maqsadlar; mazmuni; usullar, shakllar, vositalar; pedagogik xodimlar; tizimning normal ishlashini ta'minlaydigan tashkiliy sharoitlar (o'quv xonalari, o'quv laboratoriyalari va boshqalar).

2. Malaka oshirish kurslari tinglovchilarida boshqaruv sohasida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashga faol munosabatni shakllantirishga yordam beruvchi faoliyat yondashuvi.

3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari - malaka oshirish kurslari tinglovchilarining asosiy (shu jumladan boshqaruvchilik) kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradigan kompetentlikka asoslangan yondashuv.

4. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, unga ko'ra shaxsning qadriyat-emotsional sohasini rivojlantirish, uning dunyoga, faoliyatga munosabati ustuvor hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruvchilik kompetensiyasini rivojlantirishning belgilangan darajalari belgilangan kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan malaka oshirish natijalarini ilmiy nuqta nazardan baholash imkonini beradi.

Reproduktiv daraja – professional boshqaruv qadriyatlariga ongsiz munosabat; boshqaruv faoliyati uchun motivlarning shakllanmaganligi; menejment va boshqaruv sohasidagi professional bilimlarning pastligi; kasbiy bilim olishga qiziqish (o'ziga yo'naltirilganlik); boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishning past darajasi; ushbu bilim va ko'nikmalarni o'z kasbiy faoliyatida safarbar qilish qobiliyati va tayyorligining zaif namoyon bo'lishi; boshqaruv faoliyatida pedagogik ish tajribasini proyeksiyalash; muloqot qobiliyatlarining past darajasi; o'z-o'zini baholash va introspektsiya qobiliyatlari yomon ifodalangan; past kasbiy faollik va mas'uliyat.

Adaptiv daraja – kasbiy qadriyatlarni anglashning o'rtacha darajasi; kamdan-kam hollarda kasbiy faoliyatga ijobiy munosabatda bo'lish; boshqaruv faoliyati uchun qisman shakllangan motivlar; boshqaruv bilimlari va ko'nikmalarining yaxshi shakllangan tizimi, muloqot qobiliyatlarining o'rtacha darajasi; kommunikativ nazoratning yetarli emasligi, muloqotda o'zini tuta olmaslik; o'z-o'zini baholash o'rtacha kasbiy faoliyat, o'z kasbiy faoliyatida mas'uliyatni anglashning o'rtacha darajasi.

Innovatsion daraja – shaxsning aniq kasbiy va boshqaruv yo‘nalishi; kasbiy qadriyatlarga ongli munosabat; kasbiy faoliyat motivlari to‘liq shakllangan; kasbiy faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj maksimal darajada namoyon bo‘ladi; kasbiy bilimlar hajmi yuqori; nostandart vaziyatlarda bilimlardan faol foydalanish; boshqaruv muammolarini hal qilishning original usullarini qo‘llash; boshqaruv tushunchalari bilan faol ishlash; yuqori kognitiv salohiyat; yuqori darajada shakllangan, kasbiy mahorat; yuqori darajadagi muloqot qobiliyatlari; o‘z-o‘zini baholash va introspeksiya ko‘nikmalarida ifodalanadi; boshqaruv faoliyatida faol ishtirok etish; yuqori darajada rivojlangan kasbiy fazilatlar (kasbiy faoliyat, mas’uliyat, mustaqillik).

Shunday qilib, olingan ma’lumotlarni tahlil qilish umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlarining boshqaruvchilik kompetensiyasini rivojlantirish modelini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi, bu esa o‘zaro bog‘liq va ketma-ket bosqichlardan iborat: diagnostika, tashkiliy, ishlab chiqish va samarali aks ettirish.

“Umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlarining boshqaruvchilik kompetensiyasini rivojlantirish” umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlari uchun qo‘shimcha ta’lim (malaka oshirish) dasturi tugatilgandan so‘ng kurs ishtirokchilarida maxsus va uslubiy boshqaruvchilik kompetensiyalari rivojlangan bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. (2017. 7-fevral) Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-3107036>.
2. Adashboev Sh.M. Pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish mexanizmlari / Monografiya. – T.: 2018.
3. Joyce B., Showers B., Improving Inservice Training: The Messages of Research // Educational Leadership. February, 1980. Vol. 37. P.
4. Санкт-Петербургская Академия постдипломного педагогического образования. <https://spbappo.ru/> (электронный ресурс).
5. Государственное автономное образовательное учреждение дополнительного профессионального образования Ямало-Ненецкого автономного округа «Региональный институт развития образования. <http://it.riro-yanao.ru/theme/itao24/frontpage.php> (электронный ресурс).

FOYDALANUVCHILAR AXBOROT EHTIYOJLARINI ANIQLASH USULLARIDA DEMOGRAFIK HOLATNING ZARURIYATI

*Jo'rayeva Dildora Abdullayevna – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali, magistranti.
E-mail: jdildora19@mail.com. Tel: (+99894)079-08-90*

Annotatsiya: Ushbu maqolada foydalanuvchilar axborot ehtiyojlarini aniqlash usullarida demografik holatning zaruriyati, foydalanuvchilar axborot ehtiyojlarini aniqlashda demografik ma'lumot sabablari, foydalanuvchilar axborot ehtiyojlarini aniqlash usullari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mijoz segmentlari, Google Analytics, shaxsiylik, kommunikatsiya, tarkibiy analiz, marketing.

Аннотация: В данной статье упоминается необходимость демографической ситуации в методах определения информационных потребностей пользователей, причины использования демографической информации в определении информационных потребностей пользователей, а также методы определения информационных потребностей пользователей.

Ключевые слова: сегменты клиентов, Google Analytics, личность, коммуникация, структурный анализ, маркетинг.

Abstract: This article mentions the need for a demographic situation in methods for determining the information needs of users, the reasons for using demographic information in determining the information needs of users, as well as methods for determining the information needs of users.

Keywords: customer segments, Google Analytics, personality, communication, structural analysis, marketing.

Foydalanuvchilar axborot ehtiyojlarini aniqlash usullarida demografiyaning ahamiyati. Foydalanuvchilar axborot ehtiyojlarini aniqlashda demografiyaning ahamiyati katta. Demografiya, jamiyatni yosh, jins, ta'lim, manzil, insoniyligi va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha to'plangan statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va o'rganish bilan bog'liqdir. Foydalanuvchilar axborot ehtiyojlarini aniqlashda demografik ma'lumotlar quyidagi sabablar bilan ahamiyatga ega:

1. Mijoz segmentlari: Demografik ma'lumotlar, mijozlarni jins, yosh, o'qish darajasi, manzil va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha guruhlariga ajratish imkonini beradi. Bu guruhlar tashkilotlar uchun maxsus xizmatlarni o'zlashtirish, marketing strategiyalarini rejalashtirish va mijozlar uchun ma'lumotlar tarqatishda yordam beradi.

2. Shaxsiylikni tushuntirish: Demografik ma'lumotlar, foydalanuvchilarning shaxsiyliklarini tushuntirishga yordam beradi. Mijozlar yosh,

jins, ta'lim va insoniyligi bo'yicha o'zlarini qanday tushunishlarini aniqlash imkonini beradi.

3. Til va kommunikatsiya usullari: Foydalanuvchilarning demografik xususiyatlari tilni va kommunikatsiya usullarini belgilashda ahamiyatga ega bo'ladi. Mijozlar qaysi tilni yaxshi tushunishadi yoki qanday kommunikatsiya kanalini afzal ko'radi, bu ma'lumotlar sayt yoki ilova interfeysini yaxshi tashkil etishda yordam beradi.

4. Tartibga solish va tarkibni tuzish: Demografik ma'lumotlar, foydalanuvchilar tarkibini tuzish va tartibga solishda yordam beradi. Sayt yoki ilovada turli bo'limlarni qanday tartiblash va qaysi xususiyatlarni qanday joylashtirish zarur bo'lganini tushuntiradi.

5. Maqsadlarni tushuntirish: Demografik ma'lumotlar, foydalanuvchilarning mahsulot yoki xizmatdan nima uchun foydalanishlari, ularning maqsadlarini aniqlashda yordam beradi. Bu, tashkilotlar uchun xizmatlar va mahsulotlarni yangilash va takomillashtirish uchun qanday yo'l harakat qilishlarini aniqlashda yordam beradi.

6. Tarkibiy analiz: Demografik ma'lumotlar, sayt yoki ilovaning tarkibini qanday tahlil qilish kerakligini tushuntirishda yordam beradi. Bu, foydalanuvchilarni ko'proq qayerdan kelganligi, qaysi bo'limlarni ko'rganligi va qanday funktsiyalardan foydalanishligini o'rganishga yordam beradi.

7. Marketing va reklama: Demografik ma'lumotlar, marketing strategiyalarini va reklama kampaniyalarini shakllantirishda ahamiyatga ega. Foydalanuvchilarni talab va istaklari bo'yicha ma'lumotlar, tashkilotlarning ularni ma'lum etuvchi maxsus xizmatlarni takomillashtirishga imkon beradi.

8. Rivojlanayotgan shaxslar uchun mahsulotlar: Demografik ma'lumotlar, yangi ta'lim olayotgan foydalanuvchilar uchun ma'lumotlar tarqatish va ularning ehtiyojlari va talablari asosida maxsus ta'lim usullarini takomillashtirishda yordam beradi.

Demografik ma'lumotlar, foydalanuvchilar axborot ehtiyojlarini aniqlashda va sayt yoki ilova interfeysini ularning talablari va istaklari asosida yaxshi tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Bu ma'lumotlar, tashkilotlar uchun mijozlar bilan samarali aloqalar o'rnatishda va axborot resurslarini maqsadga moslashtirish mumkin.

Foydalanuvchilar axborot ehtiyojlarini aniqlash usullari. Foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlarini aniqlash, ularning kerakliliklari va talablari bilan bog'liqdir. Bu aniqlash usullari, foydalanuvchilarning platform, mahsulot yoki xizmatlarni qanday foydalanishlari, o'z ehtiyojlari va maqsadlari haqida qancha tushunarli malumotlarni olish, o'rganish, va tahlil qilish bilan bog'liq.

Quyidagi usullar foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlari va talablari haqida tushuntiradigan yollardir:

1. Anketalar va so‘rovnomalar: Foydalanuvchilarga anketa yoki so‘rovnoma yuborish orqali ularning talablari, preferanslari va maqsadlari haqida to‘liqroq ma‘lumotlar olish mumkin.

2. Foydalanuvchi tahlillari: Foydalanuvchilarning sayt, ilova yoki mahsulotni qanday foydalanishlari haqida statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish. Bu, ularning qaysi bo‘limlarda qancha vaqt o‘tkazishlari, qanday ko‘rsatuvlar yoki funksiyalardan foydalanishlari haqida tasavvur beradi.

3. Fikr almashish va tashkilotlar bilan muloqot: Foydalanuvchilar bilan boshqa o‘qituvchilar, ish jozibadorlari yoki tashkilotlar orqali muloqot qilish va ularning fikrlarini eshitish. Bu, ularning talablari va ehtiyojlari haqida to‘liq ma‘lumot olish imkonini beradi.

4. Foydalanuvchi interfeysi va asosiy funksiyalari: Foydalanuvchilarning sayt yoki ilovadagi asosiy funksiyalardan qanday foydalanishlari va ularning interfeysini qanday baholashlari haqida ma‘lumot olish.

5. Mijozlar bilan ishbirlik qilish: Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda mijozlar bilan ishbirlik qilish va ularning fikrlarini eshitish, ularning axborot ehtiyojlari va talablari haqida qanday ma‘lumotlar olish imkonini beradi.

6. Google Analytics va boshqa tahlil vositalari: Veb-sayt yoki ilovadagi Google Analytics kabi tahlil vositalari yordamida foydalanuvchilarning harakatlari va davlatlari haqida statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish. Bu ma‘lumotlar sayt yoki ilova interfeysini yaxshi tahlil qilish uchun foydali bo‘ladi.

7. Fikr qoldirish imkoniyatlari: Foydalanuvchilarga platformda yoki mahsulotda fikr qoldirish uchun imkoniyat berilishi. Ular o‘z fikrlarini, ehtiyojlari va talablari haqida ma‘lumotlarni o‘rtacha tarzda taqdim etishadi.

8. Reytinglar va sharhlar: Foydalanuvchilar platformda tarkibni baho berish, sharh qoldirish va ma‘lumotlarini boshqalar bilan ulashish orqali o‘z ehtiyojlari va talablari haqida ma‘lumotlarni taqdim etishadi.

9. Monitoring va murijatlar: Foydalanuvchilarning platform yoki mahsulotdan foydalanish jarayonini monitoring qilish va ularning murijatlari bilan tanishish yordamida ularning ehtiyojlari va talablari haqida ma‘lumot olish.

Barcha bu usullar, foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlari va talablari haqida tushuntiradigan qanday qilib foydalanishlarini aniqlashda yordam beradi. Bu ma‘lumotlar, platform, mahsulot yoki xizmatni foydalanuvchilar uchun yaxshi tashkil etish va o‘zlashtirishga imkon beradi.

Foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlarini sun'iy intellekt (SI) yordamida aniqlashning bir qancha usullari mavjud. Bu usullar, ma‘lumotlarni tahlil qilish, paternlarni aniqlash, foydalanuvchilar bilan interaktsiyalar, va boshqa

ma'lumotlarni olish imkoniyatlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Quyidagi usullar sun'iy intellekt asosida foydalanuvchilar axborot ehtiyojlarini aniqlashda yordam beradi:

1. Verbal yoki yozma ko'rsatmalar tahlili: Sun'iy intellekt, foydalanuvchilar tomonidan qoldirilgan verbal yoki yozma ko'rsatmalarni tahlil qilish yordamida ularning talablari va istaklarini tushunadi. Misol uchun, foydalanuvchi saytda "men saytga qanday ma'lumot qo'shishim mumkin?" deb so'radiganda, SI tahlil qilib, foydalanuvchi tomonidan talab qilingan ma'lumotni qo'shish usulini ta'kidlaydi.

2. Sharh va murojatlarni tahlil qilish: Sun'iy intellekt, foydalanuvchilar sharh va murojatlarni tahlil qilish yordamida ularning fikrlari va izohlaridan ma'lumot olish imkonini beradi. Foydalanuvchilar mahsulot yoki xizmat haqida qanday fikr bildirganlarini va ularning ehtiyojlari haqida nima deb fikrlashganlarini aniqlash uchun bu usuldan foydalaniladi.

3. O'quvchi harakatlari va ko'rsatuvlari tahlili: Foydalanuvchi sayt yoki ilovada qanday harakat qilishini, qaysi bo'limlarni ko'rishni yoki funktsiyalardan qanday foydalanishini aniqlash uchun SI foydalanuvchi harakatlari va ko'rsatuvlari haqida ma'lumotlarni tahlil qilishi mumkin.

4. Savollar va javoblar tahlili: Sun'iy intellekt foydalanuvchilar tomonidan berilgan savollar va ularning javoblari haqida tahlil qilish yordamida ularning ehtiyojlari va talablari haqida ma'lumot olish imkonini beradi. SI, foydalanuvchilar so'ragan savollar bilan aloqador ma'lumotlarni topib chiqishda yordam beradi.

5. Davlat va ko'rishlar tahlili: Sun'iy intellekt foydalanuvchilar sayt yoki ilovada qaysi bo'limlarda qancha vaqt o'tkazishlarini, qaysi ko'rishlar va funktsiyalardan foydalanishlarini tahlil qilish yordamida ularning talablari va axborot ehtiyojlari haqida ma'lumot olish imkonini beradi.

Bu usullar sun'iy intellektni foydalanuvchilar axborot ehtiyojlarini aniqlash uchun qo'llashda yordam beradi. Foydalanuvchilarning ma'lumotlari va davlatlari asosida sun'iy intellekt o'zlashtirilganligi uchun, bular boshqa metodlar bilan bir xil ravishda amal qiladi, ammo avtomatlashtirilgan tarzda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shapira B, Ricci F, Kantor PB, Rokach L (2011) Recommender systems handbook. Springer, New York
2. Bobadilla J, Ortega F, Hernando A, Gutiérrez A (2013) Recommender systems survey. Knowl Based Syst 46:109–132